

TOSHKENT DAVLAT
SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

TURKOLOGIYA TURKOLOGY

XALQARO ILMIY JURNAL

ISSN 2181-2101

2025

3-4

ISSN 2181 – 2100



TURKOLOGIYA TURKOLOGY



**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
ILMIY JURNALI**

**НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО
УНИВЕРСИТЕТА ВОСТОКОВЕДЕНИЯ**

**SCIENTIFIC JOURNAL OF THE TASHKENT STATE UNIVERSITY
OF ORIENTAL STUDIES**

3-4

2025

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi ro'yxatidan o'tgan
(№ 1129, 11.11.2020-y.) ISSN 2181 – 2101

Bosh muharrir – Rixsiyeva Gulchehra Shovkatovna
filologiya fanlari nomzodi, professor

TAHRIR HAY'ATI

Q. Omonov	<i>filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)</i>
P. Kenjayeva	<i>filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul kotib)</i>
B. To'xliyev	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
Q. Sodiqov	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
Sh. Usmonova	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
H. Dadaboyev	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
N. Rahmonov	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
B. Karimov	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
X. Islamjanova	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
X. Hamidov	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
A. Alimbekov	<i>filologiya fanlari nomzodi, professor</i>
Dj. Shabanov	<i>filologiya fanlari nomzodi, dotsent</i>
Sh. Sodiqova	<i>filologiya fanlari nomzodi, dotsent</i>
M. Kayumova	<i>filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent</i>
N. Abdullayev	<i>siyosiy fanlar doktori, professor</i>
M. Is'hoqov	<i>tarix fanlari doktori, professor</i>
D. Sayfullayev	<i>tarix fanlari doktori, professor</i>
X. Fayziyev	<i>tarix fanlari nomzodi, dotsent</i>
Z. Alimov	<i>tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)</i>
N. Xolmatov	<i>iqtisod fanlari nomzodi, dotsent</i>
Z. Qodirova	<i>iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent</i>
M. Vohidova	<i>iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)</i>
R. Bahodirov	<i>falsafa fanlari doktori, professor</i>
A. Shonazarova	<i>AQSHning Kolumbiya universiteti professori</i>
O. Mert	<i>Turkiyaning Anqara universiteti professori</i>
H. Baydemir	<i>Turkiyaning Otaturk universiteti professori</i>
V. S. Yelok	<i>Turkiyaning Anqara Hoji Bayram Vali universiteti dotsenti</i>
N. Telitsin	<i>SPbDU Turkologiya kafedrasi mudiri, professor</i>

Nashrga tayyorlovchilar:

J. Ismoilov, D. Sodiqova, H. Sulaymonova

Jurnal doktorlik dissertatsiyalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi
lozim bo'lgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga O'zbekiston Respublikasi Oliy
Attestatsiya Komissiyasi tomonidan kiritilgan.

e-mail: nashriyot@tsuos.uz
web-site: www.tsuos.uz

MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS

“ALP ER TO‘NGA AVLODLARI – QORAXONIYLAR: TURKIY DUNYO VA ISLOM OLAMI QORAXONIYLAR DAVRIDA” MAVZUIDAGI XALQARO ANJUMAN

Rixsiyeva G. Qoraxoniylar davri merosi – turkshunoslar uchun bitmas-tuganmas manba	4
Azimov M. Qoraxoniylar davri - turkiy davlatchilik tarixini o‘rganishda ustuvor yo‘nalish.....	6
Alp Er To‘nga (Afrosiyob) avlodlari Qoraxoniylar: Turkiy dunyo va Islom olami Qoraxoniylar davrida” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumanidan fotolavhalar	6
To‘xliyev B. Qoraxoniylar davri ilm-fani Yusuf Xos Hojib talqinida.....	10
Sodiqov Q. Qoraxoniylar davri asarlarida ishlatilgan tilshunoslik atamaları	20
Rahmonov N. Qadimgi turkiy adabiy manbalari uyg‘unligiga oid kuzatuvlar...39	
Dadaboyev H. Qoraxoniylar davlat boshqaruvi tizimining ijtimoiy-siyosiy terminologiyada aks etishi	47
Omonov Q. “Qutadg‘u bilig” qoraxoniylar davlatining bosh nizomi sifatida.....	58
Ekber N. Necef Dünya tarihi açısından karahanlılar`in önemi	63
Boboyorov G‘. Qoraxoniylar tarixi bo‘yicha yangi ma’lumotlar: dod-bek bitigi, “nasabnoma”lar	72
Abdushukurov B. “Devonu lug‘otit turk” va zamonaviy turkiy tillar	84
Tuychibayev A. Qoraxoniylarni yoritishda fatvo asarlarining ahamiyati: Ahmad ibn Muso Keshshiyning “Majmu’ al-havodis”i misolida	96
Tuba Tombuloğlu, Djumaniyazova F. Karahanli siyasi düşüncesinde “kara” kavraminin anlam katmanları	105
Vaxidov A. Qoraxoniylar davrida markaziy osiyoda tasavvuf an’analari va terminlarining shakllanishi va rivoji	113
Kasimova S. “Tazkirayi Bug‘raxon” manbasida qoraxoniylar sulolasi va ideologik axborot: Mullo Xoji qo‘lyozmasi (№1818/II) asosida.....	123
Xatamova M. Qoraxoniylar sulolasi merosi kimniki?.....	131
Zokirov B. “Devonu lug‘otit turk” Markaziy Osiyodagi turkiy qabilalar etnogeografiyasini o‘rganishda manba sifatida	143
To‘laganova Sh. “Devonu lug‘ati-t-turk”dagi ayrim frazeologik birliklarning konseptual tadqiqi	153
“Alp Er To‘nga (Afrosiyob) avlodlari Qoraxoniylar: Turkiy dunyo va Islom olami Qoraxoniylar davrida” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman rezolyutsiyasi.....	164

**“ALP ER TO‘NGA AVLODLARI – QORAXONIYLAR: TURKIY DUNYO
VA ISLOM OLAMI QORAXONIYLAR DAVRIDA” MAVZUIDAGI
XALQARO ANJUMAN**

**QORAXONIYLAR DAVRI MEROSI – TURKSHUNOSLAR
UCHUN BITMAS-TUGANMAS MANBA**

GULCHEHRA RIXSIYEVA

*Professor, filologiya fanlari nomzodi,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti rektori*



Bugungi turkiy dunyo va turkiy ellarning zamonaviy qiyofasini topishida, ularning tarixiy davlatchiligi taraqqiyotida Qoraxoniylar sulolasi alohida o‘rinda turadi. Bu davlat hukmronligi Turon yerlarida qariyb 300 yilga yaqin davom etdi.

Ularning hukmronligi mobaynida ijtimoiy hayot, madaniyat, iqtisod, davlat boshqaruvi, mafkura, din, xalqaro munosabatlar, me‘morchilik, shaharsozlik, ilm-fan va ta‘lim taraqqiy etdi. Hozirgi turkiy tillar lisoniy manzarasining zamonaviy qiyofasi aynan ana shu davrda namoyon bo‘ldi. Bu davr turkiy tillar rivojida yuksalish nuqtasi bo‘lib xizmat qildi. Qoraxoniylar davrida amalda bo‘lgan “xoqoniya turkchasi” adabiy tili turkiy xalqlar uchun birlashtiruvchi, madaniyatlararo muloqot tili vazifasini o‘tab berdi.

Shu nuqtayi nazardan, qoraxoniylar davri barcha turkiy davlatlarning turkshunos mutaxassislari uchun umumiy tarix, mushtarak yozma meros, turkiy-islom dunyoqarashini o'rganish borasida bitmas-tuganmas, adog'siz manba bo'lib xizmat qiladi.

Turkiy davlatlar tarixida nihoyatda muhim ahamiyat kasb etgan ana shu davrni chuqur tadqiq etish va bu boradagi kelajak ishlarni muhokama qilib olish maqsadida 2025- yil 6- oktabr kuni Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Turkiy davlatlar tashkiloti, Toshkent xalqaro universiteti hamda O'zbekiston milliy media birlashmasi bilan hamkorlikda "Alp Er To'nga avlodlari – Qoraxoniylar: Turkiy dunyo va Islom olami Qoraxoniylar davrida" mavusidagi xalqaro anjuman bo'lib o'tdi.

Anjuman doirasida qoraxoniylar davlatining siyosiy va ma'muriy tuzilmasi, uning boshqa davlatlar bilan aloqalari, bu davridagi turkiy yozma yodgorliklar tili va uning o'ziga xos xususiyatlari, Mahmud Koshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy kabi mutafakkirlarning ilmiy-ma'naviy merosi, yodgorliklar, qo'lyozmalar va arxeologik topilmalarni o'rganishning yangi usullari, qoraxoniylar davri mafkurasi, diniy bag'rikenglik singari masalalar muhokama qilindi.

Anjuman ishida Turkiy davlatlar tashkiloti (TDT) bosh kotibi Kubanichbek Omuraliyev, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri Qo'ng'iro'tboy Sharipov, TURKSOY bosh kotibi Sulton Rayev, Turkiy akademiya prezidenti Shahin Mustafayev singari martabali mehmonlar qatnashib, turkiy davlatchilik tarixining teran ildizlarini chuqurroq anglash va ilmiy asosda to'laqonli o'rganish bugungi turkologiyaning ehtiyoji hamda ilmiy zarurati ekanligini qayd etishdi.

Ilmiy yig'inda qoraxoniylar davri tarixi, tili, adabiyoti, davlat boshqaruvi, siyosati, mafkurasi bo'yicha 100 ga yaqin yurtimiz va xorijlik yetakchi turkshunoslar o'z ilmiy ma'ruzalari bilan qatnashdi.

Ular qoraxoniylar davri tarixi, davlatchiligi va boshqaruvi, qoraxoniylar davrida ilm-fan, madaniyat, qoraxoniylar davrida til va adabiyot, turkiy islom madaniyatining yuzaga kelishida qoraxoniylarning o'rni hamda Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarini o'rganishning dolzarb masalalariga bag'ishlangan sho'ba majlislarida so'nggi yillarda qo'lga kiritgan yangi ilmiy natijalari bilan o'rtoqlashdilar.

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Turkologiya jurnalining ushbu maxsus soni "Alp Er To'nga avlodlari – Qoraxoniylar: Turkiy dunyo va Islom olami Qoraxoniylar davrida" mavusidagi xalqaro anjumanga bag'ishlanmoqda. Unda xalqaro anjumanda tinglangan eng sara ma'ruzalar, muhim ilmiy natijalar jamlandi.

Umid qilamanki, jurnalning ushbu maxsus soni qoraxoniylar merosini o'rganish borasida turkshunoslikda muhim tadqiqot sifatida o'rin oladi hamda turkiy ellar tarixini o'rganuvchi yangi avlod tadqiqotchilarini tayyorlash yo'nalishida muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

QORAXONIYLAR DAVRI – TURKIY DAVLATCHILIK TARIXINI O‘RGANISHDA USTUVOR YO‘NALISH

MIRVOHID AZIMOV

Turkiy davlatlar tashkiloti Bosh kotibi o‘rinbosari



2025- yil 7- oktabr kuni Turkiy davlatlar tashkiloti davlat rahbarlari kengashining Gabala shahrida o‘tgan yig‘ilishida yurtboshimiz 2025-2026- yillarda mamlakatimiz 100 dan ortiq ta’lim muassasalarini birlashtirgan Turkiy universitetlar ittifoqiga raislik qilishi hamda O‘zbekiston raislik davrida "Turkiy ilm-fan va innovatsiyalar kunlari"ni o‘tkazish yuzasidan takliflarini berdilar.

Ana shu tashabbusning amaliy ifodasi sifatida 16- oktabr kuni Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Turkiy davlatlar tashkiloti, Toshkent xalqaro universiteti hamda O‘zbekiston milliy media birlashmasi bilan hamkorlikda “Alp Er To‘nga avlodlari – Qoraxoniylar: Turkiy dunyo va Islom olami Qoraxoniylar davrida” mavusidagi xalqaro anjuman bo‘lib o‘tdi.

Ayniqsa, anjuman ishida TDT bosh kotibi Kubanichbek Omuraliyevning ishtirok etishi va turkiy davlatchilik tarixining teran ildizlarini chuqurroq anglash, ilmiy asosda to‘laqonli o‘rganish bugungi turkologiyaning ehtiyoji hamda ilmiy zarurati ekanligini qayd etgani alohida e’tiborga sazovor.

Ilmiy yig'inda qoraxoniylar davri tarixi, tili, adabiyoti, davlat boshqaruvi, siyosati, mafkurasi bo'yicha mamlakatimiz va chet ellik yetakchi bilim kishilari - turkshunoslar o'z chiqishlari bilan qatnashdi.

Qoraxoniylar davlati o'zlarining tarixini ulug' xoqon Alp Er To'nga bilan bog'laganlar. Ular Alp Er To'nga avlodi ekanligini ko'zda tutib, o'zlarini "Oli Afrosiyob (Alp Er To'nga oilasi)" deb ataganlar. Ana shuni ko'zda tutib, anjuman doirasida qoraxoniylar davri tarixi va madaniy merosni ommalashtirish orqali turkiy davlatlardan sayyohlarni jalb qilish hamda u bilan bog'liq maskanlarni "Tabarruk ziyorat" loyihasiga qo'shish maqsadida "Tabarruk ziyorat loyihasini rivojlantirish va Alp Er To'nga" mavzusida davra suhbatlari ham tashkil etildi. Unda turizm sohasi vakillari ishtirok etdi.

Anjuman maqsadlaridan kelib chiqib yakunda quyidagi vazifalar ustuvor etib belgilandi:

Qoraxoniylar davri umumiy tarix, mushtarak yozma meros, turkiy davlatchilik o'tmishini tadqiq etish yo'nalishida TDTga kirgan mamlakatlarning turkshunoslari uchun ustuvor tadqiqot mavzulari sifatida belgilandi.

Alp Er To'nga (Afrosiyob) avlodlari Qoraxoniylar: Turkiy dunyo va Islom olami Qoraxoniylar davrida" mavzuisidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumanning turkiy o'zlikni shakllantirishdagi ahamiyatidan kelib chiqib har ikki yilda bir marotaba an'anaviy ravishda o'tkazib borish kelishib olindi.

Qoraxoniylar davri tarixi, davlatchiligi, boshqaruvi, ilm-fani, madaniyati, til va adabiyoti, yozma yodgorliklarini tadqiq etish bo'yicha ustuvor yo'nalishlardan kelib chiqib hamkorlikda ilmiy loyihalarni amalga oshirish bo'yicha aniq takliflar ishlab chiqish bo'yicha ishchi guruh tuzilib, uni Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida faoliyat yuritishi ma'qullandi.

Turkiy davlatchilik tarixining teran ildizlarini chuqurroq anglash va ilmiy asosda to'laqonli o'rganish ehtiyojidan kelib chiqib Turon-Turkiston davlatchiligini yuksaltirgan turkiylarning yovqur o'g'loni, buyuk davlat arbobi, siyosiy iqtidor egasi Alp Er To'nganing faoliyati va amalga oshirgan ishlari masalalariga bag'ishlangan kelgusida xalqaro anjuman o'tkazish taklifi ilgari surildi.

Anjuman doirasida o'tkazilgan Alp Er To'nga shaxsiyati va faoliyatiga bag'ishlangan soha bo'yicha yetakchi mutaxassislarning davra suhbatlari natijalariga ko'ra Alp Er To'nga timsolini mintaqaning turizm brendiga aylantirish hamda Buxoro shahrida unga atalgan yozuv lavhasi (bitig tosh) o'rnatish yuzasidan TDT kotibiyati tavsiyasiga ko'ra TDSHU olimlari va O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi mutaxassislari hamkorlikda yaratgan matn tavsiya etildi.

Umuman, buning singari ilmiy yig'inlarni Toshkentda, Sharqshunoslik universitetida o'tkazilganligi uning turkologiya markazlaridan biriga aylanib borayotganligi, turkiy tillarni o'qitish, yozma meros va eski turkiy matnlarni tizimli o'rganish, ularning ilmiy muomalaga kiritish sohalari bo'yicha turkiy davlatlar orasida yetakchilik maqomiga erishib borayotganligidan darak beradi.

**Alp Er To'nga (Afrosiyob) avlodlari Qoraxoniylar: Turkiy dunyo
va Islom olami Qoraxoniylar davrida" mavzusidagi xalqaro
ilmiy-amaliy anjumanidan fotolavhalar**





QORAXONIYLAR DAVRI ILM-FANI YUSUF XOS HOJIB TALQINIDA

BOQIJON TO'XLIYEV

Filologiya fanlari doktori, professor

Annotatsiya: Maqolada Qoraxoniylar davridagi ilm-fanga bo'lgan qarashlar Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari misolida tahlil etiladi. Yusuf Xos Hojib – qomusiy olim. Shunga ko'ra, uning asari – "Qutadg'u bilig"da ham ilm-fanning turli yo'nalishlariga oid atama va tushunchalarning adabiy-estetik baholarining ko'p uchrashi mutlaqo tabiiy holdir. Asar XI asrdagi qoraxoniylar davri davlat qurilishi, shu davlat olib borgan siyosat, mamlakatning iqtisodiy hamda ijtimoiy hayotiga oid ko'plab ma'lumotlarni ham qamrab oladi. Tabiiyki, Yusuf Xos Hojib buyuk mutafakkir sifatida asosiy urg'uni mamlakatdagi ijtimoiy-ma'naviy hayotga qaratadi. Bunda adabiyot va san'at masalalariga alohida e'tibor seziladi. Adibning bilim va bilimdonlikka oid ijtimoiy-siyosiy qarashlari ham to'lig'icha badiiyat libosida taqdim etiladi. Shunga ko'ra, unda ayni tushunchalar ham yuksak badiiyat bilan, xotiradan o'chib ketmaydigan obrazlilik bilan ziynatlangan holda taqdim etiladi.

Tayanch so'zlar: Yusuf Xos Hojib, "Qutadg'u bilig", bilim, fan, qoraxoniylar, adabiyot, badiiyat.

Abstract: The article analyzes the views on science during the Karakhanid period using the example of Yusuf Khos Hojib's work "Kutadgu Bilig". Yusuf Khos Hojib is an encyclopedist. Accordingly, it is quite natural that in his work - "Kutadgu Bilig" there are many literary and aesthetic evaluations of terms and concepts related to various areas of science. The work also includes a lot of information about the state-building of the Karakhanid period in the 11th century, the policy pursued by this state, and the economic and social life of the country. Naturally, Yusuf Khos Hojib, as a great thinker, focuses on the socio-spiritual life of the country. In this, special attention is paid to the issues of education and art. The writer's socio-political views on knowledge and knowledge are also fully presented in the guise of art. Accordingly, the same concepts are presented in it with high artistic merit, adorned with imagery that will not fade from memory.

Key words: Yusuf Khos Hajib, "Kutadgu Bilig", knowledge, science, Karakhanids, literature, art.

Аннотация: В статье анализируются взгляды на науку в эпоху Караханидов на примере произведения Юсуфа Хос Ходжиба «Кутадгу билиг». Юсуф Хос Ходжиб – энциклопедист. Соответственно, вполне закономерно, что в его произведении «Кутадгу билиг» присутствует множество литературных и эстетических оценок терминов и понятий, относящихся к различным областям науки. Произведение также содержит много информации о государственном строительстве периода Караханидов в XI веке, политике, проводимой этим государством, а также об экономической и общественной жизни страны. Естественно, что Юсуф Хос Ходжиб, как великий мыслитель, уделяет внимание общественно-духовной жизни страны. При этом особое внимание уделяется вопросам образования и искусства. Социально-политические взгляды писателя на знание и знания также полно представлены в облике искусства. Соответственно, те же концепции

представлены в нем с высокими художественными достоинствами, украшенные образами, которые не сотрутся из памяти.

Ключевые слова: Юсуф Хос Хаджиб, «Кутадгу Билиг», знание, наука, Караханиды, литература, искусство.

Qoraxoniylar davri turkiy xalqlarning Sharq Renessansiga qo‘shgan ulkan hissasini alohida bir davri ekani yaxshi ma’lum. Dunyo olimlari bu haqiqatni allaqachon turli shakllarda ifoda etishgan.

Qoraxoniylar – turkiy davlatchilik tarixidagi oltin davrdir. Yusuf Xos Hojib, Mahmud Koshg‘ariy hamda Ahmad Yugnakiylar mana shu oltin davrning buyuk mutafakkirlaridir.

Mahmud Koshg‘ariy ilmiy yo‘nalishda, Yusuf Xos Hojib esa adabiy jabhada ulkan qomusiy asarlari bilan o‘zlariga mangu haykal qo‘yib ketishdi.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” dostoni mana shu davrda yaratilgan muhtasham yodgorlik sifatida, faqat badiiy adabiyotninggina emas, o‘sha davrdagi davlat qurilishi, shu davlat olib borgan siyosat, ijtimoiy-ma’naviy hayot haqida beqiyos ma’lumotlarni o‘z bag‘rida jamlagan qomusiy bir asar hamdir. U o‘z davridagi ilm-fanaqida ham tegishli tasavvur va bilimlarini berishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Qoraxoniylar davri turkiy xalqlarning Sharq Renessansiga qo‘shgan ulkan hissasini alohida bir davri ekani yaxshi ma’lum. Dunyo olimlari bu haqiqatni allaqachon turli shakllarda ifoda etishgan.

Qoraxoniylar – turkiy davlatchilik tarixidagi oltin davrdir. Yusuf Xos Hojib, Mahmud Koshg‘ariy hamda Ahmad Yugnakiylar mana shu oltin davrning buyuk mutafakkirlaridir.

Asarda “Йаңлуқ ағырлықын танурлайур билиг бирлә” degan alohida bobning ajratib ko‘rsatilgani bejiz emas. Uning ma’nosi “Insonning qadru qimmatini bilim bilan belgilanadi” demakdir. U shunday boshlanadi:

Төрүтти өдүрди сэчу йаңлуқуғ,
Анар бэрди эрдәм, билиг, өг, укуғ.

Alloh insonni yaratdi va parvarish qildi,
Unga turli hunarlar, bilim va aql-idrok berdi [3.144].

Demak, bilimli bo‘lish insonga xudoning ulug‘ inoyatidir. Insonning sharafi bilim bilan belgilanadi, aql-idroki bilan har qanday muammolarni hal qilish imkoniga ega bo‘ladi. Qolaversa, insonning ezgulik qilishga intilishi ham mana shu bilimning sharofati bilandir:

Билиг бэрди йаңлуқ бэдүди бу күн
Укуш бэрди өтрү йазылды түгүн.

Байат кимкэ бэрсэ укуш өг билиг
Өкүш эдгүлүккэ узатты элиг.

Mazmuni:

(Xudo) bilim bergani uchun, inson ulug‘ bo‘ldi,
Aql-idrok bergani uchun ko‘plab tugunlar echildi.

Xudo kimga aql-idrok, bilim beradigan bo‘lsa,
U ko‘plab ezguliklarga qo‘l cho‘za oladi. (3.146-147)

Aslida turkiy xalqlarning bilim va bilimdonlikka juda qadim zamonlardan buyon alohida e‘tibor berishganini Mahmud Koshg‘ariy ham o‘zining ko‘plab fikr-mulohazalari bilan tasdiqlaydi. Uning asari “Devonu lug‘ot it-turk”da ko‘plab badiiy namunalar ayni mana shu mavzuning ustuvorligini ko‘rsatib turibdi. Asarda jumladan, “*Qut belgüsi – bilig*. Ma‘nosi: “Baxtning belgisi bilim” [217] degan maqol keltirilgan. Demak, turkiy xalqlar bilimning barcha ezguliklarning poydevoridir degan hukmga juda qadimgi zamonlardayoq kelib bo‘lgan.

Inson bilim va uquv-idrokning qadriga yetsa, uning evazi ham shunga mos va munosib bo‘ladi:

Билигни бэдүг бил, укушны улуг,
Бу эки бэдүтүр өдүрмиш қулуг .

Бу сөзкэ тануқы муну кэлди сөз,
Бу сөзни эшитгил, сөзүң мэндэ өз,

Укуш қайда болса, улуглук болур,
Билиг кимдэ болса, бэдүглук алур.

Укушлуғ укар-ул, билиглиг билир,
Билигли, укуғлы тиләккэ тәгир (3.148-151).

Mazmuni:

Bilimni buyuk, uquv-idrokni ulug‘ deb bilgin,
Mana shu ikkalasi yaratilgan bandasini yuksaltiradi.

Bu so‘z isboti uchun shunday so‘z bor:
Bu so‘zni eshitgin va ularni mendan ol.

Aql-zakovat qayerda bo‘lsa, (o‘sha yerda) ulug‘lik bo‘ladi,
Bilim kimda bo‘lsa, buyuklikka erishadi.
Aql-idrokli uqadi, bilimli biladi,
Bilimli va aql-idrokli kishi tilaklarini topadi.

Bilim insonni dunyodagi barcha yomon va noloyiq ishlardan, dardu balolardan asraydi, muhofaza qiladi:

Билиг маънисы бил, нэку тэр билиг,
Билиг билсэ өтрү йырап эрдэ иг [3.152]

Mazmuni:

Bilimning ma'nosini bilib ol, bilim nima deydi, eshitgin:
Inson bilimlarni bilsa, undan kasallik yiroq ketadi.

Muallif bu mavzuni davom ettiradi. Bilimsiz kishini kasal(lik)ka o'xshatar ekan, bu dardning davosi bilim ekanini ta'kidlaydi. Barcha nodon va johil kishilarni "biligsiz" deb nomlar ekan, ularni bunday bemaza kasallikdan tezroq qutilishga chorlaydi:

Билигсиз киши барча иглиг болур
Игиг эмлэмэсэ киши тэрк өлүр.
Йуры, эй билигсиз, игинни ота,
Билигсиз, отын-сэн, э билгэ, қута.

Mazmuni:

Bilimsiz kishilarning barchasi kasal bo'ladi,
Agar kasallik davolanmas, kishi tezda vafot etadi.

Kelgin, ey bilimsiz, kasalingni davola,
Ey bilimsiz, sen pastkashsan, ey dono, baxtli bo'lg'in! [3.153-154]

Adib bilim va aql-idrok izohini davom ettiradi. Insonlarning aql-hushli va bilimdon bo'lishga da'vat etadi:

Укуш-ул бурундук аны йэтсэ эр
Тилэккэ тэгир ул түмэн арзу йэр.

Укуш болса эркэ көр асгы өкүш
Билиг билсэ өтрү болур эр көшүш

Укуш бирлэ ишлэр қамуғ иш күдүт
Билиг бирлэ бэглэр бу булмыш өдүт

Mazmuni:

Agar inson anglab yetsa, aql-idrok boshvoq (kabidir),
(U bilan) tilagiga etadi, ko'plab orzulariga erishadi.

Aql bo'lsa, kishiga uning ko'p nafi bo'ladi,
Bilim egallasa, keyin u aziz bo'ladi.

Aql bilan u har qanday ish-yumushlarni ado etadi,
Beklar bilim bilan davru-davron suradilar. [3.156-158]

Aslida “Qutadg‘u bilig”dagi bosh masalalardan biri komil insonni tarbiyalashdir. Yusuf Xos Hojib bu asari orqali o‘z tasavvurida eng komil, jamiyatning o‘sha davrdagi talablariga javob bera oladigan insonni qanday ko‘rgan bo‘lsa, shundayligicha tasvirlashga harakat qiladi.

Adib bilim va bilimdonlikni juda ulug‘laydi. U kishi ko‘nglini dengizga o‘xshatar ekan, bilimni shu dengiz tubidagi injuga qiyoslaydi. Agar shu inju dengiz tubidan chiqarilmas ekan, uning oddiy soy toshidan qanday farqi qoladi?!

Bu – inson qalbidagi bilim bilan bog‘liq xazinalarning umuminsoniyat mulkiga aylantirish kerak deganidir.

Bu – alohida olingan bir shaxsning ilmiy bilimlari, ayni paytda ijtimoiy hodisa sifatida butun yurtga, jamiyatga, kerak bo‘lsa, butun insoniyatga xizmat qilishi kerak, deganidir.

Aql-idrokli beklar – mamlakat boshliqlari o‘zlariga maslahatchi qilib bilimdon donishmandlarni tanlashi bejiz emas. Jahonda bilimdan qadrliroq hech narsa yuq. Bilimsizlik aslida kishi uchun haqoratdir. Hattoki bilimsiz odam to‘rga chiqib o‘tirsam unday to‘rni to‘r deb bo‘lmaydi. Uni poygakdan ham past deb bilish kerak. Ammo poygakda bilimdon kishi o‘tirsam, u joyni to‘rdan ham a‘lo deb bilish lozim:

Bilimsiz odam ko‘zi ko‘r kishiga o‘xshaydi. Uning qo‘lidan yetaklab yo‘l ko‘rsatish, ya‘ni bilimga chorlash shart. Uquv-idrok zulmat tunidagi mashaldir. Bilim kishini shu zulmatdan ozod qiladi. Bilimning qadri shu daraja balandki, u do‘zax o‘tidan ham kishini xalos qilishi mumkin.

Bilim – boylik. Ammo uning boshqa boyliklardan farqi bor. Har qanday boylik o‘g‘rining qo‘liga tushsa tamom, undan ayrilib qolish mumkin, biroq bilimni hech bir o‘g‘ri o‘g‘irlay olmaydi. Aksincha, u qancha ko‘p ishlatilsa, shuncha ko‘payib boraveradigan boylikdir. A.N.Kononov ta’kidlaganidek, insoniy fazilatlar orasida bilim boshqa barchasidan eng afzal fazilatdir”[1.8].

Yusuf Xos Hojibning har bir so‘zida, har bir misrasida turkiy xalqlar uchun xos bo‘lgan fikrlash tarzi, mushohada usuli ko‘zga tashlanadi. Uning qiyoslarida, o‘xshatishlarida, tasvirida turkiy xalqlarga xos bo‘lgan an‘analari davom ettiriladi. Masalan, bilimdonlik kishini har xil noliyiq ishlardan asraydi deyar ekan, buni quyidagicha ifodalaydi:

Kishan ul kishika bilig ham uqush,
Kishanlig yarag‘sizqa barmas o‘kush.
Sevugrak atin er kishanlig tutar,
Keraklig atin er ko‘dazlig tutar.
Kishanlig ko‘ramaz, kerakcha yurir,
Tushag‘lig‘ yiramaz tilakcha barir

Mazmuni:

Bilim ham zakovat kishi uchun guyo bir kishandir.

Kishanli esa ortiq yaroqsiz (ishlar)ga bora olmaydi.
 Sevimliroq otini kishi kishanda tutadi,
 Kerakli otini er avaylab tutadi.
 Kishanlangan (ot) koʻzdan qochmaydi, lozim erda yuradi,
 Tushovlangan (ot) uzoqlashmaydi, egasi istagan erda boʻladi.
 [3.398-310].

“Kishan” obrazi Yusuf Xos Hojibning oʻziga xos badiiy topildigʻidir. Ushbu soʻz XI asrda uy hayvonlarning oyogʻiga bogʻlanadigan “tushov” maʼnosini anglatgan. U “ot-ulov va mollarning uzoqqa ketib qolmasligi uchun ularning oldingi ikki oyogʻini matashtirib bogʻlaydigan arqon yoki moslama”dir [4/220]. Bu yerdagi “kishan” otaning nazorati, farzandning noloyiq va nomununosib ishlarga aralashib qolishining oldini oluvi vositasi maʼnosini anglatib kelayotir.

Shoir yaxshi odamning barcha fazilatlarini: vazminlik, bosiqlik, chidam, toʻgʻrilik, rostgoʻylik, ochiqlik, muloyim ham xushfeʼllik, sezgirlikni ham bilim bilan bogʻlaydi.

Bilim oʻqish-oʻrganish, hayotiy tajriba bilan bogʻliq. Kishi onasidan tugʻilganida bilimsiz tugʻiladi. Bilib, oʻrganib soʻng kamolga yetadi. Bilimdonlik – kishiga chiroy. Aslida haqiqiy goʻzallik ham shunda. Hatto boylik, davlat ham donolarga koʻproq yarashadi. Chunki bilimsiz faqat boylik bilan yuksaladi. Dono esa davlatli boʻladigan boʻlsa haqiqiy chiroy kasb etadi:

Билигсизка давлат ярашса келиб,
 Билигликка артуқ ярашур тегиб.
 Билигсиз била турса давлат қали,
 Билиглиг била турға тенг-туш кўриб.

Mazmuni:

Agar nodonga kelgan davlat unga yarashsa,
 Donoga kelgan davlat unga nihoyatda yarashadi.
 Agar (davlat) nodonga kelib qaror topsa,
 U dono uchun mos va muvofiq boʻlib turadi.

Misralardagi *biliglig*, *biligsiz* soʻzlarining tarkorlanayotgani bejiz emas. Ulardagi asosiy fikr mana shu tushunchalar asosiga qurilgani tufayli ham mazkur takrorlar adib koʻzda tutgan maʼnolarni yanada kuchaytirib, taʼkidlab taqdim etish uchun asos boʻlmoqda. Ular oʻrtasidagi mantiqiy ziddiyat esa hodisalar mohiyatini yana bir marta taqqoslashga, ularni oʻzaro qiyoslab koʻrishga undab turadi. Bir qarashda bu yerda *kelib*, *tegib*, *koʻrib* soʻzlarining faqat qoʻshimchalariga koʻragina qofiyadoshlikni tashkil etayotgani ulardagi ohangdorlikni pasaytirgandek koʻrinishi mumkin. Aslida bunday pasayish sezilmaydi. Nazarimizda, bunga maʼnoni kuchaytirib berayotgan “biligsiz – biliglig ziddiyati, yaʼni tazodlar ishtiroki, shuningdek, bilig soʻzining takrori bilan bogʻliq iltizom, hamda “b” tovushining takrori tufayli yuzaga kelayotgan

alliteratsiya mana shu pasayishni to'la qoplagan, hato she'riy jarangdorlikning anchayin yuksak darajasini ta'minlagan.

Bilim boshqalar mehnatining qadriga yetishda ham tayanch bo'ladi. Bilimsiz kishilar boshqalarning jon kuydirib qilgan mehnatlarini anglamaydi ham, qadrlamaydi ham. Aniqrog'i buning uddasidan chiqa olmaydi. Shunga ko'ra, Yusuf Xos Hojib nazarida bilimsizlar dononing oldida bo'ynini egib turishi kerak.

Shuning uchun davlat boshlig'i el-yurt ishlarini bilimdon kishilarga bermog'i joiz. Bilimsizlar xalq orasida tutun qo'porishdan boshqa narsaga yaramaydi.

Bilimsiz odamning xalq boshida rahbarlik qilishi elga ofatdir. Undan xalq parokanda bo'ladi.

Bilim o'rganish kishi kunlarini nurafshon qiladi, bilimdon qanchalik kichik bo'lmasin, u el nazarida ulg'ayib boraveradi. Aslida insonni hayvondan ajratgan narsa ham bilimdir. Yusuf Xos Hojib bilimning qudratini alohida iftixor, ko'tarinki ruh bilan tasvirlaydi.

Albatta, asardagi yetakchi qahramon elig Kuntug'didir. Kuntug'di – tuqqan kun, ya'ni porlab chiqqan quyosh ramzi. U asarda ramz sifatda eligni, ya'ni mamlakatni idora qiladigan eng katta boshliqni anglatadi. Ayni paytda, u Adolatning ham ramzidir. Shoir elig (podsho)ni Adolat deb nomlashdayoq o'z maqsadini oydinlashtiradi.

Kuntug'didagi ezgulik nimalarda namoyon bo'ladi?

Birinchidan, u doimo mamlakat, el-yurt taqdirini o'ylaydi, hech qachon o'zi yoki o'z manfaatlari doirasida qolib ketmaydi. Uning uchun xalq baxti, mamlakat daxlsizligi, el-yurt obodligidan ortiq baxt yo'q.

Ikkinchidan, u ko'zlagan maqsadlarini amalga oshirish uchun jamiyatdagi ilg'or fikrli, yangilik va ezgulik targ'ibotchilari, himoyachilari zarurligini anglaydi va doimo ularni izlab, topib, mamlakatni boshqarish ishlariga jalb etadi. Uning dastlabki vaziri Oyto'ldi butun kuch va imkoniyatni mamlakat ravnaqiga sarflagan bo'lsa, uning o'g'li O'gdulmish eligning maslahat va yo'riqlari tufayli ota ishlarini davom ettiradi. Elig bilan yonma-yon turib donishmand O'zg'urmishni shaharga taklif etib, uning o'gitlaridan xalq baxt-saodati yo'lida foydalanadi. Alohida ta'kidlash joizki, ularning barchasida takrorlanadigan asosiy fazilatlar to'laligicha bilim, bilimdonlik, donishmandlik bilan aloqadordir.

Nihoyat, uchinchidan, Kuntug'dining shaxsiy fazilatlar ham to'laligicha ezgulik me'yorlaridan kelib chiqib tasvirlangan. U dono, bilimdon, nomi olamga yoyilgan, himmat va muruvvatli edi.

Қилинчи кўни эрди, қилқи ўнгай,
Тили чин, бутун ҳам кўзи, кунгли бай.
Билиглиг бег эрди, уқушлуғ удуг,
Эсизка ўт эрди, йағиқа йудуг.

Mazmuni:

Qilmishlari to'g'ri fel atvori o'ngay (kulay),
Tili chin, halol hamma ko'zi pok ko'ngli boy (edi),

Bilimli, zakovatli xalq hushyor bek edi,
Yomonlarga (misli bir) olov, yovga ofat edi.

Kuntug'dining ezgu siyosati tufayli budun (xalq) boyidi, hatto "bo'ri bilan qo'y birga bir suvluqdan suv ichdi". Uning bunday shuhrati olamga yoyildi. Dono Onto'ldi ham uning ovozasini eshitib, elig bilan birgalikda xalq tashvishini kamaytirish ishiga astoydil kamarbastalik qildi.

Alohida qayd etish joizki, bilim hamda bilimdonlik tasviri va targ'ibi Yusuf Xos Hojib adabiy-estetik qarashlarining muhim qirrasini tashkil etadi. Bu holatni vazir Oyto'ldi – ya'ni Davlat tasvirida ochiq-oydin ko'rish mumkin:

Йигит эрди ўғлан қилинчи амул,
Уқушлуғ, билиглиг ҳам ўғлуғ амул.
Юзи кўрклўг эрди кўриб кўз камар,
Сўзи юмшоқ эрди, тили туз тамар.
Қамуғ турлуғ эрдам тугал ўғраниб,
Юрир эрди эрдам алигка алиб...

Mazmuni:

Javonmard yigit edi, fe'l-raftori muloyim,
Zakovatli, bilimli, aqlli, vazmin kishi edi
Yuzi (shu darajada) ko'rkli edi(ki), ko'rib ko'z qamashardi.
So'z(lar)i yumshoq edi, tilidan bol yog'ardi,
Barcha xil san'at-hunarni tugal o'rganib,
San'at-hunarlarni qo'liga olib (ya'ni egallab) yurar edi.

E'tiborga loyiq jihatlardan yana biri shundaki, adib olimlar uchun alohida bob ajratgan. U Билгэ ʻалимлар бирлэ катылмакны өгрөтүр (Dono olimlar bilan aralashishni o'rgatadi) deb nomlangan. Alloma olimlarga juda yuksak baho beradi. Ularning jamiyatdagi yuksak mavqeni qayta-qayta ta'kidlaydi. Olimlarning ilmini xalq yo'lini yoritib turuvchi mash'alaga qiyoslaydi:

Тақы бир куту билгэ ʻалимлар-ул,
Улар ʻылымы халққа йаруттачы йол.
Тағин бир тоифаси доно олимлардир,
Уларнинг илми халққа йўл ёритувчи (нарса)дир (3.4237).

Shuning uchun ham ularning qadriga etish, bilimlari qancha bo'lishidan qat'i nazar, ularni o'rganish yo'lidan borish kerak:

Уларны қатыг сэв, ағырла сөзин,
Билиглэрин өгрэн, өкуш йа азын.

Ularni qattiq sev, so'zlarini qadrla,
Ko'pmi yoki ozmi (ularning) bilimlarini o'rgan (3.4238)

Bu bejiz emas. Ular bilimlari tufayli hamma narsaning yaxshi va yomonligini, buning sabab va oqibatlarini yaxshi bilishadi. Shuning uchun ham ularning bilimlarini o'rganish va ularga rioya etish foydali bo'ladi, xolos:

Улар-ул йарар йа йарамасларығ,
Сэчиб адра тутған көни йол арығ.
Оса, ылмы өгрэн, билиглэри бил,
Нэнин эдгулук кыл көдэз тэгру тил.
Булар-ул ҳақиқат бодын тиргүки,
Улар билги-ул чын шарият көки.

Mazmuni:

Ulardir yaraydigan yo yaramaydigan (narsalarni)
Tushunib, ayirib, to'g'ri, pok yo'l tutadigan (kishilar).
O'yla, ilmini o'rgan, bilimlarini bil (ib ol),
Narsa (berish) bilan yaxshilik qil, shirin so'z bo'lib ehtiyot tut.
Bular haqiqat bo'ynining tirgovichidirlar,
Ularning bilimi chindan shariat negizidir [3.4239-4241].

Jamiyatni olimlarsiz tasavvur qilish mumkinmi? Yo'q, bunday bo'lishi mumkin emas. Ular jamiyat hayotida nihoyatda muhim, jiddiy o'rinda turadi. Ularsiz hayotning o'zini ham tasavvur etish mumkin emas. Inson hayoti uchun zarur bo'lgan yeguliklar, ekin-tikinlar ham ularning sharofati bilan mavjud va mo'l-ko'l bo'ladi:

4242 Йок эрсэ, ажунда бу ылим бөгү,
Тикиб унмэгэй эрди йэрдэ йэгу.

Mazmuni:

Olamda bu olim donolar bo'lmaganida,
Erda emish ekilib unmagan bo'lar edi [34242].

Olimlarning ijtimoiy hayotdagi o'rinlari ham nihoyatda jiddiy va zaruriydir. Ular xalqni to'g'ri yo'lga boshlash jarayonida ham bebaho mavqega ega. Ularning sharofati bilan xalqning ko'zi ochiladi, ular o'z yo'llarining to'g'ri yoki noto'g'riligini bilib olishadi:

4243 Улар ылмы болды будунқа йула
Иаруса йула тунлә азмас йол-а.

Mazmuni:

Ularning ilmi xalqqa mash'al bo'ldi,
Mash'al yorisa, tunda yo'ldan adashilmaydi. [3.4243].

Yusuf Xos Hojib olimlarning mehnatini qadrlash, ularning hurmatlarini joyiga qo'yish bobida ham ko'plab jo'yali yo'l-yo'riqlarni ko'rsatadi:

Тэңиндэ улуш қыл сучиг сөз билә,
Аш ичгу йэтүргил, тапуг қыл кулә.
Тилин сэрмә, ирмә, болун иймәнуг,
Ағу-ул уларның оты бир тэмүг.
Тилин ирмә сэрмә туз этмәк нэтүр,
Ағыр тут уларығ, ағырла, көтүр.
Эшит ыилмы, ишлэт, тилин сөңдама
Йа қылкын, қылынчын йавуз тэб тэмә.

Mazmuni:

Huzuringda shirin soʻz bilan bahra koʻrsat,
Ovqat, xoʻrak yedirgin, kulib taʼzim qil.
Tiling bilan koyima, achchiq gapirma, andishali boʻlgin,
Ularning dorisi bir tomchi ogʻudir.
Tiling bilan koyima, tuz-non edir,
Ularni qadrli tut, qadrla, ulugʻla.
Ilm(lar)ini eshit, ishlat, ishlarini taʼqib qilma,
E xulqini, feʼl-atvorini yomon dema [3.4745-4747].

Olimning ilmi ulugʻ narsa. Haqiqat ularning ilmiga bogʻliq. Ular xalqqa mana shu haqiqat yoʻlini koʻrsatadi. Qolaversa, xalqni bir qoʻy suruvi deb bilsang, olimlar mana shu suruvning takasi – yoʻl boshlovchilaridir. Taka butun suruvni yoʻl boshlaganiday, olimlar ham xalqni toʻgʻri yoʻlga boshlay oladi. Xuddi mana shu fazilatlariga koʻra, ular senga juda koʻp naf yetkazadi.

Улардын кэрәки сэнә ыилмы-ул,
Көниликкә йэтсә, айу бәрсә йол.
Булар-ул сүрүг койка эркәч саны,
Койуғ башласа сурса йолча көни.
Қатылғыл, буларның билә эдгуләш,
Қутадғай сэнә эки ажун улаш.
Буларда баса қач қуту бар адын,
Бақа көрса билги билигдә адын.

Mazmuni:

Ulardan senga keragi ilm(lar)idir,
(Toki) haqiqatga yetmoqchi boʻlsang, (ular) yoʻl aytib bersalar.
Bular qoʻy suruvi orasidagi taka kabitirlar,
(Toki) qoʻyni boshlasa, toʻgʻri yoʻl boʻylab olib borsa.
Bular bilan aralashgin, yaxshi (munosabatda) boʻl,
Ikki olam senga doim baxt (eshigini) ochadi [4248–4250].

Matndan koʻrinib turibdiki, muallif olimlarning ijtimoiy mavqeiga alohida urgʻu beradi. Ularning jamiyat va mamlakat taqdirida juda muhim va ahamiyatli oʻrin tutishlarini hukmdorga tushuntirib, koʻrsatib berishga harakat qiladi.

Demak, qoraxoniylar davri ilm-fanining Yusuf Xos Hojib talqinidagi umumiy manzarasi tanlab olingan parchalardagina shunday rang-barang va jiddiy ekan, bu yoʻnalishdagi ilmiy-tadqiqot ishlari ham shunga mos va muvofiq ravishda jiddiy, muntazam va bardavom boʻlishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Кононов А.Н. Слово о Юсуфе из Баласагуна и его поэме “Кутадгу билиг. – // Советская тюркология, 1970, № 4, с. 3-12.
2. Koshgʻariy, Mahmud. Turkiy soʻzlar devoni [Dīvānu luġāti-t-türk] [Matn]. Nashrga tayyorlovchi: Qosimjon Sodiqov: –Oʻzbek adabiyoti hazinasidan. – Toshkent: “Oʻzbekiston” nashriyoti, 2025. – 624-b.
3. Юсуф хос Хожиб. Кутадгу билиг. (Саодатга элтувчи билим). Транскрипция ва hozirgi ўзбек тилига тавсиф. Нашрга тайёрловчи Қ.Каримов. Тошкент, Фан, 1971. – бет. 964.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 5 жилдли, тўртинчи жилд, – Тошкент, “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2008, 608-бет.

QORAXONIYLAR DAVRI ASARLARIDA ISHLATILGAN TILSHUNOSLIK ATAMALARI

QOSIMJON SODIQOV

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti professori,
filologiya fanlari doktori*

Annotatsiya: Til bilimi sohasida ilk oʻrta asrlarning sharq, xususan, turkiy tilshunosligi gʻarb ilmidan ancha ildamlab ketgan edi. Oʻsha davr tilshunosligida til bilimi atamaları tizimi tugal bir koʻrinishda ishlab chiqilgan. Qoraxoniylar davri ilmiy va adabiy asarlarida ularning katta boʻlagi tamgʻalanib qolgan.

Hozirgi anʼanaviy tilshunoslikda atamaga (=terminga) nisbatan belgilangan oʻlchovlar turkiy tarixiy tilshunoslikka nisbatan toʻgʻri kelmaydi. Ular baʼzan koʻpanglamlilik xususiyatiga ham ega. Turkiy soʻzlarning atamaga aylanish jarayonida buni yaqqol kuzatish mumkin.

Eski turkiy yozma yodgorliklarda ishlatilgan atamalar tizimi ilk oʻrta asrlarda turk bilginlari va oʻqimishlilari ichida lisoniy bilim va tasavvurlar yuqori bosqichda ekanidan dalolat qiladi. Muhim jihati shundaki, ushbu atamalarning aksariyati turkiy soʻzlardan iborat. Til bilimi atamaları tizimining turgʻun bir holga kelishi va takomilida oʻsha davr tilshunoslari, tarixchilari va adabiyot ahlining xizmati ulugʻdir.

Ushbu maqolada qoraxoniylar davri asarlarida ishlatilgan tilshunoslik atamaları, ularning matndagi maʼnolari va atamaga aylanish jarayoni ochib berilgan.

Tayanch tushunchalar: turkiy tilshunoslik tarixi, qoraxoniylar davri yozma adabiy tili, til, soʻz, nutq, yozuv, yozma til.

Аннотация: Как свидетельствуют научные источники, раннее и средневековое восточное, в частности, тюркское языкознание существенно опережало в своем развитии уровень лингвистических знаний в Европе. Об этом свидетельствует тот факт, что к этому периоду на Востоке уже сформировалась цельная система лингвистических терминов, значительная часть которой сохранилась в письменных памятниках караханидского периода. И что особенно примечательно, многие из них тюркского происхождения. И в этом плане неоценима заслуга лингвистов, историков и деятелей литературы этого периода.

Львиная доля лингвистических терминов и требований к ним унаследованы современным восточным языкознанием. Однако со временем они все же претерпели изменения, которые коснулись, прежде всего, их семантики. В частности, они развили многозначность.

Данная статья посвящена изучению истории формирования и развития тюркских лингвистических терминов караханидского периода.

Ключевые слова: история тюркского языкознания, письменно-литературный язык караханидского периода, язык, слово, речь, письменность, письменный язык.

Abstract. As scientific sources testify, early and medieval eastern, in particular, Turkic linguistics were significantly ahead in their development of the level of linguistic knowledge in Europe. This is evidenced by the fact that by this period an integral system of linguistic terms had already been formed in the East, a significant part of which was preserved in written monuments of the Karakhanid period. And what is especially noteworthy is that many of them are of Turkic origin. And in this regard, the merit of linguists, historians and literary figures of this period is invaluable.

The lion's share of linguistic terms and requirements for them are inherited by modern Eastern linguistics. However, over time, they nevertheless underwent changes, which affected, first of all, their semantics. In particular, they developed polysemy.

This article is devoted to the study of the history of the formation and development of Turkic linguistic terms of the Karakhanid period.

Keywords: history of Turkic linguistics, written and literary language of the Karakhanid period, language, word, speech, writing, written language.

So‘zboshi

Fan tarmog‘ining tarixi tilda o‘sha sohaga tegishli atamalar (terminlar) tizimini shakllanishidan boshlanadi. Til bilimining yuzaga kelishi va taraqqiyoti bilan bir paytda, uning atamaları ham yaratila boshlaydi. Ayni o‘lchovga tayanadigan bo‘lsak, turkiy tillarda til bilimining yuzaga kelish tarixi ilk o‘rta asrlardan boshlanganiga guvoh bo‘lamiz (*qarang*: Содиқов 2020, 171–189).

Tilshunoslik atamalarining to‘liqligi, keng qamrovliligi, o‘z navbatida, o‘sha davr tilshunosligining yuqori bosqichda ekanini ko‘rsatuvchi omillardan biri sanaladi; til bilimining nechog‘liq rivojlanganini shundan ham bilsa bo‘ladi.

O‘rta asrlar sharq ilmda, xususan, turkiy tilshunoslik tarixida bilim va uning tarmoqlari bilan bog‘liq butun boshli atamalar tizimi puxta, tugal bir ko‘rinishda ishlab chiqilgan edi. Bularning bari o‘sha chog‘larda yaratilgan adabiy, tarixiy, ilmiy asarlarda tamg‘alanib qolgan.

Qoraxoniylar davri turkiy yozma adabiy tilining atalishi

Mahmud Koshg'ariy o'zining «Devonu lug'at-t-turk» asarida qoraxoniylar davri yozma adabiy tilini «turkcha» (تُرْكِيَّه) atamasi bilan bir qatorda, «xoqoniya turkchasi» (*at-turkiyyatu-l-xaqaniyya*) deb ham atagan edi. U o'z davri yetakchi dialektlarini (sharqiy dialektlarni) umumlashtirib, «turk tili», qolganlarini esa o'z otlari (*o'g'uzcha, qipchoqcha* va b.) bilan atagan. Muhimi shundaki, ana shu «turk tili» atamasining o'rnida «xoqoniya tili», «xoqoniya turkchasi» otini ham qo'llagan: «Shahar o'rtasida turuvchilar xoqoniy turkchasida (بِالتُّرْكِيَّةِ الْخَاقَانِيَّةِ) so'zlaydilar» deb yozadi u (ТСД.40). Mahmud Koshg'ariy ushbu atama ostida o'z davri turkiy yozma adabiy tilini ko'zda tutgan edi.

Yusuf Xos Hojib «Qutadg'u bilig» asarida «turkiy til, turkcha til» ma'nosida *türkçä* (تورکجا), *türk luyatı* (ترک لوغتی) atamalarini ishlatgan. Mana misoli:

*Muḡar menḡätü keldi türkçä maṣal,
Oqıyıl munı sen, köñül ögkä al.*

«Bunga o'xshaydigan turkcha maqol bor, / Sen bu maqolni uqqin, ko'ngilga va miyangga joyla» (QBN.18b,5);

Yoki:

Maṣriq vilāyatida, qamuy Türkistān elindä buyraxan tilinçä, türk luyatıçä bu kitābtin yaxşıraq hargiz kim ersä taṣnıf qilmay turur. – «Mashriq viloyatida, butun Turkiston elida bug'raxon tilincha, turk lug'aticha hech kimsa hargiz bu kitobdan yaxshiroq (kitob) yozgan emas» (QBH.1b,13–2a,2).

Yusuf Xos Hojib *buyraxan tili* (بغراخان تیلی), *xan tili* (خان تیلی) atamalarini ham qo'llagan. Buning bilan Tavg'ach ulug' Bug'raxon zamonidagi turkiy yozma adabiy til ko'zda tutiladi. «Qutadg'u bilig»ning muqaddimasida shunday jumlani o'qiymiz: *Türkistān ellärindä buyraxan tilinçä bu kitābdin yaxşıraq hargez kim ersä taṣnıf qilmadi.* – «Turkiston ellarida bug'raxon tilida biror kimsa hargiz bu kitobdan yaxshiroq (kitob) yozgan emas» (QBQ.1b,10–11).

Yoki:

*Bu Buyraxan vaqtı ičrä anı,
Yemä xan tilinçä bu aytmiş munı.*

«Bu Bug'raxon vaqtida uni (yozib), / Yana buni xon tilida aytibdi» (QBQ.2b,14).

Adib Ahmad Yugnakiy «Hibatu-l-haqoyiq»ning so'nggi bobida o'z kitobi *türkçä* (ترکجه) ~ *türkî* (ترکی) da bitilganini ta'kidlaydi: *Anın uş çiqardım bu türkçä*

kitāb («Shuning uchun ham bu turkcha kitobni yozdim») deya bitadi muallif (YugB.49,11).

Arslon Xo‘ja tarxonning «Hibatu-l-haqoyiq»qa ilova qilingan she‘rida yozilishicha, asar *kāšyarî til* (کاشغری تیل) ~ *kāšyar tili* (کاشغر تیلی) da bitilgan. Mana uning yozganlari:

*Tamāmi erür kāšyarî til bilä,
Ayitmiş Adīb rīqqatî til bilä.*

*Agar bilsä kāšyar tilin har kiši,
Bilür ol Adībnuñ nekim aymışi.*

«Asar *kāšyarî til* bilan yozib tugatildi, / Adib uni adabiy til bilan aymishdir.

Agar qay bir kishi *kāšyar tili* ni bilsa, / Adibning nima aytganlarini bilib oladi» (YugA.119,6–120,3).

Anglashiladiki, yuqorida tilga olingan *türkčä, türki, türk luyatî* va ularning o‘rnida qo‘llangan «xoqoniya turkchasi» (*at-turkiyyatu-l-xaqaniyya*), *buʻraxon tili, xan tili, kāšyarî til ~ kāšyar tili* atamaları qoraxoniylar davri yozma adabiy tilini anglatgan.

Til, so‘z, yozuv bilan bog‘liq tushuncha va atamalar

Kishilik o‘tmishida lingvistik bilimlar tarixi «til»ni anglashdan, u haqdagi tushuncha-qarashlarning yuzaga kelishidan boshlangan. Shuning uchun ham *til* so‘zini lingvistik tushunchalarning birinchisi, lisoniy qarashlarning tayanch nuqtasi desa bo‘ladi.

til atamasi bo‘shlangich davrda, harqalay, «jamiyatdagi aloqa vositasi» anglamida ishlatilgan, «kishi nutqi» angلامي esa keyinchalik shakllangan bo‘luvi kerak.

«Kishi nutqi» anglamidagi *til* so‘zining talaffuzi «aloqa vositasi» va «nutq» anglamidagi *til* dan farq qilgan ko‘rinadi. Sababi shundaki, «Qutadg‘u bilig»ning arab yozuvli Namangan nusxasida تىل so‘zi «nutq a‘zosi» anglamida kelganida, unga tushum kelishigi qo‘shimchasining yo‘g‘on *ḡayn* li varianti qo‘shilgan (تېلىغ). Shuning uchun uni *tīliḡ* deb o‘qilgani to‘g‘ri. Mana o‘sha bayt:

*Tīliḡ keḡ ködäzgil, ködäzildi baš,
Sözünñi qīsuryīl, uzatildi yaš.*

«Tilni juda ehtiyot qilgin, bosh saqlanadi, / So‘zni qisqa qilgin, yoshing uzayadi» (QBN.13b,9).

Ayrim o‘rinlarda تىل so‘zi «nutq a‘zosi» anglamida kelganida ham, unga tushum kelishigi qo‘shimchasining ingichka *kāf* li varianti qo‘shilgan (تيليك). Shuning uchun uni *tilig* deb o‘qiladi. Mana o‘sha bayt:

*Öküš sözläsä, yaňşadi ter tilig,
Yana sözlämäsä, ayın ter tilig.*

«Ko‘p so‘zlasa, tilni ezmalandi deyiladi, / So‘zlamasachi, tilni soqov deyiladi» (QBN.13b,7).

Anglashiladiki, «nutq a‘zosi» bilan «jamiyatning aloqa vositasi» bo‘lgan *til*, kelib chiqishiga ko‘ra, boshqa-boshqa so‘zlardir. Tarixan ularning birinchisi yo‘g‘on o‘zakli, keyingisi esa ingichka o‘zakli so‘z bo‘lgan: *til* va *til*. Keyinchalik bu so‘zlar talaffuzda farqlanmay qolgan.

Basharti shunday ekan, olimlarning *til* so‘zi «demoq, aytmoq» anglamidagi *ti-fe*‘lidan yasalgan (*ti+l>til*), degan fikriga (*qarang*: Насилов 1974,22) qo‘shilish qiyin. Shunday bo‘lganida, bu so‘z «Qutadg‘u bilig»da *til* shaklida yo‘g‘on unli bilan talaffuz qilinmagan bo‘lar edi. Demak, ular «demoq, aytmoq» anglamidagi *ti-fe*‘liga emas, boshqa bir so‘zga bog‘lanadi.

Mahmud Koshg‘ariyga ko‘ra:

til – «til» (اللسان). Maqolda (shunday kelgan): *Erdäm başı – til*. Ma‘nosi: «Eng yaxshi xulqning boshi tildir».

til – «til» (اللفه). Chunonchi, *uygur tili* – «uyg‘ur tili»; *xitay tili* – «xitoy tili» kabi.

til – «so‘z» (الكلام); *ol begkä til tegürdi* – «u bekka so‘z tegizdi; haqoratomuz so‘z so‘zladi».

til – «josus»; *ya‘idın til tuttı* – «yov josusini tutib oldi» (ТCD,588).

Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» masnaviysida:

til (تيل) – anat. «til»:

*Biligsiz tilı tutçı berklig keräk,
Biliglig kişi tilqa erklig keräk.*

«Nodonning tili doim berk bo‘lishi kerak, / Bilimlining tili so‘zga erkin bo‘lishi kerak» (QBN.41a,13);

Biliglig bilig berdi tilqa pışıy. – «Bilimli [ya‘ni Tangri] tilga pishiq bilim berdi» (QBN.13b,1).

til dan yasalgan so‘zlar:

tilday (تيداغ) – «yolg‘on»:

Sen aymış bu söz barça anday turur,

Haqiqat körü barča tilday turur.

«Sen aytgan soʻz barchasi oʻshandaydir [yaʻni toʻgʻridir], / Haqiqat koʻzi bilan qaralsa, (bularning barchasi) yolgʻondir» (QBQ.101b,3).

tilmač (تيلماچ) – «tilmoch, tarjimon»: *Uqušqa, biligkä bu tilmači til.* – «Uquvga, bilimga tilmosh – bu tildir» (QBN.13a,8).

til (تيل) – (1) «til; jamiyat tili»; ijtimoiy hodisa: *Qamuy til bilir ersä, ačsa tilig.* – «(Elchi) barcha tilni [yaʻni borgan mamlakatidagi tilni] bilsa, tilini soʻzga ochsa [yaʻni oʻsha tilda soʻzlasa]» (QBN.99a,8).

(2) «nutq; kishi nutqi»:

*Birisi bitigči, xatı belgülig,
Birisi yalawač, tili ülgülig.*

«Biri, xati belgili [yaʻni ravon, tushunarli] kotib, / Biri, nutqi oʻlchovli [yaʻni fikrlab, meʼyori bilan soʻzlovchi] elchi» (QBN.102b,1).

«Hibatu-l-haqoyiq»da shunday toʻrtlik bor:

*Ešitkil, biliglig negü dep ayur:
Adablar baši til, ködäzmäk turur.
Tiliğ bektä tutyıl, tišiğ sinmasun,
Xali čiğsa bektin, tišiğni siyur* (YugC.13,7–10).

Ushbu toʻrtlikdagi *bek-* «mahkam, mustahkam» degani, lekin bu oʻrinda koʻchma maʼnoda «qafas»dir.

Toʻrtlikda *adablar baši til* deyilganda, *til* – «kishining nutqi»; *tiliğ bektä tutyıl* deyilgandagi *til* – «nutq aʼzosi»ni anglatadi.

Sheʼrning maʼnosi shunday boʻladi:

«Eshitgil, bilimli kishi [yaʻni donishmand] nima deb aytadi: / Adablarning boshi til(dir, uni) saqlamoq kerak.

Tilingni berkdan [yaʻni qafasda] tutgʻil, tishing sinmasin, / Agar berkdan [yaʻni qafasdan] chiqqudek boʻlsa, tishingni sindiradi».

(3) «sir»:

*Qatıylanyu, ašnu til alyu keräk,
Bu tildin yayı qılqı bilgü keräk.*

«Mustahkamlanib, so‘ng (sir biluvchilar ko‘magida) til olish kerak, / Bu tildan [ya‘ni sirdan] yov qilg‘ini bilish kerak» (QBN.89b,4).

(4) «so‘z, gap; og‘zaki so‘z»: *Sözüñni tilin ay, tilini eşit.* – «So‘zingni til bilan ayt [ya‘ni og‘zaki ayt], tilini [ya‘ni so‘zini] eshit» (QBQ.155b,2).

(5) «istak, xohish»:

*Biligligkä sözlädim uşbu sözüm,
Biligsiz tilini bilümäz özüm.*

«Ushbu so‘zimni bilimliga so‘zladim, / Bilimsiz tilini [ya‘ni istagini] o‘zim tushuna olmadim» (QBN.14b,7).

til so‘zidan yangi so‘zlar va iboralar ham yasalgan:

til aç- (تیل اچ) – «til och-»: *Muni körsä kezlär, til açmaz, tuyur.* – «Nuqsonini ko‘rsa berkitadi, til ochmaydi, yashiradi» (QBQ.147b,16).

til al- (تیل ال) – «til ol-; sir bil-»: *Qatıylanyu, aşnu til alyu keräk.* – «Mustahkamlanib, so‘ng (sir biluvchilar yordamida) til olish kerak» (QBN.89b,4).

tilin ay- (تیلین ای) – «tilda ayt-, til bilan ayt-, og‘zaki ayt-»; elchiga buyruq: *Sözüñni tilin ay, tilini eşit.* – «So‘zingni til bilan ayt [ya‘ni og‘zaki ayt], tilini [ya‘ni so‘zini] eshit» (QBQ.155b,2).

tilin kön- (تیلین کون) – «tilda iqror bo‘l-»; e‘tiqodga nisbatan:

*Ani qodti, tutti könilik yolın,
Kirür-men könilikkä, köndüm tilin.*

«U (avvalgi niyatini) qo‘ydi, to‘g‘rilik yo‘lini tutdi, / Men to‘g‘rilik (yo‘li)ga rozi bo‘laman, tilimda iqror bo‘ldim» (QBQ.156b,14).

til (تیل) – *anat.* «til; inson tili»: *Tilim, tınma, öggil yaratıylını.* – «Tilim, tinma, maqta yaratuvchin» [ya‘ni Tangri taoloni] (QBN.20b,9).

(2) «molning tili; shifobaxsh et» sifatida:

*Öz inçlik tiläsä eräzi uzun
«Til» atlıy etig ye, tiril ey tüzün.*

«Vujudning farog‘ati, uzoq osoyishtaligini istasang, / «Til» deb ataluvchi etni yeb tur, ey sarishta» (QBN.168a,12).

Bu so‘zdan yasalgan *tilçi* (تیل چی) – «vositachi»:

Yalawaç tedüküm bu tilçi turur,

Bu tilči sözün aysa, ölmäz, qalur.

«Elchi deganim, bu – vositachidir, / Bu vositachi soʻzlarini aytsa, oʻlmaydi, qoladi [yaʼni elchiga oʻlim yoʻq]» (QBN.139a,8).

Eng muhimi, qoraxoniylar davri asarlarida ishlatilgan sof turkiy tilshunoslik atamaları oʻzining koʻpmaʼnoliligi bilan ham ajralib turadi.

Hozirgi anʼanaviy tilshunoslikda atama, yaʼni terminga nisbatan qatʼiy qoida ishlaydi: u bir maʼnoli boʻlmogʻi kerak, degan talab qoʻyiladi. Lekin bu talabni turkiy tarixiy tilshunoslikka nisbatan qoʻllash uqadar toʻgʻri emas, nazarimizda. Turkiy soʻzlarning atamaga aylanish jarayonida buni yaqqol kuzatish mumkin. Yaʼni ular koʻpmaʼnolilik xususiyatiga ega.

Buni bir qancha oʻrnakda koʻrib chiqamiz.

Shulardan biri *söz* (سوز) atamasi boʻlib, u ilkin maʼnoda «muayyan tushunchani bildiruvchi soʻz, kalom»ni anglatgan. Kishilar oʻrtasidagi oʻzaro muloqatda uning vazifasi kengayib, «gap», hatto «nutq»ni ham anglata boshlagan. Masalan, *sözlädi* deganda «soʻzni aytdi, talaffuz qildi» emas, «gapirdi; fikrini bildirdi; xabar berdi» anglashiladi.

Rasmiy muloqotda *söz* «yurt egasining buyrugʻi, elga qarata aytgan soʻzi»ni anglatgan. Yozuv yuzaga kelmasdan ancha burun, oʻzaro rasmiy muomaladan boshlab yurt egasining elga murojaati ham, jamoa orasidagi oʻzaro kelishuv munosabatlari ham *söz* dan boshlangan. Yurt egasi qoʻl ostidagi kishilarga, elga oʻz soʻzini, buyrugʻini aytgan.

Yozma hujjatchilik yuzaga kelgandan keyin ham *söz* kalimasi rasmiy bitiglarda ayni vazifada ishlatila boshladi. Jumladan, ilk oʻrta asrlarda yaratilgan yorliqlarning unvonlarida *sözüm* kalimasi qoʻllangan. U «bu mening farmonim, yorligʻim» degan maʼnoni anglatadi (Содиқов 2020,501–502). Masalan, Shohruh mirzoning Talxan ota mozorining mujovuri nomiga bergan yorligʻi *Šāhruh bahadur sözüm devānlaryā*; Sulton Umarshayxning Margʻilon ulugʻlaridan Mir Sayid Ahmadga bergan yorligʻi *Sultān ʻUmar-šayx bahadur sözüm devānlaryā*; Sulton Abu Saidning turk sultoni Hasan begga yoʻllagan bitigi *Sultān Abu Saʼid kārāgān sözüm* deb boshlangan (Содиқов 2016,144–158). Endi bu oʻrinda *söz* ilmiy atamaga (terminga) aylandi.

söz ning qoraxoniylar davri yodgorliklarida qoʻllangan maʼnolari quyidagicha:

(1) «soʻz, tushunca» maʼnosida keladi:

*Keyik tayi kördüm bu türkçä sözüg,
Ani aqru tuttum, yaqurdum ara.*

«Bu turkcha soʻzni togʻ kiyigidek koʻrdim, / Uni ohista tutdim, avrab (oʻzimga) yaqinlashtirdim [yaʼni oʻrgatdim]» (QBH.92b,30).



*Uquş körki til-ol, bu til körki – söz,
Kişi körki yüz-ol, bu yüz körki – köz.*

«Uquvning koʻrki tildir, bu til koʻrki – soʻz, / Kishining koʻrki yuzdir, bu yuz koʻrki – koʻz» (QBH.10a,23).

(2) «kishining nutqi»ni anglatadi:

*Bilip sözläsä söz, biligkä sanur,
Biligsiz sözi öz başini yeyür.*

«Soʻzni bilib soʻzlasa, donolik sanaladi, / Bilimsizning soʻzi oʻz boshini yeydi» (QBN.13b,3).

(3) «soʻz, muomala»ni bildiradi:

*Kitāblar oqir ham bilir ersä söz,
Uqar ersä šeʼr ham qoşar ersä öz.*

«(Elchi) kitoblar oʻqisa hamda soʻzni [yaʼni muomalani] biladigan boʻlsa, / Sheʼrni uqadigan boʻlsa hamda oʻzi ham toʻqiydigan [yaʼni sheʼr yozadigan] boʻlsa» (QBQ.76b,2).

(4) «aytilgan fikr, mulohaza»: *Bayat ati birlä sözüg başladı.* – «Xudo nomi bilan [yaʼni bismilloh bilan] soʻzini boshladi» (QBN.118b,2).

(5) «yorliq, farmon, buyruq»:

*Nečä ma bilig bilsä beglär özi,
Bitigçi keräk-ök bitisä sözi.*

«Beglarning oʻzi qanchalik bilimli boʻlmasin, / Yorliq (yoki xabar) yozgudek boʻlsa, albatta kotib kerakdir» (QBN.100b,2).

(6) «oʻgit, pand-nasihat, ibratli soʻz»:

*Señä sözlädım men sözüм, ey oʻyul,
Señä berdi bu pand özüм, ey oʻyul.*

«Senga soʻzimni soʻzladim, ey oʻgʻil, / Senga pand-nasihat qildim, ey oʻgʻil» (QBN.14a,5).

*Bu sözkä tanuyi maşal keldi, söz,
Bu söz işkä tutyıl, söziñ munda uz.*

«Bu soʻzga isbot uchun maqol, soʻz bor, / Bu soʻzni [maqolni] ishga tutgin, soʻzingni shu yerda uz» (QBH.8b,23).

«Hibatu-l-haqoyiq»da:

*Adib Ahmad otim, adab-pand söziüm,
Söziüm munda qalur, barur bu öziüm.*

«Adib Ahmad otim, adab-pand soʻzim, / Soʻzim bu (dunyo)da qoladi, oʻzim esa oʻtib boraman» (YugB.49,7–8).

(7) «sir, yashirin soʻz»:

Bu iki kişidä bolur barča söz. – «Barcha soʻz [yaʼni barcha sir] ana shu ikki kishida [kotib va vazirda] boʻladi» (QBN.100b,9).

(8) «taʼlim»:

*Qamuy nāḡä öñdi-törü bar, sözi,
Törü tüz yuritsa, yarur er yüzi.*

«Hamma narsaning tartib-qoidasi, taʼlimi bor, / Tartibni toʻgʻri tutsa, kishining yuzi yorugʻ boʻladi» (QBN.167a,2).

(9) «maslahat, koʻrsatma»:

*Nekü ter eşitkil otaçı sözi,
Munuñ maʼnisı uq, tirilgil qozı.*

«(Bu toʻgʻrida) tabib soʻzini [yaʼni koʻrsatmasini] eshitgin, nima deydi, / Buning maʼnisini uq, yashagin (ey) qoʻzi» (QBN.167b,14–15).

(10) «taʼrif, bayon»:

Tügäl boldi emdi aš-içgü sözi. – «Endi ovqat-ichimlik(lar) taʼrifi tugal boʻldi» (QBN.169a,3).

(11) «vaʼda»:

*Tilin sözlänmiş sözdän yanmaz erän,
Sözindän yanıylı işälär sanı.*

«Til bilan soʻzlangan soʻzdan er kishilar qaytmaydi, / Soʻzidan [yaʼni vaʼdasidan] qaytuvchi (kishi) xotinlar qatoridir» (QBQ.159b,7).

(12) «maʼlumot; xabar»:

Yana čiqti oylan, ayitti sozin,
Qayun kelmişin ham tiläkin, özin.

«Oʻgʻlon yana chiqdi, soʻzini [yaʼni xabarlarini] soʻradi, / Qayerdan kelganini hamda maqsadini, oʻzini (soʻradi)» (QBN.214a,2).

(13) söz «badiiy asar; kitob» maʼnosida ishlatilgan:

Yil altmış iki erdi tört yüz bilä,
Bu söz sözlädim men tutup jan serä.

Tügäl on sekiz ayda aydım bu söz,
Ödürdüm, adırtđım, söz ewdip terä.

«Toʻrt yuz oltmish ikkinchi yil edi, / Men jonni koyitib ushbu soʻzni soʻzladim [yaʼni asarni soʻzladim; asarni hikoya qildim].

Bu soʻzni [yaʼni asarni] oʻn sakkiz oyda tugal aytib boʻldim, / Tanladim, farqladim, soʻz(lar)ni yigʻib terdim» (QBH.93a,3–4).

(14) «oyat»ni bildiradi:

Yaşıl kökdin indi yayız yerkä söz. – «Soʻz moviy koʻkdan qoʻngʻir yerga tushdi [yaʼni ikki narsaga: (a) oyatlarga; (b) soʻzning ulugʻ va qutlugʻ ekaniga ishora]» (QBN.14b,15).

(15) «hadis»:

Yusuf Xos Hojib asarning naʼt boʻlimida yozadi:

Köñül badım emdi anıñ yolıña,
Sewip sözi tuttum bütüp qavlıña.

«Endi koʻngilni uning [yaʼni Muhammad alayhis-salomning] yoʻliga bogʻladim, / Qavliga inonib, sevib uning soʻz(lar)iga [yaʼni hadislariga] amal qildim» (QBN.9a,4).

Eski turkiy tilda söz dan yangi soʻzlar va iboralar ham yasalgan. Bular:

söz aç- (سوزاچ) – (1) «soʻz och-»:

Yanut berdi Ögdülmiş, aydı: Özüm
Tiläk birlä keldi, açayın sözüüm.

«Javob berdi O'gdulmish, aytdi: O'zim / Tilak bilan keldim, ochayin so'zim» (QBQ.149a,12).

(2) «sir och-, sir ayt-»:

*Bu iki kişikā söz açyu keräk,
Söz açsa, awaylari yüdgü keräk.*

«Bu ikki kishiga so'z ochish [ya'ni sir ochish] kerak, / So'z ochsa [ya'ni sir ochsa], (ularning) injiqliqlarini ko'tarish kerak» (QBN.100b,8).

söz açmaq (سوز اچماق) – «so'z ochmoq; sir aytmoq»:

*Birisi – bitig'çi, birisi – vazir,
Bu ikki kişikā söz açmaq tegir.*

«Birisi – kotib, birisi – vazir, / Bu ikki kishiga so'z ochmoqqa [ya'ni sir aytmoqqa] to'g'ri keladi» (QBN.100b,7).

söz ay- (سوز ای) – «so'z ayt-»: *Şakarda sücüg'räk söz aydım seňä.* – «Senga shakardan shirinroq so'z(lar) aytdim» (QBN.142b,3).

söz ayit- (سوز اییت) – «so'z so'ra-»:

*Ayit söz ularqa yemä bütmä terk,
Biligli bayat-ol, munı tutyu berk.*

«Ulardan so'z so'ra, shuningdek, darrov ishona qolma, / (Tugal) biluvchi Xudodir, buni qattiq tutish kerak» (QBN.159a,2).

söz başi (سوز باشی) – «so'zboshi»: *Söz başi. Küntuydi elig 'adl şifatini (ayur).* – «So'zboshi. Kuntug'di elig adl sifatini aytadi» (QBQ.4b,13).

söz bilig (سوز بیلک) – *adab.* «adabiyot; adab ilmi; so'z ilmi»:

*Munjar meñzätü sözlamiş söz bilig,
Bu söz işkä tutyıl, ey qılqı silig.*

«So'z ilmida bunga moslab so'z aytilgan, / Bu so'zga amal qilgin, ey xulqi muloyim» (QBN.152b,11).

söz çiqar- (سوز چیقار) – «so'z chiqar-, sir ayt-»:

*Bitig'ci-ilim'ya bolunsa özüñ,
Köñül sirri bek tut, çiqarma sözüñ.*

«O'zing maktub bituvchi bosh kotib bo'lsang, / Ko'ngil sirini yashirin tut, so'zingni chiqarma» (QBQ.126b,11).

söz kes- (سوز كس) – «so'z kes-, so'z tugat-»:

*Sözin kesti Ögdülmiş, aydi: Qadaş,
Bu yanli' turur 'ām yoriqi, adaş.*

«O'gdulmish so'zini tugatdi, aytdi: (Ey) qarindosh, / Avomning fe'l-atvori bu yanglig' bo'ladi, ey jo'ra» (QBN.165b,3).

söz qat- (سوز قات) – «so'z so'ra-»:

*Qaçan söz qatar ersä beglär seña,
Uzatma sözüñni, ey ersig toña.*

«Beglar sendan qachon so'z so'raydigan bo'lsa, / So'zingni cho'zma, ey javonmard bahodir» (QBQ.126a,8).

söz qiy- (سوز قی) – «so'zni buz-; va'dani buz-»:

*Yana-oq бүтүрди, ayur: Ey qadaş,
Sözüñ qiyma, kelgil, ey köñli tüdäş.*

«Yana qayta ta'kidladi, aytdi: Ey qarindosh, / So'zingni buzma, kelgin, ey ko'ngli yaqin» (QBQ.157a,15).

söz sözlä- (سوز سوزلا) – «so'z so'zla-, so'z ayt-, gapir-»: *Öküş sözlämä söz, birär sözlä, az.* – «So'zni ko'p so'zlama, bir-bir so'zla, oz (so'zla)» (QBN.13b,5).
söz suwı (سوز سقى) – «so'z suvi, ya'ni «ta'siri»:

*Öküş sözlämä söz, serin, til ködäz,
Öküş sözlämiş söz suwı qaldı az.*

«So'zni ko'p so'zlama, o'yla, tilni saqla, / Ko'p so'zlagan so'zning suvi [ya'ni ta'siri] oz qoladi» (QBN.156b,7).

söz tut- (سوز توت) – «so'z tut-; sir saqla-»:

*Bu iki kişidā bolur barča söz,
Bu söz tutmasa, öz işin buzdi öz.*

«Barcha soʻz [yaʻni barcha sir] ana shu ikki kishida [kotib va vazirda] boʻladi,
/ Ular soʻz saqlamasa [yaʻni sir saqlamasa], oʻz ishini oʻzi buzadi» (QBN.100b,9).

söz uzat- (سوز اوزات) – «soʻzni choʻz-»:

*Qačan söz qatar ersä beglär senä,
Uzatma sözüñni, ey ersig toña.*

«Beglar sendan qachon soʻz soʻraydigan boʻlsa, / Soʻzingni choʻzma, ey javonmard bahodir» (QBQ.126a,8).

söznüñ içi (سوزنونک ایچی) – *tilsh.* «soʻzning ichi, maʼnosi»: *Yana bilsä söznüñ içi ham taši.* – «Yana (elchi) soʻzning ichini [yaʻni maʼnosini] hamda tashini [yaʻni shaklini] (yaxshi) bilsa» (QBQ.75a,14).

söznüñ taši (سوزنونک تاشی) – *tilsh.* «soʻzning tashi, koʻrinishi, shakli» (QBQ.75a,14).

sözçi (سوزچی) – «soʻzchi, vakil»:

*Qatıy arzuladı seni körgükä,
Meni sözçi idti oqıp eltgükä.*

«Seni koʻrishni qattiq orzuladi, / Chaqirib, olib borishga meni vakil qilib yubordi» (QBQ.149a,14).

sözlä- (سوزلا) – (1) «soʻzla-, gapir-»: *Öküš sözläsä, yañşadı ter tilig.* – «Ortiqcha soʻzlasa, tilni ezma(landi) deyiladi» (QBN.13b,7).

(2) «igʻvo qil-»: *Bodun tili yawlaq, seni sözlägäy.* – «Xalqning tili yomon, seni igʻvo qiladi [soʻzma-soʻz. soʻzlaydi]» (QBN.13a,14).

sözlämäk (سوزلاماک) – «soʻzlamak»: *Sözlämäkmü yegräk azy şük turmaqmu?* – «Soʻzlamak yaxshiroqmi yoki jim turmoq?» (QBQ.5a,6).

iç söz (ایچ سوز) – «sir, yashirin soʻz»ni anglatadi:

*Bitigčikä ayğu keräk iç sözin,
Ködäzsä bitigči öküş ya azin.*

*Bu iç söz tutuylı bütün-čün keräk,
Bütünlökkä artuq bütün dın keräk.*

«(Hukmdor) kotibga ich soʻzni [yaʻni sirni] aytsa boʻladi, / (Qachonki) kotib (ich soʻzning) koʻp yoki ozini saqlay olsa.

Bu ich soʻz [yaʻni sir] tutuvchi chinsoʻzli, ishonchli boʻlishi kerak, / Bunga qoʻshimcha yana iymoni but boʻlishi kerak» (QBQ.78a,2–3).

Eski turkiy tilda keng koʻlamda va turli maʼnolarda ishlatilgan soʻzlardan yana biri *bitig* dir. Bu atama «yoz-, bit-» anglamidagi *biti*- feʼlidan yasalgan; -g – ot yasovchi qoʻshimcha. Endi buning maʼnolarini koʻrib chiqaylik.

Mahmud Koshgʻariyga koʻra:

bitig – «kitob».

bitig – «yozuv; yozmoq». Bu ayni chogʻda masdardir; *aniy bitigi belgölüg* – «uning yozuvi maʼlum, belgili».

bitig – «tumor» (oʻgʻuzcha) (TCД.247).

Yusuf Xos Hojibning «Qutadgʻu bilig» asarida *bitig* soʻzi quyidagi maʼnolarda ishlatilgan:

bitig (بتیک) – (1) tilsh. «yozuv»:

*Qamuy eǵgü sözlär bitigdä bolur,
Bitinmiş üçün söz unıtmas qalur.*

«Barcha ezgu soʻzlar yozuvda boʻladi, / Yozilgan boʻlgani uchun soʻz unutilmaydi, (mangu) qoladi» (QBN.101a,10) .

(2) *adab*. «kitob; asar»: *Sözüm sözlädim men, bitidim bitig.* – «Men soʻzimni soʻzladim, kitob yozdim» (QBN.19b,8).

(3) «qonun kitoblari»:

*Tetiglik bilä bilsä türlüg bitig,
Bitig bilsä, ötrü bolur er tetig.*

«(Elchi) tetiklik bilan turli bitiglarni [yaʼni qonun kitoblarini] bilsa, / Bitig [yaʼni qonun kitoblarini] bilsa, soʻng kishi tetik boʻladi» (QBQ.76a,15–16).

(4) «xat, maktub»:

*Davāt quldı, kāyid, bitidi bitig,
Bitig birlä etti işinkä etig.*

«Davot va qogʻoz soʻradi, maktub yozdi, / Maktub bilan ishiga zamin hozirladi» (QBN.118b,1).

(5) «hujjat»:

*Bilir bolsa tegmä bu türlüg bitig,
Anin saqlasa, ötrü qilsa etig.*

«(Hisobchi) har turli hujjatlarni biladigan bo'lsa, / Shu bilan ziyraklansa, so'ng ish qilsa» (QBN.104a,5).

(6) «xotira»:

*Ölürin bilip qilmış özkä etig
Bitip qodmiş atin tirigkä bitig.*

«O'lishini bilib o'ziga hozirlik ko'rgan (kishi) / Otini tiriklar uchun xotira qilib yozib qoldiradi» (QBN.16b,5).

(7) «o'git, nasihat»:

*Bu bitig oqiyil, nekü ter eşit,
Bilig birlä başlap, özüñkä eş et.*

«Bu o'gitni o'qigin, nima deyilgan eshit, / Bilim bilan boshlab, o'zingga esh qil» (QBQ.76a,11).

(8) «tumor»: *Bu aymış: bitig tutsa, yeklär yïrar.* – «Bu [ya'ni azayimxon] aytadi: tumor tutsa, jinlar qochadi» (QBN.158a,3).

bitig dan yangi so'zlar ham yasalgan:

bitigçi (بتیک جی) – (1) «kotib»:

*Bitigçi nekü-teg keräk ey tetig,
Añar beg inänip bitisä bitig.*

«Kotib qanday bo'lmogi kerak, ey zehnli, / (Toki) bek unga ishonib, xat yoza olsa» (QBN.100b,12).

(2) hisob-kitobni daftarlarga yozib boruvchi; hujjat ishini olib boruvchi: *Bitigçi keräk uz, qamuy xat bilir.* – «Bitigchi [ya'ni hisob-kitobni qayd etuvchi] mihir, hamma xat-hujjatni biladigan bo'lishi kerak» (QBN.103b,13).

bitigçi-ilimya (بتیک جی ایلیمغا) – bitigçi – umumiy ma'noda «kotib, xat bituvchi»; *bitigçi-ilimya* esa «xonning xat va yorliqlarini bituvchi kotib»dir: *Ögdülmish eligkä bitigçi-ilimya nekü-teg keräkin aytur.* – «O'gdulmish eligka xat bituvchi kotib qanday bo'lmofi kerakligini aytadi» (QBN.100a,14).

Mahmud Koshg'ariyga ko'ra: *ilimya* – shoh maktublarini «turk xati» (خط التركيه) bilan yozuvchi kotib (ТЦД.119).

Yodgorliklarda «yozma til» va «nutq»ni anglatuvchi atamalar

Qadimgi va eski turkiy yozma yodgorliklarda tilshunoslik atamalarining ayrimlari birikma shaklida ham ishlatilgan.

bitig söz (بتیک سوز) – (1) yozma so'z; matn; eligning yorlig'i:

*Neçä ma özüm sözläsä söz tilin,
Elig yarlıyï – bu bitig söz adin.*

«Men tilda qancha so'z so'zlaganim bilan, / Eligning yorlig'i – bu yozma so'z boshqadir» (QBQ.95b,2–3).

(2) *tilsh.* yozma nutq; yozma adabiy til:

*Balāyat bilä xat tenäšsā qalï
Eđi eđgü til bu bitig söz tili.*

«Agar fasohat bilan (chiroyli) xat tenglashsa, / Bu yozma nutq tili juda ezgu til bo'ladi» (QBN.101a,8).

bitig söz yañï (بتیک سوز ينجی) – *tilsh.* «yozma nutq usuli»: Eđi eđgü yañ bu bitig söz yañï. – «Yozma nutq usuli juda yaxshi usuldir» (QBN.101a,9).

Adib Ahmad Yugnakiy «Hibatu-l-haqoyiq»da «nutq» ma'nosida *til söz* (تیل سوز) atamasini ishlatgan. Mana uning o'rnagi:

*Xiradliq-mu bolur tili boş kişi?!
Telim bašnï yedi bu til söz boşı* (YugC.14,4–5).

Keltirilgan o'rnakdagi *til söz boşı* birikmasini R.R. Arat turkcha o'girmada *boş-boğazlık ve ağız gevşekliği* deb bergan:

Boş-boğaz adam akıllı olur mu?;
bu boş-boğazlık ve ağız gevşekliği çok başları yedi (Arat 1992,87).

Adib Ahmadning bu so'zlari qozoqcha o'girmasida shunday:

Тілін тартпаған кісіні ақылды деуге бола ма?
Тіл мен сөздің бастығы талай басты жеді (Йүгінеки,53).

Vaholanki, ushbu birikmadagi *til söz* – «til va soʻz» emas, balki «nutq» degani; *til söz boş* esa «nutqqa erk berish», yaʼni «tilga erk berish» anglamidadir. Shunga koʻra, Adib Ahmad soʻzini shunday oʻgʻirish mumkin:

«(Hech bir zamonda) tili boʻsh [yaʼni tiliga erk beruvchi] kishi aqlli boʻlarmidi?!

Bu nutqning boʻshi [yaʼni nutqqa, tilga erk berish] koʻp kishining boshini yedi».

til söz atamasini «nutq; ogʻzaki soʻz» anglamida Yusuf Xos Hojib ham ishlatgan:

*Kişi köñli bilgü tanuq erdi til söz,
Köñül til ala boldi, kimkä bütäyi.*

«Nutq kishi koʻnglini bilish uchun belgi edi, / Koʻngil (bilan) til ola boʻldi [yaʼni bir-biriga teskari boʻldi], kimga ishonayin» (QBQ.193a,16).

Yusuf Xos Hojib «ogʻzaki soʻz, nutq» anglamida *tilin söz* (تيلين سوز) atamasini ham qoʻllagan:

*Yoq ersä bitig bu kişilär ara,
Tilin sözkä kim bütgäy erdi kör-ä.*

«Bu kishilar orasida yozuv boʻlmaganida / Ogʻzaki soʻzga kim ham ishongan boʻlardi, koʻrgin-a» (QBN.101a,13).

Yana Adib Ahmad «nurq»ni *ayiz til* (اغيز تيل) ham degan. Mana uning misoli:

*Ayiz til bezägi köni söz durur,
Köni sözlä sözni, tiliñni bezä* (YugC.16,5–6).

R.R. Arat *ayiz til bezägi* birikmasini turkcha oʻgʻirmada *ağzın ve dilin ziyneti* deb bergan:

*Ağzın ve dilin ziyneti doğru sözdür;
sözü doğru söyle, dilini süsle* (Arat 1992,88).

Adib Ahmadning bu soʻzlari qozoqcha oʻgʻirmasida shunday:

Тіл мен жақтың көркі – шын сөз,
Шын сөйле, әңгімеңді тартымды ет (Йүгінеки,53).

Vaholanki, ushbu birikmadagi *ayiz til* – «og‘iz va til» emas, balki «nutq»; *ayiz til bezagi* esa «nutqning bezagi»dir. Shuningdek, *tiliyni bezā* deganda ham, *til* – «nutq»ni anglatadi; «nutqningni beza» degani. Shunga ko‘ra, Adib Ahmad aytgan o‘gitning ma‘nosi quyidagicha bo‘ladi:

«Nutqning bezagi to‘g‘ri so‘z turur,
So‘zni to‘g‘ri so‘zla, tilingni [ya‘ni nutqningni] beza».

Tuganchi

Til bilimi sohasida ilk va o‘rta asrlarning sharq, xususan, turkiy tilshunosligi g‘arb ilmidan ancha ildamlab ketgan edi. Ilk o‘rta asrlar tilshunosligida til bilimi atamaları tizimi tugal bir ko‘rinishda ishlab chiqilgan. Qoraxoniylar davri asarlarida ularning katta bir bo‘lagi tamg‘alanib qolgan.

Qoraxoniylar davri adabiy tili yozma manbalarda *türkçä*, *türki*, *türk luḡati* atamaları bilan bir qatorda, «xoqoniya turkchasi» (*at-turkiyyatu-l-xaqaniyya*), *buyraxan tili*, *xan tili*, *kāšyarî til* ~ *kāšyar tili* deb ham atalgan.

Temuriylar davridagi *čiyatay tili* ~ *čayatay lafzi*, ko‘p jihatdan, qoraxoniylar davri yozma adabiy tili, yozma adabiyoti va yozuv madaniyati an‘analarini tutdi. *Čiyatay tili* qoraxoniylar davri yozma adabiy tilining davomidir.

Hozirgi an‘anaviy tilshunoslikda atamaga nisbatan belgilangan o‘lchovlar turkiy tarixiy tilshunoslikka nisbatan to‘g‘ri kelmaydi. Turkiy so‘zlarning atamaga (=terminga) aylanish jarayonida buni yaqqol kuzatish mumkin. Turkologlar qadimgi turkiy so‘zlarning atamaga aylanish qonuniyatlariga tayanib, atamashunoslik o‘lchovlarini yangidan ishlab chiqmog‘i kerak.

Eski turkiy yozma yodgorliklarida ishlatilgan atamalar tizimi ilk o‘rta asrlarda tilshunoslik, turk jamiyatida, xususan, olimlar va o‘qimishlilar doirasida lisoniy bilim va tasavvurlar yuqori bosqichda ekanidan dalolat qiladi. Muhim jihati shundaki, ushbu atamalarning aksariyati turkiy so‘zlardan iborat. Til bilimi atamaları tizimining turg‘un bir tizimga tushuvi va takomillashuvida o‘sha davr shoirlari, tilshunolarining xizmati ulug‘dir.

Havola etilayotgan yozma manbalar:

ТСД – Маҳмуд Қошғарий. Туркий сўзлар девони [Dīvānu luḡati-t-türk]. Нашрга тайёрловчи Қ. Содиқов. – Истанбул, 2021.

Yug – Adib Ahmad Yugnakiyning «Hibatu-l-haqoyiq» asari: Arat 1992: A – asarning 1444 yili Samarqandda ko‘chirilgan uyg‘ur yozuvli nusxasi: S. I–LXII; B – asarning 1480 yili Istanbulda uyg‘ur yozuvida yozilib, tagma-tag arab xatida o‘qilishi berilgan nusxasi: S. LXIII–CXVII; C – asarning XVI yuzyilda arab xatida ko‘chirilgan nusxasi: S. CXVIII–CLXVI.

Йүгінеки – Ахмед Йүгінеки. Ақиқат сыйы. Түпнұсқаның фотокөшірмесі, транскрипциясы, прозалық және поэтикалық аудармасы. Баспаға дайындағандар: Ә. Құрышжанов, Б. Сағындықов. – Алматы, 1985.

QB – Yusuf Xos Hojibning «Qutadgʻu bilig» asari: H – Vena (Hirot) nusxasi: Wien, ÖNB, Cod. A.F.13: Радлов В.В. Кутадку-Билик. Факсимиле уйгурской рукописи. – СПб., 1890; Yusuf Has Hacib. Kutadgu Bilig. A. Viyana Nüshası (Tıpkıbasım). – Ankara, 2015; N – Namangan (Fargʻona) nusxasi: OʻzR FA Sharqshunoslik instituti, 1809 koʻrsatkichli qoʻlyozma. Yusuf Has Hacib. Kutadgu Bilig. B. Fergana Nüshası (Tıpkıbasım). – Ankara, 2015; Q – Qohira nusxasi: Misr Milliy kutubxonasi, 168- koʻrsatkichli qoʻlyozma: Yusuf Has Hacib. Kutadgu Bilig. C. Kahire Nüshası (Tıpkıbasım). – Ankara, 2015.

Ilmiy asarlar:

Arat 1992 – Edib Ahmed b. Mahmud Yükeki. Atebetü'l-Hakayık. R.R. Arat. – Ankara, 1992.

Насилов 1974 – Насилов В.М. Язык тюркских памятников уйгурского письма XI–XV вв. – Москва, 1974.

Содиқов 2016 – Содиқов Қ. Илк ва ўрта асрларда яратилган туркий хужжатлар. Тошкент, 2016.

Содиқов 2020 – Содиқов Қ. Эски ўзбек ёзма адабий тили. – Тошкент, 2020.

QADIMGI TURKIY ADABIY MANBALARI UYGʻUNLIGIGA OID KUZATUVLAR

NASIMXON RAHMONOV

Oʻzbekiston milliy universiteti professori, filologiya fanlari doktori

Annotatsiya. Ushbu maqolada Mahmud Koshgʻariyning “Devonu lugʻatit-turk” asaridagi sheʻriy parchalarining adabiy manba sifatidagi qiymati va qadimgi turkiy adabiyotdagi oʻrni tahlil qilinadi. Muallif ushbu parchalarning ham xalq ogʻzaki ijodi, ham individual ijod mahsuli ekanligini, shuningdek, ularning islomdan oldingi davrga aloqadorligini taʼkidlaydi. Maqolada turkologlarning (K.Brokkelman, P.Pelo) sheʻriy parchalarning tuzilishi (qofiya, alliteratsiya) borasidagi munozaralari koʻrib chiqiladi. Asosiy eʼtibor “Devonu lugʻatit-turk”, Urxun-Yenisey yodnomalari va “Qutadgʻu bilig” oʻrtasidagi gʻoyaviy, syujet va didaktik mazmundagi uzviylikka qaratilgan. Xususan, Tangutlarga qarshi jang lavhalari va oʻgit-nasihat mazmunidagi fardlar qiyosiy tahlil qilinib, qadimgi turkiy adabiy anʼananing uzluksizligi isbotlanadi.

Tayanch tushunchalar: Devonu lugʻatit-turk, qadimgi turkiy adabiyot, Qutadgʻu bilig, Urxun-Yenisey yodnomalari, sheʻriy parchalar, anʼanaviylik, didaktika, folklor, qoraxoniylar davri adabiyoti.

Аннотация. В данной статье анализируется значение поэтических фрагментов из произведения Махмуда Кашгари «Диван лугат ат-турк» как литературного источника и их место в древнетюркской литературе. Автор подчеркивает, что данные фрагменты являются как продуктом народного устного творчества, так и результатом индивидуального авторского

творчества, а также связаны с доисламским периодом. В статье рассматриваются научные дискуссии тюркологов (К. Броккельман, П. Пелльо) относительно структуры поэтических фрагментов, в частности вопросов рифмы и аллитерации. Основное внимание уделяется идейной, сюжетной и дидактической преемственности между «Диван лугат ат-турк», орхон-енисейскими памятниками и «Кутадгу билиг». В частности, проводится сравнительный анализ сцен сражений с тангутами и дидактических афористических изречений, что доказывает непрерывность древнетюркской литературной традиции.

Ключевые слова: Диван лугат ат-турк, древнетюркская литература, Кутадгу билиг, орхон-енисейские памятники, поэтические фрагменты, традиционность, дидактика, фольклор, литература караханидского периода.

Abstract. This article analyzes the value of the poetic fragments found in Mahmud al-Kashgari's "Dīwān Lughāt al-Turk" as literary sources and their place in ancient Turkic literature. The author emphasizes that these fragments are both products of folk oral creativity and individual authorship, as well as being related to the pre-Islamic period. The article examines scholarly debates among Turkologists (K. Brockelmann, P. Pelliot) regarding the structure of the poetic fragments, particularly issues of rhyme and alliteration. Special attention is paid to the ideological, narrative, and didactic continuity between "Dīwān Lughāt al-Turk", the Orkhon-Yenisei inscriptions, and "Qutadghu Bilig". In particular, battle scenes against the Tanguts and aphoristic didactic verses are comparatively analyzed, demonstrating the continuity of the ancient Turkic literary tradition.

Keywords: Dīwān Lughāt al-Turk, ancient turkic literature, Qutadghu Bilig, orkhon-Yenisei inscriptions, poetic fragments, traditionalism, didacticism, folklore, karakhanid period literature.

“Devonu lug‘atit-turk” adabiy manba sifatida ham qimmatli yodgorlikdir. Asardagi she’riy parchalar X1 asrgacha bo‘lgan adabiy hayot to‘g‘risida to‘laonli so‘z yuritishga imkon beradi. Bu she’riy parchalar ma’lum bir so‘zning izohi uchun keltirilgan bo‘lsa-da, bu parchalar qadimgi turkiy adabiyotda lirik va epik janrning rivoj topganidan dalolat beradi. Koshg‘ariy keltirgan mazkur she’riy parchalar turli mavzuda – mehnat, yorning ta’rif-tavsifi, turk bahodirlarining qahramonliklari, ezgulikka da’vat, vatanparvarlik va h. She’riy parchalarni Mahmud Koshg‘ariy xalq og‘zidan yozib olgan.

“Devon”dagi she’riy parchalar ko‘p turkologlar o‘rtasida munozaraga sabab bo‘lib kelgan. Ko‘pchilik yevropalik turkologlar “Devon”da keltirilgan to‘rtliklarni dastlab turkiy xalqlarning qadimgi folkloriga mansub deb qaragan edilar. Jumladan, nemis turkolog olimi K. Brokkelman shunday fikrni aytgan edi. Ammo u “Devon”dagi ikkilik va to‘rtliklar unutilib ketgan ma’lum bir shoirlar ijodiga mansubligini ham e’tibordan chetda qoldirmaydi. Uningcha, bu to‘rtlik va ikkiliklar asar yozilgan davrdan ilgari mavjud edi va islom davriga hech qanday aloqasi yo‘q.

Ayni paytda “Devonu lug‘atit-turk”dagi ba’zi she’riy parchalar ma’lum bir ijodkor qalamiga mansub ekanligini Koshg‘ariyning ishorasidan bilish mumkin. Koshg‘ariy ko‘p o‘rinlarda “shoir aytadi” iborasini ishlatadi va bir to‘rtlik keltiradi:

Izimni o‘karman,
Bilikni yugarman.
Ko‘ngulni tugarmen,
Erdam uza turgunur (II, 282)

(Shoir aytadi: Egamni maqtayman, uning madadi bilan ilmni yig‘aman. Ko‘ngilni shunga bog‘layman, ilmu hunar to‘plashga ko‘nglim berilgandir).

Bundan tashqari, ilm manfaati haqidagi to‘rtliklar yoki fardlar ham bevosita yozma adabiyotning mahsulidir, ya’ni ma’lum bir shoir ijodiga mansubdir. Zotan, ilm manfaati haqidagi o‘gitlar Qoraxoniylar davri adabiyotining muhim xususiyatlaridandir:

O‘gran aning biligin,
Kunda angar baru.
Qutqilig‘in taping‘il
Qo‘zg‘il kuvaz naru (II, 161-162)

(Agar bilimdon odamga yo‘liqsang, har kun unga bor, yaxshi muomala bilan uning ilmu hikmatlarini o‘rgan, takabburlikni tashla).

O‘sha shoirlar xalq orasida mashhur bo‘lganlari uchun ham Koshg‘ariy ularning ismini aytib o‘tirmagan. Ba’zi shoirlarning (masalan, Cho‘chu) ismini aytib o‘tgan, xolos.

Quyidagi fard ham “Devonu lug‘atit-turk”ka Qoraxoniylar davridan oldingi va o‘sha davrdagi didaktik adabiyotning ta’sirini ko‘rsatadigan dalillardan biridir:

Qo‘ldash bilan yarashg‘il, qarshib adin urdurma,
Bek tut yavash taqag‘u suvin yazin adirma (II jild, 18-b.)

(Qo‘ldosh (suhbatdosh)ingni hurmat qil, yaxshi muomalada bo‘l, qarshilik qilib, uni tashlab, boshqa bilan bo‘lma. Uydagi tovuqni boqolmay qochirib yuborib, durrojni boqaman deb ovora bo‘lma).

Quyidagi baytni ham, yuqoridagi fard singari, biron shoir ijodiga mansub deb qarash maqsadga muvofiqdir:

O‘g‘ulum, senga qo‘zurman ardam o‘gut xumaru,
Bilga erig bo‘lup sen baqqil aning tabaru (III, 445)

(O‘g‘lim, senga meros qilib ezgu xulq, odobni qoldiraman. Agar ilimli, aqlli odamlarga yo‘liqsang, ularga yaqinlash, ulardan foydalan).

Yoki quyidagi baytni ham fard janriga mansub deb qarash mumkin:

Kelsa kishi etma angar o'rtar kula,
Baq qil angar ezgulugung ag'sin qula (1, 149).

(Senga kular yuzli bir kishi kelsa, sen uning yuziga issiq kul sochma, yaxshilik qil, yoqimli qiliq bilan hurmatla.)

“Devon”dagi she'riy parchalar misralari teng bo'g'inli (yetti bo'g'indan o'n to'rt bo'g'inga) qofiyalangan she'rlar ekani yuqoridagi parchalardan ayon bo'lib turadi.

V.V.Bartold “Devonu lug'atit-turk”dagi she'riy parchalarga nisbatan siyosiy tomondan yondashgan edi. Uningcha, “Devonu lug'atit-turk”dagi she'rlar orasida xuddi “Qutadg'u bilig”dagi singari, saroy adabiyotiga xos xususiyatga ega bo'lgan to'rtliklar ham bor. Buning isboti sifatida V.V.Bartold quyidagi to'rtlikni keltiradi:

Turkan qatun qutinga,
Tegur mendin qo'shug',
Ayg'il sizing tabug'chi
O'tnur yangi tabug' (1, 357).

(Malika (shoh) xotinga mendan maqto'v, qasida (qo'shiq) yetkazgin, xodimingiz yangi xizmat bilan yo'llanadi, deb ayt.)

Mazkur to'rtlik, garchi shaklan xalq og'zaki ijodiga xos to'rtlikni gavdalantirsa ham, aniq bir obraz (Turkon malika)ning mavjudligi, didaktik mazmun ifodalangani bilan individual she'riyatga mansub deb qaralsa, maqsadga muvofiq bo'ladi va V.V.Bartoldning qarashlari o'rinli ekani o'z isbotini topadi.

Ayni paytda “Devonu lug'atit-turk”da shakl jihatidangina emas, balki mazmun tomondan “Qutadg'u bilig”ga monand didaktik mazmundagi parchalar ham borki, bu parchalarda barqaror adabiy muhit, ma'lum izga tushgan ijtimoiy hayotning in'ikosini ko'ramiz. Qolaversa, “Qutadg'u bilig”da Yusuf uzoq o'tmishdagi donishmandlarning asarlariga tayanganini aytadi va ularning o'gitlaridan iqtiboslar keltiradi. Keltirilgan iqtiboslarning deyarli hammasi didaktik mazmunda. Yusuf keltirgan qadim donishmandlarning iqtiboslari xalq orasida maqol va matallar singari tarqalgani shubhasiz. Bunday jarayon adabiyot tarixida ko'p uchraydi.

Mana shu adabiy qonuniyatga tayanib, Yusuf asarida keltirgan donishmandlarning o'gitlari, hikmatlari “Qutadg'u bilig” uchun qanchalik xizmat qilgan bo'lsa, “Devonu lug'atit-turk” uchun ham shunchalik jiddiy va ishonchli manba bo'lgan. Namuna sifatida “Devonu lug'atit-turk”dagi va “Qutadg'u bilig”dagi mazmunan o'xshash bo'lgan ayrim fardlarni qiyoslaymiz:

“Devonu lug'atit-turk”da:

Ulug'luq bo'lsa sen ezgu qilin,
Bo'lg'il kishig beglar qatin yaxshi ulan (1,95).

(Daraja yoki martaba topsang, xulqingni chiroyli qil, amirlar oldida yaxshilik yetkazuvchi, xalqning ishlarini yaxshi qabul qiluvchi bo'l.)

“Qutadg'u bilig”da:

Qilinch et, yo'ruq tuz, o'zungni tutun,
Ko'ngul til ko'ni tut, bishirg'il so'zung.
(Xulqingni to'g'rila, yo'riqni tuzat, o'zingni tut,
Ko'ngil, tilni to'g'ri tut, so'zingni pishiq qil) [3957]

“Devonu lug‘atit-turk”da:

Bo‘lmish nangig sevarsan, aqrun angar sevingil,
Barmish nengig saqinma, azraq angar o‘kungil (III, 372)*

(Bor molingni sevasan, unga kamroq sevin, chunki u sendan (ya'ni qo'lingdan) chiqib ketishi mumkin. Qo'lingdan ketgan narsa uchun qayg'urma, unga ozroq sevin. Chunki achinish senga (qo'lingdan chiqib ketgan narsalarni) qaytarib bermaydi)

“Qutadg‘u bilig”da:

Kuvanma bu qutqa, kelip ham barir,
Inanma bu davlat berur ham alir [680]

(Bu mol-davlatga quvonib g‘ururlanma, u keladi va yana ketadi, Bu davlatga ishonma, uni beradi va yana oladi)

*Mazkur she'riy parcha “Devonu lug‘atit-turk”da to‘rtlik shaklida berilgan, yuqoridagi fardga shaklan va qofiyalanish tizimi bo‘yicha o‘xshash bo‘lgani uchun, biz ikkilik shaklida berdik.

“Devonu lug‘atit-turk”dagi she'riy parchalar yuzasidan yevropalik olimlar bildirgan mulohazalar anchayin diqqatga sazovor. Asardagi to‘rtliklar turkiy she'riyatning qadimgi namunalaridir degan K.Brokkelmanning fikrlari P.Peloning qarashlarini shubha ostiga qo'ydi. P.Pelo moniylik she'rlari yuzasidan olib borgan tadqiqotlarida, qadimgi turkiy she'riyat qofiyali emas, balki alliteratsiyali she'r bo'lgan degan xulosaga kelgan edi. Alliteratsiya, uningcha, misralar boshida keladi va she'rni bir tizimga soladi. Pelo “Devonu lug‘atit-turk”dagi to‘rtliklarning qofiyalanishini fors she'riyati ta'siridir deb qaraydi. “Qutadg‘u bilig”ning she'r tuzilishida fors she'riyatidagi qofiya o'z izini qoldirgan va bu haqda yetarli fikrlar aytilgan.¹

Alliteratsiyali she'r xususida. Moniylik oqimidagi she'rlarga e'tibor berilsa, haqiqatan, alliteratsiyaning misralar boshida qo'llanganini kuzatish mumkin. Masalan, “Tong tangrisi” nomli madhiya alliteratsiya izchil qo'llangan she'rning yaqqol namunasidir. She'rni to'liq keltiramiz.

Tang tangri keldi,
Tang tangri o'zi keldi,
Tang tangri keldi,
Tang tangri o'zi keldi.

Turunglar qamug' baglar, qadashlar,
Tang tangrig ogalim.

¹ Тўхлиев Б. Юсуф хос Ҳожиб ва туркий қофия тараққиёти. Тошкент, 1994.

Korugma kun tangri,
Siz bizni kuzating,
Korunugma ay tangri,
Siz bizni qurtgaring.

Tang tangri,
Yidlig‘, yiparlig‘,
Yarug‘lug‘, yashuqlug‘
Tang tangri
Tang tangri.

Tang tangri,
Yidlig‘, yiparlig‘,
Yarug‘lug‘, yashuqlug‘
Tang tangri
Tang tangri.¹

Misralar boshidagi *t, y, k, s* undoshlarining takrori alliteratsiyali she‘rni yuzaga keltirgan. Bu she‘rda “Devonu lug‘atit-turk”dagi singari qofiya qo‘llanmagani uchun hijolar tengligi yo‘q. Alliteratsiyali she‘rda hijolar tengligi bo‘lishi shart emas. Ritm va ohang alliteratsiya bilan birga takror orqali ham yuzaga kelaveradi.

Moniylik she‘rlari kuzatilganda, alliteratsiya usuli she‘riyatning muhim xususiyatlaridan biri bo‘lgani ko‘rinadi. “Bizing Tangrimiz adgusi radni tiyur”, Aprinchur tiginning boshlanishi o‘chib ketgan she‘ri, “O‘lim tasviri”, “Moniyga atalgan madhiya” kabi she‘rlarda alliteratsiyali she‘r qadimgi turkiy she‘riyatning tuzilishida asosiy omil ekanini ko‘rsatadi.

Ammo moniylik mazmunidagi she‘rlarning hammasi qofiyasiz bo‘lgan ekan, degan xulosa kelib chiqmasligi kerak. Qofiya moniylik she‘rlarining tayanch nuqtalaridandir. Masalan, “Do‘zax tasviri” she‘ridagi quyidagi parchalarga e‘tibor beraylik:

Tupinta olukma *olmaki* bar,
Tunarig tamuqa *tushmaki* bar.
Tumanlig yaklar *kelir* tiyur,
Tumanlig yaklar *ayar* tiyur
(Oxiri insonning o‘lmog‘i ham bor,
Qorong‘u do‘zaxga tushmog‘i g‘am bor.
O‘n minglarcha shayton keladi derlar,
O‘n minglarcha shayton ish ko‘rar derlar.)

Bunday misollarni moniylik she‘rlaridan ko‘plab uchratish mumkin.

¹ Resid Rahmati Arat. Eski turk siiri: 1991, 8-35-s.

“Devon”dagi she’rlar haqida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:
 1. Mahmud Koshg’ariyning “Devonu lug’atit-turk” asaridagi she’rlar ham xalq og’zaki ijodiga, ham individual she’riyatga mansub.
 2. Matnlar islomdan oldingi davrga aloqador.
 Urxun yodnomalari bilan “Devonu lug’atit-turk” qiyoslanganda, badiiy fikrlashning eng umumiy tamoyillari urxun yodnomalarida ham, «Devon»da bir ekanligi ayonlashadi.¹

“Devonu lug’atit-turk” va yenisey yodnomalaridagi jang lavhalari bir-biriga motiv va syujet jihatidan shunchalik uyg’un keladiki, “Devon”dagi to’rtliklar “islomdan oldingi O’rta Osiyo xalqlarining eposi”ga² aloqadorligi ma’lum bo’ladi. Fitratning ko’rsatishicha, “Devon”dagi to’rtliklar milodiy VII-VII asrlarga oid adabiy manbalardir. Qadimgi turkiy adabiyotdagi - urxun-yenisey yodnomalaridagi an’ana Qoraxoniylar davri adabiyotiga uzluksiz o’tgani haqidagi fikrlar shunday parchalarda o’z tasdig’ini topadi. Jumladan, A.Bombachi qadimgi turkiy adabiyot bilan “Qutadg’u bilig” o’rtasidagi aloqani tarixiy sharoit bilan bog’laydi: “Turkiylar uchun islomgacha bo’lgan davrdan islomga o’tish birdaniga bo’lmagan edi. An’ananing uzluksizligi Qoraxoniylar adabiyotida yaqqol kuzatiladi. Til ilgari qanday bo’lsa, shundayligicha qoldi”.³ Qadimgi turkiy adabiyotning chegarasini aniqlashda til nihoyatda muhim.

Bombachining yuqoridagi fikri uchta manba – urxun- yenisey yodnomalari, “Devonu lug’atit-turk” va “Qutadg’u bilig”ga tegishli. Turkologiyada “qadimgi turkiy adabiyot” va “qadimgi turkiy til” nomi ostida XI asrgacha bo’lgan turkiy tildagi yodgorliklar nazarda tutiladi va bu o’zini oqlaydi.

Gap “Devonu lug’atit-turk” va urxun- yenisey yodnomalarining tilidagi umumiylik va bu manbalardagi tasvirning uyg’unligi haqida ketar ekan, yana Fitratga murojaat etamiz. U yuqoridagi asarida “Devon”dagi bir necha epik asar parchalarini tiklaydi. Ular mazmun, ruh, poetik jihatlari, voqealar mazmuni jihatidan xalq eposlariga taalluqli ekanligi yaqqol sezilib turadi. Fitrat “Devon”dagi to’rtliklarni mazmuniga ko’ra o’n besh bo’limga guruhlaydi. Biz bu o’rinda VII (Tangut boshining urushi, 53-58- betlar), VIII (Uyg’urlar bilan urush, 58-60-betlar), XII (Bir urush, 74-78-betlar), XIII (Uch urush, 72-74-betlar) bo’limlaridagi to’rtliklarning yodnomalardagi parchalarga nafaqat g’oya va mazmun tomondan, balki tarixiylik nuqtai nazaridan ham uyg’un kelishini ta’kidlamoqchimiz. Misol uchun “Tangut boshining urushi” deb nomlangan bo’lim to’rtliklarida (8 to’rtlik) jang manzarasi tasvirlangan.

Qatun sini jig’iladi,
 Tangut bosh yag’iladi,

¹ Қаранг: Раҳмонов Н. Кўҳна битигтошлар. Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа бишлашмаси. Тошкент, 1991, 14-бет.

² Ўзбек фольклорининг эпик жанрлари. Тошкент, Фан, 1981, 88-бет.

³ Бомбачи А. Тюрские литературы. Введение в историю стиля. “Зарубежная тюркология” тўплами. М.: 1986, 208-б.

Qani ag'ib jag'iladi,
O'yin suvin qizil sag'di.

(Qatun sini qabilasi qichqirishib, g'ulg'ula solib, tangut begiga dushman bo'ldi, urush ochdi, (oqibatda) bo'ynidan zil suv sog'ilgan kabi bo'lib, qoni vijillab oqdi.)

Bu to'rtliklardagi tarixiy voqealar turk xoqonligi davrida yuz bergan. Qiyos uchun Bilga xoqon yodnomasidagi tangutlar bilan bo'lgan jang lavhasiga to'xtalaylik.

Yati yigirmi yashima tangut tapa suladim. Tangut bodunin buzdim, og'lun, yutuzin, yilqisin, barimin anta altim (Bx, 24) – O'n yetti yoshimda tangutga lashkar tortdim. Tangut xalqini yengdim, o'g'lini, xonumonini, yilqisini, molini o'shanda oldim.

Bu voqea VIII asrning boshlarida – taxminan 702 yilga to'g'ri keladi. Ammo tarixiy voqealarning aynan nusxasini “Devon”dan qidirish shprt emas. “Devon”dagi to'rtliklar xalqning ijodi sifatida paydo bo'lgan, ya'ni ular xalq qo'shiqlaridir. Quyidagi parchada ham Bilga xoqon yodnomasidan keltirilgan parchadagi singari jang tasviri va tangutlarning mag'lubiyati tasvirlangan:

Tangut susin ushuqladi,
Kishi ishin elikladi,
Aran atin balqiladi,
Bulun bolup bashni tig'di.

(Tangut qo'shinini sovuqda bosdi. Bu ish bilan erkaklar ishini masxara qildi. Bosqinda barcha er ham otlarni har kimga bo'lakladi (ya'ni hadya qildi). Oxirida o'zi asir bo'lgach, boshi kesildi.)

Tangut xani yubildi,
O'lum birla tubuldi,
Qazashlari tabladi,
O'lum ko'rub yuzi ag'di.

(Tangut xoni uni boshdan aldadi-da, so'ngra o'lim bilan tepaladi, yengdi, qarindoshlari uning bu mag'lubiyatidan orlandilar. Chunki o'limni ko'rgach, uning yuzi oqargan edi.)

Mazkur to'rtliklarda jang tasviri, qahramonlarning xatti-harakatlari, holati batafsil tasvir etilgan. Chunki epik bayon bilan birga, naturalistik tasvir tamoyili folklor uchun, ayniqsa, doston uchun muhim xususiyatdir.

Yoki quyidagi to'rtlik ham motiv va syujet jihatidan To'nyuquq, Kul tigin yodnomalaridagi aksariyat jang lavhalarini gavdalantiradi.

Eran alpi o'qushtilar,
Qing'ir ko'zun baqishtilar,
Qamug' tutup to'qushtilar,
Qilich qing'a kuchin siqti.

(Erlar, botirlar bir-birlarini kurashga undadilar. Bir-birlariga yov ko'zi bilan yomon qaradilar. Butun yaroqlari bilan urushga kirishdilar. Qilichlarning qinga kirishi qiyinlashdi.)

“Devon”dagi to'rtliklar qadimgi turk davrida shakllangan va ularga qadimgi turk davridagi tarixiy voqealar zamin bo'lgan ekan, yuqoridagi parchalarni tarixiy qo'shiq janriga mansub deb qarash kerak¹.

Xullas, urxun-yenisey yodgorliklari va “Devonu lug'atit-turk” hamda “Qutadg'u bilig” o'rtasidagi uyg'unlik qadimgi turkiy adabiyotdagi an'aviylikka ishora qiladi. Kelgusida bu davr adabiyotini ana shu yo'nalishda o'rganish kerak, deb o'ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Тўхлиев Б. Юсуф Хос Ҳожиб ва туркий қофия тараққиёти. Тошкент, 1994.
2. Resid Rahmati Arat. Eski turk siiri: 1991, 8-35-s.
3. Раҳмонов Н. Кўҳна битигтошлар. Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси. Тошкент, 1991, 14-бет.
4. Ўзбек фольклорининг эпик жанрлари. Тошкент, Фан, 1981, 88-бет.
5. Бомбачи А. Тюрские литературы. Введение в историю стиля. “Зарубежная тюркология” тўплами. М.: 1986, 208-б.

QORAXONIYLAR DAVLAT BOSHQARUVI TIZIMINING IJTIMOIIY-SIYOSIY TERMINOLOGIYADA AKS ETISHI

HAMIDULLA DADABOYEV

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti professori, filologiya fanlari doktori

Annotatsiya: Maqolada XI-XII yuzyillar mobaynida Osiyoning ulkan yerlarida hukm surgan turkiy sulola, ya'ni Qoraxoniylar davlat boshqaruvi tizimining o'ziga xos jihatlari, saltanatda qat'iy shaklga solingan mansab, lavozim va rutbalar ierarxiyasining davr obidalari so'z boyligida qo'llangan turli terminlar, aniqrog'i, terminologik tizimda qay darajada ask topgani ashyoviy materiallar misolida ochiqqlangan. Maqolani yozishda Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig”, Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lugotit turk” singari noyob manbalar qatori, turfa lug'atlar, respublika hamda chet el olimlari tomonidan e'lon qilingan izlanishlarga murojaat etildi. Izlanishlar Qoraxoniylar el-yurt boshqaruvi masalasiga favqulodda jiddiy e'tibor qaratishgani, boshqaruv tizimi zinapoyasi aniq shakllantirilgani, ilgari siyosat sahnasida hukmronlik qilgan sulolalar tajribasidan unumli istifoda etilgani, shu bilan birga, boshqaruv tizimida mutlaqo yangi realiyalarning yuzaga chiqishi bois faqat shu sulolaga tegishli bo'lgan yangi

¹ Qarang: Раҳмонов Н. Кўҳна битигтошлар. Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси. Тошкент, 1991, 16-17-бетлар.

tushunchalar va ma'nolarni anglatuvchi istilohlarning qo'llanishga kirganini ko'rsatadi. Boshqaruv tizimidan muqim o'rin olgan, unda bir-biri bilan chambarchas bog'langan, quyidan yuqoriga o'sib, darajalanib boradigan mansablar, rutbalar, lavozimlar va unvonlarni ifodalovchi istilohlarning poydevori sof turkiy qatlamdan iborat bo'lgani diqqatga loyiq.

Kalit so'zlar: davlat boshqaruvi, ierarxiya, terminlar tizimi, ma'muriy-boshqaruv, runik bitig, tamg'achi, o'zlashma.

Abstract. The article examines the distinctive features of the system of state administration of the Turkic Karakhanid dynasty, which ruled vast territories of Asia during the 11th–12th centuries. It analyzes various administrative titles, ranks and offices attested in linguistic materials of the period, which reflect a strictly established hierarchical structure of governance. In the course of the study, unique primary sources such as Yusuf Khass Hajib's *Kutadgu Bilig* and Mahmud al-Kashgari's *Dīwān Lughāt at-Turk*, along with a wide range of lexicographic works and scholarly research conducted by national and foreign researchers, were consulted. The findings indicate that the Karakhanids placed exceptional emphasis on matters of governance, developed a clear administrative hierarchy, and effectively utilized the experience of preceding ruling dynasties. At the same time, the emergence of new sociopolitical realities necessitated the introduction of terminology expressing novel concepts specific to this state. Notably, the core of the terminology referring to positions, titles and ranks—closely interconnected and arranged in an ascending order – originates from the original Turkic lexical stratum.

Keywords: state administration, hierarchy, terminology system, administrative governance, runic inscriptions, tamgachi, borrowing.

Аннотация. В статье раскрываются характерные особенности системы государственного управления тюркской династии Караханидов, господствовавшей в XI–XII веках на обширных территориях Азии, а также анализируется место различных терминов, использованных в памятниках эпохи для обозначения должностей, рангов и титулов, составлявших строго структурированную управленческую иерархию государства. При подготовке статьи были использованы такие уникальные источники, как «Кутадгу билиг» Юсуфа Хас Хаджиба, «Дивану лугат ат-турк» Махмуда Кашгари, а также различные словари и исследования отечественных и зарубежных учёных. Полученные данные свидетельствуют о том, что в Караханидском государстве вопросам управления уделялось особое внимание, была сформирована чёткая система властной вертикали, продуктивно использовался опыт предшествующих правящих династий, вместе с тем возникновение новых реалий требовало появления терминов для обозначения специфических понятий и явлений. Важно отметить, что основа терминологической системы, отражающей должности, титулы и ранги, тесно взаимосвязанные и расположенные в порядке возрастания, восходит к исконно тюркскому языковому слою.

Ключевые слова: государственное управление, иерархия, терминологическая система, административно-управленческая лексика, руническая надпись, тамгачи, заимствование.

Kirish.

VI–X asrlarda turkiy elatlarning siyosiy hayotida yuzaga kelgan Birinchi hamda Ikkinchi Turk qag‘anliklari Markaziy Osiyo tarixida davlat boshqaruvining tashkiliy-huquqiy tamoyillarini shakllantirgan muhim davr sifatida e‘tirof etiladi. Mazkur saltanatlarda qaghan, qatun, tegin, yabgu, šad, tudun, eltäbär, tutuq kabi mansablar ishtirokidagi murakkab ma‘muriy tuzilma shakllangan bo‘lib, turkiy davlatchilik urug‘-qabila tizimidan markazlashgan davlat boshqaruvi tizimiga o‘tish jarayonini ta‘minlagan. Bu tamoyillar keyingi tarixiy bosqichlarda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Xususan, Somoniylar (900–999) davrida boshqaruv o‘n devon tizimi asosida yo‘lga qo‘yilib, udel (ko‘chmas mulk) boshqaruvi yetakchi o‘rin tutgan bo‘lsa, XI–XII asrlarda G‘arbiy va Sharqiy xoqonliklardan iborat Qoraxoniylar davlat boshqaruvi tizimida avvalgi turkiy va islomiy ma‘muriy unsurlar uyg‘unlashgan holda davom etgani kuzatiladi. Boshqacha aytganda, Qoraxoniylar siyosiy tuzilmasi Turk qag‘anligi va Somoniylar davri idoraviy an‘analari o‘rtasidagi uzviylik va uzluksizlikning yorqin ko‘rinishi sifatida qaraladi.

Qoraxoniylar boshqaruvida xaqan el va yurtning oliy hukmdori sifatida davlatning ichki va tashqi siyosatini boshqaruvchi, harbiy kuchlarga qo‘mondonlik qiluvchi hamda saroy-harbiy byurokratiya tizimini shakllantiruvchi markaziy shaxs bo‘lgan. Xan, elig, beg, yuğruš (vazir), sü baši (sarkarda), hājib (saroy amaldori), tamğaçi (soliq va muhrdorlik tizimi rahbari), bitigçi (devonxona kotibi), qāzi (sudya) kabi mansabdorlarning davlat idoralaridagi faoliyati turkiy siyosiy terminologiyaning yuksak darajada rivojlanganidan dalolat beradi.

Davlatchilik tarixida alohida mavqe‘ga ega bo‘lgan ushbu mansab va unvonlar qadimgi turkiy yozma yodgorliklar – “Qutadg‘u bilig”, “Devonu lug‘otit turk”, runik bitiglar, shuningdek, arab, fors va xitoy manbalarida keng tarqalgan. Bu esa Qoraxoniylar boshqaruv tizimining chuqur tarixiy ildizlarga egaligi, turkiy tillarda siyosiy-leksik qatlamning barqaror shakllanganini ko‘rsatadi.

Qoraxoniylar davlat ma‘muriy tizimi va undagi terminologik birliklarning mazmun-mohiyatini aniqlash, tarixiy-lingvistik jarayonlar hamda siyosiy-madaniy jihatdan mazkur istilohlarning o‘rnini belgilash bugungi kungacha o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan dolzarb masala sanaladi.

VI-X yuzyillarda Markaziy Osiyoning ulkan yerlarida siyosat sahnasiga kelgan Birinchi hamda Ikkinchi turk qag‘anligida davlat boshqaruvini qat‘iy tartibga soluvchi markaziy ma‘muriy idoralar tizimi shakllandi. *Qaghan, qatun, tegin, yabgu, šad, tudun, eltäbär, tutuq* singari unvon hamda mansab egalari keyinchalik sharqiy va g‘arbiy qismlarga bo‘lingan qag‘anlik viloyatlari, tumanlari va shaharlariga boshchilik qilgan. 900-999-yillar davomida hukm surgan Somoniylar saltanatida boshqaruv on devondan tashkil topgan va udel (ko‘chmas mulk) tizimi yetakchilik qilgan. XI-XII yuzyilliklarda G‘arbiy xoqonlik hamda Sharqiy xoqonlikdan iborat Qoraxoniylar davlat boshqaruvi tizimida Turk qag‘anligi va Somoniylar davriga oid ma‘muriy-boshqaruv

tizimining muayyan elementlari saqlanib qolgani, ya'ni uzviylik va uzluksizlikning uzilmagani kuzatiladi.

Qoraxoniylar yurti va *el kuni* (xalq) oliy hukmdor hamda oliy bosh qo'mondon *xaqan* tomonidan boshqarilgan (MK, II, 172). *El ulus* (davlat, mamlakat) boshlig'i, ya'ni "ulug' xoqon" ma'nosi *xaqan uluğ* birikmasi yordamida anglashilgan: *Bezāndim begim boldi xaqan uluğ* – Bezandim (yasandim) begim ulug' xoqon bo'ldi (QB, 82). *Xaqan* unvoni bilan maxsus chaqirilgan qurultoyda saylangan mo'g'ul imperiyasi rahbarlari, aniqrog'i, Chingiziylar sarafruz etilgan¹. Tahlil qilinayotgan istilohning qadimgi *qağan* "oliy hukmdor, boshxon" shakli "O'g'uznoma"da ko'zga tas'hlanadi: *Ošbu qağannuñ čerigi köp köp baliqlari köp köp erdilär* – Ushbu hukmdorning cherigi juda ko'p, shaharlari o'ta ko'p (LOK, 14-8). Xoqonlik meros sifatida nasldan naslga o'tavergan. *Xaqan* tinchlik (sulh) va urush masalalari, qo'shni el-uluslararo turli munosabatlar, xususan, elchilik, iqtisodiy, siyosiy aloqalarga ko'z-quloq bo'lgan, *ič el* – saltananing ichki qurilishini tartibga solgan, viloyat, shahar, tuman boshliqlari, *sü başi* – lashkarboshilarni lavozimga tayinlagan yoki mansabidan bo'shatgan, soliq-boj muammolarini o'z xohishidan kelib chiqib bartaraf etgan, davlat va ma'muriyat xizmatchilari, saroy mulozimlarini ko'chmas mulk yoxud turfa sovg'a, mukofot, in'omlar bilan taqdirlagan. Xoqonning yuqorida qaydlangan vazifalari Yusuf Xos Hojibning pandnomasida batafsil tasvirlangan. Ma'no-mazmun jihatidan *xaqan* istilohi forscha *šahanšāh* birligiga teng tushishini V. Bartold ta'kidlagan edi². Temuriy hukmdorlardan faqat Shohrux mirzoning *xaqani said* "baxtli xon" faxriy unvoniga ega bo'lgani tarixdan ma'lum³.

Xan istilohi Xo'tan va Turkiston hukmdorlari, Usmonli sultonlar davlatida faqat hukmdor sulola vakillarini, Eronda viloyat bos'hliqlari, shuningdek, bosh vazirni ifodalagan. Mahmud Koshg'ariy *xan* istilohini ba'zan Tabg'ach (Xitoy) hukmdoriga nisbatan qo'llagan. *Tabğaç xannuñ torquşi telim* – Xitoy xonining ipak matosi ko'p (MK, I, 402). *Xan* leksemasi *arslan* va *buğra* "erkak tuya" zoonimlari bilan birikib, qoraxoniylar hukmdorlar o'ta xush ko'rgan eng oliy unvonni anglatgan. Xususan, Balasag'un, Koshg'ar hamda Xo'tanni qamrab olgan Sharqiy xoqonlik (1074-1102) boshlig'i Bug'raxon (*Buğraxan*) sharaflil unvoniga sazovor bo'lgan. Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig" pandnomasini aynan mana shu xonga bag'ishlab bitgan: *Ajun tutti tabğaç uluğ Buğraxan* – Tabg'ach ulug' Bug'raxon olamni qo'lga oldi (QB, 8).

Qadimgi turk runik bitiglarida *xan* istilohi ko'zga tashlanmaydi. Biroq "hukmdor" (To'n, 2) hamda "yo'lbos'hchi, yetakchi, rahnamo" (DTS, 417)

¹ Чулууны Далай. Монголия в XIII-XIV веках. – М.: Наука, 1983. – С. 61; Рашид-ад-дин. Сборник летописей. Перевод с персидского Ю.П.Верховского. Т.II. – М. – Л.: АН СССР, 1960. – С. 18-19.

² Бартольд В.В. Двенадцать лекций по истории турецких народов Средней Азии // Сочинения. – М.: Наука, 1968. – С. 602.

³ Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. – Тошкент, 1969. – Б. 57.

ma'nolarini ifodalagan *qan* termini faol qo'llangan. V.Bartold *qan* termini *xan* istilohi singari qadimgi turkiy tilda keng ishlatilgan *qağan* birligining qisqarishi oqibatida voqelanganini e'tirof etgan¹. *Qan* istilohi XIII-XIV yuzyillarda arab tilida yozilgan hamda turk (qipchoq) tili grammatikasiga bag'ishlangan risola-traktatlarda "xon, sulton, hukmdor, davlat boshlig'i" ma'nolarida kuzatiladi (At-tuhfa, 18a8; Abu-Hayyon, 74).

Mo'g'ullar hukmronligi chog'ida xon unvoni Chingiz naslidan chiqqan hukmdorlarga berilgan. Mo'g'ullar qo'l ostidagi to'rt ulus boshqaruvi faqat Chingiz avlodiga xos va xon faxriy unvoniga ega shaxslar tomonidan amalga oshirilgan. Movarounnahr hamda Avg'onistonning shimoliy hududlarini o'z ichiga olgan Chag'atoy ulusiga 31 ta chingiziy xon boshchilik qilgani tarix sahifalarida tamg'alangan. Shayboniylar, shuningdek, Qo'qon va Xiva xonliklari shohsupasida o'tirgan xonlarning barchasi o'zlarini Chingiz avlodi sanab, cheksiz hokimiyatga egalik qilishgan.

Qoraxoniylar hukmdorlar "el, yurt egasi" ma'nosini ifodalovchi *elig* istilohi bilan e'zozlanishni yoqtirishgan. "Xalq, davlat; urug'lar birlashmasi, ittifoqi" ma'nosini bildirgan *el* leksemasidan *-lig* qo'shimchasi yordamida yasalgan *elig* istilohi². V. Bartold ta'kidicha, Qoshg'ar xoniga tobe bo'lgan Movarounnahr hukmdorlarini anglatgan³. G.Dyorferga ko'ra, *elig* istilohi xoqondan keyingi eng oliy mansabni bildirgan va oxirgi bor 1130-yilda Balasag'un hukmdorining oti yoki unvoni sifatida qayd etilgan (II, 212). Ilk marta Turfon matnlari hamda shahzodalar Kolyanamkara va Papamkaraga bag'ishlangan uyg'ur (turk) yozuvli bitiglarda qayd etilgan *elig* yasamasi "Qadimgi turkiy lug'at"da ta'kidlanishicha, *altun*, *beg*, *qan*, *qut* singari so'zlar bilan sintagmatik munosabatga kirishib, *elig altuni* "hukmdor", *elig beg* "saltanat boshlig'i", *elig qan* "Qoraxoniylar davrida oliy hukmdor unvoni", *elig quti* "janobi oliylari, hukmdor" ma'nolarini bildirgan (DTS, 170). Yusuf Xos Hojib "hukmdor, davlat boshlig'i"ni ifodalashda *elig* istilohidan tashqari *elçi*, *elçi beg*, *el başi*, *el begi* terminlarini ham qo'llagan: *Negü ter ešitgil böğü elçi beg* – Dono hukmdor nima deyishini tingla (DTS, 169); *Sü başi ya el başi bolsa özüñ* – O'zing lashkarboshi yoki elboshi (hukmdor) bo'lsang (QB, 40); *Elig el begi* – *ol bodunqa uluğ* – Elig xalq orasida ulug' el begi (hukmdor)dir (QB, 4890).

¹ Бартолд В.В. Двенадцать лекции по истории турецких народов Средней Азии // Сочинения. – М.: Наука, 1968. – С. 604.

² Sir Gerard Clauson. An Etymological Dictionary of Pre-thirteenth -century Turkish. – Oxford, 1972. – С. 302; Кононов А.Н. Грамматика языка тюркских рунических памятников (VII-IX вв.). – Л.: Наука, 1980. – С. 141.

³ Бартольд В.В. Двенадцать лекции по истории турецких народов Средней Азии // Сочинения. – М.: Наука, 1968. – С. 519.

Qoraxoniylar saltanatida bor bo'lgan mansab-u rutbalar pillapoyasi aks etgan davr manbalarida o'ta faol ishlatilgan *beg* istilohi bilan bir qancha ma'nolar ifodalangan. Xususan, "Qutadg'u bilig" matnida qo'llanishi juda yuqori bo'lgan ushbu birlik o'rni bilan "el-yurt hukmdori" ma'nosini ham anglatishga xizmat qilgan va *elig* istilohi bilan birgalikda ma'nodoshlik qatorini yuzaga chiqargan. Yusuf Xos Hojibning ta'kidlashicha, davlatda *beg* tarkibli *inanč beg* "ishonchli, sodiq beg", *čagři beg* "lochin beg" (lochindek jadal harakatlanuvchi), *kür tegin beg* "qahramon, botir xonzoda beg", *čavli beg* "shuhratli beg" unvonlar silsilasida o'ta qadrlangan va alqangan : *Qayu inanč beg qayu čagři beg qayu kür tegin beg qayu čavli beg* - Qaysisi inonch beg, ba'zisi chag'ri beg, ba'zisi botir tegin beg, ba'zisi chavli beg (3970). Kezi kelganda, Mahmud Koshgariy asarida "Teginlar, yani taxt vorisi, xonzoda" ma'nosining *begäč* istilohi yordamida ifodalangani, *kümüis tegin* "kumushdek toza rangli xonzoda", *alp tegin* "bahodir tegin", *qutluğ tegin* "muborak, saodatli tegin", *čagri tegin* "hujumda lochidek tegin", *küč tegin* "kuchli, quvvatli xonzoda" birikma istilohlarini urg'ulaganini eslash o'rinli (MK, I, 391-392). Pandomada qayd etilgan quyidagi misralarda aksini topgan *kent begi* birikmasi "shahar boshligi" ma'nosini ifodalangani anglashiladi : *Negü ter ešitgil bu el kent begi* – Bu el va kent begi nima deydi, eshitgin (213).

Qoraxoniylar davlat boshqaruvi tizimida hukmdor tomonidan tayinlangan hamda mavjud devon boshliqlari vazifalarini muvofiqlashtiruvchi mansabdor yetakchi mavqega ega bo'lgan va asl turkcha *yuğruš* hamda arab tilidan o'zlashgan *vazir* istilohlari bilan anglashilgan.

"Qutadg'u bilig" matnida etimologiyasi hozircha aniqlanmagan *yuğruš* faqat bir o'rinda qo'llangan holda: *Qayu yabğu yuğruš bolur el begi* (DTS, 277) arabcha o'zlashma asarning qator boblarida ko'zga tashlanadi. Ushbu holat XI yuzyilda asl turkcha istilohning Somoniylar davrida faol qo'llanishga kirgan arabcha o'zlashmaga o'rnini bo'shatib bera boshlaganini ko'rsatadi. Mahmud Koshg'ariy *yuğruš* unvoni egasi mavjud rutbalar zinapoyasida hukmdordan keyin turgan va qor, yomg'ir hamda issiqdan himoyalaydigan ipak yomg'irpo'sh uning martabasi belgisi hisoblanishini alohida urg'ulagan (MK, III, 48). G.Dyorfer *yuğruš* istilohini "bosh vazir, kansler" tarzida izohlagan (IV, 176). Yusuf Xos Hojib vazirlik lavozimiga tayinlanadigan kishiga ayni mansabning belgisi sanalgan tamg'a (muhr), idish, tug', nog'ora hamda sovut berilishini alohida urg'ulagan: *Vazirliğ añar berdi tamğa ayağ, Tuği küvrügi birlä berdi quyağ* – Unga vazirlikning belgisi (sanalmish) tamg'a (muhr), idish berdi, Tug'i, nog'orasi bilan sovutini berdi (1022).

Temuriylar saltanatida mamlakatining ichki va tas'hqi ishlari masalalari bilan yetti vazir shug'ullangan; dastlabki to'rt vazir yetakchi mavqega yega bo'lgan. Bu yetti vazir bevosita devon boshlig'i – *gidivân begiga* bo'ysungan. Qoraxoniylar davlat boshqaruvi tizimida oliy hukmdor va vazirdan so'ng uchinchi darajali mansabdor *tüksin* istilohi yordamida anglashilganini Mahmud Koshg'ariy ta'kidlagan (MK, I, 410). Bu istilohning etimologiyasi to'g'risida fikr yuritgan

J.Kloson uning *tüg*= yoki *tügsi*= soʻzlaridan yasalganini tahmin qiladi. Ayni chogʻda, leksemaning *tegi:n* istilohi kabi qaysidir qadimgi yoxud xitoy tilidan olinganini ehtimoldan xoli emas, deb biladi¹.

Boshqaruvning navbatdagi pillapoyasini *sü başi*, *sü başçisi* hamda forschatojikcha *ispahsalar* istilohlari bilan ifodalangan “lashkarboshi, sarkarda” egallagan. Davlatning mudofaa ishlariga masʼul sarkarda cherig tuzilishi, askariy qismlarni qurol-aslaha, oziq-ovqat, kiyim-kechak bilan taʼminlash, chegaralarni mustahkamlash, urush paytida *yaği* - dushmani magʻlub etish usullarini ishlab chiqish, tajribali, ishonchli, sodiq, mard kishilarni turli boʻlim va qism rahbarligiga qoʻyish singari vazifalarni hayotga tatbiq etgan: *Yağiçi örün qirğil ersiglärig, yağiqa alin qıl kötürsü çerig* – Jangovar, sinci, yoshi ulugʻ bahodirlarni, yovga qarshi oldingi qatotga qoʻy, toki lashkarga dalda bersin (QB, 2335).

Qoraxoniylar saroyida mavjud xizmatlar ichida eng nozigi hojiblik sanalgan. Arabcha *hajib* istilohi bilan atalgan mansabdordan saltanat tomonidan olib borilayotgan siyosat, qabul qilingan qoida, nizom, qarorlarni yuqori saviyada bilish, xazinachi, bitigchi, ish yurituvchi ayonlar, yer-mulk ishlarini boshqaruvchi sarkorlar, musofir elchilar va h.k. faoliyatidan xabardor boʻlish, qabuliga kelganlarning shikoyati, arz-holini tinglash va hukmdorga yetkazish, tashqi-ichki nojoʻya ishlarni tergash, ularning oldini olish talab etilgan.

Sof turkcha *tamğaçi* istilohi anglatgan maʼno-mazmun borasida turkiyshunoslar tomonidan turfa mulohazalar ilgari surilgan. V.Radlov *تامغاي تامغا* “*solıq, oʻlpon yigʻuvchi; muhrdor*” (III,100), J.Kloson: *tamğa:çi* “*farmon, qaror, buyruq singari hujjatlarga muhr bosuvchi mansabdor*”² maʼnosini ifodalaganini urgʻulagan. Ilk bor “Kultegin bitigtoshi”da qoʻllangan *tamğaçi* istilohi Qoraxoniylar boshqaruv apparatida xizmatda boʻlgan yuqori lavozimlardan sanalgan. Yusuf Xos Hojib tamgʻachining adolatli, rahmdil, nizom va qoidalardan yaxshi xabardor boʻlishi maqsadga muvofiqligini alohida taʼkidlagan: *Köni bolsa qılqı bolur tamğaçi* – Xulqi toʻgʻri boʻlsa, muhrdor boʻladi (QB, 3951). V.Gordlevskiyning qayd etisʼhicha, Saljuqiylar saroyida *muhr-tamğʻa* bosuvchilar saltanatning siyosiy hayotida sezilarli oʻrin egallagan³. Dashti Qipchoq xonlari yorliqlarida *tamğaçi* termini “boj undiruvchi”: *Tamğaçi tartnaqçılarqa...* - bojmonlar (va) torozibonlarga... (Yarlik Toxtatisha, 46; Yarlik Timur-Kutluka, 10) hamda “solıq-yigʻuvchi, solıqchi”⁴ maʼnolarini bildirgan. Kezi kelganda tobe yurtlardan undiriladigan solıq turi *tamğʻa* deb atalganini eslab

¹ Sir Gerard Clauson. An Yetimological Dictionary of Pre-thirteenth -century Turkish. – Oxford, 1972. – C. 487.

² Sir Gerard Clauson. An Yetimological Dictionary of Pre-thirteenth -century Turkish. – Oxford, 1972. – C. 303.

³ Гордлевский И. Государство Сельджукидов Малой Азии. – М.: АН СССР, 1941. – С. 139.

⁴ Радлов В.В. Опыт словаря тюркских наречий. I-IV. – СПб. 1893-1911. – С. 23.

o'tis'h o'rinli. *Tamğacı* istilohi fors tiliga o'zlashib, "botmon" hamda "soliqchi" ma'nolarida qo'llangan (Dyorfer, II, 565).

Qoraxoniylar davlat boshqaruvida "hukmdor devoni kotibi" lavozimi ma'nodoshlik xarakteridagi istilohlar paradigmasi ishtirokida ifodalangan. Yusuf Xos Hojib kotibni *ilimğa* istilohi bilan nomlaydi: *Qayusī sū bašī qayusī hajib. Qayusī ilimğa bolur söz ačib-* Ba'zisi lashkarboshi, ba'zisi hojib, ba'zisi so'z (ma'nosini) ochib (QB, 3968). Mahmud Koshg'ariy lug'atida mazkur istiloh *alimğa* va *imğa* shakllarida qayd etilgan (MK, I,161). Lug'atshunosning ta'kidlashicha, *imğa* termini, shuningdek, "xazinachi" hamda "soliq undiruvchi" ma'nolarida ham ishlatilgan.

Asl turkcha *bitig'ci* (< *bitig* "xat, noma, maktub") "devonxona kotibi" semasida birinchi bor "Qutadg'u bilig"da qo'llangan: *Bitig'ci biliglig uquşluğ keräk-* Kotib bilimli, zakovatli (bo'lishi) kerak (QB, 2633). Istilohning ushbu fonetik shakli keyingi davr manbalarida ham faol ishlatilgan. Mahmud Koshg'ariy lug'atida istilohning *bitig'üci*, *bitkäci* shakllari izohlangan (MK, II, 369). Yasamaning *bitkäci* shakli dastavval "Oltun yoruq" sutrasida ko'zga tashlanadi (DTS, 164), uni Xorazmiyning "Muhabbatnoma" asarida ham uchratamiz (MN, 294b1). XIII yuzyilda uyg'urlardan mo'g'ullarlar tomonidan o'zlashtirilgan *bitig'ci* Chingizxon imperiyasiga kirgan uluslar hamda XIV yuzyilda Eronda ma'lum va mas'hhur bo'lgan (Bartold, 1968, 508). Yusuf Xos Hojib *bitig'ci* mansabini ta'riflar ekan, hukmdor davlat sirlarini faqat ikki kishi, ya'ni kotib hamda vazirga oshkor qilmasdan o'zga chorasi yo'qligi, shu bois har ikki amaldor *elig* so'zlarini qattiq sir saqlashi, tilini tiyishi talab qilinganini alohida urg'ulagan (QB, 2640-2642). Tahlil qilinayotgan istiloh keyingi davr tilida ham faolligini yo'qotmagan, xususan, uning *bitik'ci*, *bitka'ci*, *bitki'ci*, *bitküci*, *bitig'üci* shakllarda qo'llangani L.Budagov (I, 242), V.Radlov (IV, 1775), J.Kloson (304), G.Dyorfer (II, 359), A.Vamberi (251) lug'atlarida ta'kidlangan. Temur Qutlug' yorlig'ida ishlatilgan *diván bitik'ci* birikma istilohini N.Berezin ma'no jihatidan arabcha *kátib* o'zlashmasiga teng kelishini bildirgan¹. *Bit(i)* – "yozmoq, bitmoq" harakat fe'li asosida yuzaga chiqqan *bitig'ci*/*bitik'ci* istilohi bilan atalgan mansabdor Temuriylar saroyida ham faoliyat yuritib, nafaqat devon hujjatlarini tayyorlash, shuningdek, cherigda xizmat qilayotgan askarlar sonini aniqlash, ularga beriladigan *ulufa* - maosh miqdorini nazoratdan o'tkazish, tobe yurtlardan tushadigan xiroj, ushr, jizya singari soliqlar hajmini kirim-chiqim daftarida qayd etish singari vazifalar bilan ham mashg'ul bo'lgan.

Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" tazkirasdagi quyidagi qayd bitikchilikning kasbga aylangani, uning ajdoddan avlodga o'tishi mumkinligi borasida to'xtamga kelishga izn beradi: *Xāja Mansur-Jurján mulkindandir va bitik'ci qavmindandir* (ANATIL, I, 299).

¹ Березин И.Н. Ханские ярлыки. II: Тарханные ярлыки Тохтамыша, Тимур-Кутлука и Саадет Гирея. – Казан, 1981. – С. 28.

Yozma obidalar Qoraxoniylar davlat boshqaruvida *muhtasiblik*-nazoratchilik institutining sezilarli mavqega ega bo'lganligidan guvohlik beradi. Arab tilidan olingan va "nazoratchi" ma'nosida dastlab "Qutadg'u bilig"da ikki o'rinda qo'llangan *muhtasib* istilohi keyingi davrga oid turkiyda bitilgan badiiy-tarixiy manbalarda faol ishlatilgani bilan ajralib turadi: *Bulardin basa muhtasiblar turur, bular elgi küçlüg keräk ey ünür*- Bulardan tashqari muhtasiblardir, bular qo'li kuchli bo'lishi kerak, ey baraka topkur (QB, 5438). Manbalar muhtasibning har bir bozorda faoliyat yuritgani, savdo-sotiq jarayoni, xususan, bozordagi narx-navo, tosh-u tarozilarning talab darajadaliği, bozorga xos qonun-qoidalar, me'yorlarning bajarilishini nazorat qilganini tasdiqlaydi. Bu vazifalardan tashqari, muhtasib zimmasiga shahar aholisi tomonidan urf-odat, rasm-rusm, diniy majburiyatlarning so'zsiz bajarilishi, g'ayridinlarga qarshi muvofiqlik kurash olib borish kabi yumushlar ham yuklatilgan¹. Yusuf Xos Hojib *muhtasib* qo'li kuchli bo'lishi, fosiq, behuda, beboshlarni terğab turishi, masjid va unga ibodat uchun keluvchi jamoatni to'kis tutishi zarurligini ta'kidlagan: *Qisa tutsa fasiq yava boşlağış, tolu tutsa mazgad jama'atlariğ* – Toki fosiq behuda, beboshlarni terğab (tutsalar), masjid (va) jamoatlarni to'kis tutsa(lar) (QB, 5439).

Birinchi Turk va Ikkinchi Turk qag'anlig'i davlat boshqaruvi tizimida harbiy-ma'muriy mansab-qurlar pillapoyasida *qağandan* keyingi o'rinda *yabğū* hamda *şad* istilohlari bilan atalgan shaxslar joylashgan, bular cherigning o'ng va so'l qo'llariga qo'mondonlik qilishgan. Qag'anlik g'arbiy hamda sharqiy qismlardan iborat bo'lib, g'arbiy qismning oliy hukmdori *yabğū* sanalgan. Qoraxoniylar saltanatida bu istiloh *yawğū/yafğū* shakllarida, Mahmud Koshg'ariyning urg'ulashicha, "Xalqdan chiqqan, xoqondan ikki daraja quyi lavozimli kishi"ni anglatgan (MK, III, 359). Yusuf Xos Hojib tomonidan *yawğū* istilohining *yuğruş* "vazir"dan oldin tilga olinishi, tahlil etilayotgan termin fodalagan rutba egasining mansablar ierarxiyasi uchidan o'rin olganini ko'rsatadi: *Qayu yawğū yuğrush bolur el begi*- Qaysisi yabğ'u, yug'rush bo'lar el begi (DTS, 249).

Qoraxoniylar davlatida sudlov ishlari Qur'oni Karim hamda Hadisi sharifga suyanilgan tarzda turmushga tatbiq qilingan. Sudlov ishlariga Qur'oni Karim hamda Hadisi sharifni oliy darajada o'zlashtirgan, shariat va fiqh qonun-qoidalarini besh qo'lday egallagan shaxslargagina sharaflı *qāzi* unvoni berilgan. Yusuf Xos Hojib O'zg'urmish nomidan qozi xususida so'z yuritir ekan, hukmdor-*elig* saltanat xizmatlarini bajaruvchi uch mansabga kishilarning o'ta sarasini tayinlashi lozimligi, bu uch kishining birinchisi *qāzi*, ikkinchisi – *xalifa* (viloyat, o'lka hokimi), uchinchisi – *vazir* ekanligini uqtiradi (QB, 5216-5219). Kezi kelganda, *yar*= "ajrim qilmoq" harakat fe'li asosida yasalgan *yarğučī* (< *yarğū* "qaror, hukm, sud") istilohi "sudya" ma'nosida ilk bor "Codex Gumanicus" matnida ko'zga tashlangani (CC, 125-2), keyinchalik XVI yuzyil o'zbek adabiy

¹ Дадабаев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв. – Ташкент: Ёзувчи, 1991. – С. 55-56.

tili obidasi “Tavorixi guzida. Nusratnoma”da qo‘llanganini qayd etish foydadan holi bo‘lmas (NN, 19a10).

Xulosa.

Qoraxoniylar davlati boshqaruv tizimining shakllanishi va taraqqiyoti turkiy davlatchilik an‘analarining tarixiy izchillik asosida rivojlanganini yaqqol ko‘rsatadi. VI–X yillardagi Birinchi va Ikkinchi Turk qag‘anliklarida shakillangan siyosiy-ma‘muriy tuzim Somoniylar davridagi idoraviy boshqaruv unsurlari bilan uyg‘unlashgan holda XI–XII yuzyillarda Qoraxoniylar davlatida mukammal darajada qayta namoyon bo‘ldi. Bu holat turkiy siyosiy tafakkur, davlat boshqaruvi madaniyati va mansablar tizimining yuzyillar davomida uzviylik va uzluksizlik asosida yashab, yangi tarixiy sharoitlarga moslashganini tasdiqlaydi.

Qoraxoniylar ma‘muriy boshqaruv idorasida xaqan, xan, elig, beg, yawğu kabi istilohlar bilan atalgan yuqori mansabdorlar davlatning siyosiy barqarorligi, hududiy birligi va harbiy qudratini saqlashda muhim rol o‘ynagan. Yuğruş/vazir, tüksin, hajib, tamğaçi, bitigçi, sü başi/ispahsalar, muhtasib, qāzi singari lavozim egalari esa markaziy davlat idoralarining samarali faoliyat yuritishini ta‘minlagan. Ularning har biri davlatning ichki tartib-intizomi, soliq tizimi, harbiy qudrati, elchilik munosabatlari, sud-huquq amaliyoti, saroy qabuli va boshqaruv jarayonining boshqa ko‘plab sohalarida o‘ziga xos o‘rin tutishgan.

Maqolada tahlil etilgan manbalar: “Qutadg‘u bilig”, “Devonu lug‘otit turk”, qadimgi turk runik bitiklari, uyg‘ur (turk) yozuvidagi yodgorliklar, shuningdek, arab, fors-tojik va xitoy tarixiy obidalarida Qoraxoniylar boshqaruv tizimi o‘ziga xos terminologik paradigmagacha ega bo‘lganini tasdiqlaydi. Terminlar tizimining aksariyati ma‘no jihatdan boy, ko‘p vazifali va ijtimoiy-siyosiy hayotda keng qo‘llangan bo‘lib, ularning shakllanishida turkiy an‘ana yetakchilik qilgan. Ayrim istilohlarning keyingi davrlar, jumladan, Temuriylar, Shayboniylar, Qo‘qon va Xiva xonliklari boshqaruv amaliyotida amalda qolgani ularning tarixiy yashovchanligini ko‘rsatadi.

Shu nuqtayi nazardan, Qoraxoniylar boshqaruvi terminologiyasini tadqiq etish nafaqat turkiy xalqlarning siyosiy-madaniy taraqqiyot tarixini yoritish, balki hozirgi tilshunoslik, chunonchi, tarixiy leksikologiya va tarixiy terminologiya uchun ham muhim ilmiy-metodologik ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqot natijalari turkiy davlatchilik an‘analarining chuqur ildizlarga ega ekanini ko‘rsatib, ularni yangi ilmiy yondashuvlar asosida izchil o‘rganish zarurligini dalillaydi.

Xullas, Dunyo tamaddunida munosib o‘ringa ega bo‘lgan Qoraxoniylar davlat boshqaruvi tizimi xususida mulohaza yuritishda ilk eski turkiy til manbalari qatori, qadimgi turkiy til va eski o‘zbek adabiy tiliga oid obidalarga, shuningdek, xitoy, arab, fors-tojik, ingliz, nemis, rus va boshqa tillarida yaratilgan turfa tadqiqot hamda lug‘atlarga murojaat qilish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurazzoq – Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. – Тошкент, 1969. – 462 б.
2. Abu Naууon – Расулова Н.А. Исследования языка «Китаб ал-идрак ли-л-исан ал-атрак» Абу Хаййана. Морфология, лексика и глоссарий. Дисс. канд. филол. наук. – Ташкент, 1969. – 153 с.
3. ANATIL – Алишер Навоий асарлари тилининг изохли луғати. I-IV. – Тошкент: Ёзувчи, 1983-1985.
4. At-tuhfa – Изысканный дар тюркскому языку: Грамматический трактат XIV в. на арабском языке. Введение, лексико-грамматический очерк, перевод, глоссарий, грамматический указатель Э.И.Фазылова и М.Т.Зияевой. – Ташкент, 1978. – 450 с.
5. Bartold – Бартольд В.В. Двенадцать лекции по истории турецких народов Средней Азии // Сочинения. – М.: Наука, 1968. – С. 190-192.
6. Berezin – Березин И.Н. Ханские ярлыки. II: Тарханные ярлыки Тохтамыша, Тимур-Кутлука и Саадет Гирея. – Казан, 1981.
7. Budagov – Будагов Л.З. Сравнительный словарь турецко-татарских наречий. I-II. – СПб., 1869-1872.
8. Chuluuni Dalay – Чулууны Далай. Монголия в XIII-XIV веках. – М.: Наука, 1983. – 223 с.
9. Gordlevskiy – Гордлевский В. Государство Сельджукидов Малой Азии. – М.: АН СССР, 1941. – 206 с.
10. Dadabayev – Дадабаев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв. – Ташкент: Ёзувчи, 1991. – 186 с.
11. DTS – Древнетюркский словарь. – Л.: Наука, 1969. – 676 с.
12. Dyorfer – Doerfer G. Turkische und mongolische Elemente im Neuperzischen. – Bd. I-IV. – Wiesbaden, 1963-1975.
13. Clauson – Sir Gerard Clauson. An Yetimological Dictionariy of Pre-thirteenth - century Turkish. – Oxford, 1972.
14. CC – Gronbech K. Komanisches Worterbuch. Turkischer Wortindex in Codex Cumanicus. – Kopenhagen, 1942.
15. Кононов – Кононов А.Н. Грамматика языка тюркских рунических памятников (VII-IX вв.). – Л.: Наука, 1980. – 255с.
16. LOK– Легенда об Огуз-кагане. Щербак А.М. Огуз-наме. Мухаббат-наме. Памятники древнеуйгурской и староузбекской письменности. – М.: Восточная литература, 1959. – 171 с.
17. МК – Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Таржимон ва нашрга тайрловчи С.М.Муталибов. I-III. – Тошкент, 1960-1963.
18. MN – Хорезми. Мухаббат-наме. Фазылов Э. Староузбекский язык. Хорезмийские памятники XIV века. I, II. – Ташкент, 1966, 1971.
19. NN – Таварихи гузида. Нусрат-наме. Исследование, критический текст, аннотация, оглавление и таблица сводных оглавлений канд.филол.наук А.М.Акрамова. – Ташкент: Фан, 1967. – 438 с.
20. QB – Юсуф Хос Ҳожиб. Кутадғу билиг. Транскрипция ва ҳозирги ўзбек тилига тавсиф. Нашрга тайёрловчи филология фанлари кандидати Қ.Каримов. – Тошкент: Фан, 1971. – 964 б.

21. Radlov – Радлов В.В. Опыт словаря тюркских наречий. I-IV. – СПб. 1893-1911.

22. Rashid ad-din – Рашид-ад-дин. Сборник летописей. Перевод с персидского Ю.П.Верховского. Т.II.-М. – Л.: АН СССР, 1960. – 248 с.

“QUTADG‘U BILIG” QORAXONIYLAR DAVLATINING BOSH NIZOMI SIFATIDA

QUDRATULLA OMONOV

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti birinchi prorektori,
filologiya fanlari doktori, professor

Annotatsiya. Maqolada turkiy tilda yaratilgan «Qutadg‘u bilig» buyuk mafkuraviy va davlat boshqaruvi asoslari tahliliga bag‘ishlangan asar ekanligi, unda turkiy xalqlar dunyoqarishi va davlat boshqaruvining azaliy an‘analari bilan islom mafkurasi uyg‘unlashgan ekanligi tahlilga tortiladi. Shuningdek, asar qoraxoniylar davrining boshqaruv qonunlari majmuasi sifatida o‘git va pandu nasihat yo‘sinida badiiy yo‘l bilan yoritilgan. Bundan tashqari maqolada asar nomida kelgan “qut” birligi uning boshqaruvga yo‘naltirilganligini ko‘ratishi misollar orqali dalillangan.

Tayanch tushunchalar. Yusuf Xos Hojib, “Qutadg‘u bilig” asari, qoraxoniylar davlati, idora qilish usuli, siyosat, qonun-qoidalar, “qut”, tangriqut, idikut, boshqaruv tizimi.

Аннотация. В статье анализируется, что письменный памятник «Кутадгу билиг», созданный на тюркском языке, представляет собой труд, посвящённый анализу основ государственного управления, в котором мировоззрение тюркских народов и древние традиции государственного управления сочетаются с исламской идеологией. Произведение также художественно представлено как свод административных законов эпохи Караханидов в форме наставлений и советов. Кроме того, в статье на примерах доказываем, что единица «кут» в названии произведения указывает на его административную направленность.

Ключевые слова. Юсуф Хос Хаджиб, книга «Кутадгу билиг», государство Караханидов, метод управления, политика, законы и правила, «кут», тангрикут, идикут, административная система.

Abstract. This article analyzes how the written monument "Kutadgu Bilig," written in the Turkic language, is a work devoted to analyzing the foundations of public administration, in which the worldview of the Turkic peoples and ancient traditions of public administration are combined with Islamic ideology. The work is also artistically presented as a collection of administrative laws of the Karakhanid era in the form of instructions and advice. Furthermore, the article uses examples to demonstrate that the unit "kut" in the title of the work indicates its administrative focus.

Keywords. Yusuf Khos Hajib, the book "Kutadgu Bilig," the Karakhanid state, governance method, policy, laws and regulations, "kut," tangrikut, idikut, administrative system.

«Qutadgʻu bilig» turkiy tilda yaratilgan buyuk mafkuraviy va davlat boshqaruvi asoslari tahliliga bagʻishlangan asardir. U turkiy xalqlar dunyoqarishi va davlat boshqaruvining azaliy anʼanalari bilan islom mafkurasi uygʻunlashgan asar sifatida yuzaga keldi [1]. Ajdodlarimiz davlat boshqaruvi va turkiy qonunchilik bilan bogʻliq tafakkurning eng yuqori choʻqqisini «Qutadgʻu bilig» asarida koʻramiz. Asar qoraxoniylar davrining bosh qomusi – konstitutsiyasi darajasidagi kitobdir. Oʻrta asrlarda davlat qonunlarini oʻgitu yoʻsunlar koʻrinishida, badiiy yoʻl bilan yoritish anʼanasini sharq adabiyotida Yusuf Xos Hojib boshlab berdi [2].

Adibning eng katta yutugʻi shundaki, u davlat va jamiyatni boshqarishning yoʻl-yoʻriqlarini, davlat tuzuklarini badiiy koʻrinishda yoritib berganligidadir. Uning bu ixtirosi sharq xalqlari adabiyotida keng tus oldi. Buni saljuqiylar vaziri Nizomulmulkning «Siyosatnoma»(1077) hamda amir Kaykovusning oʻgʻli Gilonshoh uchun yozgan «Qobusnoma» (1082) asarlari misolida kuzatamiz. Taʼkidlash oʻrinliki, «Qutadgʻu bilig» qoraxoniylar davri adabiyoti va adabiy tili bugʻroxon turkchasining ulugʻ obidasidir. Asar 1069–1070 yili yozib tugallangan. Bu haqda alloma asarning soʻnggi bobida shunday yozadi:

Yil altmish iki erdi tort yuz bilä,

Bu söz sözlädim men tutup jan sürä.

(Toʻrt yuz oltmish ikkinchi yil edi,

Jon kuydirib bu soʻzlarni soʻzladim [yaʼni, adogʻiga yetkazdim]).

IX asrning ikkinchi yarmidan hokimiyatni idora qilish qoraxoniylar sulolasidan boʻlgan hukmdorlar qoʻliga oʻtishi bilan maʼlum bir muddat soʻnib qolgan ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotda yana jonlanish, rivojlanish boshlandi. Qoraxoniylarning hokimiyatini mustahkamlash, jamiyatdagi turli siyosiy institutlarni tiklash, davlat siyosiy-ijtimoiy tuzumining usullarini belgilash, turli ijtimoiy tabaqalarning vazifasini tayinlash, ular oʻrtasidagi muomala va munosabat normalarini, idora usuli nizom-qoidalarini koʻrsatib berish vazifasi qoʻyildi. Davr va jamiyat oʻz koʻzqarashlarini oʻzgartib bordi, bu esa turkiy islom mafkurasiga asoslangan yangi boshqaruv mafkurasiga ehtiyojni yuzaga keltirdi. Ushbu ehtiyojni Yusuf Xos Hojib «Qutadgʻu bilig» asari orqali qondirib berdi. Qoraxoniylar davlatini idora qilish usulini, siyosatini, qonun-qoidalarini, rasmu odatlarini, axloq prinsiplarini oʻzida mujassamlashtirgan *nizomnoma* sifatida «Qutadgʻu bilig» asarini yaratdi.

Xos Hojib ushbu kitobini Koshgʻarda ekanligi chogʻida yozib tugallaydi va qoraxoniylardan boʻlmish Tavgʻach Bugʻraxonga tortiq qiladi. Bu toʻgʻrida asarning nasriy muqaddimasida shunday yozilgan: *Bu kitabni tasnif qiliqli Balasağun mavludliĝ parhiz idisi er turur. Amma bu kitabni Kaşğarda tügäl qiliĝ, Maşriq mäliki Tavğačxan üskingä kikürmiş (Bu kitobni bituvchi Balasagʻun mavludligʻ, parhiz egasi er turur. Ammo bu kitobni Koshgʻarda tugʻal qilib, Mashriq maliki Tavgʻachxon qoshigʻa keltirmish).*

Asar xonga g'oyat manzur bo'ldi va muallifni o'z saroyida xos hojiblik lavozimiga ko'tardi. Shundan so'ng allomaning nomi elda Yusuf Xos Hojib deb yoyildi.

Ayni choqqacha ushbu buyuk asarning, asosan, bir qirrasiga – uning didaktik, pand-nasihat ruhiga ko'proq urg'u berib, u ayni yo'nalishda yozilgan asarlar qatorida o'rganilib kelinmoqda. Aslida, o'g'itu nasihat ohangi uning bir qirrasiga xolos. Asarning tub mag'zi va nima maqsadni ko'zlab yozilganligini anglashda kitob nomining tahlili yo'l ko'rsatadi.

Shu o'rinda "Qutadg'u bilig"ning davlat boshqaruviga yo'naltirilgan asar sifatidagi mazmun-mohiyatini to'g'ri tushunishga asos vazifasini o'tovchi kitob otida kelgan "qut" so'zining qo'llanuv vazifasiga va anglamalariga bir oz e'tibor qaratsak.

Bugungi o'zbek filologiyasida asar otida qo'llangan "qut"ning "baxt, saodat" angلامي ko'zda tutilib, "Baxt keltiruvchi bilim; saodatga yetaklovchi kitob" mazmunida ochiqlash yetakchi.

Turkologiyada eski turkiy tilda qo'llangan siyosiy va huquqiy atamalarning yuzaga kelishi, uning yuksaluv bosqichlari, ularning o'tmish boshqaruv institutlarda qo'llanuv tegrasi, ma'no-mazmuni singari masalalar yaxlit tekshirilmagan. Shuning uchun bo'lsa kerak, "qut" so'zining siyosiy atama sifatidagi angلامي izlanuvchilar diqqatidan chetda qolib kelgan ko'rinadi.

Turkiy xalqlar tarixida "qut"ning siyosiy va huquqiy atama sifatida ildizi uzoq o'tmishga ega. Bu teran ildizlar turkiy davlatchilik tarixi bilan uzviy bog'liq. Islomga qadar Markaziy Osiyoda zaminada bo'y ko'rsatgan ko'pgina davlatlarda "qut" so'zi yurt egasining otiga yoki unvoniga qo'shib aytilgan. Chunonchi, eramizdan burungi 200 yillarda qurilgan Xun davlatida imperatorlarni "tangriqut" (tangri qut) unvoni bilan atashgan. Keyingi saltanatlarda ham o'z xoqonlarini shuning singari unvon bilan atash rusum bo'lgan. IX asrda asos solingan uyg'ur idiqut davlatida hukmdorlar "idiqut" (idi qut, idi>izi>iyi>ega "tangri" ma'nosini tashiydi) sifati bilan atalgan. Ikkala o'rinda ham yurt egalarining unvoniga qo'shib kelayotgan "qut" so'zi "baxt, iqbol" anglamidan boshqa bir ma'no tashimoqda [3]. Bizningcha, "qut" siyosiy-huquqiy atama sifatida "hukmdorning kuch-qudrati, salohiyati, shon-shavkati, davlat boshqaruvi, siyosiy hokimiyat" ma'nolarida kelmoqda. Quyida ana shu anglamalarning ayrimlari ustida so'z yuritsak:

"Qut" bilan bog'liq faktlar eski turkiy bitiglarda ham uchraydi. Eng muhimi, bitiglarda ushbu so'z hokimiyatni qo'lga kiritish, boshqarish bilan bog'liq qarashlar qayd etilgan o'rinlarda keladi va "siyosiy salohiyat" anglamida qo'llaniladi. O'rnak o'rnida Kul tigin bitigida Bilga xoqon tilidan berilgan – "Tängri yarlıqaduqın üçün özüm qutum bar üçün qağan olurtum. Qağan olurup yoq čığań bodunuğ qop qoburtdim" matnini keltirsa bo'ladi [4]. Buni "Baxtim, iqbolim bor uchun xoqon bo'ldim" deya ochiqlash u qadar to'g'ri emas. Chunki yolg'iz baxt-saodat, iqbol bilan davlat va yurtni yuksaltirib bo'lmaydi. Buning

uchun siyosiy salohiyat, kuch-qudrat kerak bo'ladi. Shuning uchun matnni "Tangri yarlaqagani uchun, qobiliyatim, (*siyosiy*) *salohiyatim* bor uchun xoqon bo'ldim. Xoqon bo'lib, yo'q, qashshoq xalqni butunlay oyoqqa qo'ydim" deb o'girsam matn mazmuniga uyg'un keladi.

Bitiglarning boshqa bir yerida "qut" so'zi "xoqon" so'zi bilan birikib "siyosatdonlarning sha'ni, oriyati" ma'nosida kelgani kuzatilmoqda. Buning yaqqol tasdig'ini Bilga xoqon bitigidan olingan quyidagi jumlada ko'rish mumkin: "Üzä täñri iduq yär sub... *qağan qutı* tapqılamadı ärinç toquz oğuz bodun yärin subın idip Tabğaçğaru bardı" ("Yuqorida osmon, kutlug' yer-suv... *xoqon quti* (*yurt egasining sha'ni, oriyati*) yo'l bermadi shekilli, to'quz o'guz xalqi yerini, suvini tashlab Tabg'achga ketdi").

Eski yozmalarda "davlat (hukumat)" va "ozodlik (erkinlik, mustaqillik)" anglamalarida ham "qut" so'zi qo'llanilgan. Qadimgi "O'g'uzxoqon" dostonida yuqoridagi fikrimizni tasdiqlovchi ayrim misollar bor. Jumladan, O'g'uzxon yurtga egalik qilib o'z saltanati chegarasini kengaytirish ishlari bilan mashg'ul bo'lib yurgan bir chog'da. O'zga bir yurtning egasi unga quyidagi so'zni aytadi. "Bizniñ *qutumız* seniñ *qutuñ* bolmıš bizniñ uruğımız seniñ yığaçıñniñ uruğı bolmıš bolup turur. ... Men seña *başımni qutumni berämen*" [5]. Matnda birinchi va ikkinchi sirada kechgan "qut" "davlat (hukumat)" ma'nosida, so'nggisi esa "bosh" so'zi bilan juft holatda "ozodlik, erkinlik" anglamida kelmoqda. Buni o'zbekchaga "Bizning *davlatimiz (hukumatimiz)* sening *davlatining (hukumating)* bo'ladi, bizning urug'imiz sening nasl-nasabingning urug'i bo'ladi. ... Men senga boshimni, *ozodligimni (erkimni)* beraman" deya, o'giran ma'qul [6]. Ana shunda "bizning hukumatimiz sening qo'l ostingga o'tdi, senga bo'yunsinamiz" degan ma'no kelib chiqadi. Bu o'rinda xonga bosh egish, taslim bo'lish haqida so'z bormoqda.

Qadimda "qut"ning "jon, ruh, tiriklik" semalari ham bo'lgan. Buning o'rnagini "Qutadg'u bilig"ning o'zidan topamiz:

Tirilsüni türkän qutı mñ qutun,

Tilinsüni körmäz qaraqı otun [7].

Turkiylar joni ming qut ila yashasin,

Ko'ra olmaslar qarog'i o't bila teshilsin.

"Shonu shavkat, dovrug'" ham "qut" so'zi tashigan ma'nolardan biridir. Ushbu anglam bilan bog'liq o'rnaklarni ham asardan uchratamiz:

Kitapkä bitindi bu xaqan atı,

Bu at mänü qaldı, ey türkän qutı [8].

Kitobga bitildi bu xoqon oti,

Bu ot mangu qoldi, ey turkiylar shavkati.

Umuman, eski yozma yodgorliklarda "qut" so'zi "hukmdorning kuch-qudrati, salohiyati, shon-shavkati, davlat boshqaruvi, siyosiy hokimiyat", "siyosiy salohiyat", "yurt egasining sha'n va oriyati", "davlat (hukumat)", "ozodlik (erkinlik, mustaqillik)", "jon, ruh, tiriklik", "shonu shavkat, dovrug'" singari

anglamlarda qo'llanilganini ko'rish mumkin. Bu esa o'sha qadim chog'lardayoq "qut" atama sifatida siyosatga yo'naltirilgan semantik maydon kasb etganidan darak beradi.

Bulardan tashqari ham "qut" turkiy xalqlar davlatchilik tarixida siyosiy-huquqiy atama sifatida qo'llanganini tasdiqlovchi ko'plab misollar mavjud. Ana shularga tayanib, "Qutadg'u bilig"ni hozirgi o'zbekchaga "Baxt keltiruvchi bilim" talqini bilan bir qatorda "Kuch-qudratga, siyosiy salohiyatga, ozodlikka, shonu shavkatga yetaklovchi kitob" anglamida izohlash muallifning asarni yozishdan ko'zlagan maqsadiga uyg'un keladi. Chunki "Qutadg'u bilig"ning muqaddimasida shunday yozilgan: "Bu kitob qayu padshahqa ya qayu iqlimqa tegdi ersä, ğayat uzluqıñdın, nihayatıñdın neċä körklüglükındin ul ellärniñ hukamaları, alimları qabul qılıp, tekmä biri bir türlüg at laqab berdilər; Ğinliĝlar "Adabu-l-muluk" at berdilər, Maċın malikiniñ nadimları "Ayinul mamlakat" atadılar, Maşriqlıĝlar "Ziynatul umara" tep aydılar. Eranlıĝlar "Şahnamai türki" tedilər, ba'zilar ma "Pandnamai muluk" temişlar, Turanlıĝlar "Qutadğu bilig" teb aymişlar [9].

«Qutadg'u bilig»ning nasriy muqaddimasida turkiy tilda bu kitobdan yaxshiroq asar yo'qligi, Sharq ellarida u turli nomlar bilan dovrug' qozongani qayd qilinadi.

O'sha bitilganlarning mazmuni shunday: «Chinu Mochin olimlarining bari ittifoq bo'ldilarkim, Mashriq viloyatida, butun Turkiston ellarida Bug'raxan tilincha, turk lug'aticha hech kimsa ushbu kitobdan yaxshiroq tasnif qilgan emas. Bu kitob qaysi podshohliqqa, qay bir iqlimg'a yetgan bo'lsa, g'oyat yaxshilig'idan, nihoyatda ortiq jozibaliligidan o'sha ellarning donishmandlari, olimlari qabul qilib, har biri bir turli ot-laqab qo'ydilar: chinliklar «*Adabu-l-muluk*» («Hukmdorlar odobi») nom berdilar; Mochin podshohining xizmatkorlari «*Ayinu-l-mamlakat*» («Mamlakatning ko'zi») atadilar; mashriqliklar «*Ziynatu-l-umara*» («Olimlar ziynati») deb aytdilar; eronliklar «*Shahnama-yi turkiy*» («Turkiy Shohnoma») dedilar, ba'zilar esa «*Pandnama-yi muluk*» («Podshohlar pandnomasi») demishlar; turonliklar «*Qutadg'u bilig*» («Qut berguchi bilim») deb aytmişlar».

Ushbu ma'lumotlar o'tmishda asar boshqa hukmdorlarning davlat boshqaruvidagi qo'llanmasiga ham aylanganligini, uning qo'lyozmalari keng tarqalganligiga dalil bo'la oladi. Kitobning turli nomlar bilan atalgani to'g'risidagi ma'lumotlarga tayanib ayta olamizki, «Qutadg'u bilig» o'rta asrlarda turkiy dunyodagina emas, butun sharq hukmdorlari orasida taniqli edi. Asarning qo'shni ellarda berilgan nomiga qarab ham u ko'proq boshqaruv masalalariga e'tibor qaratilganligini ko'rish mumkin.

Umuman, "Qutadg'u bilig" asarini turkiy tilda yaratilgan eng buyuk mafkuraviy asar sifatida baholash kerak. U ming yillar qa'riga ildiz otgan turkiy xalqlar dunyoqarishi va davlat boshqaruvi an'analari islom mafkurasiga bilan uyg'un kesimda turkiy xalqlar uchun o'z ildizidan uzilmagan va yangi davr islom dini mafkurasiga ters bo'lmagan davlat boshqaruvi tizimini va turkiy qonunchilik

majmuasini yaratdi. U yaratgan qonunchilik tizimi bugunga qadar davlatchiligimiz boshqaruvida samarali qo'llanib kelinmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1] Омонов Қ.Ш. Асар отида келган «қут» сўзи тўғрисида. // «Қутадғу билиг» – буюк маънавий мерос. Илмий конференция материаллари. Тошкент, 2010, 3- 6.
- [2] Юсуф Хос Ҳожиб. “Қутадғу билиг”. Транскрипция ва ҳозирги ўзбек тилига тавсиф. Нашрга тайёрловчи Қ.Каримов. Тошкент, 1971.
- [3] Biz burungi tadqiqotlarimizda хоқонлар unvonida kelgan “qut” so‘zi “baxt, iqbol” anglamida qo‘llangan degan ko‘z qarashda edik (Исҳоқов М., Содиқов Қ., Омонов Қ. Мангу битиглар. Тошкент, 2009. 94-6). Biroq, izlanishlar bu fikr ko‘pda asosli emasligini ko‘rsatmoqda.
- [4] Sodiqov Q. Turkiy til tarixi. Toshkent, 2009. 302-b.
- [5] XI–XV asrning turkiy ёзувидаги ёдгорликлар. Тошкент, 1994. 112-6.
- [6] “Qut”ning “ozodlik, erkinlik” ma’nosida qo‘llanilishi Q.Sodiqov izlanishlarida chuqur o‘rganilgan. Содиқов Қ. Туркий ёзма ёдгорликлар тили: адабий тилнинг юзага келиши ва тикланиши. Тошкент, 2009, 131-6.
- [7] Юсуф Хос Ҳожиб. “Қутадғу билиг”. Транскрипция ва ҳозирги ўзбек тилига тавсиф. Нашрга тайёрловчи Қ.Каримов. Тошкент, 1971. 80-6.
- [8] Юсуф Хос Ҳожиб. Ўша асар. 78-б.
- [9] Юсуф Хос Ҳожиб. Ўша асар. 48-б.

DÜNYA TARİHİ AÇISINDAN KARAHANLILAR'IN ÖNEMİ

EKBER N. NECEF

Ortaçağ Türk tarihi araştırmacısı

Özet: Bu makale Karahanlılar Devleti'nin dünya tarihi açısından taşıdığı özgün önemini siyasal, toplumsal ve hukuki dönüşümler zaminında değerlendirmektedir. Yaklaşık dört asır boyunca Orta ve Merkezi Asya'da hüküm süren Karahanlılar, Türklerin kitlesel biçimde Müslüman kimlik kazanmasında belirleyici rol oynamış, aynı zamanda Türk-İslam siyaset düşüncesinin şekillenmesine yön vermiştir. Makalede özellikle Yusuf Has Hâcib'in Kutadgu Bilig adlı eserinde ortaya çıkan siyasi akıl, iktidar tasavvuru, adalet anlayışı ve hukuki rasyonelliğin Karahanlı döneminde nasıl özgünleştiği tartışılmaktadır. Bununla birlikte Karahanlı devlet yapısının kut, iktidar, akıl, hukuk ve toplumsal düzen bağlamlarında İslam dünyasına sunduğu yeniliklerin Selçuklulardan başlayarak geniş Müslüman coğrafyayı etkilediği vurgulanmaktadır. Sonuç olarak Karahanlı siyaset ve hukuk düşüncesinin Müslüman dünya için oynadığı rolün, Batı dünyasında Roma siyaset ve hukuk sisteminin oynadığı rolle benzer ölçekte olduğu ileri sürülmektedir.

Anahtar Kelimeler: Karahanlılar, Türk-İslam Siyaset Düşüncesi, Kutadgu Bilig, İktidar, Türk Hukuk Tarihi, Akıl, Müslümanlaşma, Siyasi Tarih, Orta Asya.

Abstract: This article examines the unique significance of the Karakhanid State in world history within the framework of its political, social and legal transformations.

Reigning for nearly four centuries across Central and Inner Asia, the Karakhanids played a decisive role in the mass Islamization of the Turks and contributed substantially to the formation of the Turkic-Islamic political tradition. The study particularly focuses on the notions of political rationality, sovereignty, justice, and legal reasoning articulated in Yusuf Khass Hajib's Kutadgu Bilig, demonstrating how these concepts gained new dimensions under the Karakhanids. It also highlights the far-reaching influence of Karakhanid political and legal concepts on the broader Islamic world, beginning with the Seljuks. Ultimately, the article argues that the role of Karakhanid political and legal thought in Islamic civilization is comparable to that of Roman political and legal heritage in Western intellectual history.

Keywords: Karakhanids, Turkic-Islamic Political Thought, Kutadgu Bilig, Sovereignty, Legal Tradition, Reason, Islamization, Central Asian History, Political Theory.

Yaklaşık 400 yıllık yaşam süreci bulunan Karahanlılar Devleti Türk tarihi açısından her anlamda belirleyici konumdadır. Bu belirleyicilik, özellikle Türklerin müslüman bir kimlik kazanmasında anlaşılır durumdur. Önemli olan bunun dünya tarihi bakımından kavranılması ve öneminin aydınlatılmasıdır. Çağdaş tarih çalışmaları açısından bir gücün dünya çapında öneminin kavranılması, söz konusu gücün *tarihi değiştirme* olanağı sergilmesine bağlıdır. Tarihi değiştirme anlayışı çağdaş tarihçiliğin, Hegel'in değimiyle bizzat *felsefenin* temel niteliğidir. Hegel için ancak o zaman *tarih* felsefi açıdan bir özellik taşımakta ve dolayısıyla tarih bir bilim olmanın ötesinde düşünsel anlam taşımaktadır. Bu kapsamda Karahanlılar'a dünya tarihi açısından özellikler kazandıran temel nitelikleri dikkate alarak bir değerlendirme yapmak durumundayız.

Karahanlılar, şimdiki Orta ve Merkezi Asya ile Doğu Türkistan'ın önemli bir kısmını kapsayan siyasi bir güç olarak 840-1212 yılları arasında mevcut olmuştur. Bu dönem türklerin kitlesel halde müslümanlaşması, aynı zamanda Hilafet sınırları dışında bir Türk siyasi kimliyinin oluşumu bakımından dikkat çekicidir. Bu özelliğiyle, Karahanlılar'ın ilk müslüman-Türk devleti olduğu zikr edilmektedir. Dolayısıyla Karahanlılar bir taraftan Eski Türk siyasi, diğer taraftan İslami toplumsal-idari kimliğin parçasıdır. Bu özellik, Karahanlılar'a sadece *devlet* ve *hükümdarlık* nitelikleri açısından değil, aynı zamanda *toplumsal* ve *hukuki* ilişkileri bakımında da önceki Türk devletlerinde farklı bir statüs kazandırmıştır. Burada, dünya tarihi bakımından üç türlü bir değişim söz konusudur. Bu değişim, o denli etkin ve belirleyicidir, ki yansımaları Selçuklu ve sonrası tüm bir Müslüman coğrafyasını etkileyecek derinlikte olmuştur. Çağdaş tarihçilik açısından Karahanlılar'ın dünya tarihi bakımından önemini öne çıkaran işte bu değişimlerdir.

DEĞİŞİM OLARAK DÜNYANIN TARİHİ OLGUSALLIĞI

Bilindiği gibi, gerek Hegel, gerekse de Marks'ın tarih yorumlarını savunan kapitalist ve sosyalist tarihçilik *tarihi* insan ilişkilerinin *devinimi* olarak kavramaktadır. Düşünsel açıdan tarih, dünyanın bu deviniminin kavranılmasında olgusal niteliktedir. Bu olgusalılık dünyanın değişimini, gelişimini ve insani ilişkilerin geçmişten geleceğe doğru *ilerlemesini* kaydetmektedir.

Dünya kendi halinde *olgusaldır* ve bu özelliği bakımından tarihsel olarak hep hareket halindedir. Dünyanın kendi doğal hareketliliği, onun tarihsel hareketliliğiyle bütünleşmektedir. Bu hareketlilik insan varlığının dünyaya egemen olmasında ona tarihsel bir anlam ve önem biçmektedir. İnsan ağılının egemenliği, ancak tarihsel olduğu düşünüldüğü zaman kavranılır. Bu ön koşul, bizzatihi insanı tarihsel olarak hep öne doğru yönlendirmektedir. Dolayısıyla insanın kendisini tarihsel olduğunu düşündüğü ölçekte dünyasal olduğu anlaşılandır. ¹ Ancak bu, XVIII.Yüzyılda Batı düşüncesinde *sonlu dünya* anlayışının öne çıkması ile anlaşılan bir tarih ve aynı zamanda dünya yorumudur ve dolayısıyla denilebilir ki Karahanlılar'ın egemen olduğu dönem açısından, genelde İslam düşüncesi bakımından pek bir anlam ifade etmemektedir. Felsefi açıdan bu böyledir ve dolayısıyla bu haliyle tartışmağa pek açık değildir.

Öte yandan, dünyanın değişim halinde olduğu müslüman zihniyeti açısından da kavranılır bir durumdur ve hatta İbn Haldun'un tarih yorumunda da tarihsel ilişimin değişim halinde olduğu belirtilmiştir. Nitekim, Karahanlılar'ın da içinde bulunduğu Müslüman teolojisi açısından *sabit*, ancak değişim söz konusu olduğunda vurgulanır bir özelliktir. Yani, konuyu *metafizik tarih* alanına taşıdığımız zaman dünyanın değişim halindeki konumu onun tarihi niteliğini aydınlatmaktadır. O halde, kendi gelenekselliği içinde Karahanlılar'ın varlığı bir reaksiyon olarak tarihin sahnesine çıkmaktadır ve bizzati bu Karahanlı toplumu açısından da kavranılan bir durumdur.

İKTİDAR ANLAYIŞININ DEĞİŞİMİ

Karhanlı Devleti'nde siyasi hakimiyetin güç donanımı ve iktidar kudreti bakımından *ilahi* olduğu vurgulanmaktadır. Nitekim, Karhanlı hükümdarları önceki Türk hükümdarları gibi kendi yönetimlerinin *ilahi saadete* olgusuna bağlı bulunduğuna inanyordular. Adına Yusuf Has-Hacib tarafından bizzat *kut* denilen bu iktidarın Tanrı idaresine bağımlı durumu, Türk hükümdarlarına kendilerini “göğün yeryüzündeki temsilcileri” olarak görmek hakkını tanımıştır. ²

Siyasi iktidarın *ilahi bir gücün* temsili olarak insani ilişkilerdeki önceliği, onun belirleyici olduğu kadar, *hukuki* niteliğini de sergilemekteydi. Kavramsal anlamda *kut* üzerinden tartışılacaksa kuşkusuz bu böyleydi; aynı zamanda da değildi. Nitekim, bu dönemde *kut* anlayışının Karahanlılar'da değişime uğradığını görmekteyiz. Bu değişimi Yusuf Has Hacib'in aynı isimli eseri de (*Kutatgu-bilig*)

¹ Marcuse Herbert, *Us ve Devrim* (Hegel ve Toplumbilimin Doğuşu), Çeviren Aziz Yardımlı, İstanbul: İdea, 1989, s. 180 ve d.

² Genç Reşat, *Karahanlı Devlet Teşkilatı*, Ankara: TTK, 2002, s. 33 ve d.

tanımlamaktadır. Yusuf Has Hacib, *kutu bizzat devlet* olarak vurgulamaktadır. Kut, artık salt anlamda hükümdarın kendi varlığının her türlü siyaset üstü konumlanması değil, devletin *tanrısal* niteliğidir.¹

Kut olarak devletin daha bütünselleşmiş halinin ortaya çıkartılması, Türk iktidar anlayışının İslami bir boyut geçirdiğinden haber vermektedir. Kut bir türlü *kişisellik* değil, *tamlık* halidir. İktidar hakkının tepeden tabana doğru bu yayılması, onun salt bir tanrısal güç olmakla birlikte, *hukuki* niteliğini de öne çıkartmaktadır. Yusuf Has Hacib bu güce iki yeni anlam da yüklemektedir: *akıl* (uş/us) ve *gönül*. Bu iki anlam, “münasip tavır ve hareket”le özdeşleşmektedir.²

İktidarın *akılsallığı* İslam siyaset düşüncesinde pek vurgulanmayan bir nitelikler ve bu anlamda Yusuf Has Hacib tarafından *siyasi hakimiyetin doğasına* ilişkin ortaya attığı bir yeniliktir. Örneğin Maverdi'nin hükümdarın özellikleri hakkında yaptığı 10 nitelik arasında *akıl* bulunmamaktadır. Maverdi'ye göre halife olacak bir kimsede 10 temel vazife aranmalıdır:

- İlmi: bu nitelik dinin korunması anlamına gelmektedir;
- Adalet: bu doğru düşüncenin kendisini gösterdiği ahlaki özelliktir;
- Kifaye: bu mülk (toprak) ve insan (toplum) varlığının savunulmasının önkoşuludur;
- Tebaa hakkı: toplumun hak ve hukuklarının savunulması;
- Cihad: iktidarın askeri niteliklerinin ilahi doğrultularda yansımalarıdır;
- Cizye: Bir önceki niteliğin sonucu olarak belirli bir mükellefiyet talebidir;
- Zekat: iktidarın adil paylaşımını seğıleğen maddi unsurdur;
- Sadakat: bürokratik nizamın ölçüsüdür;
- Liyakat: Ehil kimselelerin yetkiyle donatılmasıdır;
- Denetim: Toplumun yönetiminin dine vacibata uygunluğunun ölçüsüdür.³

X-XI. Yüzyıllarda yaşamış Ebu el-Hasan Ali ibn Muhammed ibn Habib el-Maverdi *şafii* mezhebi hukukçusu olmanın dışında, ilk müslüman siyaset teorisyenidir. *Siyaset*'in İslam dini açısından konumu epey geç dönemde (IX. Yüzyıldan itibaren) müslüman bilginleri arasında tartışma konusu yapılmıştır. Bu durum, *siyaset* anlayışının müslümanlar tarafından genel anlamda *hilafetle* birlikte düşündüklerini, iktidarın topraksal (*mülk*) niteliklerinden daha ziyade karakteristik niteliklerini dikkate aldıklarını göstermektedir. Dolayısıyla spz konusu olan gücün doğası değil, güç pratikleri öncelik taşımıştır. Maverdi gücün hukukiliğini *ilm*'le tanımlamak gereği duymuş, belli ki ilm *hiyerarşik* bir içerikte kavramıştır. Söz konusu bu hiyerarşik içerik bilginin ilahi doğasından kaynaklanıyordu.

¹ Yusuf Has-Hacib, Kutatgu-bilig, Reşit Rahmeti Arat, Ankara: TTK, 1994, 730-750 beytler (ay-Toldı'nın Hükümdara Cevabı).

² Yusuf Has Hacib, Kutadgu-bilig, beyt 1933-1934, 1978.

³ Rosenthal Erwin I.J, Ortaçağ'da İslam Siyaset Düşüncesi, Türkçesi Ali Çaksu, İstanbul: İz, 1996, s. 53-54.

Maverdi'ye göre "Allah insanlara (*el-umma*) bir lider (peygamber) gönderdi. Onun aracılığıyla *hilafet* meydana getirdi. Onun kanalıyla da din birliğini (*al-milla*) korudur ve yönetimi (*al-siyasa*) ona bıraktı".¹

Maverdi'nin "yönetim sanatı" dediği sistemde ilm dışında diğer özelliklerin tamamı "tavır ve hareket"le bağlantılıdır ve birer ölçü niteliği taşımaktadır. Onun, *ilmi* peygamberden gelen bir bilgi devamlılığı olarak gördüğü ve bunu belli bir öğretiyeye sabitlediği anlaşılmaktadır. Yani söz konusu olan *ilmin* neliği değil, onun olgusallığıdır. Maverdi'nin bu konuda *korumacı* davrandığı ve siyasal alanda geleneksel yönetim ilminin devamlılığını önemsemiği anlaşılmaktadır.

Selçuklu dönemi siyaset teorisyeni olarak öne çıkan Gazzali de belirli ölçüde Maverdi'nin sunduğu nitelikleri doğrular, ama korumacı değil *eşitleğici* tavır sergiler. XI-XII. Yüzyıllarda yaşamış ünlü bilgin Ebu Hamid Gazzali'ye göre "din ve devlet ikiz kardeşir". Bu açıklamayla Gazzali hilafet hakkı ile sultanlık haklarını eşitlemek istemiş, Abbasi halifesi karşısında Selçuklu sultanlarının yönetimine meşruluk kazandırmak istemiştir. Gazzali'nin hamisi konumunda bulunan Selçuklu döneminin ünlü veziri Nizamülmülk (1018-1092) kendisiyle özdeşleşen unvanından da anlaşıldığı gibi "nizamlayıcı" bir bakış sergilemektedir. Öte yandan Nizamülmülk ünlü yapıtı "Siyasetname"den de anlaşıldığı gibi, bir siyaset bilgisinin temellerinden ziyade *iktidar etiği* üzerine yoğunlaşmıştır.²

Yapılan bu yorumları dikkate aldığımızda Yusuf Has Hacibin iktidarı "akıl ve gönül" üzerine inşa etmesi Karahanlı siyasi kimliğinin orijinallığını sergilemektedir. O halde burada sorulması gereken öncelikli sorusu *siyasal kimliğin akılsallığının ne olduğudur?*

AKILIN SİYASALLIĞI

Yusuf Has Hacib *siyaseti* dört temel üzerine inşa etmektedir:

- adalet
- devlet
- akıl
- kanaat³

Yusuf Has Hacib siyaset pratiği bakımından tüm bu soyut tanımlara birer somut karakter biçmiştir:

- adalet-Kün Togdı
- devlet-Ay Togdı
- akıl-Ögdulmiş
- kanaat-Odgurmuş

Söz konusu bu dört karater aynı zamanda devlette birer mevkii ifade ediyordu:

¹ Black Antony, Siyasal İslam Düşüncesi Tarihi (Peygamberden Bugüne), Türkçesi Sevdâ Çalışkan, Hamit Çalışkan, Ankara: Dost, 2010, s. 136

² Black, Siyasal İslam Düşüncesi, s. 148-172.

³ Yusuf Has Hacib, Kutadgu Bilig, Yayına Hazırlayan Çetin Şan, Serap Tuba Yurteser, İstanbul: Kabalcı, 2009, s. 70-71

- Kün Togdı olarak *adalet* hükümdarı
- Ay Togdı olarak *devlet* veziri
- Ögdulmuş olarak *akıl* vezirin oğlunu
- Odgurmuş olarak kanaat ise vezirin kardeşini tanımlıyordu.

Birisi me`adil ol könillik öze
İkinci bu devlet kut ikbal tüze
Üçüncü hired ol ulugluk bile
*Törtünçi kana`at ve afiyet bile.*¹

Yusuf Has Hacib yapıtında çok ilginç bir sıralama izlemiştir. Kitabın ilk beş kısmı Allah, peygamber, dört halife, Karahanlı hükümdarı ve kosmoloji yapının tarifini içermektedir. Hemen peşinden insanı kimliğini *akıl* üzerinden açıklamaktadır.² İginçtir, Yusuf Has Hacib tüm bir siyasi yapını dört temelinden üçünü vezirle bağlantı içinde açıklamıştır.

Karahanlı siyaset sistemi	
Hükümdar	Vezir Vezirin oğlu Vezirin kardeşi

Bu siyasal yapıda akıl (*ukuş*) vezirin oğlunu timsalinde *orta yaş (olgun)* haddinde gösterilmiştir. Kitabın Ogdulmuş`la ilgili kısmında akıl bir tür *obraz* halinde ortaya konulmakta ve soyut, somur, bedensel, karakterik, psikolojik olarak tanımlanmaktadır:

Aklın özellikleri	
Ukuş (Akıl)	1.mahiyet 2.ad 3.sıfat 4.görüntüsü 5.karakter 6.hareket 7.yaş 8.derece 9.fiziki görkemi 10.qıdası

Bu tablo adeta bir *akıl haritasıdır*. Söz konu bu harita üç yönlü bir yapıda sunulmaktadır:

¹ Aynı eser, beyt 65-66, s. 80-81.

² Aynı eser, beyt 148-161, s. 115-117.

Akıl haritası	
Akıl	1.Dil 2.Söz 3.Yazı

Bu sunum Karhanlılar'dan XX. Yüzyılın başlarına kadar tüm Türk devletlerinde hükümdar fermanlarının yapısını sergilemektedir.

Özbek araştırmacı Qosımjon Sodıqov konuya ilişkin bir çalışmada dili “söz ve yazı” olarak tasnif ederken, Yusuf Has Hacib'in sunumu doğrultusunda sözü “açmak” (*konusma*), yazını (*biti*) “tamamlamak” (*karar*) olarak tarif eder.¹ Bu yapı *siyasal* anlam kazanmaktadır. Dolayısıyla akıl iktidar-devlet (hükümdar-vezir) ilişkisini kapsayıcı nitelikte tanımlanmakta ve yönetim anlayışının özünü içermektedir. Nitekim *kanaat* da bir tür akıl pratiği olarak sunulmaktadır.

Tüm bunlar ne anlama gelemektedir?

Bu, bilgimiz kadarıyla, metafizik düşünce kapsamında devletin akılsallaştırılmasının ilk ve tek örneğidir. Akıl devlete hukuki bir anlam kazandırmakta, iktidarın varlığını tanrısal belirsizlikten söylemin alanına çekmektedir. Devlet aklıyla beraber devlettir ve devlet kendi dönüşümünü *akılsal* anlamda gerçekleştirmektedir. Aklın dışında devletin varlığı düşünülemez ve bu siyasi düşüncenin iki belirleyici (yönetim aklı ve yönetim pratiği) niteliğidir. *Devlet aklı* olarak siyasi akıl tam olarak var olduğu sanılan bir devlette yegane gerekçe olarak gözükmektedir. Avrupa düşüncesinde aklın siyasallığı ancak XVII-XVIII. Yüzyıllarda anlaşılmağa başlandığını dikkate aldığımızda Karahanlı siyaset düşüncesi *inkilabi* bir nitelik arz etmektedir.

Aklın siyasallığı bir siyasi akıl değildir. Akıl burada *zamansal* bir nitelik sergiler. O, *canlıdır*, aynı zamanda “burda ve şimdi”, yani kendi kendisinin ölçüsü olarak *diyalektik* bir içerikte tanımlanmaktadır.

Yusuf Has Hacib'in “*diyalektiğinde*”, özellikle de hükümdar ile Ogdulmuş'in karşılıklı konuşmasında bir tür *olumsuzluk* kendisini göstermektedir. Hükümdar ne kendisinin, ne de vezir babasının katkısı olmadan Ogdulmuş'in “nasıl fazilet sahibi olduğunu” sorgularken, siyasi bir varlık gibi kendisini akıl karşısında olumsuzlaştırmaktadır. Bu oldukça önemli bir husustur. Yusuf Has Hacibin satırlarını okurken bir anlamdan sonra devletin kendisinin akılsal bir yapı haline geldiği düşünülmektedir. Nitekim, konuya ilişkin hükümdarın bir sorusunu yanıtlarken Ogdulmuş *tanrısal bilginin* sadece hükümdara özgü olmadığını ve kendisi gibi tüm insanların hakkı olduğunu açıkca vurgulamaktadır. Devletin doğası *akıl* olarak kendini akılsal bir oluşum içinde kaybetmesi IX-XII. Yüzyılların Karahanlı dünyasında *insan* faktörünün ne denli büyük bir değişim

¹ Sodıqov Qosımjon, Qoraxonıylar davri turkiy yozma yodgorliklari tili, Toshkent: Akademnaşır, 2025, s. 82-96.

geçirdiğini söylemeye olanak tanımaktadır. Kuşkusuz bu modern anlamda bir insan değil, metafiziksel düşünce kapsamında insanın kazandığı en ideal anlamdır.

Bu anlamda karşımıza ikinci bir soru daha çıkmaktadır: söz konusu bu oluşuma gerekçe neydi?

Karahanlı sınırları içinde yer alan bugünkü Özbekistan coğrafyasını incelediğimizde ilginç bir manzarayla karşılaşırız. Özbekistan coğrafyasında her türlü coğrafi yapılanmaların birer parçası bulunmaktadır: çöl, bozkır, dağ, orman, deniz, sahra ve d. Böyle birbirinin içine geçmiş coğrafyada yaşamsallığın olanaklı hale gelmesinde tek tip bir yaşam anlayışını sürdürülmesi düşünülemez. Dolayısıyla doğal ortam insanlardan daha pratik ve akılsal etkinlik talep etmektedir. Karahanlılar'ın (Yusuf Has Hasib timsalinde) bunu iyi gözlemlediği gözükmemektedir.

HUKUKİ DEĞİŞİM

İktidarın yapısının değişimi onun hukuksal olarak değişimini sergiler. Hukuksal yapı, aynı zamanda Karahanlı devletinin yazınsal konumu oluşturmaktadır. Yusuf Has Hacibin *kutadgu bilig* dediği şey aslında “mutluluğun hukuksal varlığı”dır.

Karahanlılar içinde buldunukları siyasi-toplumsal ve dinsel yapı dolayısıyla *töre* ve *şeriat* hukukunun birlikte kullanıldığı bir devlet nizamına sahiptiler. Siyasi alanı töre nizamı larken, toplumsal, ticari ve aile nizamına şerii hukuk hükm ediyordu. Burada hukukun bir dengeleyici oluşu söz konusudur. Artık burada karşımızda *mutlak anlamda* bir hükümdar söz konusu olamaz. Dolayısıyla güç olarak hükümdarı vezir dengelemektedir. Bu anlamda devlet gücü olan *kutun* toplumsal alana çekilmesi, toplumsal mutluluğun öne çıkarılması gerekmektedir.

Geniş anlamda değerlendirildiğinde gerek *Kutadgu bilig*, gerekse *Atabetül-hakayık* eserleri hukuk metinleridir.¹ Diğer taraftan bu dönemde Kerhi (öl.952), Debusi (öl.1039), Pezdevi (öl.1089) ve özellikle de Serahsi (öl. 1097) gibi büyük fıkıh alimleri yetişmiştir. Bu alimlerin önemli özelliği hukukta *icthāt* anlayışını savunmalarıdır. Bu da, Karahanlıların İslam dünyası açısından oluşturduğu söz konusu akılsal alana tanınan serbestlikten kaynaklanıyordu. Bu alimlerin eserleri günümüzde dahi Hanefi mezhebinin temel hukuk kitapları arasında zikr olunurlar.²

Söz konusu bu ağır fıkhi metinlerle kıyasalındığında *Kutadgu bilig* ve *Atabetül-hakayık* daha sadece ve türkçe insanlara hukuki, ahlaki ve terbiyevi bilgiler sunmaktadır. Örneğin Edib Ahmed Yükneki'nin “*Atabetül-hakayık*”ında

¹ Şahin Özger, *Siyasetnamelere Göre Karahanlılar ve Gazneliler Devletlerinde Hukuk Anlayışının Temelleri*, Hacı Bayram Veli Üniversitesi Yüksek Lisans Tezi, Ankara 2019, s. 64.

² Uslu Rifat, “Karahanlılar Dönemi İslam Hukukçularından Şemsül-Eimme es-Serahsi”, *Manisa Sosyal Araştırmalar Dergisi*, 2016, cilt 6, sayı 2, s. 157-169.

peygamberin bakış bucağından bir dünya tasavvuru sunulmaktadır.¹ Söz konusu bu eserlerde güçlü bir hukuk anlayışı bulunmaktadır. Ö.Şahin bununla ilgili önemli bir husus tespit ettiğini belirtmektedir: “*Hukukun üstünlüğü* gibi bir kavramın daha dünyanın hiçbir yerinde ortaya çıkmadığı ir dönemde Yusuf Has Hacib kanunu beylikten ve iktidardan çok daha üstün tutması, başta Karahanlılar olmakla Türk devlet anlayışında *kanun* ve *töre* gibi kavramlara ne kadar önem addedildiğini göstermektedir”.²

Ceza, hüküm, hiddet, şiddet, herhangi bir günah ve kusur halinde Yusuf Has Hacib gerekli hukuki işlemde *akla* öncelik tanınmasını vurgulamaktadır.

Akı, bu manayı kastederek, böyle bir hadise hakkında ne der, dinle (Kutadgu bilig, beyt 640)

Bazı beytlerinde Yusuf Has Hacib oldukça pratik fikirler seslendirmiştir. Örneğin eserinin bir yerinde “hukuk ile parasal yaşamı” eşitlemiştir. Toplum yaşamının sürdürülmesinde birinin varlığını ötekiyle eşit gören bu yorum günümüzün toplumsal hayatı ile özdeşleşmektedir.

Memleketin direği, temeli sağlamlığı, esası ve köke iki şete bağlıdır
Bunlardan biri halkın hakkı olan kanun, diğeri de hizmette bulunanlara
dağıtılan gümüşdür
 (Kutadgu bilig, beyt 2132-2133).

Sonuç

Karahanlı devlet yapısında gözlemlediğimiz gerek siyasal, gerekse hukuksal değişimler tüm bir Müslüman toplumları açısından hayati önem taşımaktadır. Bu değişimleri sosyal, kültürel, özellikle de dinsel alanda da izlemek olasıdır. Ancak altını özellikle çizdiğimiz bu iki hususu dikkate aldığımızda Karahanlı siyaset ve hukuk anlayışının genel anlamda Müslüman dünyasındaki varlığını Roma siyaset ve hukuk sisteminin Batı düşüncesindeki roluyla kıyaslamak mümkündür.

Kaynakça

1. Black Antony, *Siyasal İslam Düşüncesi Tarihi (Peygamberden Bugüne)*, Türkçesi Sevda Çalışkan, Hamit Çalışkan, Ankara: Dost, 2010
2. Edib Ahmed Yükneci, *Atabetü'l-hakayık*, Hazırlayan Ayşegül Çakan, İstanbul Türkiye İş Bankası, 2022 (2. Bsk.).
3. Genç Reşat, *Karahanlı Devlet Teşkilatı*, Ankara: TTK, 2002
4. Marcuse Herbert, *Us ve Devrim (Hegel ve Toplumbilimin Doğuşu)*, Çeviren Aziz Yardımlı, İstanbul: İdea, 1989

¹ Edib Ahmed Yükneci, *Atabetü'l-hakayık*, Hazırlayan Ayşegül Çakan, İstanbul Türkiye İş Bankası, 2022 (2. Bsk.).

² Şahin, *Siyasetnamelere Göre Karahanlılar ve Gazneliler Devletlerinde Hukuk*, s. 66.

5. Rosenthal Erwin I.J, *Ortaçağ'da İslam Siyaset Düşüncesi*, Türkçesi Ali Çaksu, İstanbul: İz, 1996
6. Sodiqov Qosimjon, *Qoraxoniylar davri turkiy yozma yodgorliklari tili*, Toshkent: Akademnaşhr, 2025
7. Şahin Özger, *Siyasetnamelere Göre Karahanlılar ve Gazneliler Devletlerinde Hukuk Anlayışının Temelleri*, Hacı Bayram Veli Üniversitesi Yüksek Lisans Tezi, Ankara 2019
8. Uslu Rifat, “Karahanlılar Dönemi İslam Hukukçulrından Şemsül-Eimme es-Serahsi”, *Manisa Sosyal Araştırmaalr Dergisi*, 2016, cilt 6, sayı 2, s. 157-169.
9. Yusuf Has Hacib, *Kutadgu Bilig*, Yayına Hazırlayan Çetin Şan, Serap Tuba Yurteser, İstanbul: Kabalcı, 2009
10. Yusuf Has-Hacib, *Kutatgu-bilig*, Reşit Rahmeti Arat, Ankara: TTK, 1994.

QORAXONIYLAR TARIXI BO'YICHA YANGI MA'LUMOTLAR: DOD-BEK BITIGI, “NASABNOMA”LAR

G'AYBULLA BOBOYOROV

*O'zR FA Milliy arxeologiya markazi bosh ilmiy xodimi,
tarix fanlari doktori, professor*

Annotatsiya: Ushbu maqolada turkiy el-uluslar davlatchiligining yuqori bosqichi bo'lgan Qoraxoniylar sulolasi (960-1212) o'tmishini yoritishda o'ziga xos o'rin tutadigan yangi ma'lumot - bilgiler ko'rib chiqiladi. Ulardan biri Qozog'iston respublikasi Tarozi (Jambul) shahrida joylashgan “Dovud-bek maqbarasi”dagi arabcha bitiklar bo'lsa, ikkinchisi Toshkent va Turkiston viloyatlarida yashaydigan ijtimoiy qatlam vakillari – o'zbek va qozoq xo'jalar qo'lida saqlanayotgan “Nasabnomalar”dir. Dovud-bek qabrtoshidagi yozuvlar ushbu yodgorlik 1262 yilda vafot etgan Qoraxoniy boshqaruvchilaridan biri Qutlug'-To'ng'a Ulug'-Bilga Ilik-xon / Iqbol-xon Dod-bek Isfahsolor ibn Ilyas ... O'g'ul-bek ash-shahid Dod-bek at-Taroziyga tegishli ekanini ko'rsatmoqda. Nasabnomalar esa Qo'qon xonligi (1709-1876) boshqaruvi chog'ida Toshkent, Turkiston va ushbu shaharlar tegrallaridagi qishloqlarda yashagan xo'jalarga berilgan shajara turidagi yozma manbalardir. Ushbu shajaralarda keltirilgan Qoraxoniy boshqaruvchilariga tegishli ma'lumotlar Dod-bek at-Taroziy shaxsi bilan bog'liq ayrim masalalarga aniqlik kiritadi. Har ikkala turdagi yozma yodgorlik bilgilar Tarozda ko'milgan Qoraxoniy boshqaruvchining oti Dovud-bek emas, Dod-bek ekanini ko'rsatmoqda. Chamasi, Dod-bek XIII yuzyillikning ilk o'n yilliklaridagi Chingizxon bosqini chog'ida mo'g'ullarga bo'ysunib, o'zining ichki boshqaruvini saqlab qolgan Qoraxoniylar sulolasining Tarozdagi tarmog'idan bo'lgan.

Ushbu bilgilar tayanib, Taroz va uning tegrallaridagi Qoraxoniylar boshqaruvi Chingiziylar boshqaruvi chog'ida ham deyarli 50 yilcha saqlanib qolganini aytish mumkin.

Kalit so'zlar: Qoraxoniylar, Taroz, “Dovud-bek maqbarasi”, bitiktosh, Dod-bek, unvon, “Nasabnoma”, xo'jalar, Toshkent, Turkiston.

Qoraxoniylar xoqonligi (960-1212) o'tmishini yorituvchi yozma manbalar ko'proq fors, qisman arab va turk tillarida yozilgan bo'lib, keyingi yillarda ushbu xoqonlik o'tmishiga tegishli bilgilar xitoy yilnomalaridagi bilgilar negizida yanada boyimoqda. Shuningdek, izlanuvchilar qoraxoniylar chog'i madaniyatiga tegishli arxeologik topilmalar – turli bitiklar va tanga-pullarga tayanib, qoraxoniylar o'tmishining shu choqqacha qorong'u bo'lib kelayotgan tomonlarini yoritmoqdalar. Ayniqsa, Samarqand tegralaridan topilayotgan qayroqtoshlar, Qirg'izistondagi turli bitiklar - Burana yodgorligi tegralaridagi qabr yozuvlari qoraxoniylar bilan bog'liq ko'plab chigalliklarga aniqlik kiritdi. Bunday topilmalar sirasiga qoraxoniylarning so'nggi boshqaruvchilari bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq Tarozi shahridagi Dod-bek yodgorligi va "Nasabnoma"larni kiritish mumkin.

1. Dod-bek qabrtosh bitiklari.

Taroz (Jambul) shahrining yerli turg'unlari tomonidan "Davud-bek kasana" (Dovud-bek maqbarasi) deb ataladigan ushbu tarixiy yodgorlik shahar markazidagi bog' hududida joylashgan. Maqbara qadimda musulmon qabriston bo'lgan joyda qurilgan, keyinchalik esa bu yer turli me'moriy inshootlarni o'z ichiga olgan bog' maydoniga aylantirilgan. Pishiq g'ishtdan qurilgan ushbu maqbara to'rtburchak shaklda bo'lib, uning ustki qismi gumbazsimon yo'sinda ishlangan (qarang: 1- ilova). Maqbaraning ichida markaziy qismda oq rangli ikki qatlamdan tashkil topgan to'rtburchak ko'rinishdagi marmar qabr toshi saqlanib qolgan (qarang: 2- ilova). Har ikki qatlamining tashqi burchaklarida arab yozuvidagi so'zlar o'rin olgan. Ushbu yozuvni ilk bor atoqli sharqshunos V.V. Bartold o'qigan va rus tiliga o'g'irgan. Bartold o'sha yillarda (1902–1903) Avliyo-ota (hozirgi Jambul) uezdining boshlig'i bo'lgan, o'zi ham sharqshunos va arxeolog o'laroq tanilgan V.A. Kallaur tomonidan yuborilgan ushbu qabrtosh nusxasi negizida arabcha so'zlarni quyidagicha o'qigan:

هذا روضة الملك الكبير والقرم الخطير العالم العادل البازل صاحب السيف والقلم معدن الجود والكرم معز الحق معين الخلق مربع العلماء مقوى الضعفاء جلال الحق و الدين ظهير الاسلام و المسلمين حضرة مجتبي الخواقين مختار رب العالمين مجمع الفضل والنعم منبع البذل والكرم الصادع بامر الله القايم بحجة خاتم الزمان منشأ الجود و الحسان ابو المكارم والشمايل بلغ بولكا الغ بيلكا اقبال خان داود بيك اسفهلار بن الياس اوغول بيك الشهنشاه الا ان اولياء الله خوف عليهم ولا هم يحزنون وفاته في ليلة الجمعة الثامن من جماد الاولى ستين وستمائة

«Bu bog' buyuk hukmdor va aslnasab qo'mondon, olim, odil, dovyurak, qilich va qalam egasi, saxiylik va jasurlik o'chog'i, haqiqat kuychisi, odamlarga yordam beruvchi, olimlarning qornini to'ydiruvchi, kuchsizlarga kuch-quvvat beruvchi, haqiqat va dinning dovrug'ini yoyuvchi, Islom va mo'minlarning homiysi, xoqonlarning tanlagani, Yaratgan tomonidan tanlangan, jasorat va baxtliklik sifatlarining uyg'un joyi, qo'li ochiqlik va xayrsevarlik o'chog'i, Yaratgan buyrug'i bo'yicha olg'a intilgan, Yaratgan ko'rsatmalariga tayanilgan, zamonning

samarasi, ochiq ko'ngillik va xayrsevarlik o'chog'i, jasur va yaxshi fazilatlar otasi Balig'-Bulg'a Ulug'-Bilga Iqbol-xon Davud-bek Isfahsolor ibn Ilyas-o'g'ulbek Shahanshohnikidir. «Allohning do'stlarida qo'rquv yo'qdir, ular g'am chekmaslardir» (Qur'on, 10:62). U 660 yil jumodiul-avval oyi juma kechasida vafot etdi (milodiy 1262 yil, 31 mart)¹.

هذا روضة الملك الكبير والقرم الخطير العامل العادل الباذل صاحب السيف والقلم معدن الجود والكرم معز الحق معين الخلق مرتع العلماء مقوى الضعفاء جلال الحق والدين ظهير الاسلام و المسلمين حضرة مجتبي الخواقين مختار رب العالمين مجمع الفضل والنعم منبع البذل والكرم الصادع بأمر الله القام بحجة // خاتم الزمان منشأ الجود والحسان ابو المكارم والشمائل // قتلغ تونكا الغ بيلكا ايليک خان داد بيک اسفہسار بن الیاس ... اوغول بيک الشہيد داد بيک الطرا (زی) // الا ان اولياء الله خوف عليهم ولا هم يحزنون وفاته في ليلة الجمعة الثامن من جماد الاولى سنين وستماية

Shu o'rinda aytib o'tish kerak, V.V.Bartoldning bu o'qishi ko'pchilik tomonidan qabul qilingan, shu bilan birgalikda, ayrim izlanuvchilar bu bitikdagi kishi otining o'qilishi bilan bog'liq birmuncha ajralib turuvchi qarashlarni o'rta tashlagan edilar. Biroq izlanuvchilar tomonidan qabr egasining oti Dovud-bek deb o'qilib kelavergani uchun yerli turg'unlar ushbu yodgorlikni "Dovud-bek kasana" deb atay boshlaganlar. Bizning yaqin yillarda Taroz shahriga borib, qabrtosh yozuvlari bilan to'g'ridan-to'g'ri tanishib, ayrim so'zlarni to'g'rilab o'qishga intilishimiz so'nggida ushbu yodgorlik egasi Dovud-bek emas, Dod-bek, uning unvon – atoqlari esa Bartold o'qiganidek, Balig'-Bulg'a Ulug'-Bilga Iqbol-xon Davud-bek Isfahsolor ibn Ilyas-o'g'ulbek Shahanshoh emas, Qutlug'-To'ng'a Ulug'-Bilga Ilik-xon / Iqbol-xon Dod-bek Isfahsolor ibn Ilyas ... O'g'ul-bek ash-shahid Dod-bek at-Taroziy ekani aniqlandi². Kezi kelganda aytib o'tish kerak, qabrtosh yozuvining arabchadagi so'zlari V.V.Bartold tomonidan ruschaga to'g'ri o'girilganiga urg'u bergan holda, qabrtoshda o'rin olgan turkcha so'zlar quyidagicha tuzatib o'qildi:

«Bu bog' buyuk hukmdor va aslnasab qo'mondon, olim, odil, dovyurak, qilich va qalam egasi, saxiylik va jasurlik o'chog'i, haqiqat kuychisi, odamlarga yordam beruvchi, olimlarning qornini to'ydiruvchi, kuchsizlarga kuch-quvvat beruvchi, haqiqat va dinning dovru'ini yoyuvchi, Islom va mo'minlarning homiysi, xoqonlarning tanlagani, Yaratgan tomonidan tanlangan, jasorat va baxtlilik sifatlarining uyg'un joyi, qo'li ochiqlik va xayrsevarlik o'chog'i, Yaratgan buyrug'i bo'yicha olg'a intilgan, Yaratgan ko'rsatmalariga tayanilgan, zamonning samarasi, ochiq ko'ngillik va xayrsevarlik o'chog'i, jasur va yaxshi fazilatlar otasi Qutlug'-To'ng'a Ulug'-Bilga Ilik-xon / Iqbol-xon Dod-bek Isfahsolor ibn Ilyas ... O'g'ul-bek ash-shahid Dod-bek at-Taroziynikidir. «Allohning do'stlarida qo'rquv

¹ Бартольд В.В. О двух арабских надписях Аулие-ата / Сочинение. Том IV. Москва: Наука, 1966. С. 307.

² Kıdırılı D., Babayar G. Taraz'da Bulunan Son Karahanlı Hükümdarının Birine Ait Mezar Aniti // Gazi Türkiyat, Bahar 2016/18. S. 23.

yo'qdir, ular g'am chekmaslardir» (Qur'on, 10:62). U 660 yil jumodiul-avval oyi juma kechasida vafot etdi (milodiy 1262 yil, 31 mart)¹.

Qabrtoshda tilga olingan kishi Qutlug'-To'ng'a Ulug'-Bilga Ilik-xon / Iqbol-xon Dod-bek Isfahsolor ibn Ilyas ... O'g'ul-bek ash-shahid Dod-bek at-Taroziy ekani aniqlanib, qabr egasi bilan bog'liq atoq – unvonlar Qoraxoniylar boshqaruvchilardan biri bo'lgani ko'rsatib tursa-da, uning vafot etgan yili 1262 yil ekani ayrim savol-so'roqlarni keltirib chiqardi. Bilamizki, XIII yuzyillikning 20-yillarida Chingizxon va o'g'illari O'rta Osiyoning bir qator o'lka va shaharlari kabi Taroz shahrini ham qo'lga kiritgan, shu yuzyillikning o'rtalarida bu yerlar Chingiziylar saltanati imperiyasi qo'l ostida, aniqrog'i uning bir qismi bo'lgan Chig'atoy ulusi qaramog'ida edi. Bu ulus qo'l ostida Taroz bilan birga Amudaryo – Sirdaryo oralig'i, Xorazmning bir bo'laki, Yettisuv, bugungi Janubiy-Sharqiy Qozog'iston, Qirg'iziston va Sharqiy Turkiston kabi ko'proq shahar madaniyati keng tarqalgan o'lkalar kirar edi. Bu yerlar Chingizxon tomonidan ikkinchi o'g'li Chig'atoyga meros o'laroq berilgan edi.

Chig'atoy Ili daryosi qirg'og'idagi Olmaliq shahri (hozirgi Olmati shahri kunchiqar tomonlari) yaqinida vafot etadi. Uning davlat boshqaruvi ishlarini boshlang'ichda kelib chiqishi xorazmlik Mahmud Yalavoch amalga oshirgan. Keyinchalik esa uning o'g'li Mas'ud Bek (1240-yildan keyin) bu yumushni bajargan². O'sha kezlarda Chig'atoy ulusi Xo'jand shahridan boshqarilgan. Ushbu turkiy amaldorlar boshqaruvi chog'ida mo'g'ul xonlari Turkiston o'lkasining shahar madaniyati yetakchilik qilgan bo'lagida emas, Yettisuvning kunchiqar tomonlaridagi yaylovlarda yashaganlar, o'lkaning boshqaruv ishlariga ham to'g'ridan-to'g'ri aralashmaganlar.

O'rta Osiyoning shimoliy-sharqiy yerlaridagi Ili daryosi qirg'og'i va Jung'oriya tekisligi kabi yaylov yerlarda ko'chmanchi turmush yo'sinini tanlagan Chig'atoyning boshqa izdoshlari ham boshlang'ichda ko'p hollarda Turkistondagi shahar va viloyatlarning boshqaruvini ushbu xorazmlik noiblar qo'l ostidagi yerli ma'muriyat qaramog'ida qoldirgan edilar. Bu esa V.V. Bartold urg'u berganidek, mo'g'ullar boshqaruvining ilk yillarida O'rta Osiyoda, ayniqsa shahar madaniyati yetakchi bo'lgan Buxoro, O'tror, Toshkent, Xo'jand, Farg'ona, Y'zgand markazli yerlar, shuningdek, Taroz va hatto Chig'atoy ulusining ilk boshqaruv markaziga ancha yaqin bo'lgan Olmaliq kabi shahar va o'lkalarda yerli boshqaruvchilar – maliklar o'z ma'muriy ish yuritishini saqlab qolib, o'z tangalarini bostirgan edilar.

Chamasi, o'sha kezlarda Taroz viloyati ham mo'g'ullarga qarshi chiqmay, ularga bo'ysungan yerli Qoraxoniylar sulolasi tomonidan boshqarilgan. Chunki mo'g'ullar bosqini chog'ida, ya'ni XIII yuzyillik boshlarida Xorazmshoh Anushteginiylar bilan nayman turklarining yo'l boshchisi Kuchlukxon o'rtasidagi

¹ Бартольд В.В. О двух арабских надписях Аулие-ата / Сочинение. Том IV. Москва: Наука, 1966. С. 307.

² Аль-Карши, Джамал. Ал-Мулхакат би-с-сурах. Введение, перевод персидского, комментарии, текст, факсимиле Ш.Х. Вохидова, Б.Б. Аминов. Алматы, 2005. С. 127-128.

to'qnashuvlar chog'ida anushteginiylar qo'l ostida bo'lib, O'tror – Taroz oralig'idagi yerlar bilan cheklangan qoraxoniylar boshqaruvchilarining mo'g'ul bosqiniga qarshi kurashgani, yo bo'lmasa, ularni qo'llab-quvvatlagani to'g'risida yozma manbalarda bilgi – ma'lumotlar deyarli uchramaydi.

Shu bilan birga, mo'g'ullarning ilk bosqinlari va ilk Chig'atoylar boshqaruvi chog'ida Qoraxoniylar sulolasi siyosiy kuch o'laroq saqlanmagan bo'lsa-da, ulardan ayrimlarining yerli aholi orasida ma'naviy ta'sirini saqlab qolgan ko'rinadi. Chamasi, mo'g'ullarga qattiq qarshilik ko'rsatmaganidan bo'lsa kerak, Qoraxoniylarning Tarozdagi tarmog'i o'zining ichki boshqaruvini saqlab qolgan. Shuningdek, ilgari Turkiston o'lkasidagi muhim iqtisodiy va madaniy markazlardan biri o'laroq bilingan Taroz shahrining bu mavqei mo'g'ullar boshqaruvi chog'ida ham saqlanib qolganini ko'rsatadigan ayrim bilgilar yetib kelgan. O'rnak keltiradigan bo'lsak, Chig'atoy bek - amirlaridan Bo'ri tomonidan 1230- yillardagi mo'g'ullarning G'arbiy Yevropa yurishlari munosabati bilan tutqin qilingan bir necha oltin koni ishchilarining Tarozga keltirilgani va ularning bu yerda mo'g'ullar uchun qurol yasash bilan shug'ullangani o'sha kezlarga tegishli yozma manbalarda tilga olinadi¹.

Chamasi, “Dod-bek qabrtoshi” egasi – qoraxoniylarning so'nggi boshqaruvchilaridan biri 1260- yillarning ilk yillarida Chig'atoy ulusining bosh boshqaruvchilari bilan kelisha olmay qolgan va o'ldirilgan. Qabrtoshda uning “ash-shahid” deb tilga olinishi buni ko'rsatadi. Chig'atoyxonning nabirasi Olg'u XIII yuzyillikning 60- yillari boshida, o'z ota-bobolaridan farqli o'laroq Chig'atoy ulusidagi boshqaruv tizginini to'liq o'z hukmronligi ostida to'plashga urinib, shu yo'sinda Chig'atoy xonligining haqiqiy tamal toshini qo'ygan edi. O'sha yillarda mo'g'ullar noibi o'laroq boshqaruv tizginini qo'lida tutib turgan xorazmlik Mahmud Yalavochning o'g'li Mas'udbek va Sulaymonbekning qo'llab-quvvatlashi orqali Olg'u bu ulus hududlariga Xorazm va Xurosonning bir qismini (Shimoliy Afg'oniston)ni ham qo'shib olgan, Buxoro va Samarqandga o'z vakillarini yuborgan edi.

Tarozdan kunchiqardagi birmuncha yaqin shaharlardan biri – Olmaliq mo'g'ullardan oldingi kezlarda Yettisuv o'lkasidagi turk-islom madaniyatining o'choqlaridan biri o'laroq bilingan. Mo'g'ul bosqini chog'ida esa bu yerning yerli boshqaruvchisi - qarluq yoki qoraxoniylar sulolasidan bo'lib, “Tug'rulxon” unvoni bilan tanilgan Buzarxon qarshilik ko'rsatmasdan mo'g'ullarga bo'ysungan. Shu yo'sinda, XIII yuzyillikning 20-70 yillari oralig'ida uning o'g'illari Olmaliq, Quz-Baliq (Bolasog'un va tegrasi) hamda Koshg'arda mo'g'ullar nomidan boshqaruvni yuritganlar².

1 Biran M. Rulers and City Life in Mongol Central Asia (1220-1270) // *Turko-Mongol Rulers, Cities and City Life* / Ed. by David Durand-Guédry / Brill's Inner Asian Library. Ed. Michael R. Drompp, Devin DeWesse. S. 31. Leiden – Boston, 2013. P. 262–263.

2 Аль-Карши, Джамал. Ал-Мулхакат би-с-сурах. Введение, перевод персидского, комментарии, текст, факсимиле III.X. Вохидова, Б.Б. Аминов. С. 432, 468.

Mo'g'ullar o'z yurishlarining ilk o'nyilliklarida ko'plab yerli sulolalarni ag'darib, bir necha o'nlab shaharlar va boshqa madaniyat o'choqlarini yo'qotish bilan birga, oradan ko'p o'tmay, egallab olgan yangi o'lkalarda qurilish va tiklash ishlarini boshlaganliklari, yerli turg'unlarning boshqaruv va diniy ishlarini esa ayrim sobiq boshqaruvchi sulolalarga yoki boshqa yerli noiblar qo'lga topshirganliklari ko'zga tashlanadi. Mo'g'ullar bunday yo'lni tanlar ekan, ularga qarshi chiqmagan yoki o'zlaridan oldin ushbu o'lkalarni boshqargan yirik kuchlardan, ayniqsa, Xorazmshoh Anushteginiylardan qiyinchilik ko'rgan sulolalarning boshqaruvda davom etishlariga ruxsat berganliklari kuzatiladi. Shunga o'xshab, chingiziylardan birmuncha oldin O'rta Osiyoda o'z boshqaruvini o'rnatgan qoraxitoy xonlari va naymanlar mintaqaning o'troq markazlarini qo'lga shunday yo'l-yo'riqni qo'llab, yerli sulolalardan soliq olish va ularni noiblar orqali nazorat qilish bilan cheklangan edilar¹.

Endi, Dovud-bek maqbarasida ko'milgan shaxsning kimligiga to'xtalsak. Uning ismi va unvonlari quyidagi qismlardan iborat bo'lganiga urg'u berish kerak:

- 1) sifat va atoq-unvonlari — Qutlug'-To'ng'a Ulug'-Bilga Ilik-xon/Iqbol-xon;
- 2) oti — Dod-bek Isfahsolor ibn Ilyos ... O'g'ul-bek ash-shahid Dod-Bek;
- 3) nisbasi — at-Taroziy.

Shu o'rinda aytib o'tish kerak, bugungacha o'rganilgan yozma manbalarda va ilmiy izlanishlarda Dod-bek Isfahsolor ibn Ilyos ... O'g'ul-bek ash-shahid Dod-Bek at-Taroziy oti to'liq holda uchramaydi. Unga nisbatan ishlatilgan Qutlug'-To'ng'a Ulug'-Bilga Ilik-xon/Iqbol-xon o'laroq qo'llanilgan sifat va atoq-unvonlar ham shu ko'rinishda boshqa manbalarda shu ko'rinishda tilga olinmagan. Biroq, Qutlug'-To'ng'a, Ulug'-Bilga, Ilik va shunga o'xshash atoqli otlar Qoraxoniylar boshqaruvchilarining laqabi va unvonlari o'laroq yozma manbalarda va tanga-pullarda bot-bot uchraydi².

V.V. Bartoldning yozishicha, Tarozda ko'milgan shaxs mo'g'ullarga, ya'ni Chingizxon saltanatiga qaram bo'lgan, "Balig'-Bulg'a Ulug'-Bilga Iqbol-xon" unvonini olgan yerli hukmdor bo'lib, shunga o'xshash turkistonlik boshqaruvchilarning oti o'sha kezlarga tegishli yozma manbalarda uchraydi. Unga ko'ra, Jamol Qarshiyning «al-Mulhaqat bi-s-Surah» asarida ham shunga o'xshash hukmdorlar oti Farg'ona va Toshkent viloyatlari yerli boshqaruvchilari bilan bog'liq o'laroq tilga olingan³. Jamol Qarshiy asari bilan tanishib chiqilganda, Farg'ona va Toshkent bilan bir necha hokimlari to'g'risida bilgilar borligi, biroq

1 Бартольд В.В. Очерк истории Семиречья / Сочинение. Том II. Часть I. Москва: Наука, 1963. С. 133–134.

2 Кочнев Б. Нумизматическая история Караханидская каганата (991-1209). Часть 1. Источниковедческое исследование. Москва, 1960. С. 28–29.

3 Бартольд В.В. О двух арабских надписях Аулие-ата / Сочинение. Том IV. Москва: Наука, 1966. С. 307.

ularning birortasining oti yoki atoq-unvoni Taroz qabrtoshida o‘rin olgan hukmdorlarni bilan o‘xshash emasligi anglashildi¹.

Bizningcha, Chig‘atoy ulusi boshqaruvi chog‘ida Taroz boshqaruvida bo‘lgan qoraxoniylar hukmdorlaridan biri bo‘lganini quyidagicha dalillar ko‘rsatib turibdi:

Birinchidan, Tarozda dafn etilgan ushbu shaxsning “Taroziy” nisbasi uning aynan tarozlik ekanini ko‘rsatadi.

Ikkinchidan, Qutlug‘-To‘ng‘a Ulug‘-Bilga Ilik-xon/Iqbol-xon Dod-Bek Isfahsolor oti ko‘pincha turkiy, qisman esa forsiy atoq-unvon va sifatlardan tashkil topgan bo‘lib, ular yuqorida tilga olingan arabcha ta’riflar bilan deyarli to‘liq uyg‘unlikka ega.

Uchinchidan, Qo‘qon xonligi chog‘ida yozilgan, biroq qoraxoniylar chog‘i bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq voqealar keltirilgan “Nasabnomalar”da O‘tror va unga yaqin yerlardagi qoraxoniylar boshqaruvchilar orasida “Dod-bek” degan hukmdor uchraydi, ularning kelib chiqishi qoraxoniylarning Tarozdagi tarmog‘iga borib taqalishidan kelib chiqilsa, Taroz shahridagi “Dovud-bek kasana” qabrtoshining egasi kimligi masalasi yanada oydinlashadi. Toshkent va turkistonlik o‘zbek va qozoq xo‘jalar qo‘lida saqlanayotgan shajara turidagi o‘nlab “Nasabnomalar” Qoraxoniylar xoqonligi bilan bog‘liq ko‘plab bilgilarga egaligi bilan ajralib turadi².

Qabr bitigida داد بيك (Dod-bek) ko‘rinishida ikki kez - Dod-bek Isfahsolor ibn Ilyos ... O‘g‘ul-bek ash-shahid Dod-bek at-Taroziy) deb uchraydigan ushbu boshqaruvchi otining V.Bartold va boshqa izlanuvchilar tomonidan Dovud-bek yoki Davut-bek deb o‘qilishi **arabcha yozuv bichimi (orfografiyasi)ga tayaniladigan bo‘lsa to‘g‘ri emasligi anglashiladi** (qarang: 4- rasm, 3–5). Bilamizki, islom olamida keng tarqalgan somiycha kelib chiqishli Dovud oti har doim داور (Dā‘ud) ko‘rinishida yoziladi³.

Qadim va o‘rta asrlarda hukm surgan ko‘plab turkiy sulolalar boshqaruvida keng qo‘llanilgan va yalpi o‘laroq xoqon uchun ham ishlatilib, “amaldor” anglamini bergan “bek” yoki “beg” unvoni qo‘shib aytilgan “Dod” so‘zi bu davr yozma manbalarida unchalik ko‘p uchramaydi. Negizi forsiy bo‘lgan ushbu atama Dod-bek ko‘rinishida ilk bor Saljuqiylar va Xorazmshoh-Anushteginiylar (1077–1231) chog‘ida uchraydi. O‘rnak keltiradigan bo‘lsak, Saljuqiylar sultoni Berkyaruq (1092–1104) tomonidan 1097 yili Xuroson boshqaruvchisi o‘laroq

1 Аль-Карши, Джамал. Ал-Мулхакат би-с-сурах. Введение, перевод персидского, комментарии, текст, факсимиле Ш.Х. Вохидова, Б.Б. Аминов. С. 149, 151, 154.

2 Насап-нама. 1-кітап / Қазыналы оңтүстік. Мәтінді аударып, транскрипциялаған, түпнұсқа мен асылмәтінді ұсынғандар А. Муминов, З. Жандарбек. Алматы: Нұрлы жол, 2013.

3 Ал-Карши, Ж. Ал-Мулхакат би-с-сурәх (Введение, перевод с арабско-персидского, комментарии, текст, факсимиле Ш.Х. Вохидова, Б.Б. Аминова), Алматы, 2005. С. 109, 169.

tayinlangan kishi Dod-bek Habashiy ibn Oltuntoq edi ismli turkiy qo'mondonlardan biri edi¹.

Aslida Dod-bek oti Saljuqiylar va Xorazmshohlardan ham oldinroq turkiy boshqaruvchilar bilan bog'liq uchrashini ko'rsatadigan ayrim yozma bilgilarga egamiz. Bir qator izlanuvchilar tomonidan XII yuzyillikda, yo bo'lmasa, shu yuzyillikning so'nggi o'nyilliklari – XIII yuzyillik boshlarida, boshqa izlanuvchilar tomonidan esa XIV yuzyillikda yashagan deb qaraladigan Qoraxoniylar chog'i turk shoiri Adib Ahmad Yugnakiyning "Hibbat ul-haqoyiq" yoki «Atabat ul-haqoyiq» («Haqiqatlar armug'oni») asarida kitobni "Buyuk amir Muhammad Dod Sipahsolor Bekka, turk va ajam o'lkalari hukmdoriga bag'ishlangani" to'g'risidagi bilgilar uchrashi bu qarashni kuchaytiradi². Bizningcha, Ahmad Yugnakiy tilga olgan ushbu Dod Sipahsolor Bek Taroz qabrtoshidagi kabi Dod-bek Isfahsolor ko'rinishida yozilgan bo'lishi ham mumkin. Agar bu to'g'ri bo'lsa, ushbu kishining "Dovud-bek maqbarasi"da ko'milgan kishi bilan bog'liqligi anchagina oydinlashadi.

Shu o'rinda aytib o'tish kerak, qabrtoshda tilga olingan kishi hamda Ahmad Yugnakiy eslatib o'tgan kishi kim bo'lgani masalasiga birmuncha oydinlik kiritisa kerak degan umidda Ahmad Yugnakiy bilan bog'liq ayrim tortishuvli masalalarga qisqacha to'xtalib o'tmoqchimiz. Yugnakiy tug'ilib o'sgan yer to'g'risida yozma manbalarda aniq bilgilar yo'qligi, yo bo'lmasa, bugungacha yetib kelgan qisqa bilgilarning bir-biriga mos kelmasligidan³ Ahmad Yugnakiyning tug'ilgan yeri, tug'ilgan va vafot etgan yillari to'g'risida aniq bir to'xtamga kelinmagan⁴. Shu bilan birga, uning ismiga qo'shib keladigan Yugnakiy nisbasidan kelib chiqib, u tug'ilgan Yugnak qishlog'i Sirdaryoning o'rta oqimidagi O'tror viloyatida bo'lgani ko'zda tutiladigan bo'lsa, ham Dod-bek Isfahsolor, ham Ahmad Yugnakiy bilan bog'liq tortishuvli masalalarga aniqlik kiritish mumkin. Ya'ni, o'sha kezlarda O'rta Osiyoning uch hududi — Samarqand, Farg'ona va O'tror tegrasida Yugnak degan qishloqlar uchragan. Izlanuvchilar Ahmad Yugnakiy ushbu qishloqlardan qaysi birida tug'ilgani bo'yicha aniq bir to'xtamga kelishmagan. Aytib o'tish kerak, ko'pchilik izlanuvchilar bir qator

1 Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия / Бартольд В.В. Сочинения. Том I. Москва, 1963. С. 387; Ибн ал-Асир. ал-Камил фи-т-та'рих («Польный свод историй»), (Перевод с арабского языка, примечания и комментарии П.Г. Булгакова. Дополнения к переводу, примечаниям и комментариям, введение и указатели Ш.С. Камолиддина), Ташкент, 2006. С. 230–231.

2 Arat Rahmeti R. Edib Ahmed b. Mahmud Yükeki. Atebetü'l-Hakayık. İstanbul: Ateş Basımevi, 1951. S. 7.

3 Kelimbetov N. Türk Halklarının Ortak Edebi Eserleri. İstanbul, 2010. S. 24; Ахмад Югнакий / e-adabiyot.uz.

4 Камолиддин Ш. К биографии Ахмада Йугнаки // О'zbekistonda ijtimoiy fanlar, № 1-2. Тошкент, с. 93-110

ko'rsatkichlarga tayanib uning O'trordagi Yugnak qishlog'ida o'sib-ulg'ayganini ilgari suradilar¹.

Endi, Ahmad Yugnakiy asarining kimga bag'ishlangani, chamasi, ushbu kitob qoraxoniylardan bo'lgan hokim Muhammad Dod Sipahsolor Bekka bag'ishlangani va "Dovut-bek maqbarasi"da ko'milgan kishining oti Dod-bek Isfahsolor bo'lgani, uning otasi yoki bobosining ismi ham Dod-Bek bo'lgani masalasi ustida to'xtalib o'tsak. O'tror va uning tegrasi bilan bog'liq Qoraxoniylar nasabi to'g'risida so'z yuritilgan, biroq Qo'qon xonligi chog'ida qog'ozga tushirilgan «Nasabnoma»larda O'tror boshqaruvida bo'lgan qoraxoniy qo'mondonlardan biri to'g'risida "Muhammad xonning laqabi Bilga xon edi, uning o'g'li Dod-bek xon" degan bilgilar uchraydi². Bu bilgi ham yuqorida tilga olingan adib va Dod-Bek Isfahsolor bilan bog'liq masalalarga birmuncha oydinlik kiritadi deb o'ylaymiz.

Shunday qilib, Adib Ahmad Yugnakiy yashagan kezlarda ayrim izlanuvchilar urg'ulaganidek, Qoraxoniylar sulolasidan bo'lgan va Dod-bek ismiga ega boshqaruvchilar O'tror va uning tegrasini ish yuritganlar, Samarqand va Farg'onada esa Qoraxoniylar sulolasining unvoni va ismlari boshqacharoq bo'lgan tarmog'i faoliyat ko'rsatgan. Sipahsolor / Isfahsolor unvoni qoraxoniylarning O'tror va Tarozdagi tarmog'iga merosiy unvon bo'lgani ehtimoli yuqori. Ushbu viloyatlarning joylashuv o'rni bir-biriga birmuncha yaqin bo'lib, yozma manbalarda bu yerlardagi qoraxoniy boshqaruvchilar o'zaro yaqin qarindosh bo'lgani aytib o'tiladi. Demak, "Dovut-bek maqbarasi"ga ko'milgan Dod-bek Isfahsolor yoki uning otasi/bobosi Dod-bek (to'liq oti: O'g'ul-Bek ash-shahid Dod-bek at-Taroziy), yo Ahmad Yugnakiy o'z asarini bag'ishlagan kishi Muhammad Dod Sipahsolor Bek bilan bir shaxs yoki uning yaqin qarindoshi bo'lishi mumkin. Bizningcha, Tarozdagi Dod-bekning ulardan birinchisi bilan bir yoki qarindosh bo'lgani mantiqan to'g'riroqdir. Chunki maqbarada ko'milgan qoraxoniy boshqaruvchi bilan Ahmad Yugnakiy tilga olgan O'tror boshqaruvchisi bir xil unvon — "isfahsolor" unvonini ega bo'lishgan. Shuningdek, ular boshqaruvda bo'lgan yillar bir-biriga yaqin yillarga to'g'ri keladi.

Xulosa. Qoraxoniylar chog'iga tegishli ikki xil bilgi aniqlangan. Ulardan biri – Adib Ahmad Yugnakiyning "Atabatul haqoyiq" asarida tilga olingan hukmdor Muhammad Dod Sipahsolor bek to'g'risidagi bilgi, ikkinchisi esa O'tror va uning tegralariga tegishli «Nasabnoma»larda keltirilgan Qoraxoniylar sulolasidan bo'lmish, laqabi «Bilga xon» bo'lgan Muhammad xon va uning o'g'li Dod-Bek

1 Arat Rahmeti R. Edib Ahmed b. Mahmud Yükneci. Atebetü'l-Hakayık. İstanbul: Ateş Basımevi, 1951. S. 5–6, 16–19; Uysal S. Yüknec'in Neresi Olduğu ve Edib Ahmed'in Mezârı Hakkında // Turkish Studies International Periodical For the Languages, Literature and History of Turkish or Turkic, S 2/4 Fall. s. 1197-1999. S. 1197–1199.

2 Насап-нама. 1-кітап / Қазыналы оңтүстік. Мәтінді аударып, транскрипциялаған, түпнұсқа мен асылмәтінді ұсынғандар А. Муминов, З. Жандарбек. Алматы: Нұрлы жол, 2013. Б. 47, 56, 100.

xon to'g'risidagi bilgilardir. Ushbu bilgilar va boshqa yozma manbalar Tarozi shahridagi "Dovud-bek kasana" deb atalib kelinayotgan qabr egasining aslida Dod-Bek Isfahsolor ekani va u qoraxoniylarning o'sha kezlardagi yerli boshqaruvchilaridan biri bo'lib, Tarozi va uning tegrasida boshqaruv ishlarini olib borganini ko'rsatib turibdi.

"Dod-bek" qabrtoshida keltirilgan ushbu boshqaruvchining vafoti 1262 yil deb ko'rsatilishidan kelib chiqilsa, Qoraxoniylar sulolasining bir tarmog'i – Tarozi boshqaruvchilarining hokimiyati mo'g'ullar boshqaruvi chog'ida, aniqrog'i, Chig'atoy ulusi chog'ida ham ancha yillargacha saqlanib qolgani anglashiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Аль-Карши, Джамал. Ал-Мулхакат би-с-сурах. Введение, перевод персидского, комментарии, текст, факсимиле Ш.Х. Вохидова, Б.Б. Аминов. Алматы, 2005.
2. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия / Сочинение. Том I. Москва: Наука, 1963.
3. Бартольд В.В. Очерк истории Семиречья / Сочинение. Том II. Часть I. Москва: Наука, 1963.
4. Бартольд В.В. О двух арабских надписях Аулие-ата / Сочинение. Том IV. Москва: Наука, 1966. С. 307-308.
5. Ибн ал-Асир. ал-Камил фи-т-та'рих («Польный свод историй»), (Перевод с арабского языка, примечания и комментарии П.Г. Булгакова. Дополнения к переводу, примечаниям и комментариям, введение и указатели Ш.С. Камолиддина), Ташкент, 2006. С. 230–231.
6. Камолиддин Ш. К биографии Ахмада Йугнаки // O'zbekistonda ijtimoiy fanlar, № 1-2. Тошкент, 2005. С. 93-110
7. Кочнев Б. Нумизматическая история Караханидская каганата (991-1209). Часть 1. Источниковедческое исследование. Москва, 1960.
8. Насап-нама. 1-кітап / Қазыналы оңтүстік. Мәтінді аударып, транскрипциялаған, түпнұсқа мен асылмәтінді ұсынғандар А. Муминов, З. Жандарбек. Алматы: Нұрлы жол, 2013.
9. Arat Rahmeti R. Edib Ahmed b. Mahmud Yūkneki. Atebetü'l-Hakayık. İstanbul: Ateş Basımevi, 1951.
10. Biran M. Rulers and City Life in Mongol Central Asia (1220-1270) // Turko-Mongol Rulers, Cities and City Life / Ed. by David Durand-Guédy / Brill's Inner Asian Library. Ed. Michael R. Drompp, Devin DeWesse. S. 31. Leiden – Boston. P. 262-263.
11. Kelimbetov N. Türk Halklarının Ortak Edebi Eserleri. İstanbul, 2010.
12. Kıdıralı D., Babayar G. Taraz'da Bulunan Son Karahanlı Hükümdarının Birine Ait Mezar Aniti // Gazi Türkiyat, Bahar 2016/18. S. 19-41.

13. Uysal S. Yüknek'in Neresi Olduğu ve Edib Ahmed'in Mezârı Hakkında // Turkish Studies International Periodical for the Languages, Literature and History of Turkish or Turkic, S 2/4 Fall. S. 1197-1999.



1- **ilova.** Taroziy shahridagi “Dovud-bek kasana” maqbarasi



2- **ilova.** Taroziy shahridagi “Dovud-bek kasana” maqbarasidagi qabrtosh bitigi



3- **ilova.** Taroziy shahridagi “Dovud-bek kasana” maqbarasidagi qabrtosh bitigi



1



2



3



4



5

- 4- **rasm.** 1-5. Qabrtoshning “Qutlug‘-To‘nga Ulug‘-Bilga Ilik-xon / Iqbol-xon Dod-bek Isfahsolor b. Ilyos ... O‘g‘ul-bek ash-shahid Dod-bek at-Taroziy” deb o‘qilgan tomonining ayri-ayri tushirilgan rasmlari

“DEVONU LUG‘OTIT TURK” VA ZAMONAVIY TURKIY TILLAR

BAXTIYOR ABDUSHUKUROV

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori, filologiya fanlari doktori

Annotasiya: Ushbu maqola qoraxoniylar davrining noyob yodgorligi sanalgan, turkiy xalqlar va ularning tili tarixida muhim o‘rin tutgan “Devonu lug‘otit turk” asarida qo‘llangan ayrim leksemalarning zamonaviy turkiy tillarga munosabatiga bag‘ishlanadi. “Devon”da ifodalangan istilohlar doirasida kechgan fonetik, leksik o‘zgarishlar hozir turkiy tillarda istifoda etilayotgan leksemalar bilan qiyosiy tahlillar yordamida yoritilgan. Shuningdek, maqolada tadqiqot ob‘ekti qilib olingan so‘zlar Kul tigin, To‘nyuquq, Turfon matnlari, eski turkiy til (“Qutadg‘u bilig”, “Devonu lug‘otit-turk”, “Taafsir”, “Qisasi Rabg‘uziy”), eski o‘zbek adabiy tili manbalari (Alisher Navoiy asarlari, “Shajarayi turk”)da aks etgan leksik birliklar bilan taqqoslab o‘rganilgan. Natijada o‘rtada qariyb o‘n uch asrga yaqin muddat bo‘lishiga qaramay qiyosiy tahlilga tortilgan so‘zlarning talay qismi bugun o‘zbek adabiy tilida qo‘llanishda bo‘lmasa-da, qardosh turkey tillarda ishlatilib kelayotgani ma‘lum bo‘ldi.

Kalit so‘zlar: qadimgi turkiy til, eski turkiy til, eski o‘zbek adabiy tili, turk, qirg‘iz, gagavuz, qo‘miq, qarayim, no‘g‘oy, turkman, qozoq, uyg‘ur, ozarbayjon, tuva, xakas.

Abstract: This article is devoted to the relationship of some lexemes used in the work “Devonu lug‘otit turk”, which is considered a unique monument of the Karakhanid era and plays an important role in the history of the Turkic peoples and their language, to modern Turkic languages. The phonetic and lexical changes that have occurred within the terms expressed in “Devon” are highlighted by means of comparative analysis with the lexemes currently used in Turkic languages. Also, the words taken as the object of research in the article are studied by comparing them with the lexical units reflected in the texts of Kul Tigin, Tunyuquq, Turfon, the old Turkic language (“Kutadgu bilig”, “Devonu lug‘otit-turk”, “Taafsir”, “Qisasi Rabguziy”), and the sources of the old Uzbek literary language (the works of Alisher Navoi, “Shajarayi turk”). As a result, despite the interval of about thirteen centuries, it turned out that many of the words subjected to comparative analysis are not used in the Uzbek literary language today, but are used in the related Turkic languages.

Key words: ancient Turkic language, old Turkic language, old Uzbek literary language, Turkish, Kyrgyz, Gagauz, Qom, Karaim, Nogai, Turkmen, Kazakh, Uyghur, Azerbaijani, Tuva, Khakass.

Kirish: Ma‘lumki, mutaxassislar tomonidan zamonasining buyuk olimi sifatida e‘tirof etilgan Mahmud Koshg‘ariy “Devonu lug‘otit turk” asarida tilshunoslikning ko‘plab sohalarini qamrab oldi. Unda turkiy tillarning fonetik, leksik, grammatik, dialektal xususiyatlariga doir muhim ma‘lumotlar aks etgan. Qolaversa, til tarixini o‘rganish, uning eski holatidan voqif bo‘lish qadimgi qo‘lyozmalarni qiyosiy jihatdan tadqiq etish, ular orasidagi yaqinlik va farqlarni aniqlash yordamida olib boriladi. Aytish joizki, “Devonu lug‘otit turk” obidasi yaratilganiga qariyb o‘n asr bo‘layapdi. Shu bois, tilda o‘zgarishlar yuz bergani

tabiiy. Chunki bu vaqt mobaynida til o'zining taraqqiyot qonuniyatlariga muvofiq fonetik, leksik, morfologik, sintaktik jihatdan o'zgarishga uchragan, takomillashgan, boyigan. "Devonu lug'otit turk" asari leksikasining bugungi turkiy tillarga munosabati bo'yicha olib borgan kuzatishlarimiz yodnoma tili bilan turkiy tillarda qo'llanilgan so'zlar o'rtasida yaqinlik va ba'zi farqlar borligini, lekin bu ularni bir-biridan ayiruvchi emas, balki yaqinligini ifodalovchi tafovutlar ekanini ko'rsatdi. Buni quyida amalga oshirilgan qiyosiy tahlil jarayonida ham kuzatish mumkin.

Maqsad va vazifa: "Devonu lug'otit turk" asaridagi ayrim leksemalarning zamonaviy turkiy tillarda saqlanish darajasini, ularning fonetik, semantik va morfologik o'zgarishlarini aniqlash;

Asarda uchraydigan asossiy turkey so'zlarning hozirgi tillardagi variantlarini aniqlash;

Qadimgi shakllarni tarixiy manbalar bilan qiyoslash;

Fonetik, semantik, grammatik o'zgarish sabablarini tahlil qilish;

O'zbek, turk, ozarbayjon, qozoq, qirg'iz va boshqa turkiy tillardagi mos shakllarni ko'rsatish.

Usullar: Qiyosiy-tarixiy, etimologik, lingvistik tahlil usullari; "Devonu lug'otit turk", "Qutadg'u bilig", "Qisasi Rabg'uziy", "Mahbub ul-qulub" singari manbalar asosida solishtirma tahlil.

Natijalar va mulohaza: Nosiruddin Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" yodnomasida «non» ma'nosini bergan *etmāk* (14v16) so'zi ilk bor Turfonda topilgan moniy yozuvi manbalarida *ötmāk* tarzida uchraydi (DTS,393). *Etmāk* qoraxoniylar davri manbasi sanalgan "Qutadg'u bilig" asarida ayni shakl va ma'noda istifoda qilingan: *begi etmākin yep işin işlär er* – u odam begining nonini yeb, ishini qilar edi (DTS,188). Mazkur obidad *tüz etmāk* juft so'zi "non-tuz, mehmondo'stlik" ma'nosini anglatgan: *tüz etmāk yetürgil açuq tut yüziñn*– mehmondo'st bo'l, chehrangni ochiq tut (DTS,594). Mahmud Koshg'ariy o'rganilayotgan kalimaga shunday ta'rif beradi: *etmāk* – non (*etmākkā telim kişi öşdi* – non uchun ko'p odam to'plandi (MK,I,82); *yag'mo*, *tuxsi* va *ba'zi* o'g'uz hamda qipchoqlar so'zi. Bu so'zda arabchaga o'xshashlik bor, chunki arabchada maxrajlar bir-biriga yaqin bo'lgani uchun و ni ب va ت ga almashtirish bor. Chunonchi, بالله و الله تالله kabi. Lekin turkiy so'zlarni arab so'zlariga o'xshatish qiyindir (MK,,I,82). Shuningdek, "Devon"da tekshirila- yotgan atamaning *küvşāk etmāk* (yaxshi xamirdan bo'lgan non. MK,I,331); *uwuś etmāk* (ushatilgan non, burdalangan non. MK,I,56); *qara etmāk* kabi birikmalarni hosil qilishga asos bo'lganini ko'ramiz. Ushbu lug'atda *qara etmāk* quyidagicha izohlanadi: Bu bir xil nondir. Shundayki, go'sht hil-hil pishib so'ngaklari ayrilib ketguncha qaynatiladi. So'ngra ustiga un, yog', shakar solinadi, bir-biriga aralashtirilib quyilguncha qaynatiladi, so'ng yeyiladi (MK,III,241). Alisher Navoiyning "Hayratul - abror" dostonida *ekmāk* shakli zikr etilgan:

Ekmāk emas, barča bukim turğasen,

Arpau buğday saçıban orğasen (ANATIL,III,562). Tahlilga tortilgan leksema hozirda o'zbek adabiy tilida o'z o'rnini forscha *non* o'zlashnmasiga bo'shatib bergan bo'lsa-da, boshqird, tatar tillarida uning *ikmāk*, turk, gagavuz, qo'miq tillarida *ekmāk*, qarayim tilida *etmāk*, no'g'oy tilida *ötpāk* fonetik variantlari muomalada bo'lib kelmoqda (ESS,I,254).

“Oldin” ma'nosini bildirgan *al* (-in kichraytirish qo'shimchasi; ESS,I,146) so'zidan yasalgan *alın* atamasi Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” dostonida inson tana a'zosi bo'lgan peshonaga nisbatan qo'llangan: *ačuq tut yüzüñni yaruq tut alin* - yuzingni ochiq, peshonangni esa yorug' tut (DTS,36). “Devonu lug'otit turk”da “manglay” (MK,I,107) “tog'ning bo'rtib chiqqan joyi, cho'qqi” kabi semalarni ifodalagan: *Alin tübü yaşardı* – tog' cho'qqisi ko'm-ko'k bo'lib yashardi (MK,II,83). Ushbu kalima “Qisasi Rabg'uziy” (77r5) hamda Alisher Navoiy asarlarida o'zining asl ma'nosini davom ettirgan (Nav,482). Qayd etilgan istiloh bugun o'zbek adabiy tili va uning shevalarida kuzatilmasa-da, qardosh turkiy tillar, xususan, ozarbayjon, turk, turkman, oltoy, xakas tillarida *alın*, gagavuz tilida *annı* fonetik variantlarida ko'zga tashlanadi (ESS,I,146).

“Qisasi Rabg'uziy” asarida «mehmon, musofir» ma'nosida voqelangan qonuq/qonaq (88r1) kalimasi Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'otit turk” asarida *qonuq* shaklida uchraydi: *Nelik arsıqar sen aja öldäcü özün iki künlik qonuq boldacı* – Nimaga mag'rurlanasan, ey o'luvchi, o'zing ikki kunlik mehmon bo'luvchisan (MK,I,365). Ayni paytda, bu so'z devonda “mehmondorchilik, ziyofat” ma'nosida ham qo'llangan. O'g'uzlardan boshqa qabilalar tilida bu so'z “uy egasi yoqtirmagan holda, birovning uyida turish” ma'nosida ishlatilgan (MK,I,320). Hozirda Qashqadaryo, Surxondaryo shevalarida “mehmondorchilik, to'ylarda beriladigan kichik ziyofat” ma'nolarida, Qoraqalpoq shevalarida “mehmon” ma'nosida qo'llaniladi (O'XShL,367). Atama bugungi kunda turkiy tillar, jumladan, ozarbayjon, qozoq tillarida *qonaq*, boshqird tilida *qunaq*, tatar tilida *kunak*, qirg'iz tilida *konok* shakllarida o'zining asl ma'nosini davom ettirib kelmoqda (ESS,II,55). Shuningdek, “joylashmoq, turmoq, yashamoq” ma'nosidagi *qon-* fe'lidan hosil bo'lgan *qonuq* so'zi rus tiliga *kunak* tarzida o'zlashib, “qo'noq, mehmon”, “tutingan og'ayni” semalarini kasb etish barobarida Kunakov antroponimining shakllanishi uchun asos bo'lgan.

Erin (XSh,43b4) leksemasi “Qisasi Rabg'uziy”, “Muhabbatnoma” asarlarida “lab” tushunchasini ifodalash uchun xizmat qilgan: *İki erinlari Habaşiy erinlär deg* (83r11); *Erür jan maqsadı erniñ nabatı* (Mn.,308a9). Ushbu so'zga ilk marta Turfon matnlarida duch kelamiz: *Erin üzä meñ bolsar...* – lab ustida xol bo'lsa (DTS,178). “Devonu lug'otit turk”da *ärin* (MK,I,106), *irin*, “Tafsir”da *ärin* fonetik shakllari kuzatiladi: *anıñ irni yaqışmas* – tez so'zlaganidan, so'zamolligidan lablari bir-biriga tegmaydi (MK,III,82); ... *altıñi ärnini Fir'avn taxtiniñ altında urdı...* (30,27). Tatar, xakas va boshqird tillarida ushbu leksemaning *irin/iren*, qozoq tilida *yerin*, qirg'iz, turkman, qo'miq, no'g'ay,

qoraqalpoq, oltoy, tuva tillari hamda turk dialektlarida *erin* fonetik variantlari ishlatiladi (ESS,I,291).

“Qisasi Rabg‘uziy”da *avuč* so‘zi “hovuch, siqim” ma’nosini ifodalagan: *Sāmiriy ul tofraqdīn bir avuč alīb saqlamiš erdi* (126r4). Leksema ilk bor “Oltun yorug‘” yodnomasida *adut* shaklida qo‘llanilgan: *Ayača aš bermiš adutča suv tutmīš...* - bir kaft hajmicha ovqat, bir hovuch miqdorida suv bermoq (DTS,14). Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” dostonida *avuč*: *Uqušsuz kiši avučča titik* - aqlsiz, nodon kishi bir hovuch axlatga o‘xshaydi (DTS,70), *avut* (DTS,71), Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida *avut* (MK,I,111), *adut*: *Bir adut neḡ* (MK,I,85) fonetik variantlari kuzatiladi. “Tafsir” va XIV asr Xorazm manbalarida *avuč* shakli qayd etiladi: *Bir avuč ušaq taš tutdī taqī...yūziḡā atdī* (115b1); *Bir avuč topraqdīn yarattī* (XSh,117b13). Alisher Navoiy asarlarida atama “hovuch”, “chapak” ma’nolarida ishlatilgan (Nav,478). Bundan ko‘rinadiki, XV asrga kelib atamaning ma’nolari kengaygan. Zamonaviy turkiy tillarda ushbu so‘zning quyidagi shakllari mavjud: o‘zbek tilida *hovuch*, ozarbayjon tilida *ovuc*, turk tilida *avuç*, chuvash tilida *ivaç*, qozoq tilida *uış*, qirg‘iz tilida *uuch*. Bu ot qadimgi turkiy tilda “ikki qo‘l shapalog‘i bilan olmoq” ma’nosini anglatgan *abu-* fe‘lidan –č qo‘shimchasi bilan yasalgan. Keyinchalik bu so‘z tarkibida quyidagi tovush o‘zgarishlari voqe bo‘lgan: ikki unli oralig‘idagi *b* undoshi *v* undoshiga almashgan: *abuč>avuč*. O‘zbek tilida atamaning boshlanishiga *h* undoshi qo‘shilgan: *avuč > havuč* (O‘TEL,I,595).

Rabg‘uziy “bulbul” ma’nosida *sanduwač* zoonimini qo‘llagan: *Lāla saḡraqīn ičärdä sayrar esrīb sanduwač* (68v3). Ushbu so‘zni birinchi marta Yusuf Xos Hojib o‘z asarida *sandiwač//sanduwač* shakllarida keltirib o‘tgan: *Sariḡ sanduwač... sayradi* (DTS,484). “Devon”da *sanduwač* varianti uchraydi: *Tatliḡ otar sanduwač* – bulbul yoqimli sayraydi (MK,I,481). Qutbning “Xusrav va Shirin” asarida *sanduwač* (53b12), *zanduwač* shakllari ifodalangan: *Körär kim taḡ üzrā xuš çečäklär açılmīš zanduwačlar qaršu sayrar* (14a6). Ayni paytda, “Qisasi Rabg‘uziy”da leksemaning arabcha bulbul sinonimi ham kuzatiladi: *Qumri, bulbul muqri bolīb ün tüzär tün-kündüzi* (68v5). Bu Alisher Navoiy asarlari va hozirgi o‘zbek adabiy tilida ham mazkur ma’noda ishlatiladi. Ma’lum bo‘ladiki, *bulbul* istilohi XIV asrda dastavval *sanduwač* zoonimiga ma’nodosh sifatida qo‘llanilgan bo‘lsa, so‘ngra uning o‘rnini butunlay egallagan. Shunga qaramay tekshirilayotgan *sanduwač* kalimasi bugungi kunda tatar tilida *sanduḡaç/sandıvač*, *qozoq tilida sanduḡaş*, boshqirt tilida *handuḡas*, oltoy tilida *sandiḡaş* shaklida ifodalanadi (ESS,III,203).

“Qisasi Rabg‘uziy”da boshga kiyiladigan buyumga nisbatan *börk* so‘zi ishlatilgan: *Hulla kizdi eḡniḡā ham başqa urdī börkidin* (5v11). Atama dastlab “Qutadg‘u bilig” dostonida ifodalangan: *...bezük börk kezür* – katta bo‘rk kiyadi (DTS,118). Eski turkiy tilning dastlabki manbalaridan bo‘lgan “Devonu lug‘otit turk”da ayni shakl va semada uchraydi: *Tatsiz türk bolmas, başsiz börk bolmas* - boshsiz bo‘rk bo‘lmaganidek, tot (uyg‘ur)siz turk ham bo‘lmaydi (MK,I,333).

Mahmud Koshg'ariy *börk*ning bir nechta turlarini keltiradi. Jumladan, “uzun, mayin, oq echki yungidan qilingan oq qalpoq” semasi chigilcha qäymaç *börk* soʻz birikmasi bilan ifodalangan (MK,III,190). “Qaytarma qalpoq” kötürmä *börk* (MK,I,452), “uzun (uchli) qalpoq” esa suqarlaç *börk* (MK,I,454) birikmalari yordamida qayd etilgan. oʻrganilayotgan maishiy leksemaga Alisher Nvoiy ham murojaat qilganini “Mahbub ul-qulub” asaridan bilib olish mumkin: ...*bašīdagi eski börk bilä erdi...*(MQ,39). Atama Forish, Mangʻit¹ shevalarida “qalpoq” maʼnosini kasb etadi: *börk ə:ldeə, bəsh əladə* (OʻXSHL,56). Bu soʻz uygʻur tilida *bök, börük*, qadimgi yozuv yodgorliklari hamda “Badai al-lugʻat”da *vörk* shakllarida uchraydi va telpak maʼnosini anglatadi. Moʻgʻul tilida *börkür* soʻzi “pokryvalo” maʼnosida qoʻllangan, undan *bötür* soʻzi yasaliib, *yopish, qoplash, kiyish* maʼnolari kelib chiqqan². E.Sevortyanning etimologik lugʻatida koʻrsatilishicha, qoraqalpoq, turkman, qozoq tillarida *börük*, xakas tilida *pörük*, oltoy, turk tillarida *börük*, tatar tilida *bürük* shakllari qoʻllanadi (ESS,II,221-222).

Professor Sh.Rahmatullaevning yozishicha, *börk* ‘bosh kiyimning bir turi, ‘qalpoq’. Bu ot qadimgi turkiy tildagi ‘qopla’, ‘yop’ maʼnosini anglatgan *bör-yē*ʼlidan –k qoʻshimchasi bilan yasalgan, keyinchalik ikkinchi boʻgʻindagi tor unli talaffuz qilinmay qoʻygan; oʻzbek tilida ö unlisining yumshoqlik belgisi yoʻqolgan: *bör-yē* + k= *bör-yēk* > *börk* > *bork* (OʻTEL,I,77-78).

“Qisasi Rabgʻuziy”da *kärpič* soʻzi “gʻisht” maʼnosini bildirgan: *Firavndan burun kimersä bīšīg kärpič qilmīši yoq erdi...*(113v20). Mahmud Koshgʻariyning “Devonu lugʻotit turk” asarida ayni shaklda ifodalangan: *bīšīg kärpič* – pishiqlik gʻisht (MK,I,424). Alisher Navoiy asarlarida *kirpich* (ANATIL,II,118) shaklida kelgan. Bu leksema rus tili soʻz boyligidan *kirpič* tarzida oʻrin olgan. Mazkur atama hozirgi kunda zamonaviy oʻzbek adabiy tilida ishlatilmasa-da, Xiva, Urganch, Shimoliy Xorazm shevalarida *kərvich/kərbich* shaklida saqlanib qolgan: *bizəram kərvichə mətəl ədik, puləna qaramayın mīçini alaƣoydıq* (OʻXSHL,142). Shu bilan birga, ozarbayjon tilida *kärpis*, qozoq tilida *kirpiš*, qirgʻiz, tuva tillarida *kirpič*, tatar, chuvash tillarida *kirpeč*, yoqut tilida *kirpiič*, boshqird tilida *kirbes* shakllari ishlatiladi.

Qadimgi turkiy yodgorliklar (DTS,211) hamda XI asrga doir turkiy manbalarda uy hayvonlaridan biri *inäk* deb nomlangan: *ürün inäk bozağulači bolmīš* - ola sigir tugʻadigan boʻldi (MK,I,135). Mahmud Koshgʻariy ushbu termin oʻgʻuzlarda “urgʻochi toshbaqa” maʼnosini ham anglatganligini uqtirib oʻtgan. XIV asrga oid arabcha risolalar hamda XIV asr Xorazm yodnomalarida *inäk* shaklini koʻramiz: ...*yüz miñ inäk, yüz miñ qoy* (QR,46v18); *bir qul satğın bir inäk satğın aldım* (NF,147a15; At-tuhfa,7a6; Tarjumon,14-19; Abu Hayyon,24; Jamoliddin Turkiy,12a5; XSH,105a21;). Radlov lugʻatida berilgan maʼlumotlarga qaraganda

¹Qarang: Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари. –Тошкент: Фан, 1961. –Б.30.

²Убайдуллаев А. “Луғати туркий”да сўз маъноларининг изоҳланиши // Лингвист VII. Илмий мақолалар тўплами. – Тошкент, 2016. – Б. 18.

mazkur zoonim qora qirg'iz, teleut, tobol, taranchin, usmoniy turk tillarda o'zining asl ma'nosida qo'llanishda bo'lgan (RSL,I,1443). Bugungi kunda Qashqadaryo shevalarida inə://inək, Buxoro shevalarida nak, Samarqand, Surxondaryo shevalarida inak fonetik shakllari istifoda etilmoqda: *kəttəmni bittə inə:ləri boridi, hərıl xurma ʔstiyə tug'ayde* (O'XSHL,116). Enək shakli To'rtko'l shevasida "buzoq" ma'nosida keladi: *bizda sığ'ır yoq, bir enək va* (O'XSHL,97). Ayni paytda, E.Sevortyanning qayd etishicha, tahlilga tortilgan zoonim hozirda quyidagi bir qator turkiy tillarda istifoda qilinadi: ozarbayjon, turk, turkman, gagauz, tuva, qo'miq, oltoy tillarida *inek*, chuvash tilida *ene*, yoqut tilida *inax* (ESS,I,358-359).

A.Sherbakning fikricha, termin kelib chiqishi jihatidan inän "urg'ochi tuya", inäk "urg'ochi it", änäk "urg'ochi" so'zlari bilan bir xil. Inä, änä - "ona" so'zi esa ular uchun asos bo'lib xizmat qiladi (IRLTYA,97). E.Sevortyanning ta'kidlashicha, inäk//inäk in-en= "tug'moq", "qochirmoq" fe'lidan -(ä) k yoki gäk affiksi vositasida yasalgan (ESS,I,359). Bizning olib borgan izlanishlarimiz, E.Sevortyan fikrining to'g'ri (asosli) ekanligini tasdiqlaydi.

"Sigir" ma'nosidagi yana bir zoonim, ya'ni ud (DTS,605 - "sigir") termini dastlab Turfon matnlarida qo'llanilgan: *ud küntä ud satğın alsar yaramaz* - sigir kunida sigir olish yaxshilik keltirmaydi (DTS,605). Mahmud Koshg'ariy lug'atida chigilcha ud (MK, I, 80) va uz shakllari ko'zga tashlanadi: *uz möñrädi* (MK,III,411). "Qisasi Rabg'uziy" asarida ud (51ch11) va uning uy, uz (QR,2v8) fonetik shakllari kuzatdik: *buğday teriyürdä uyni bir urdi* (QR,13v14). D-z-y larning XIV asrda mavjudligi, bu jarayonning nihoyasiga yetmaganligidan dalolat beradi. Alisher Navoiy asarlarida uy (FSh,144) shaklini uchratamiz. Ushbu so'z bugun oltoy, qirg'iz, uyg'ur dialektlarida o'z ma'nosini davom ettirib kelmoqda (ESS,I,572). *Ud//uy* termini Turfon matnlarida, "Devon" hamda "Qisasi Rabg'uziy"da astroponim sifatida o'n ikki turkiy muchal yillaridan ikkinchisi, sigir yilini va savr burjini ifodalash uchun qo'llangan. "Qudatg'u bilig"da ko'chma ma'noda insonlarga nisbatan ham ishlatilganligi qayd etilgan (DTS,665).

Bal kalimasi (XSh,46b10; NF,5b11; G,69b12) "asal" ma'nosida dastavval Mahmud Koshg'ariy lug'atida ko'zga tashlanadi: *Ul anar bal yalğattı* (DTS,79). Bu ot "Tafsir"da o'z semasini davom ettirgan: *Baldin tatliğraq* (68b14). Tekshirilayotgan obidada zikr etilgan ma'no bal, arabcha asal so'zlariga yuklangan: *Ul erinniñ tatliğında qayda yetsün bal šakar* (77r17); ...*Birin aru yedi asal boldi* (12v14). Alisher Navoiy asarlarida har ikkala so'zni uchratish mumkin (ANATIL,I,121;310). Zamonaviy o'zbek adabiy tilida asal atamasi bolga qaraganda faol qo'llansa-da, bol so'zi bugungi kunda ozarbayjon, turkman, turk, boshqird, qozoq, qirg'iz, tatar, gagauz, qumiqlik, no'g'oy tillarida bal, chuvash tilida pil fonetik variantlarda ishlatiladi (ESS,II,47).

Učuz sifati ilk marta qadimgi turkiy tilda "osongina", "ozgina, arziyas, ahamiyatsiz" ma'nolarida iste'molda bo'lgan: *Ol oğlan ögin emgätmädin uçuz toğğay* – Bu bola onasiga qiyinchilik tug'dirmasdan oson dunyoga keldi; *Taqi*

ağirliḡ bolḡay men taqī uḡuz bolḡay men – u yana ko‘p hurmatga sazovor bo‘ladi, men esa ahamiyatsiz, e‘tiborsiz qolaman (DTS,604). “Devonu lug‘atit turk” va Ahmad Yugnakiyning “Hibatul haqoyiq” asarida so‘zning “arzon” semasi kuzatiladi: *Uḡuz nāḡ* – arzon narsa (DTS,604). “Qisasi Rabg‘uziy” hamda Alisher Navoiy asarlarida (Nav,628) leksemaning keyingi, ya‘ni uchinchi ma‘nosi ko‘zga tashlanadi: *İbrāhim duāsi barakātında bu kün Makkada ašliḡ uḡuz bolḡay erdi* (49v3). Tahlillardan natija shuki, ushbu sifatning bosh va undan o‘tib chiqqan ikkinchi ma‘nosi o‘sha paytdayoq iste‘moldan chiqib ketgan. XIV asrga kelib, so‘zning hosila ma‘nosi qo‘llanila boshlagan va ayni vaqtda, bu sema denotatga aylangan. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida bu kalima o‘mini forsha arzon o‘zlashmasi egallagan. Shunga qaramay, zikr qilingan *uḡuz* atamasi bugun turkman tilida *ujiz*, ozarbayjon, turk tillarida *ucuz*, gagauz tilida *ujus*, tatar tilida *uḡiz/ujis*, boshqird tilida *oḡoz* shakllarida ko‘zga tashlanadi (ESS,I,567-568).

Baqir leksemasi qadimgi turkiy tilda «og‘irlik o‘lchovi», «mis tanga, pul», “pul birligi”, “Qutadg‘u bilig” va “Devonu lug‘otit turk” asarlarida «mis» (metall) ma‘nolarini voqelantirgan (DTS,82) ma‘nolarida qo‘llanilgan. “Qisasi Rabg‘uziy” tilida esa «mis» semasini bildirgan: *Namrud bir mināra qopardi temürdin baqirdin* (42r9). Bu so‘z Qoramurt, Qarnoq, Iqon, Buxoro shevalarida “chelak”, Shimoliy Xorazm, Beruniy shenvalarida “chaqa (pul)” ma‘nosini anglatadi: *baqyr pul almashmyy qaldy* (O‘XShL,42). Hozirgi o‘zbek adabiy tilida paqir fonetik varianti ishlatilib, “chelak”, “chaqa (pul)”, “hech narsaga arzimaydi, juda yomon, past, arzimas” semalarini anglatish uchun xizmat qiladi: *...o‘q yeganlarini qopqoqli paqirga solib, supaga olib chiqib qo‘ydi; So‘zimga ishon, boshqa bir paqir ham pulim yo‘q; U hatto bu achchiq ta‘nalarni eshitmaganday, eshitsa ham, bir paqirga olmay, sur bo‘lib turardi* (O‘TIL,III,258-259). E.Sevortyan turkman, qozoq, qirg‘iz, no‘g‘ay, qoraqalpoq, tatar, boshqird tillarida tekshirilayotgan so‘zning *baqir*, turk tilida *bakir*, chuvash tilida *paxar*, ozarbayjon tilida *paxir* variantlari muomalada ekanini e‘tirof qiladi (ESS,II,45).

732-yilda o‘rnatilgan Kul tigin bitigtoshida yaz so‘zi ko‘klamga nisbatan qo‘llangan: *Maḡi Qorḡan qışlab yazıḡa oḡuzḡaru sü taşıqdimiz* – Mag‘i qo‘rg‘onda qishlab ko‘klamda o‘g‘uz tomonga qo‘shin bilan chiqdik (KT,48). Mashhur lug‘atshunos Mahmud Koshg‘ariy bu kalimaga “ko‘klam”, “yoz” ma‘nolarini yuklagan: *er qışlaḡda yazadi* – odam bahorni qishlog‘da o‘tkazdi (MK,III,97); *yazın qatıḡlansa qışın sevnür* – yozda tirishgan kishi, qishda sevinadi (MK,III,174). Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asarida yaz ko‘klamni, yay esa yozni bildirishi she‘riy misralar orqali dalillangan:

Oş bitidim bu kitābnı ey erānlār er bozi,

Bir yıl içrā keḡti anıḡ yayı qış yaz-u küzi (QR,249v1). Abulg‘ozi Bahodirxon qayd etilgan har ikkala leksemani “yoz” ma‘nosida ishlatgan (ShT,25;112), ko‘klamni forsha bahor o‘zlashmasi bilan bergan. “Yoz” ma‘nosidagi yay ilk bor Mo‘yun chur yodgorligida uchraydi (DTS,226). Professor Q.Sodiqovning mulohazasiga ko‘ra yaz so‘zi hozirda iste‘moldan chiqqan, uning ko‘klam, bahor

soʻzlarini ishlatamiz. “Yoz”ni bildiruvchi *yay* soʻzida tovush oʻzgarishi yuz berib, *yazga* aylangan. Shunga qaramay, ularning qoldiqlari ayrim soʻzlarimizda uchrab turadi. Masalan, bolalar qoʻshigʻidagi *Laylak keldi, yoz boʻldi* jumlasidagi *yaz* kalimasi “koʻklam, bahor”ni bildiradi. Yoki hozirgi yaylov soʻzining oʻzagi *yay* (*yoz*) bilan bogʻliq¹. “Koʻklam” maʼnosini voqelantirgan *yaz* kalimasi hozirda boshqird, tatar, turkman tillari va turk dielaktlarida *yaz*, qoraqalpoq, qirgʻiz, qozoq tillarida *jaz*, oltoy tilida *das*, tuva, xakas tillarida *čas*, yoqut tilida *saas* oʻakllarida ishlatilsa, “yoz”ni anglatgan *yay* leksemasi ozarbayjon, qoʻmiq tillarida, noʻgʻoy dialektlarida *yay*, boshqird tilida *yäy*, qirgʻiz tilida *jay*, tatar dialektlarida *jäy*, xakas tilida *šay*, yoqut tilida *say* variantlari qoʻllanib kelmoqda (ESS,IV,73).

Bashmakov familiyasi uchun asos boʻlgan bashmak qadimda rus dvoryanlari uchun maxsus ishlangan oyoq kiyimini bildirgan. Ushbu turkiy leksema XVI asrda rus tili lugʻat tarkibidan oʻrin olgan. Bašaq (chigilcha) leksemasi “Devonu lugʻotit turk” asarida “toʻpiq” maʼnosini anglatgan. Ayni paytda, Mahmud Koshgʻariy oʻgʻuz va qipchoqlar mim (m) orttirib, bašmaq shaklida qoʻllashini taʼkidlaydi. Atama “Oʻzbek tilining izohli lugʻati” da “kigiz etik, piyma; umuman oyoq kiyimi” tarzida izohlangan. E.Sevortyanning guvohlik berishicha, zikr etilgan soʻz bugungi kunda ozarbayjon, qoʻmiq, noʻgʻoy, tatar, boshqird tillarida *bašmaq*, turk tilida *bašmak*, chuvash tilida *pušmak* tarzida istifoda qilinadi (ESS,II,93-94).

“Azob chekmoq, qiynalmoq” maʼnosidagi ämgä- feʼlidan yasalgan ämgäk soʻzi Kul tigin bitigida mehnat, qiyinchilikka nisbatan ishlatilgan: *On oq bodun ämgäk körti* – Oʻn oʻq xalqi qiyinchilik koʻrdi (KT,19). Turfon vodiysida topilgan manbalar matni, X asr yodgorligi sanalgan “Oltun yoruq”da ayni shakl va maʼnoda koʻzga tashlanadi (DTS,172). Mahmud Koshgʻariy lugʻatida bu atama emgäk fonetik shaklida berilgan: *emgäk ekindä qalmas* - mehnat boʻsh ketmaydi (MK,I,134). Shu bilan birga, bu kalima “Devon”da “yurak burugʻi, ich ketish” maʼnosidagi emgäk tolgaʻ (MK,II,333) juft soʻzining shakllanishiga asos boʻlgan. “Qisasi Rabgʻuziy” va “Mahbub-ul-qulub”, “Shajarayi turk” asarida asarlarida ham “mehnat, qiyinchilik” maʼnosida uchraydi: *Emgäkdin alarğa ārām yoq* (ANATIL,III,563); *bir tevä va ya at yüz emgäk birlän yürür erdi* (SHT,29). Atama keyingi davr manbalarida qayd etilmasa-da, hozirda Janubiy Xorazm, Qipchoq, Xonqa, Mangʻit, Shimoliy Xorazm, Turkiston, Qilichboy shevalarida ämgäk/emgäk (mehnat, qiyinchilik) tarzida uchraydi: *ämgäk chäkmək* (OʻXSHL,29); *emgäkläsä emgäk artadı* (OʻXShL,97). Uning adabiy tilda ham mavjudligini quyidagi misollarda koʻrish mumkin:

Mirtemir yozadi:

*Sen uchun dalaning chokini soʻkdik,
Bola oʻstirgandek emgaklar toʻkdik.*

¹ Содиқов Қ. Эски ўзбек адабий тили. –Т.: Akademnashr, 2020. -Б. 465.

Topishmoqda shunday keladi:

Emgaklagan toshni ko'rdim,

Toshdan chiqqan boshni ko'rdim. Bundan tashqari, zamonaviy turkiy tillar, jumladan, turkman, qirg'iz, uyg'ur tillarida tekshirilayotgan atamaning *emgek*, boshqird, tatar tillarida *imgäk*, no'g'oy tilida *embek*, turk tilida *emek*, ozarbayjon tilida *ämäk*, qozoq tilida *enbek*, qaraim tilida *emek/emgäk* fonetik variantlari mavjud (ESS,I,272-273).

Ilk bor Turfon matnlarida qayd etilgan "shahar" ma'nosini anglatuvchi känd (DTS,290) leksemasining "Qisasi Rabg'uziy" tilida kend, kent fonetik variantlari ko'zga tashlanadi: *Yolda kelürdä Aynuš-šams atliğ bir kend bar erdi* (96r7); *Meni bu siğirğa mindürgil seniñ birlä kentgä barayın* (128v8). Atama qo'shma so'z tarkibida kelgan holatni ham kuzatish mumkin: *Bağdādğa keldilər xalifağa ayttilar: yana qayturda Semüzkent (Samarqand)gä säkiz yiğaçliq yerdin keçib keldük tedilər* (176r7). Mahmud Koshg'ariy tadqiq etilayotgan leksema xususida quyidagilarni bayon qiladi: *Känd – o'g'uzlar va ular bilan yaqin turuvchilar tilida qishloq. Ko'pchilik turklar nazdida viloyatdir. Shuning uchun Farg'onani Özkänd – o'z shahrimiz deydilar. Samarqandni kattaligi uchun Semizkänd – semiz shahar deydilar. Buni forsiylar Samarqand tarzida qo'llaydilar* (I,330). *Tärkän – Shosh (Toshkent) ning ismi. Uning asli Tash kand bo'lib, toshdan qurilgan shahar demakdir* (MK,I,414). Ma'lum bo'ladiki, qoraxoniylar davrida atama "qishloq", "viloyat", "shahar" ma'nolarini bildirgan. "Tafsir" asarida kend (39,17), kent (61,9) shakllarida "qishloq", "shahar" semalarida ishlatilgan. "Guliston bit turkiy"da kent "shahar" ma'nosida kelgan: *Bir qul kentgä bardī* (30b1). Alisher Navoiy asarlarida "qishloq", "shahar" ma'nolari ko'zga tashlanadi (ANATIL,II,108). "O'zbek xalq shevalari lug'ati"da tavsiflanishicha, Janubiy Xorazm va Qoramurt shevalarida atamaning kənt (qishloq, aholi punkti) varianti qo'llaniladi (O'XSHL,141). Bu kalima hozirda turk tilida *kent* tarzida "shahar"ni ifodalasa¹, ozarbayjon tilida esa uning *känd* shakli "qishloq"² ma'nosini anglatadi.

Mazkur so'zning qaysi tilga oidligi xususida turli fikrlar mavjud. Masalan, ayrim manbalarda uning sug'd tiliga mansubligi qayd etiladi³. Mahmud Koshg'ariy esa bu haqda shunday yozadi: *Butun Movarounnahr, Yankanddan Sharqqacha bo'lgan o'lkalarni turk shaharlaridan deb hisoblashning asosi shuki, Samarqand, Semizkänd, Taškänd – Šaš, Özkänd, Tünkänd nomlarining hammasi turkchadir. Känd turkcha shahar demakdir. Ular bu shaharni qurdilar va shunday*

¹ Yusupova N. Türkçe – Özbekçe sözlük. – Ankara, 2018. –B. 325.

² Azərbaycanca-özbəkçə özbəkçə –azərbaycanca lügət. –Bakı, Savad, 2019. –B.128.

³ Древнетюркский словарь. –Л.: Наука, 1969. –С. 290; Ўзбек тилининг изохли луғати. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. Т.II. –Б.353; Дадабаев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв. –Т.: Ёзувчи, 1991. –С. ; Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005. –Б. 36.

nom qo'ydilar. Hozirgacha ham shunday kelmoqda. Bu yerlarda forslar ko'paygach, so'ng ular Ajam shaharlari kabi bo'lgan (MK,III,164). Qayd etilgan ma'lumotlar Movarounnahrning sanab o'tilgan o'lkalari turklar tomonidan bunyod etilgani, keyinchalik bu yerlarda forsiyzabonlar nufuzining ham oshganligi, joy nomlarining esa forscha atab ketilganidan dalolat beradi¹.

XIV asr manbasi sanalgan Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" asarida ishlatilgan qul (qul, xizmatkor; 76v5), kün (cho'ri, joriya; 41r1) so'zlari dastavval Kul tigin yodnomasida uchraydi: *bäglük urı oğlun qul boltı, silik qız oğlun kün boltı* – bek bo'ladigan o'g'il bolang qul bo'ldi, yetuk, chiroyli qiz farzanding cho'ri bo'ldi (KT,24). Shu bilan birga, har ikkala atama bitigtoshda qulad- (qulga aylantirmoq), künäd- (joriyaga aylantirmoq) fe'llarining shakllanishiga asos bo'lgan: *qağan- sīramīs bodunuğ, künädmis, quladmīs bodunuğ* – xoqonini yo'qotgan xalqni, cho'riga aylangan, qulga aylangan xalqni (KT,13). Mahmud Koshg'ariy *künni* o'zining dastlabki ma'nosida qo'llagan bo'lsa, qulga esa "qul" (MK,I,324), "keksa", "qul, banda" ma'nolarini yuklagan va buni misollar bilan dalillagan: *qul sawi qalmas* – keksalarning so'zi, nasihati bekor ketmaydi (MK,I,387); *qul tanrigä bütti* - qul, banda xudoning borligiga iqror bo'ldi (MK,II,339). *Kün* eski o'zbek adabiy tilida ishlatilmasa-da, qul "qul", "mute bo'lmoq, boylik ketidan quvmoq", "qul, banda" semalarida qo'llanishda davom etgan:

Agar oting yo'qtur, arpa g'amin yemassen,

Agar quling yo'qtur, kishi quli xud emassen (ANATIL,IV,75). Shunga qaramay, E.Sevortyaning qayd etishicha, "cho'ri" ma'nosini anglatgan *kün* kalimasi bugun qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq tillarida ayni shakl va ma'noda qo'llanishda davom etmoqda (ESS,V,142).

Turfon matnlarida "darvoza, eshik" ma'nosidagi qapığ (DTS,420) so'zi Kul tigin yodnomasida Temir qapığ tarzida joy nomi tarkibida kelgan: *quriğaru Tämır qapığqa tägi süläyü bärmis* – g'arbiga Temir qopiqqacha lashkar tortib beribdi (KT,8). X asrga tegishli bo'lgan uyg'ur yozuvidagi adabiyot- larda *qapağ* (DTS,420) shakliga duch kelamiz. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" dostonida *qapuğ* varianti "darvoza", ko'chma ma'noda "qabul qilish xonasi" semalarida (DTS,421) qo'llanishda bo'lgan. Mahmud Koshg'ariy lug'atida *qapuğ, qapğa* (MK,I,401) fonetik muqobillari istifoda qilingan: *qapuğ açuqluğı* (MK,I,166). Ilk nasriy manba sanalgan "Qisasi Rabg'uziy" asarida *qapuğ* "eshik, darvoza", eski o'zbek tilidagi adabiyotlarda *qapu* shakli "eshik, darvoza", "jarlik, pastqam yer" (ANATIL,IV,268-269) ma'nolarini anglatgan: *bir kimärsä qapuğ qaqdı* (QR,19r2). Tahlilga tortilgan leksema zamonaviy adabiy tilda ishlatilmasa-da, uning *qapi, qapqa* variantlari bugungi kunda Xorazm, Iqon, Turkiston, Chimkent, Sayram shevalarida muomalada ekanini (O'XShL,156), shuningdek,

¹Содиқов Қ. Туркий ёзма ёдгорликлар тили: адабий тилнинг юзага келиши ва тикланиши. – Т.: Тошкент давлат шақшунослик институти, 2006. –Б. 46.

turkman, turk, ozarbayjon tilida *qapī*, gagavuz, qo‘miq tillarida *qapu*, uyg‘ur dialektlarida *qabīq/qobuq*, qirg‘iz, tatar tillarida *qapqa*, chuvash tilida *xapxa*, qozoq, qoraqalpoq tillarida *qaqpa* shakllari (ESS,V,274) qo‘llanishini ta‘kidlab o‘tish joiz. Atama “yopmoq” ma‘nosidagi qadimgi *qap-* fe‘li bilan – *ig‘* qo‘shimchasidan yuzaga kelgan (ESS,V,263).

“Chumoli” ma‘nosidagi o‘g‘uzcha qarīnča (Jamoliddin Turkiy,15a7; Tarjumon,11-20) termini “Devon”da qarīnča (MK,III,384)//qarīnča (MK,I,460) shakllarida qayd qilingan. Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asarida qarinch/ qarinchqa/qarinchg‘a (QR,30r19) fonetik shakllari istifoda etilgan: *Ikinč qarīnča Sulaymānğa ögüt bermiş üçün* (QR,13v1); *Sulaymān qarīnča birlä sözläşgäni turur* (QR,138v20). “At-tuhfa”da qarīnča (36a2) variatini ko‘ramiz. Chig‘atoy tilida qarīnča, qrim tilida qarīnja (RSL,III,174), ozarbayjon tilida qarīšqa (RSL,II,181) fonetik shakllari ishlatilganini Radlov o‘z vaqtida qayd etgan. Qarīnja hozirda janubiy Xorazm shevalarida o‘zining asl ma‘nosida ishlatilmoqda (O‘XSHL,157). Ayni paytda, ushbu zoonimning hozirda ayrim turkiy tillarda faol qo‘llanishni E.Sevortyaning etimologik lug‘atidan bilib olish mumkin. Ya‘ni turkman, qaraim tillarida *qarīnja*, ozarbayjon tilida *qarīšqa*, turk tili va uning dialektlarida *karīnca/qarīnča/garīnja* shakllari kuzatiladi (ESS,V323). Fikrimizcha, termin qarīn “qorin”, “qursa” (DTS,427) so‘zi bilan – ča-čaq kichraytirish affiksida yasalgan.

Shahar va qishloqlarning madaniy landshaftlari - parklar, bog‘lar, shuningdek, o‘tloq va dalalarda barchaga eng yaxshi tanish bo‘lgan qushlar yashaydi. Ana shunday qushlardan biri hisoblanmish chumchuq Mahmud Koshg‘ariyning ko‘rsatishicha, o‘g‘uzlar tilida sāčä (MK,III,238) deb nomlangan. “Qisasi Rabg‘uziy” asarida sāčä/sečä (13r12-13), sečäk shakllarini uchratdik: *sečäk čop tašidi* (43r3). “At-tuhfa”da seršä (24bm), šäršä, šeršä (24b10) fonetik variantlarini kuzatdik. Jamoliddin Turkiyning “Kitob bulg‘at” asarida serčä (16b3), “Tarjumon”da turkmancha sārčä (10-7) shakllarini ko‘ramiz. Zoonim eski o‘zbek tili manbalarida uchramasa-da, bugungi kunga kelib Urganch, Xiva, Xonqa, Hozarasp shevalarida *sechə*, ozarbayjon tilida *šärčä*, turkman tilida *serče*, turk tili va uning dialektlarida *serčä/čerče/čeree* (ESS,VII,267) shakllarida o‘zining asl ma‘nosini saqlab qolgan: *azam bilən sechə qonar tu:tlara, getmə dəp yeg‘ladım alıys yurtlara* (O‘XSHL,237).

Yumurtqa/yumurtğa (MK,III,439) “Devonu lug‘otit turk” asarida tovuq va boshqa qushlar tuxumini atagan: *ol yumurtqani yutti* – u tuxumni yutdi (MK,II,363). XIV asr obidasi sanalgan “Qisasi Rabg‘uziy” hamda Alisher Navoiy asarlari (ANATIL,III,584) tilida *yumurtqa* ayni sememada ko‘zga tashlanadi: *Yumurtqaniñ iç qapī teg içindä parda bar erdi* (147r5). Ushbu leksema Xorazm shevalari, ya‘ni Urganch, Xiva, Xonqa, Hozarasp, Yangibozor shevalarida *yımyırta*, Gurlan, Mang‘it, Yangibozor ¹ shevalarida *yımyırtqa* fonetik

¹Qarang: Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари. –Тошкент: Фан, 1961. –Б.53.

shakllarida tovuq tuxumiga nisbatan qoʻllanadi:...*ең ullысы уымыртqadayын, tavыg'ыңа maya bolar* (O'XSHL,134). Turkman, qoʻmiq tillarida *yumurtğa*, noʻgʻoy tilida *yumirtqa*, boshqird tilida *yomortqa*, qozoq, qoraqalpoq tillarida *yomirtqa*, oltoy tilida *dimirtqa*, qaraim tilida *imirtqa*, turk tilida *yumurta*, tatar *yomirqa*, xakas *pimırxa* variantlari ishlatiladi (ESS,IV,250).

Xulosa. Koʻrinadiki, oʻrtada uzoq asrlik muddat boʻlishiga qaramay qiyosiy tahlilga tortilgan soʻzlarning aksariyati bugun oʻzbek adabiy tilida qoʻllanishda boʻlmasa-da, qardosh turkiy tillarda ishlatilib kelmoqda. Baʼzilari aynan qoʻllanadi, ayrimlari fonetik, yana birlari maʼno oʻzgarishiga uchragan. Binobarin, asar soʻz boyligini qadimgi turkiy til va eski turkiy tilning dastlabki yodgorliklarida qayd etilgan leksik birliklar, hozirgi turkiy tillar hamda uning shevalari bilan qiyosiy oʻrganish, birinchidan, asardagi turkiy leksemalarning ildizi koʻhna manbalarga borib taqalishini, ikkinchidan, muayyan soʻzlar bugun ham baʼzi fonetik oʻzgarishlar bilan boʻlsa-da, turkiy adabiy til va dialektlarda faol ekanini, uchinchidan, ayrim istilohlar tarixiy taraqqiyot natijasida isteʼmoldan chiqib ketganini oydinlashtirdi.

Shartli qisqartmalar

ANATIL – Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати . I-IV. – Тошкент: ФАН, 1983-1985.

At-tuhfa – Изысканный дар тюркскому языку: Грамматический трактат XIV в на арабском языке/Введение, лексико-грамматический очерк, перевод, грамматический указател. Э.И. Фазылова и М.Т. Зияевой. –Ташкент, 1978.

G – Сайфи Сарайи. Гулистан бит-турки//Фазылов Э. Староузбекский язык. Хорезмийские памятники XIV века. I-II-Ташкент: ФАН, 1966-1971.

DTS – Древнетиюркский словарь. –Л.: Наука, 1969.

Jamoliddin Turkiy – Файзуллаева Ш.А. Исследование языка памятника XIV в. “Китабу булғат ал-муштак фи луғат ат –турк ва-л кифчак” Джамалад – Дина ат-Турки: Дисс.канд. филол.наук. – Ташкент, 1969.

IRLTYA – Историческое развитие лексики тюрских языков. – М.: Изд-во АН СССР, 1961.

КТ - Рустамий А. Сайланма/2-жилд/Туркий тил махзани. - Тошкент: Zilol buloq, 2022.

МК – Маҳмуд Қошғарий, Девону луғотит-турк/Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М. Муталлибов. Т. I-III. – Тошкент: ФАН, 1960-1963.

Мп – Хорезми. Муҳаббат-наме//Фазылов Э.Староузбекский язык. Хорезмийские памятники XIV века. I-II. –Ташкент: ФАН, 1966-1971.

Нав – Иброҳимов С., Шамсиев П. Навоий асарлари луғати. –Т.: Адабиёт ва санъат, 1972.

NF – Нахджул – фарадис//Фазылов Э.Староузбекский язык. Хорезмийские памятники XIVвека. Т. I-II. –Ташкент: ФАН, 1966-1971.

RSL – Радлов В.В. Опыт словаря тюркских наречий. I-IV. –СПБ, 1893-1911.

Tarjumon – Таржумон – XIV аср ёзма обидаси. – Тошкент: ФАН, 1980.

Tafsir – Бороков А.К. Лексика среднеазиатского тefsира XII-XIII вв.-М.: Изд-во

восточной лит-ры, 1963.

XSH – Кутб. Хосров и Ширин // Фазылов Э. Староузбекский язык. Хорезмийские памятники XIV века. Т. I-II. Ташкент: ФАН, 1966-1971.

ESS – 1) Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков: Общетюркские и межтюркские основы на гласные. –М.: Наука, 1974-.

2) Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков: Общетюркские и межтюркские основа на букву “Б”. –М.: Наука, 1978.

3) Севортян Э.В. Этимологические основы на буквы “В”, “Г”, “Д”. – М.: Наука, 1980.

FSH - Навоий. Фарход ва Ширин. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Саккизинчи том. – Тошкент: Фан. 1992.

SHT - Абулғозий. Шажарайи турк. – Тошкент: Чўлпон, 1992.

O'TIL – Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I-II. – Русский язык, 1981.

O'XSHL – Ўзбек халқ шевалари луғати. – Тошкент: ФАН, 1971.

QR – 1) Н.Б. Рабғузий. Қиссаси Рабғузий. I-II Тошкент: Ёзувчи, 1990-1991.

2) Rabqhyzi. Narrationes de Prophetis. Reproduced in facsimile. Wirt an introductions by K. Gronbech. – Copenbech. 1948.

3) Nasirud-din bin burhayud-din din Rabquz. Kisasul-Enbiya. II. Dizin. Aysu Ata. – Ankara, 1997.

QORAXONIYLARNI YORITISHDA FATVO ASARLARINING AHAMIYATI: AHMAD IBN MUSO KESHSHIYNING “MAJMU’ AL-HAVODIS”I MISOLIDA

ABDUMALIK TUYCHIBAYEV

Anqara universiteti doktoranti, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: Qoraxoniylar davrini yoritishda ushbu davrning o'zida yozilgan fatvo majmualarining ahamiyati katta. Mazkur asarlar fiqhning manbalari ierarxiyasida nisbatan quyi o'rinda turgani sababli diniy manba o'laroq keng tadqiq etilmagan va aksariyati hali ham qo'lyozma holatida qolib kelayotir. Tarixshunoslik jihatidan qaralganda esa, mazkur majmualar o'z davridagi nodir ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Chunki, bu asarlarda keltirilgan fatvolarning aksari tegishli davrda yuzaga chiqqan real hodisalarning diniy-huquqiy yechimini aks ettiradi. Ba'zi o'rinlarda fatvolar qatorida ularni keltirib chiqargan holatlar bo'yicha batafsil sharhlar ham zikr qilinadiki, ular vositasida tegishli davrdagi siyosiy, savdo-iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy munosabatlarga oid keng tasavvur hosil qilish mumkin. Xususan, davlatdagi sud-huquq tizimining tuzilishi, qozilarning tayinlanishi, islom huquqi normalariga amal qilinishini tartibga soluvchi Shayxulislom va Shamsulaimma kabi institutlarning tuzilishi, faoliyati va vakolatlari, Qoraxoniylarning Saljuqiylar bilan munosabatlari, mamlakatda boshqa din vakillariga nisbatan munosabat, jamiyatda savdo-iqtisodiy holat – foizsiz asosda sarmoya jalb etish uchun yaratilgan sharoitlar, ta'lim va ilmning qo'llab-quvvatlanishiga jarayonlar haqida fatvo asarlaridan muhim ma'lumotlarni olish mumkin. Maqolamizda Qoraxoniylar davrini yoritishda fatvo asarlarining mazkur jihatiga to'xtalangan. Unda

tegishli davrda yozilgan fatvo majmualarining turlari haqida ma'lumot berilib, mavzuni yoritishda Ahmad ibn Muso Keshshiyning "Majmu' al-havodis va an-navozil va al-voqe'ot" asarida kelgan fatvolardan keng foydalanilgan.

Kalit so'zlar: Fatvo, navozil, Qoraxoniylar, Shamsulaimma, Shayxulislom, fiqh.

Аннотация: При изучении эпохи Караханидов большое значение имеют сборники фетв, написанные в тот же период. Эти труды занимают сравнительно низкое место в иерархии источников фикха, поэтому как религиозные источники они исследованы недостаточно, и большинство из них до сих пор сохраняются в рукописном виде. С точки зрения историографии данные сборники содержат уникальные сведения о своём времени, поскольку большинство приведённых в них фетв отражают религиозно-правовые решения реальных событий соответствующего периода. В некоторых случаях наряду с фетвами приводятся подробные комментарии к обстоятельствам, их породившим, что позволяет получить широкое представление о политических, торгово-экономических, социальных и культурных отношениях того времени. В частности, из фетв можно почерпнуть важные сведения о структуре судебно-правовой системы государства, порядке назначения казиев, деятельности и полномочиях институтов, регулирующих применение норм исламского права таких как Шейхульислам и Шамсулайимма, об отношениях Караханидов с Сельджуками, о положении представителей других религий в стране, о состоянии торговли и экономики, в том числе об условиях для привлечения капитала на беспроцентной основе, а также о процессах поддержки образования и науки. В данной статье рассматривается именно этот аспект фетв как источников по истории Караханидов. Приводятся сведения о видах сборников фетв, созданных в этот период, и в освещении темы широко используются фетвы из труда Ахмада ибн Мусы Кешши «Маджму' ал-хавадис ван-навазил вал-ваки'ат».

Ключевые слова: Фетва, Навазил, Караханиды, Шамсулайимма, Шайхульислам, фикх.

Abstract: The collections of fatwas composed during the Karakhanid period hold significant importance in elucidating the historical, social, and legal landscape of that era. As these works occupy a relatively lower position in the hierarchy of sources within Islamic jurisprudence (fiqh), they have not been extensively studied as primary religious texts, and the majority of them remain in manuscript form. From a historiographical perspective, however, these compilations encompass a valuable information about their time. The fatwas contained within them often reflect the religious and legal resolutions of real events that occurred during the respective period. In certain instances, detailed explanations are provided alongside the fatwas, describing the circumstances that gave rise to them, which enables a comprehensive understanding of the political, economic, social, and cultural relations of the time. In particular, these works offer critical insights into the structure of the judicial system, the appointment of qadis (judges), the organization, functions, and jurisdiction of institutions such as the Shaykh al-Islam and Shams al-A'imma that used to regulate the implementation of Islamic legal norms, as well as the relations between the Karakhanids and the Seljuks, the state's treatment of representatives of other faiths, and the socio-economic environment, including mechanisms created to attract investment on an interest-free basis. Furthermore, they provide important data regarding the promotion of education and the support of

scholarly activities. The present article examines these aspects of fatwa literature as a means to shed light on the Karakhanid period, providing information about the types of fatwa compilations produced during that time, and drawing extensively upon the fatwas recorded in Ahmad ibn Musa al-Keshshi's *Majmu' al-Hawādith wa al-Nawāzil wa al-Waqāi'* in the analysis.

Keywords: Fatwa, Nawazil, Kara-Khanid Khanate, Shaykh al-Islam, Shams al-A'imma, fiqh.

Kirish.

Qoraxoniylar tarixiga oid ko'plab tarixiy va adabiy manbalar chuqur o'rganilgan bo'lsa-da, bugunga qadar e'tibordan chetda qolib kelayotgan nodir ma'lumotlar to'lamini mavjud. U ham bo'lsa – tegishli davrning o'zida yozilgan *fiqh*ning¹ amaliy sohasi, ya'ni *navozil*² yo'nalishidagi fatvo majmu'alaridir. Mazkur sohadagi qirqqa yaqin asarning aksari hali ham nashr qilinmagani *fiqh* ilmidagi ularning *matn*³ va *sharh*⁴ asarlaridan keyin uchinchi darajadagi manba o'laroq tasniflanishi bilan bog'liq. Ammo tarix va jamiyatshunoslik jihatidan qaralganda, aynan fatvo asarlari o'z davriga doir nodir axborotni tashuvchi manbalar hisoblanadi.

Maqsad va vazifa.

Ushbu tadqiqotning maqsadi – Qoraxoniylar davrini yoritishda mazkur davrning o'zida yozilgan huquqiy manbalar, ya'ni fatvo asarlarining o'rni va ahamiyatini ochib berishdir. Buning uchun avvalo, tegishli davrdagi fatvo asarlari haqida ma'lumot berilib, ushbu manbalarning xususiyatiga binoan tasniflash yuzasidan takliflar ilgari surilgan. Shuningdek, har bir fatvo muayyan ijtimoiy hodisaga tayanganidan kelib chiqib, muayyan fatvolar misolida Qoraxoniylar davridagi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayot bo'yicha tahlil amalga oshirilgan.

Usullar.

Muayyan davrning o'zida yozilgan hujjatlar tegishli zamondagi voqealar haqida ma'lumot olish va ularni aniq tushunishga katta imkon yaratadi. Jumladan, Qoraxoniylar davrining o'zida yozilgan hujjatlar va huquqiy fikr-mulohazalar manbai – fatvo asarlaridagi ma'lumotlarni o'rganish, tahlil qilish va sintez qilish orqali ushbu davr haqida muayyan xulosalar chiqarish mumkin. Ushbu holat inobatga olinib, maqola mavzusini yoritishda "tarixiy tadqiqot usuli"dan keng foydalanildi. Bunda tarixshunoslikdagi asosiy tamoyil – voqe'a va hodisalarni tarixiy matnlar va hujjatlar asosida yoritishga urg'u berildi.

Natijalar va mulohaza.

¹ Ислам ҳуқуқи илми.

² Бирор ҳуқуқий мазҳабнинг асосчиларидан кейинги даврда юзага келган янги масалалар ва уларнинг ечимларини ўрганувчи фикҳ соҳаси.

³ Ҳуқуқий мазҳаб асосларининг ҳукм ва хулосаларини мухтасар ҳолда жамлаган китоблар.

⁴ Матн асарларидаги жумла ва сўзларнинг шарҳига асосланган манбалар.

“Keyin yuzaga kelgan, insonlar uchun qiyinchilik yaratgan holat” ma’nosidagi “nozila” so’zining ko’pligi bo’lgan *navozil* istilohi ¹ mazhab asoschilarining asarlarida uchramagan, keyingi davrda yuzaga kelgan huquqiy savollar va ularning yechimini nazarda tutadi. Bu turdagi masalalarni ifodalash uchun “voqe’ot”, “havodis”, “fatovo” so’zlari ham qo’llanilgan.² Fiqhning mazkur yo’nalishiga oid ilk manba Somoniylar davrining oxirlarida vatandoshimiz Abullays Samarqandiy (v. 373/983) tomonidan yozilgan “Fatovo an-Navozil” asaridir. Ushbu kitob keyingi davr manbalarining uslubi va mazmunining shakllanishida katta ta’sir ko’rsatgan.

Qoraxoniylar davrida yozilgan *navozil* asarlari rivojini uch bosqichga bo’lish mumkin. Ilk davrda muayyan shahar ulamosining fatvo jamlanmalari keng tarqalgan. Muhammad ibn Fazl Buxoriyning “Fatovo al-Fazliy”,³ Muhammad ibn Valid Samarqandiyning “al-Jome’ul-Asg’ar”,⁴ asarlari shular jumlasidandir. Ayni davrda mualliflari ma’lum bo’lmagan “Fatovo a’immat Buxoro”,⁵ “Fatovo ahli Samarqand”⁶ va “Fatovo Xorazm”⁷ kabi majmualar ham bo’lgan. Shu bilan birga, asarlarda Abdulaziz Halvoniyning (v. 452/1060?) “al-Voqe’ot vil-furu”, Abulyusr Pazdaviyning (v. 493/1100) “al-Voqe’ot”, Mahmud ibn Zayd Lomishiyning (515/1121 yilda hayot bo’lgan) “Voqe’ot al-Lomishiy” asarlari ham zikr qilingan bo’lsa-da, bugunga qadar yetib kelmagan.

XII asrning boshlaridan avvalgi manbalarni jamlash, farqli maktab va hududlarga oid asarlardan dolzarb fatvolarni tanlab, majmualar yozish boshlangan. Bu jarayonda dastlab Samarqand va Buxorodagi uslubda o’xshashlik aks etgan. Jumladan, Buxoroda yozilgan Muhammad ibn Ibrohim Hasiriyning (v. 500/1107?) “al-Hoviy fil-Fatovo”si bilan ayni davrga oid Samarqand manbalarida yaqin uslub qo’llanilgan. Saljuqiylar hukmdori Sulton Sanjar Movarounnahrni tobe etgach, Buxoroda avtonom Sadrlar hokimiyatining o’rnatilishi⁸ bilan bu

¹ Кая, Эйюп Саид. “Навозил”, Туркия Диёнат вақфи Ислом Энциклопедияси, XXXIII жилд, Истанбул: TDV нашриёти, 2007, б. 34.

² Эрдоған, Мехмет. Фикҳ ва ҳуқуқ терминлари луғати (Fıkıh ve Hukuk Terimleri Sözlüğü). “Ensar” нашриёти, Истанбул, 2005. Б. 365, 597; Бедир, Муртеза. Бухоро ҳуқуқ мактаби (Buhara Hukuk Okulu). İSAM нашриёти: Истанбул, 2019. Б. 76.

³ Бухоро олимлари фатволари жамланган.

⁴ Самарқанд олимлари фатволари жамланган.

⁵ Кешший, Аҳмад ибн Мусо. Мажмуъ ал-ҳаводис ва ан-навозил ва ал-воқеъот. Истанбул, Сулаймония кутубхонаси Мурод Мулла қўл ёзма асарлар коллекцияси, инв. рақами: 1181, 192^b.

⁶ Бухорий, Буръониддин. Ал-Муҳит ал-Бурҳоний. “Дорул-кутубил-илмийя” нашриёти, Ливан, 2004. 1/61, 283.

⁷ Аввалги манба, 1/50.

⁸ Ўзел, Аҳмет. “Садрушшаҳид”, Туркия Диёнат вақфи Ислом Энциклопедияси, XXXV жилд, Истанбул: TDV нашриёти, 2008. – Б. 425; Хункан, Ўмер Сонер. Ўрта асрларда Самарқандда ilk замонавий туркий университет: Тамғачхон Иброҳим мадрасаси (Ortaçağ Semerkand’ında İlk Modern Türk Üniversitesi: Tamgaç Han İbrahim Medresesi) Тракия университети адабиёт факультети журналы. 4-жилд, 8-сон. 2014. Б. 28.

yerdagi ilmiy asarlar, jumladan, fatvo jamlanmalarining uslubiyatida ham yangilik yuzaga keldi. Sadrlar oilasidan bo'lgan Abu Hafs Husomiddin Sadrush-shahid (v. 536/1141) boshlab bergan bu uslub avvalgi darvga oid manbalardan fatvo naqlida matnni qisqartirish, ortiqcha deb hisoblangan tafsilotlarni tushirib qoldirishdan iborat edi. Murtazo Bedirning ta'biri bilan aytganda, *“an-Navozilda¹ muayyan bir fatvo kimga yo'naltirilgani qayd qilinganiga qaramay, xuddi shu fatvolarni keltirgan al-Voqe'ot² muallifi ularning kimga oidligini ko'rsatmagan.”*³

Buxoroga xos ushbu yangi uslubga muvofiq ba'zi holatlarda fatvoning qaysi maktabga oidligini bildirish uchun mintaqa va davrlarni muayyan ramz bilan ishoratlash, tegishli belgi ostida tanlangan fatvolarni zikr qilish ham kuzatilgan. Sadrush-shahid (v. 536/1141)ning o'zi ushbu uslubda *“al-Voqe'ot”*, *“al-Fatovo al-kubro”* va *“Umdat al-Fatovo”* asarlarini, uning shogirdi Burhoniddin Marg'ioniy (v. 593/1197) esa *“at-Tajnis val-mazid”* kitobini yozgan. Bu shakldagi asarlar sof huquqiy ma'noda masalalarni sharhlashda foydalaniladigan muxtasar material to'plash, madrasalarda talabalar tomonidan matnlarni yodga olish uchun muxtasar matnning shakllantirilishi jihatidan muhim va foydali bo'lgan. Ammo tegishli fatvo muallifining nomini tushirib qoldirilishi ilk davr olimlari bilan aloqaning uzilishiga, fatvo tafsilotlarining qisqartirilishi esa tarixiy va ijtimoiy jihatdan qimmatli axborotning yo'qolishiga olib kelgan.

Buxoroda shakllangan bu usul XII asrning ikkinchi yarmida deyarli butun mintaqaga tarqalgan. Keyingi davrda uslub va mazmun jihatidan ko'proq nazariy fiqhni yodga soluvchi, Sadrush-shahid maktabining yanada taraqqiy etgan shakli deb atash mumkin bo'lgan asarlar yuzaga kelgan. Marg'ioniyning (v. 593/1197) *“Muxtorot an-Navozil”*, Iftixoruddin Buxoriy (ö. 542/1147)ning *“Xulosat al-Fatovo”*, Abulqosim Samarqandiy (v. 559/1163)ning *“al-Multaqat”*, Abu Hafs Oqiliy (v. 576/1180)ning *“Minhoj al-Fatovo”*, Abu Nasr Attobiyy (v. 586/1190)ning *“Javome' al-fiqh”*, Abu Bakr Muhammad ibn Ahmad Buxoriy (v. 619/1222)ning *“al-Fatovo az-zahiriyya”*, Burhonushshari'a Buxoriy (VI/XII asr)ning *“Tatimmat al-fatovo”*, Ahmad ibn Muhammad ibn Abu Bakr (636/1238-9 yilda hayot bo'lgan)ning *“Xizanat al-Fatovo”* va *“Majma' al-fatovo”* asarlari shular jumlasidandir.

Ayni davrda yozilganiga qaramay, Sadrush-shahidning ta'siridan xoli kamsonli fatvo majmualaridan biri – Ahmad ibn Muso Keshshiyning *“Majmu' al-havodis va an-navozil va al-voqe'ot”* asaridir.⁴ Qoraxoniylar nazoratida qolgan Samarqandda bitilgani uchun ushbu asar Sadrlar bilan Buxoroga kirib kelgan

¹ Абуллайс Самарқандийнинг асари назарда тутилган.

² Садрушшаҳиднинг асари назарда тутилган.

³ Бедир, Муртеза. Бухоро ҳуқуқ мактаби (Buhara Hukuk Okulu). İSAM нашриёти: Истанбул, 2019. Б. 95-96.

⁴ 2022 йилда мақола муаллифи томонидан китобнинг танқидий наشري тайёрланган. Қаранг: Аҳмад ибн Мусо Кешший. Мажмуъ ал-ҳаводис ва ан-навозил ва ал-воқеъот. Ношир: А.Туйчибаев, Байрут: Ибн Хазм нашриёти, 2022.

yangi uslubdan ta'sirlanmagan bo'lishi mumkin. Keshshiyning ushbu asarida fatvolarni qisqartirish deyarli kuzatilmaydi. Ba'zi hollarida muayyan fatvo bo'yicha olimlar o'rtasida yuzaga kelgan bahs-munozaralar, hodisalar va hatto hokimiyat bilan ulamo o'rtasidagi muloqotlar ham batafsil zikr qilinadi. Sof huquq ilmi nuqtai nazaridan bu uslub nomuvofiq bo'lishi mumkin. Hatto shu sababli ham keyingi davrda yozilgan fatvo asarlari ko'proq Buxoro maktabi tarzida yozila boshlagan. Ammo tarixni, muayyan davrdagi siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy hayotni yoritishda Keshshiyning asarida keltirilgan fatvolar ortidagi voqe'a va hodisalar muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Keshshiy asarining muqaddimasida bildirganidek, o'zidan avval yozilgan 15 ta manbadan foydalangan. Ularning ichida maqola mavzusi doirasida bo'lganlari – Payg'ambar avlodidan bo'lgani sababli Qoraxoniylar xoqonlari tomonidan alohida e'zozlangan Muhammad ibn Abu Shujo' Muhammad ibn Hamza Alaviy (v. 1098)ning *"Muxtasar G'arib ar-rivoya"*si, Samarqandda ilk Shayxulislom o'laroq faoliyat ko'rsatgan Ato ibn Hamza So'g'diy (XI asrning ikkinchi yarmi) *"Fatovo"*si, shahar olimlarining nodir fatvolari jamlangan *"Fatovo Muhammad ibn Valid Samarqandiy"* va *"Fatovo Najmiddin Nasafiy"* asarlari alohida e'tiborga molik.

Keshshiyning asarida keltirilgan fatvolardan mintaqada turkiy qabilalarning ta'siri orta boshlaganini ko'rish mumkin. Kamida 7 ta fatvoda turkiylar (أتراك) ifodasi mavjud. Hatto bir fatvoda hududda turkiylashuvga to'g'ridan ishora qiluvchi savol so'ralgan. Unga ko'ra, Najmiddin Nasafiydan "Agar ertaga bu mavzeni Turkistonga aylantirmasam, ayolim taloq bo'lsin" degan kishi qasamini qanday ado etadi deb so'ralganda, u "Bu yerga ko'plab turkiylarni yerlashtirish bilan"¹ degan javobni bergan. Asarda kelgan yana bir hikoyadan esa, Samarqand amirining turkiy bo'lgani anglashiladi. Unga ko'ra, shaharning Kigizchilar ko'chasi (سكة اللبّادين)dagi bir uyda bazm uyushtirilib, ichkilik bo'lgani xabari Shayxulislomga yetib kelganda, u zudlik bilan bu yerga kelib amri ma'ruf qilgan. Mehmonlar ichida turkiylar bo'lib, ulardan biri amir ekani (وفيهم أتراك واحد منهم) aniqlangan. Avvaliga, bazm qatnashchilari Shayxulislomning ogohlantirishlariga quloq solmagan. Muhtasib Qozi Hasan Faqo'iy hamda bevosita Xoqon hurmatiga noil bo'lgan Payg'ambar avlodi Muhammad ibn Abu Shujo' Muhammad ibn Hamza Alaviy yetib kelgandan keyin, ko'plab faqihlar ishtirokida chora ko'rilgan.²

Ma'lumki, Qoraxoniylar davlat hududida hanafiylik huquqini asos qilib olganlar. Davlat va jamiyatda huquqiy nazorat uchun yangi tuzilmalar shakllantirilgan. Avval Buxoroda Shamsulamma, keyinchalik esa Samarqandda Shayxulislom lavozimlari yuzaga kelib, ular vositasida hanafiy mazhabini rivojlantirish maqsad qilingan. Jumladan, Keshshiyning asaridagi ma'lumotlar

¹ Кешший, 181^б.

² Кешший, 321^а.

Shayxulislom maqomi Samarqandda hanafiy olimlarining eng yuqori unvoni bo'lganini ko'rsatadi. Bu daraja faqat hanafiy mazhabi olimiga berilgan. Taxminimizcha, Samarqanddagi ushbu unvon davlat boshqaruvidagi lavozimni nazarda tutgan bo'lib, bevosita Qoraxoniy Xoqoni tashabbusi bilan ta'sis etilgan bo'lishi mumkin. Usmonlilar davlatidagi oliy martabali diniy rahbar – Shayxulislom lavozimining ildizlari ham Qoraxoniylarga borib taqalishini ilgari surish mumkin.

Keshshiyning asarida keltirilgan ma'lumotlardan Shayxulislom Sug'diyning Qozilar tomonidan chiqarilgan hukmlarning huquqqa muvofiqligini baholagan va nazorat qilgan, yaxshilikka buyurib, yomonlikdan qaytarish vazifasini o'z zimmasiga olgani, qonunga xilof va nohaq ishlarni yuzaga kelgan, zarur choralarni ko'rgani anglashiladi. Ato Sug'diyning vafotidan so'ng Shayxulislom lavozimiga Ali b. Muhammad Isbijobiy (1141 yilda tug'ilgan), undan keyin esa, Mahmud b. Ahmad Sog'archi (1160-yilda tug'ilgan) kabi olimlar keltirilgan.¹ Ikki olimning nomidan va nisbasidan ko'rinib turganidek, Qoraxoniylar keyingi davrda ushbu lavozimga kelib chiqishi turkiy bo'lgan ulamoning kelishini qo'llab quvvatlaganini bildirish mumkin.

Qoraxoniylar davlatida Bosh qozi Xoqon tomonidan tayinlangan. Tayinlash haqidagi qarorda Bosh qoziga quyi turuvchi qozilarni tayinlash vakolati (الإذن بالاستخلاف) aniq ko'rsatilgan taqdirda, u boshqa qozilarni belgilay olgan. Aks holda, Bosh qozi tayinlagan qozilarning hukmi kuchga kirmagan.² Qiziq jihati, Qoraxoniylarning Saljuqiylarga tobe bo'lishi qozilarni tayinlash jarayoniga ham ta'sir qilgan va bu Keshshiyning asarida ham aks etgan. Unda kelgan sud hujjatlaridan birining tahliliga ko'ra, XI asrning oxirlarida hudud Saljuqiylar hukmdori Sulton Sanjar tomonidan bo'ysundirilgach, Bosh qozining Xoqon, Xoqonning esa Sanjar tomonidan tayinlanganini (القاضي القضاة بسمرقند وذلك من جهة الخاقان ثم الخاقان من جهة سنجر) aniq yozish amaliyoti boshlangan.³

Keshshiy tomonidan naql qilingan yana bir muhim ma'lumot Samarqand faqihlari tomonidan tasdiqlangan va muomalaga kiritilgan “al-bay’ bil-vafo” (البيع بالوفاء) shaklidagi bitim haqidadir. Qoraxoniylar davrida ushbu turdagi shartnomalarga ruxsat berilishi sarmoyadorlardan mablag' jalb etishga imkon yaratib, jamiyatning savdo-iqtisodiy rivojiga katta yo'l ochgan. Bunday kelishuvga ko'ra, sarmoyador biror kishiga qarz maqsadida bergan puli uchun muayyan mulkni sotib olgandek harakat qilgan, ammo qarz vaqti kelib qaytarilganda, tegishli mulkni qaytarib berishga va'da bergan. Shartnomaning nomi ham ana shu va'daga vafo qilish mazmunida “vafo bitimi” deb atalgan. Keshshiyning fatvo majmuasida kelishicha, bu turdagi oldi-sotdi bitimi riboga,

¹ Қаранг: Туйчибаев, Абдумалик. Самарқандда Шайхулислом идораси: XI-XII асрлар (Shaykh al-Islam's Office in Samarkand (XI-XII. Centuries). 3. Uluslararası Öğrenciler Sosyal Bilimler Kongresi. İstanbul, 2017, B. 141-147.

² Кешший, 276^b.

³ Кешший, 283^a.

ya'ni foizli qarz o'rniga chora (احتيالاً للربو) deb qabul qilgan. Samarqand Shayxulislomi Ato So'g'diy bu turdagi bitimni garov (رهن) uchun berilgan mulkka qiyoslab, "Bizningcha, garov va bu (vafo bitimi)ning o'rtasida hech bir hukmda farq yo'q. Chunki tomonlar uni oldi-sotdi deb nomlasalar-da (سمياً بيعاً), maqsadlari – garov va qarzni kafolatlashdir (الرهن والاستيثاق بالدين). Zero, sotuvchi ushbu bitimdan so'ng barchaga: "Falonchiga mulkimni garov qilib berdim" deydi, oluvchi esa "falonchining mulkini garovga oldim", deb aytadi" mazmunida fikr bildirgan.¹

"Majmu' al-havodis"dagi ayrim fatvolar Qoraxoniylar davridagi diniy bag'rikenglikni holatini ko'rsatib berishi jihatidan bugun ham dolzarbdir. Najmiddin Nasafiyning hikoya qilishicha, Sarpulda musulmonlar yaxshilik qilgan bir ma'jusiyning bolasining sochini kestirish munosabati bilan uyushtirgan ziyofatiga borgan musulmonlar masalasida Shayxulislom "Ahli zimmaning taklifini qabul qilish shari'atda mutloqdir (cheklanmagan)", deya javob bergan.² Boshqa bir fatvoda esa, musulmonlardan yer yoki bog' sotib olib uni o'zlariga mo'zoz qilib olgan (فاتخذوها مقبرة لهم) yahudiylarni bu ishiga to'sqinlik qilish mumkinmi degan masalada Shayxulislom "Yo'q, chunki ular uni mulk qilib oldilar. Shu sababli xuddi musulmonlar kabi xohlaganlarini qiladilar", (لأنهم ملكوها) (فيفعلون ما شاؤوا كالمسلم) deb javob bergan.³

Qoraxoniylar ilm-fanga katta ahamiyat bergan. Hatto ba'zi tadqiqotlar islom dunyosidagi ilk madrasa Samarqandda tashkil topganini ko'rsatadi. O'mer Soner Xunkanning xulosasiga ko'ra, 1066 yilda Ibrohim Tamg'achxon (1041-1068) tashabbusi bilan ochilgan madrasa Islom dunyosida mavjud bo'lgan masjidlardagi ilm halqalaridan farqli o'laroq, to'liq ta'limga ixtisoslashgan muassasa sifatida ajralib turadi. Madrasaning o'ziga ajratilgan alohida binosi, maosh oluvchi mudarrisalari, stipendiya asosida o'quvchi talabalari, kutubxonasi va ta'lim dasturi bo'lgan. Ibrohim Xoqon madrasasi bu xususiyatlarga ega ilk ilm dargohi bo'lgan va hatto Saljuqiylarning Nizomiya madrasalari uchun o'rnak bo'lib xizmat qilgan. Madrasada imom, muazzin, muftiy kabi diniy soha mutaxassislari qatorida muhtasib, kotib, tarjimon, ayg'oqchi va elchi kabi davlat boshqaruvi uchun muhim xizmatchilar ham yetishib chiqqan.⁴ Mazkur madrasa haqida Keshshiy asarida kelgan bir hikoya unga oid muhim ma'lumotni berishi bilan ahamiyatlidir. Unga ko'ra, "Xoqoniya madrasasi" (المدرسة الخاقانية) deb atalgan mazkur dargohning asosiy muallimlaridan Qoraxoniylar tomonidan Samarqandga taklif etilgan Payg'ambar avlodi Abu Shujo' Alaviy edi. Olimning madarasa ichida

¹ Кешший, 229^б.

² Кешший, 382^а.

³ Кешший, 285^б.

⁴ Хункан, Ўмер Сонер. Ўрта асрларда Самарқандда илк замонавий туркий университет: Тамғачхон Иброҳим мадрасаси (Ortaçağ Semerkand'ında İlk Modern Türk Üniversitesi: Tamgaç Han İbrahim Medresesi) Тракия университети адабиёт факультети журнали. 4-жилд, 8-сон. 2014. Б. 28-29.

alohida kutubxonasi (الحجرة التي كانت فيها كتبه) bo'lgan.¹ O'z davrida Qoraxoniylarning Shayxulislomi bo'lib yetishgan Ato ibn Hamza So'g'diy ham bu yerda ta'lim olgan.

Asarda keltirilgan bir voqe'a Xoqon bilan ulamo o'rtasidagi munosabatni yaqindan tasavvur qilishga imkon beradi. Ato So'g'diyning hikoya qilishicha, yoshligida Buxoroda ta'lim olgan vaqtda Qoraxoniylar Xoqoni Ibrohimga yaqin bo'lgan Gulbodom ismli bir shaxsga oid huquqiy da'voda olimlar o'rtasida kelishmovchilik yuzaga kelgan. Shamsulaimma Halvoni (v. 452/1060?) boshchiligidagi ulamolar da'vo hujjatining qoidalarga to'liq muvofiq ekanini bildirgani holda, Bosh qozi bo'lgan Ali So'g'diy buni qabul qilmagan. Uzoq munozaradan so'ng olimlar Xoqonning saroyiga chaqirtirilib, bir qarorga kelishlari so'ralgan. Uzoq tortishuvdan so'ng Ali So'g'diy hujjatda "Gulbodom foydasiga hukm chiqardim" (وقضيت لـغلبادام) degan jumlada aynan qaysi Gulbodom haqida gap ketayotgani aniq ko'rsatilmagani, agar sud majlisida ushbu ismga ega ikki shaxs bo'lgan bo'lsa, chalkashlik yuzaga kelishini tushuntirib, boshqa olimlarning ham o'z fikriga qo'shilishiga erishadi va hujjat yangidan tuziladi.²

Xulosa.

Yuqorida keltirilgan ma'lumot va tahlillar Ahmad ibn Muso Keshshiyning "Majmu' al-havodis va an-navozil va al-voqe'ot" asari misolida fatvo kitoblarining Qoraxoniylar davrini yoritishda naqadar muhimligini yaqqol ko'rsatadi. Bu manbalar diniy huquqqa oid bo'lgani sababli keng qamrovli tarixiy axborotga ega bo'lmasligi mumkin. Lekin tarix kitoblarida keltirilgan ma'lumotni tasdiqlash, davlatdagi sud-huquq tizimini o'rganish, tegishli davrdagi oilaviy, ijtimoiy va savdo-iqtisodiy munosabatlarga oid tasavvur hosil qilish, hokimiyatning diniy ulamo bilan munosabatlarini tahlil qilish jihatidan ushbu kitoblar nodir ma'lumotlarni o'zida jamlagan. Bugunga qadar aksari qo'lyozma holida qolib kelayotgan ushbu asarlarning tanqidiy nashrini tayyorlab, ilm hamjamiyatiga taqdim etish katta ahamiyatga ega. Buning uchun esa, quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Qoraxoniylar davri tadqiqotchilarini tegishli davrda yozilgan va ko'pi qo'lyozma holatida saqlanib kelayotgan fatvo asarlarini chuqur o'rganishga jalb qilish.

2. Magistratura va doktorantura ta'limida dissertatsiyalar yozish doirasida tanqidiy nashr tayyorlashni yo'lga qo'yish.

3. Mas'ul idoralar tomonidan Qoraxoniylar davriga oid qo'lyozma asarlarning eng sifatli nusxalarini tanlab olish, o'rganish va tanqidiy nashrga tayyorlash uchun alohida grant dasturlarini ochish. Bu kabi asarlarning aksariyati Turkiya, Misr, Saudiya Arabistoni kabi xorijiy davlatlarda saqlab kelinayotgani sababli ularning

¹ Кешший, 11^a.

² Кешший, 272^{ab}.

tadqiq qilishga moddiy garnt dasturlarining ochilishi bu boradagi ilmiy ishlarni ko'paytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдумалик Туйчибаев. Самарқандда Шайхулислом идораси: XI-XII асрлар (Shaykh al-Islam's Office in Samarkand (XI-XII. Centuries). 3. Uluslararası Öğrenciler Sosyal Bilimler Kongresi. İstanbul, 2017, 568 б.
2. Аҳмад ибн Мусо Кешший. Мажмуъ ал-ҳаводис ва ан-навозил ва ал-воқеъот. Истанбул, Сулаймония кутубхонаси Мурод Мулла қўлёзма асарлар коллекцияси, инв. рақами: 1181, 441 варақ.
3. Аҳмад ибн Мусо Кешший. Мажмуъ ал-ҳаводис ва ан-навозил ва ал-воқеъот. Ношир: А.Туйчибаев, Байрут: Ибн Хазм нашриёти, 2022, I-III жилдлар.
4. Аҳмет Ўзел. “Садрушшаҳид”, Туркия Диёнат вақфи Ислом Энциклопедияси, XXXV жилд, Истанбул: TDV нашриёти, 2008, 425-427 б.
5. Бурхониддин Бухорий. Ал-Мухит ал-Бурхоний. “Дорул-кутубил-илмийя” нашриёти, Ливан, 2004, I-IX жилдлар.
6. Мехмет Эрдоған. Фикҳ ва ҳуқуқ терминлари луғати (Fıkıh ve Hukuk Terimleri Sözlüğü). “Ensar” нашриёти, Истанбул, 2005, 626 б.
7. Муртеза Бедир. Бухоро ҳуқуқ мактаби (Buhara Hukuk Okulu). İSAM нашриёти: Истанбул, 2019, 253 б.
8. Ўмер Сонер Хункан. Ўрта асрларда Самарқандда илк замонавий туркий университет: Тамғачхон Иброҳим мадрасаси (Ortaçağ Semerkand'ında İlk Modern Türk Üniversitesi: Tamgaç Han İbrahim Medresesi) Тракия университети адабиёт факультети журналы. 4-жилд, 8-сон. 2014, 17-44 б.
9. Эйюп Саид Кая. “Навозил”, Туркия Диёнат вақфи Ислом Энциклопедияси, XXXIII жилд, Истанбул: TDV нашриёти, 2007, 34-35 б.

KARAHANLI SIYASI DÜŞÜNCESİNDE “KARA” KAVRAMININ ANLAM KATMANLARI

TUBA TOMBULOĞLU

Anqara Yildirim Boyazid universiteti dosenti

FIRUZA DJUMANIYAZOVA

O'zR FA Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi, tarix fanlari nomzodi

Özet. Bu çalışma, Türk kültüründe “kara” kelimesinin Karahanlılar dönemi bağlamında kazandığı çok katmanlı anlamları incelemektedir. Etimolojik olarak “siyah” anlamına gelen “kara”, Türk düşüncesinde yalnızca bir renk değil; yön, toplumsal tabaka, kudret ve kutsallık göstergesi hâline gelmiştir. Eski Türklerde kara kuzeyi temsil eder, bu nedenle “kara” merkezi gücü ve yüceliği simgeler. Karahanlı Devleti'nde “Kara Han” unvanı, hem siyasi meşruiyetin hem de “kut” anlayışının yansımasıdır. Bu sıfat yalnızca en yüksek hükümdar için kullanılmış, devletin doğu kolunu ve merkezi otoriteyi

sembolize etmiştir. Aynı zamanda “kara” halkı (kara bodun) ve toplumun alt tabakasını ifade eden bir sosyal terim olarak da yer almıştır. Kutadgu Bilig’de “ak beg” (bey) ve “kara kul” (halk) karşıtlığı bu toplumsal yapıyı açıkça gösterir. Coğrafyada da “Kara Kum”, “Kara Kurum” gibi yer adlarıyla kuzey yönüyle özdeşleşmiştir. Edebî metinlerde ve destanlarda “kara ev”, “kara halk” gibi ifadeler, sade yaşamı ve halk kültürünü temsil eder. Böylece “kara”, Türk siyasi ve kültürel dünyasında hem yönsel, hem sosyal hem de ideolojik bir simgeye dönüşmüş; renk sembolizmi üzerinden gücü, köklülüğü ve kutsallığı bir arada ifade eden bütüncül bir kavram hâline gelmiştir.

Anahtar kelimeler: Karahanlılar, Siyasi Düşünce, “Kara”, Karahan

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot turkiy madaniyatda “qora” so‘zining Qaraxoniylar davrida kasb etgan ko‘p qirrali ma‘nolarini tahlil qiladi. Etimologik jihatdan “qora” ma‘nosini anglatuvchi bu so‘z turkiy tafakkurda faqat rang emas, balki yo‘nalish, ijtimoiy tabaqa, qudrat va muqaddaslik ramzi sifatida ham talqin etilgan. Qadimgi turklarda “qora” shimolni ifodalagan, shu sababli u markaziy kuch va yuksaklik timsoli hisoblangan. Qaraxoniylar davlatida “Qara xon” unvoni siyosiy qonuniylik va “qut” tushunchasining ifodasi bo‘lib, faqat eng oliy hukmdorga nisbatan ishlatilgan hamda davlatning sharqiy tarmog‘i va markaziy hokimiyatini anglatgan. Shu bilan birga, “qora xalq” (qara bodun) iborasi jamiyatning quyi qatlamini bildiruvchi ijtimoiy termin sifatida ishlatilgan. “Qutadg‘u bilig” asarida “oq beg” (bey) va “qara qul” (xalq) qarama-qarshiligi bu ijtimoiy tuzilmani yaqqol ko‘rsatadi. Geografik jihatdan “Qoraqum”, “Qorakurum” kabi joy nomlari shimol yo‘nalishi bilan bog‘liq. Adabiy manbalarda va dostonlarda uchraydigan “qara uy”, “qara xalq” kabi iboralar esa oddiy hayot va xalq madaniyatini ifodalaydi. Shu tariqa “qora” so‘zi turkiy siyosiy va madaniy tafakkurda yo‘nalish, ijtimoiy va mafkuraviy ramz sifatida shakllanib, rang ramzi orqali qudrat, ildiz va muqaddaslikni birlashtirgan yaxlit tushunchaga aylangan.

Kalit so‘zlar: Qoraxoniylar, siyosiy tafakkur, “qora”, Qoraxon.

Annotation: This study analyzes the multifaceted meanings of the word “kara” in Turkic culture during the Karakhanid period. Etymologically meaning “black,” the term kara in Turkic thought represents not only a color but also symbolizes direction, social class, power, and sacredness. In ancient Turkic belief, kara denoted the north, and therefore symbolized central authority and greatness. In the Karakhanid State, the title Kara Khan reflected both political legitimacy and the concept of kut (divine grace), being used exclusively for the supreme ruler and representing the eastern branch and central authority of the state. At the same time, the phrase kara xalq (“common people,” kara bodun) functioned as a social term denoting the lower stratum of society. In Kutadgu Bilig, the contrast between aq beg (noble) and qara qul (commoner) clearly illustrates this social structure. Geographically, place names such as Karakum and Karakurum are associated with the northern direction. In literary texts and epics, expressions like kara uy (“black house”) and kara xalq (“common folk”) represent simplicity and folk culture. Thus, kara evolved into a directional, social, and ideological symbol in Turkic political and cultural thought an integrated concept expressing power, rootedness, and sacredness through color symbolism.

Keywords: Karakhanids, political thought, “kara,” Karakhan.

Giriş.

Türk tarihinin eski çağlarından itibaren renk kavramı, sadece fiziksel niteliği ifade eden bir olgu olmaktan çok, siyasi düşüncenin de temel bileşenlerinden biri olmuştur. Türkler için renkler, bir yandan dünyanın yönlerini, diğer yandan hükümdarlığın mertebelerini ve toplumsal tabakaları simgelerdi. Bu sistemde “kara” kelimesi, Türk zihin dünyasında hem bir renk, hem bir yön, hem de toplumsal hiyerarşinin ve kudretin sembolü olarak çok katmanlı bir anlam kazanmıştır. Dolayısıyla Karahanlı Devleti’nin hükümdar unvanlarında yer alan “kara” sıfatı, sadece bir sıfat olmaktan ziyade, derin anlamlar taşıyan ideolojik bir kavramdır.

Karahanlılar dönemi de Türk tarihinde renk sembolizminin siyasi meşruiyetle birleştiği devirlerden biridir. Bu dönemde “Kara Han”, “Buğra Kara Han” gibi unvanlar yalnızca bireysel adlar değil, meşruiyet ve kutsiyetin sembolleri hâline gelmiştir. Türk hükümdarlık anlayışında “kut” kavramının (tanrısal meşruiyet) merkezde oluşu, “kara” kelimesinin bu kutu yansıtan bir sembol olarak kullanılmasına zemin hazırlamıştır. Bu çalışmanın amacı, “kara” kelimesinin Karahanlılar devleti içindeki kullanımını, etimolojik kökeninden başlayarak kültürel ve siyasi bağlamlarıyla inceleyip kelimenin işlevini anlamaya çalışmaktır. Bu çalışmada evvela “kara” kelimesinin Türk dilindeki anlam katmanları ele alınacak, ardından kelimenin kültürel, yön kavramı ve sembolik işlevi incelenecektir.

I. Etimolojik ve Filolojik Analiz

“Kara” kelimesi Türk dilinin en eski dönemlerinden itibaren çok yönlü bir anlam alanına sahiptir. Temel anlamı fiziksel olarak “siyah” veya “karanlık” olsa da, erken metinlerde bu kelimenin hem mecazî hem de toplumsal karşılıklar kazandığı görülür. Clauson’un *An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth-Century Turkish* adlı eserinde belirtildiği üzere “kara” kelimesi mecazî olarak “avam, köle, halk, sıradan kişi” anlamlarına da geldiği kaydedilmiştir.¹ Ancak *halk* anlamına gelen kısmı Toplumsal Kullanımlar ve Edebî Yansımalar bölümünde detaylı incelenecektir. Bu anlamın kapsamı içerisinde “kara bodun” (halk), “kara kul” (köle), “kara baş” (avam kişi), “kara ev” (çadır), “kara orun” (mezar) gibi kullanımlar dikkat çeker. “Yılık kara” ifadesi hayvan sürüsü anlamında, “kara ot” zehirli bitki, “kara yarmak” bakır para, “kara mürekkep” yazı aracı, “kara kabus” ise hazımsızlık kökenli kâbus anlamındadır.² Bu örnekler, “kara”nın yalnızca bir renk değil, gündelik yaşamın çok çeşitli alanlarında yer alan, toplumun alt tabakası, kölelik, ölüm ve karanlık gibi anlamları da içine alan bir kavram olduğunu göstermektedir.

II. Kültürel ve Sembolik Katmanlar

¹ Gerar Clauson, *An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth-Century Turkish*, Oxford University Press, Oxford 1972, s. 643-644.

² Clauson, *age*, s. 643-644.

“Kara” yalnızca bir renk adı değil, aynı zamanda Türk kültüründe ölüm, yeraltı, kölelik, sıradanlık, karanlık ve bilinmezlik gibi sembolik katmanlara da sahiptir. “Ak” ve “kara” karşıtlığı, iyi-kötü, soylu-avam, üst-alt gibi ikiliklerin belirlenmesinde başat bir rol oynar. Şamanlardan kötülüğü temsil edenler “Kara Şaman”, iyiliği temsil edenler ise “Ak Şaman” olarak adlandırılmaktadır.¹ Böylece “kara” kavramı hem fiziksel siyahlığı hem de toplumsal hiyerarşiyi ifade eder.

Renk sembolizmi Türklerin yön tayin sisteminde de önemli bir yere sahiptir. Omeljan Pritsak’ın “Kara Türk Yön Sembolizmi Çalışması”na göre Eski Türklerde kara kuzeyi, ak batıyı, gök doğuyu, kırmızı güneyi, sarı ise merkezi temsil eder. Alföldi’nin tespit ettiği gibi bu beşli renk sistemi Çin’in wu-hing öğretisiyle ve Türkistan konar göçer kültürüyle paraleldir. Uygur Budist metinlerinde yer alan “Kidin kara yılan -Arkada (kuzeyde) kara yılan” ifadesi de bu sembolizmin açık bir örneğidir.²

Pritsak, kuzeyin Türkler açısından özel bir anlam taşıdığını ve “kara”nın bu yönün simgesi olduğunu belirtir. Çinliler için kuzeyde yer alan Türkler “kara” sıfatını bu konumdan ötürü bir kimlik göstergesi hâline getirmiştir. Böylece “kara”, yönsele anlamının ötesine geçerek “büyük, yüce, merkezi” anlamlarını da taşımaya başlamıştır. Pritsak’ın vurguladığı üzere “Kara Han” ve “Kara Ordu” birleşimleri, “büyük baş” veya “merkezi kudret” anlamına gelmektedir.³

Bu yön-renk sistemi sadece sembolik değil, aynı zamanda siyasi bir anlam taşımaktadır. “Kara”nın kuzeyle, dolayısıyla merkezi güçle ilişkilendirilmesi, Karahanlılarda “Kara Han” unvanının meşruiyet sembolü olarak kullanılmasının temelinde yatar. Pritsak’a göre Çin kaynaklarında kuzey Türkleri olarak anılan Doğu Türkleri, bu nedenle “kara” sıfatını devlet ve hükümdar adlarına taşımıştır.⁴

Renk-yön sembolizminin başka bir yansıması da Türk boylarının adlandırılmasında görülür. Pritsak’ın aktardığına göre “kara” sıfatı, “kara Türgiş”, “kara Uygur”, “kara Koyunlu”, “kara Hazar”, “kara Papak”, “kara Nogay” gibi etnonimlerde sıkça kullanılmıştır. Bu çiftli adlandırma sisteminde bir kol “ak”, diğeri “kara” olarak ayrılmış; bu durum kuzey-güney, doğu-batı yahut yüksek-alçak gibi karşıt yönlerin dildeki yansıması olmuştur.⁵

III. Karahanlı Döneminde Kara Kelimesinin Siyasal ve İdeolojik İşlevi

Karahanlı dönemi, “kara” kelimesinin yalnızca yönsele veya sembolik değil, siyasî bir anlam kazandığı dönemdir. Karahanlı unvanlarında “Kara Han” ve “Kara Hakan” ifadeleri sıkça geçer. Bu unvanlar, ya bir İslami ismin ardından

¹ L. P. Potapov, *Altay Şamanizmi*, Çev. Metin Ergun, Kömen Yay., Konya 2012, s. 122-123.

² Omeljan Pritsak, “Kara Türk Yön Sembolizmi Çalışması”, Çev. Elvin Yıldırım, *Genel Türk Tarihi Araştırmaları Dergisi*, C. 3, S. 6, s. 524.

³ Pritsak, *agm*, s. 527-528.

⁴ Pritsak, *agm*, s. 528.

⁵ Pritsak, *agm*, s. 522.

(“Ahmed Kara Han”, “Ömer Kara Hakan”) ya da bir ongunun tamamlayıcısı olarak (“Arslan Kara Hakan”, “Buğra Kara Han”, “Tafgaç Buğra Kara Hakan”) kullanılmıştır. Bazen “Kara Arslan”, “Tabgaç Kara Buğra Han” biçiminde sıfat öne alınmıştır. Ancak “Kara” kelimesinin hiçbir zaman tek başına bir unvan olmadığı, daimi olarak bir ad veya sembolü tamamlayan bir sıfat olarak yer aldığı görülmektedir.¹

Bu unvanların dizilişindeki esneklik, “kara”nın adla bütünleşen bir sıfat olduğunu gösterir. Aynı zamanda “kara”nın devlet teşkilatında sadece en yüksek hükümdar yani doğu kolunun başı, “Büyük Kağan” tarafından kullanıldığı bilinmektedir. “Kara” sıfatının yalnızca büyük veya orta kağanlar için geçerli olduğu ve bu durumun unvanın hiyerarşik bir belirleyici durumunda bulunduğunu göstermektedir. Klyashtorny ve Sultanov’un aktardığına göre Karahanlı iktidarı Karluk kabile federasyonuna dayanıyordu ve devlet iki kola ayrılmıştı: doğuda Çigil boyundan gelen Arslan Kara-kağan, batıda Yağma boyundan gelen Buğra Kara-kağan. Doğru kolu daha üstün sayılır, merkezi Balasagun’da bulunurdu. “Kara” sıfatı bu düzenin merkezi gücünü ve kutsiyetini temsil ediyordu.² Karahanlıların Batı kanadını teşkil eden Yağma boyu Divanü Lûgat-it Türk’te *Kara Yağma* olarak geçmektedir.³ Reşat Genç’in tespitine göre Kaşgarlı Mahmud’un “Kara Yağma” ifadesi, bu sıfatın Yağma boyuyla ilişkili olabileceğini düşündürmektedir. Böylece “Buğra Kara Han” unvanındaki “kara” yalnızca sembolik değil, etnik bir aidiyet göstergesi de olabilir.⁴ Saadettin Gömeç, “kara” kelimesinin anlamları arasında “kuvvet” ve “eskilik” niteliklerinin bulunduğunu, bu yüzden Karahanlı unvanlarındaki kullanımın sadece fiziksel renk değil, “köklülük” ve “büyüklük” göstergesi olarak değerlendirilmesi gerektiğini belirtir.⁵

Mervezi’nin aktardığı efsaneye göre, “Kara Han” unvanı ilk kez bir Türk hükümdarının siyahı bir köle tarafından öldürülmesi ve kölenin tahta geçmesiyle doğmuştur. Bu anlatı, “kara”nın renk anlamının ötesinde iktidarın dönüşümü ve halkın içinden çıkan bir figürün yükselişiyle ilişkilendirilmiştir. Efsanede “Kara Han” unvanının halkın arzuladığı adil hükümdarı sembolize ettiği belirtilir.⁶ Bu efsane, Karahanlılardaki “kara” sıfatının halkla, güçle ve meşruiyetle olan bağımlı simgesel biçimde yansıtır.

Karahanlılardan önce de Toharistan’ın Batı Türklerinin bir koluna bağlı Toharistan Yabgularından biri “Kara” unvanlı ya da isimli bir kişi olduğu görülmektedir. “Tanşu”da VIII asrın ikinci yarısında son Toharistan yabgularından

¹ Pritsak, agm, s. 520-521; Clauson, age, s. 643-644.

² S. G. Klyashtorny, T. İ. Sultanov, Kazakistan Türk’ün Üç Bin Yılı, Çev. Ahsen Batur, Selenge Yay., İstanbul 2013, s. 122-123.

³ Kaşgarlı Mahmud, Divanü Lûgat-it Türk, Çev. Besim Atalay, C. III, TDK, Ankara 1985, s. 34.

⁴ Reşat Genç, Karahanlı Devlet Teşkilatı, Kültür Bakanlığı Yay., İstanbul 1981, s. 135.

⁵ Saadettin Gömeç, “Kara Unvanı ve Kara Hanlıların Menşei”, History Studies, Volumes 2/2, 2010, s. 32.

⁶ Pritsak, agm, s. 521.

biri olan Şiliman Gelo (Süleyman Kara)'nın yardım istemek amacıyla Çin imparatoruna başvurduğu anlatılır. Bu olay, Toharistan'ın komşusu olan Kie-şe (Çieşi / Şuman) bölgesinde yaşayan barbar (Hu) halklarından **Tu-po (Tibetliler)**'in ülkeye saldırılarıyla ilgilidir. Bilindiği üzere, bu dönemde Toharistan yabgusunun egemenliği altındaki topraklar Tibet'e kadar uzanıyordu. Bu konuda Bîrûnî, Amuderya'nın yukarı kısımlarından Tibet'e kadar olan bölgelerin et-Türk olarak adlandırıldığını kaydeder. Meseleye dönecek olursak, sekizinci Tianbao yılı (749)'nda Şiliman Gelo Çin imparatoruna şu içerikte bir mektup gönderir: "Ülkemin yakınında Czesi / Şuman (Kie-si) denilen bir Hu devleti vardır. Yüksek dağlarda yerleşmiştir... Tu-polar (Tibetliler) onlarla ittifak kurmuş ve yardım etmektedir. Pu-lo (Gilgit) bölgesi büyük değildir; halkı çok, ekili arazisi azdır. Bu nedenle Keşmir'den tuz ve pirinç almak zorundadır. Ticaret kervanları gelip gitmek için Czesi topraklarını kullanır. Ancak bu bölgenin hükümdarı Tibetlilerin hediyelerini kabul etti ve ülkesinde Pu-lo'ya giden yolları kapatmak için bir Tibet kalesi inşa etmelerine izin verdi. Kao Çian-tsi Pu-lo'yu fethettikten beri orada üç binden fazla asker bulunuyor ve Pu-lo kuşatma tehdidi altındadır. Czesi hükümdarı Tibetlilerle iş birliği yaparak, onların Pu-lo korkusundan yararlanıp oraya asker sevk etti. Ben ise bütün gücümle bu insanları bir defada oradan sürüp çıkarmaya çalışıyorum. Eğer yolu açabilirsem, Büyük Pu-lo'yu ve doğudaki ülkeleri fethedebilir, doğrudan Hotan, Karaşar, Şa, Leang, Kua, Su ve diğer bölgelere ilerleyebilirim. Tibetliler artık oralara gitmeye cesaret edemezler. Ansi (Kuça) askerleri ve süvarilerinin Küçük Pu-lo'ya gelecek yılın beşinci ayında, Büyük Pu-lo'ya ise ancak altıncı ayında ulaşabileceklerini düşünüyorum. Bu önerime dikkat göstermenizi umuyorum. Eğer bu girişim başarısız olursa, yediye bölünmeyi kabul ederim. Ku-şe-mi hükümdarının Çin'e karşı sadık ve bağlı olduğunu, çok sayıda askeri ve süvarisi bulunduğunu, ülkesinin geniş, halkının kalabalık olduğunu göz önünde bulundurarak, imparatorluk iradesinin Keşmir hükümdarını cezalandırmak için ona bir ferman göndermesini; hediyeler yollamasını, böylece hükümdarın imparatorun yüce iradesi doğrultusunda hareket ederek sadakatini ve bağlılığını artıracığına inanıyorum."¹ Çin imparatoru bu sözleri beğenmiş ve mektubu kabul etmiştir. Bunun üzerine imparator, düşmana karşı savaşması için Toharistan yabgusuna askerî destek göndermiştir.

IV. Toplumsal Kullanımlar ve Edebî Yansımalar

"Kara" kelimesi yalnızca devlet unvanlarında değil, halk edebiyatı ve toplumsal dilde de önemli bir yer tutmaktadır. Bilge Kağan Yazıtı'nın doğu yüzü 8. Satırında "*türük kara kamag bodun*" yani *Türk (avam) halkı*²; 41. Satırında "*kara bodun kağanım kelti tep*" yani *Avam halkı "kağanım geldi deyip"*³ yer almaktadır. Uygur

¹ Малявкин А.Г. Танские хроники о государствах Центральной Азии: Тексты и исследования. – Новосибирск: Наука Сиб. Отд-е, 1989. – С. 242. ком. 496; Малявкин А.Г. Борьба Тибета с Танским государством за Кашгарию. – Новосибирск: Наука Сиб.Отд-е, 1992. Борьба Тибета с Танским государством... – С. 175.

² Erhan Aydın, Orhon Yazıtları, Bilge Kültür Sanat Yay., İstanbul 2019, s. 82

³ Aydın, age, s. 95

yazıtlarından Tariat Yazıtı'nın güney yüzü 4. Satırında; Şine Usu Yazıtı'nın kuzey yüzü 12. Satırda; Hoyto Tamır II Yazıtı'nın 3.satırında “*kara bodun*” yani *halk* ifadesi vardır.¹ Kutadgu Bilig’de “kara kul” (halk) ile “ak beg” (bey) karşıtlığı açık biçimde görülür. 2080. beyitte “Kara kul karası bolur, beg ak” ifadesiyle toplumun iki tabakası renklerle temsil edilir. 256. beyitte ise “elin itmiş ötrü bayumış kara” dizesi halkın refahını anlatır; “kara” burada halkın bizzat kendisidir.² Benzer biçimde Sibirya Tatarlarına ait olan İldan ile Güldan Destanı’nda da “kara halk” ve “kara kul” ifadeleri, sıradan halkı belirtir. Destanda halkın yaşadığı mütevazı ev “kara ev” olarak adlandırılır; bu, hem yoksulluğu hem de halk tabakasını temsil eder. Aynı destanda “Kabileniz kara olsa da düşünceniz kara olmasın” sözü, “kara”nın hem halk hem de kötü niyet anlamlarını aynı anda taşıdığını göstermektedir.³ Bu kullanımlar, “kara”nın yalnızca tarihsel değil, sosyokültürel bir kavram olduğunu da kanıtlar. Kutadgu Bilig ve İldan ile Güldan Destanı örneğinde görüldüğü soylular ve “kara halk” olmak üzere toplum iki sınıfa ayrılmıştır. Bu yapı, Karahanlı dönemi Türk toplumunda da karşılığı olan bir hiyerarşidir

V. Coğrafi Kullanımlar

“Kara” kelimesi Türkistan coğrafyasında yer adlarında da sıkça karşımıza çıkar. Pritsak’ın belirttiği üzere, genellikle kuzeyde yer alan şehirlerin çoğu “kara” sıfatını taşır: Kara Kum, Kara Hoço, Kara Kurum, Kara Balgasun gibi örnekler kuzeyle ilişkilendirilmiş kutsal merkezlerdir.⁴ Çin kaynaklarında “Kuzey Türkleri” olarak anılan bu halklar, “kara” sıfatını kült bir kimlik göstergesi olarak benimsemiştir. Ayrıca “Kara Komaniye”, “Kara Kıpçak”, “Kara Nogay” gibi coğrafi-etnik adlandırmalar, Türk renk sembolizminin geniş bir yelpazede sürdüğünü gösterir. İdrisi’nin Kıpçak sahasına dair kaydında “Kara Komaniye” ve “Ak Komaniye” ayrımı yapılır, bu da “kara”nın coğrafi yön (doğu-batı) ve siyasal bölünme göstergesi olarak kullanıldığını ortaya koyar.⁵

Sonuç.

Veriler açıkça göstermektedir ki “kara” kavramı Karahanlılar döneminde çok katmanlı bir anlama sahip olmuştur. Etimolojik olarak “siyah” anlamından yola çıkan bu kelime, zamanla “kuzey, güç, büyüklük, halk, köklülük” gibi anlamlara evrilmiştir. Kültürel düzeyde “kara”, Türklerin renk-yön sisteminde kuzeyi, dolayısıyla merkezi gücü temsil eder. Sosyolojik olarak “kara halk”, toplumun temelini oluşturan tabakadır. Siyasi düzeyde ise “Kara Han” unvanı, yalnızca en

¹ Erhan Aydın, Uygur Yazıtları, Bilge Kültür Sanat Yay., İstanbul 2018, s. 43, 54, s. 74

² Yusuf Has Hasib, Kutadgu Bilig, Çev. Yaşar Çağbayır, Ötüken Neşriyat, İstanbul 2019, s. 115, 213.

³ Yusuf Akbaba, Umut Yolsever, “Sibirya Türk Tarihine Dair Bir Kaynak: İldan ile Güldan Destanı”, SDÜ İnsan ve Toplum Bilimleri Dergisi, S. 61, 2024, s. 129, 135, 139.

⁴ Pritsak, agm, s. 526-527.

⁵ Onur Yıldız, Umut Yolsever, “Kuman-Kıpçak Şehirleri”, Türkistan’dan Türkiye’ye Türklerde Şehircilik. Ed. Mustafa Gökçe, Tuba Tombuloğlu, Berikan Yay., Ankara 2025, s. 269.

yüksek hükümdar için kullanılan bir meşruiyet sembolüdür. Muhtelif araştırmalarda da görüldüğü üzere bu unvan, kut ve kudret kavramlarıyla birleşmiş, hükümdarın Tanrı tarafından yetkilendirilen merkezi iktidarını ifade etmiştir. Dolayısıyla Karahanlılarda “kara” kelimesi, hem göğün altında kuzeyi, hem toplumun içinde halkı, hem de siyasi sistemde en yüksek kudreti simgeleyen bir anahtar kavram hâline gelmiştir. Bu kavramın tarihi derinliği, Türk düşüncesinde rengin yalnızca fiziksel değil, kozmolojik ve ideolojik bir gösterge olarak nasıl kökleştiğini açıkça ortaya koymaktadır.

Kaynakça

1. AKBABA, Yusuf, YOLSEVER, Umut, “Sibiryaya Türk Tarihine Dair Bir Kaynak: İldan ile Güldan Destanı”, *SDÜ İnsan ve Toplum Bilimleri Dergisi*, S. 61, 2024, s. 127-152.
2. AYDIN, Erhan, *Orhon Yazıtları*, Bilge Kültür Sanat Yay., İstanbul 2019.
3. AYDIN, Erhan, *Uygur Yazıtları*, Bilge Kültür Sanat Yay., İstanbul 2018.
4. CLAUSON, Gerar, *An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth-Century Turkish*, Oxford University Press, Oxford 1972.
5. GENÇ, Reşat, *Karahanlı Devlet Teşkilatı*, Kültür Bakanlığı Yay., İstanbul 1981.
6. GÖMEÇ, Saadettin, “Kara Unvanı ve Kara Hanlıların Menşei”, *History Studies*, Volume 2/2, 2010, s. 31-35
7. Kaşgarlı Mahmud, *Divanü Lûgat-it Türk*, Çev. Besim Atalay, C. III, TDK, Ankara 1985.
8. KLYASHTORNY, S. G., SULTANOV, T. İ., *Kazakistan Türk'ün Üç Bin Yılı*, Çev. Ahsen Batur, Selenge Yay., İstanbul 2013.
9. POTAPOV, L. P., *Altay Şamanizmi*, Çev. Metin Ergun, Kömen Yay., Konya 2012.
10. PRİTSAK, Omeljan, “Kara Türk Yön Sembolizmi Çalışması”, Çev. Elvin Yıldırım, *Genel Türk Tarihi Araştırmaları Dergisi*, C. 3, S. 6, s. 519-532.
11. YILDIZ, Onur, YOLSEVER, Umut, “Kuman-Kıpçak Şehirleri”, *Türkistan'dan Türkiye'ye Türklerde Şehircilik*. Ed. Mustafa Gökçe, Tuba Tombuloğlu, Berikan Yay., Ankara 2025, s. 257-290.
12. Yusuf Has Hasib, *Kutadgu Bilig*, Çev. Yaşar Çağbayır, Ötüken Neşriyat, İstanbul 2019.
13. Малявкин А.Г. Танские хроники о государствах Центральной Азии: Тексты и исследования. – Новосибирск: Наука Сиб. Отд-е, 1989. – 432 с.
14. Малявкин А.Г. Борьба Тибета с Танским государством за Кашгарию. – Новосибирск: Наука Сиб.Отд-е, 1992. – 288 с.

QORAXONIYLAR DAVRIDA MARKAZIY OSIYODA TASAVVUF AN'ANALARI VA TERMINLARINING SHAKLLANISHI VA RIVOJI

AVAZBEK VAXIDOV

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qoraxoniylar davrida Markaziy Osiyoda tasavvuf an'analari hamda terminlarining shakllanishi va rivojlanish jarayonlari tarixiy, adabiy hamda lingvistik nuqtai nazarlardan ko'rib chiqiladi. Xususan, bu davrda turkiy xalqlarning Islom diniga ommaviy o'tishi va uning ijtimoiy-siyosiy va madaniy jarayonlarga ta'siri, tasavvufning rivojlanishidagi o'rni tahlil qilinadi. Maqolada tasavvufning nazariy va amaliy yo'nalishlari, asosiy namoyandalari va ijtimoiy ahamiyati haqida fikrlar bildiriladi. Shuningdek, Qoraxoniylar davrida turkiy va fors-tojik tilida tasavvufiy atamalar shakllanishi, ularning ma'nosi va vazifalari yoritiladi. Maqolada Xoja Ahmad Yassaviy, Yusuf Hamadoni kabi mutasavviflar faoliyati haqida so'z boradi hamda mintaqadagi tasavvufiy adabiyotning rivojida ushbu davrning o'rni alohida ta'kidlanadi. Qoraxoniylar sulolasi davrining madaniy-tarixiy muhitning shakllanishida va Islom madaniyatining Markaziy Osiyoda tarqalishidagi muhim rolini ushbu tadqiqotda aniqlash mumkin. Maqolada, shuningdek, tasavvufiy adabiyot va undagi ma'naviy tafakkur yo'nalishlari qo'shni madaniyat va tillar bilan o'zaro ta'sirlari doirasida o'rganiladi. Bu tahlillar Markaziy Osiyo tasavvufiy an'analari tarixiy va islom tamoyillari asosida mustahkamlanishidagi ahamiyatini ko'rsatadi hamda zamonaviy adabiy va madaniy izlanishlarga asos bo'ladi.

Tayanch so'zlar: Qoraxoniylar, tasavvuf, tariqat, termin, turkiy zabon adabiyot, terminlar shakllanishi, terminlar vazifasi.

Аннотация. В данной статье исследуются процессы формирования и развития традиций и терминологии суфизма в Центральной Азии в период Караханидов с исторической, литературной и лингвистической точек зрения. В центре внимания находится массовая исламизация тюркских народов в указанную эпоху, её влияние на социо-политические и культурные процессы, а также её роль в развитии суфизма. В работе рассматриваются теоретические и практические аспекты суфизма, его основные представители и социальная значимость. Особое внимание уделяется формированию суфийской терминологии на тюркском и персидско-таджикском языках в период Караханидов, раскрывается семантика и функции данных терминов. Анализируется деятельность таких суфийских шейхов, как Ходжа Ахмад Яссави и Юсуф Хамадани, а также подчеркивается значение этого периода для становления суфийской литературы в регионе. В рамках исследования определяется важная роль эпохи Караханидов в формировании историко-культурной среды и распространении исламской цивилизации в Центральной Азии. Кроме того, суфийская литература и присущие ей направления духовной мысли изучаются в контексте их взаимодействия с соседними культурами и языками. Проведенный анализ демонстрирует значимость укрепления центральноазиатских суфийских традиций на основе тюркских и

исламских принципов, что может служить основой для современных литературных и культурных изысканий.

Опорные слова: Караханиды, суфизм, тарикат, термин, тюркозичная литература, формирование терминов, функции терминов.

Abstract: This article examines the historical, literary, and linguistic dimensions of the formation and development of Sufi traditions and their terminology in Central Asia during the Kara-Khanid period. Specifically, it analyzes the mass conversion of Turkic peoples to Islam during this era and its impact on socio-political and cultural processes, with a particular focus on the role this conversion played in the evolution of Sufism. The article presents a discourse on the theoretical and practical directions of Sufism, its principal exponents, and its social significance. Furthermore, it elucidates the formation of Sufi nomenclature in Turkic and Persian-Tajik languages, exploring their semantic content and functional roles. The work discusses the contributions of prominent Sufi figures such as Khoja Ahmad Yasawi and Yusuf Hamadani, placing special emphasis on the pivotal role of this period in the development of Sufi literature across the region. This research identifies the crucial function of the Kara-Khanid epoch in shaping a distinct cultural-historical milieu and in the dissemination of Islamic civilization within Central Asia. Moreover, the article investigates Sufi literature and its associated currents of spiritual thought within the framework of their reciprocal influences with adjacent cultures and languages. These analyses demonstrate the significance of the consolidation of Central Asian Sufi traditions upon a foundation of Turkic and Islamic principles, thereby establishing a basis for contemporary literary and cultural inquiry.

Key words: Karakhanids, Sufism, Tarikat, Term, Turkic-language literature, Formation of terms, Functions of terms.

Kirish: Markaziy Osiyoning X-XII asrlardagi tarixiy-madaniy, siyosiy va iqtisodiy jarayonlarida Qoraxoniylar sulolasi o'ziga xos o'rin tutadi. Bu sulola hukmronligi davrida turkiy xalqlarning islom diniga ommaviy ravishda o'tishi nafaqat dinning o'ziga, balki madaniyat, adabiyot va axloqiy-ruhiy hayotning barcha jabhalariga salmoqli ta'sir ko'rsatdi. Va islom tasavvufi mazkur jarayonlarning eng muhim komponenti maqomini egalladi. Tasavvuf nafaqat diniy amallar, balki ijtimoiy tartib, ma'naviy tarbiya va madaniy integratsiyaning kuchli vositasiga aylandi. Mazkur vositaning o'ziga xosliklarini tadqiq qilish alohida dolzarblikka ega.

Maqsad va vazifa: Ushbu maqolaning maqsadi – Qoraxoniylar davridagi Markaziy Osiyoda tasavvufiy an'analarning shakllanish jarayonini o'rganish va uning o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy asosda aniqlash. Hozirgi kunda aynan shunday qamrovda mavzu doirasida tadqiqotlar ko'p emas, uning ustiga biz ko'zlagan maqsad tarixiy, adabiy va lisoniy jihatlar uyg'unligida ilmiy izlanish o'tkazishdir. Zero Qoraxoniylar davridagi tasavvuf diniy, balki ijtimoiy va madaniy salohiyatni belgilab bergan muhim jarayon sifatida qaraladi. Shu bois Qoraxoniylar davridagi Markaziy Osiyoda tasavvuf an'analarning shakllanish bosqichlari, ularning asosiy yo'nalishlari, namoyandalari va ijtimoiy-madaniy

ahamiyatini hamda tasavvufiy terminologik qatlamning xususiyatlari O'zbekiston va xorijlik olimlarining mavzuga aloqador ishlari asosida tadqiq qilinadi.

Maqoladan ko'zlangan maqsadlarga yetish uchun quyidagilar asosiy vazifalar sifatida belgilanadi: 1.Qoraxoniylar davrida tasavvufning ijtimoiy va madaniy xususiyatlarini o'rganish; 2.Shu davrdagi yirik mutasavviflar va adiblarning ijodini tahlil qilish; 3.Asosiy tasavvufiy terminlarni ta'riflash va ularning turkiy tilda shakllanishi va rivojlanishini ko'rsatish; 4.Ilmiy va amaliy izlanishlar natijalarini baholab, ilmiy jamoatchilika taqdim etish

Usullar: Tadqiqotda tarixiy, adabiy, lingvistik va komparativ tahlil usullari qo'llanildi. Shuningdek, aloqador manbalarni tahlil etishda zamonaviy tadqiqotlar va ilmiy adabiyotlardan keng foydalanildi.

Natijalar va mulohaza: Tadqiqot natijasida Qoraxoniylar hukmronligidagi Markaziy Osiyoda tasavvuf an'analari shakllanishi va rivojining ikki bosqichi, tasavvuf terminologiyasini muomilaga kiritilishining uch bosqichi aniqlandi. Shuningdek, tasavvuf ta'limoti ta'sirida shakllangan tasavvufiy mazmundagi adabiyotning ikki asosiy yo'nalishi ajratildi. Markaziy Osiyoda tasavvufning rivojini tushunish uchun avval u shakllangan tarixiy-madaniy muhit haqida tasavvurga ega bo'lish lozim. Qoraxoniylar davrida Markaziy Osiyoda islom davlat diniga aylandi. Bu jarayon nafaqat islom dinini rasman davlat dini deb e'lon qilishning o'zi bilangina amalga oshgani yo'q, balki islom dinining mutlaq ustun maqomiga shahar madaniyatining rivojlanishi, mintaqa davlatlarining o'zaro savdo-iqtisodiy aloqalarining kengayishi va davlat va jamiyat boshqaruvida yangi ijtimoiy tuzilmalar shakllanishi orqali erishildi, deb aytish mumkin. O'zbekiston olimlari o'z tadqiqotlarida Qoraxoniylar davrini Markaziy Osiyo turkiy-islom madaniyatining «oltin asri» deb hisoblaydilar va tasavvufning shakllanishiga ushbu mintaqaning xos xususiyatlari ta'sirini alohida ta'kidlaydilar¹.

O'ziga xos xususiyatlarga ega Markaziy Osiyo tasavvufining shakllanishi ikki bosqichda amalga oshgan. Birinchi bosqichda, ya'ni X - XI asrlarda Xuroson-Mavarounnahr tasavvuf maktabi shakllandi. Bu maktab ta'limotining o'ziga xos xususiyati shariatga qat'iy rioya qilish talabiga so'zsiz bo'ysunish va zohidiylikni targ'ib qilish bilan birga ijtimoiy-siyosiy hayotda faol ishtirok etishni ham talab darajasiga ko'targanidir. Masalan, Al Qushayriyning «Risolai Qushayriya» asarida Najmiddin Kubro va boshqa mutasavviflarga bo'lgan davrlardagi tasavvufning asosiy xususiyatlari tavsif etiladi va Xuroson va Mavarounnahr shayxlarining mazkur mazmindagi qarashlari keltiriladi². Ikkinchi bosqich, ya'ni XI - XII asrlarni tasavvufning rivojlanish va uning tashkiliy tuzilmalari mustahkamlanishi davri, deb atash mumkin. Bu davrda tasavvuf tariqatlar shakliga kira boshladi. Ular orasida eng

¹ Bu haqida qarang: Комилов Н. Тасаввуф. – Т.: Ўзбекистон, 2009. – 448 б., 226-б., Рахимов К. Мовароуннахр тасаввуфи тарихи: таълимотнинг шаклланиши ва тизимлаштирилиши (VIII-XI асрлар). – Тошкент: Академнашр, 2020. – 203 б., 43-б.

² Кушайрий Абдулкарим. Ар-Рисала ал-Кушайрийя. Қоҳира: Дор аш-шаъб, 1989. – 633 с. 432-501 сс.

mashhuri Xoja Ahmad Yassaviy tomonidan asos solingan Yassaviya tariqati bo'lib, turkiy dunyodagi eng avvalgi va ta'sirchan tariqatlardan biri maqomini egalladi.

Qoraxoniylar davridagi tasavvuf, ayniqsa uning buyuk shaxsiyatlari faoliyati va ijodini xorijlik boshqa olimlar ham tadqiq qilishgan. Masalan, A.J.Arberri Abubakr Kalobodiyning «at-Taarruf li-mazhab ahli-t-tasavvuf» («Tasavvuf mazhabi ahliga kirish») asarini tasavvufning dastlabki va eng mukammal ilmiy qo'llanmasi sifatida tadqiq qilgan¹. A.T.Karaev Naqshbandiya tariqatining ruhiy asoschisi Xoja Abu Yaqub Yusuf al-Hamadoniyning asarlarini Xuroson-Mavarounnahr tasavvuf an'analari shakllanishining muhim manbasi sifatida o'rgangan. U Yassaviyning ta'limotida Hamadoniyning ta'sirini alohida ta'kidlaydi². M.F.Kyopryulyu Xoja Ahmad Yassaviyni turk tasavvuf adabiyotining ilk mutasavviflaridan biri deb, uning aynan Markaziy Osiyoga xos asoslarini chuqur tadqiq qiladi³. G'arb maktablarining yana bir tadqiqotchisi J.Pol Qoraxoniylar va Sulton Sandjar kabi hokimlar bilan mutasavvif shayxlar o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qiladi⁴.

O'zbekistonlik olim U. Uvatov «Valiylar ilmi» asoschisi Abuabdulloh Muhammad ibn Ali al-Hakim at-Termiziy asarlari, ayniqsa, «Xatmu-l-avliyo» («Valiylarning muhrlanishi») asarini tasavvufning nazariy merosi sifatida e'tirof etadi⁵.

Qoraxoniylar davridagi tasavvuf Markaziy Osiyoning o'ziga xos ijtimoiy-madaniy sharoitida shakllangan. Bu jarayonga Eron madaniyati hamda butun musulmon dunyosi sezilarli ta'siri o'tkazgan. Uning noyob va murakkab hodisa sifatida baholanishining boisi ham shunda. Bu davrdagi tasavvuf islom dinining turkiy va eroniy xalqlar madaniyatlari bilan uyg'unlashuviga vosita bo'ldi. Qoraxoniylar sulolasi hukmronlik qilgan IX-XII asrlar Markaziy Osiyoda islom dini, ayniqsa tasavvuf olami uchun fundamental o'zgarishlar ham bo'lgan davrdir. Bu davrda tasavvuf ma'naviy-axloqiy ta'limotdan yuqori darajada tizimlashtirilgan ijtimoiy-madaniy kuchga aylandi⁶. Tasavvuf quyidagi omillar ta'sirida nazariy va amaliy jihatdan shakllandi va rivoj yo'ligi kirdi:

¹ Арберри А. Дж. Суфизм. Мистики ислама. Серия: Фонд духовной культуры мира. – М.: Сфера, 2002. – 272 с., 98-101 с.

² Караев О. История Караханидского каганата (X - начало XIII вв.)- Фрунзе: Илим, 1983. – 301 с., 152-с.

³ Fuad Koprulu M. Turk Edebiyatıda ilk Mutasavvıfler. – Ankara: 1991. – 416 s., 117-s.

⁴ Paul, J. The State and the Sufi Orders in Mawarannahr. *Der Islam*, 75(1), 110-134pp.

⁵ Уватов У. Ал-Ҳаким ат-Термизий. – Т.: “Маънавият”, 2014. – 29 б.

⁶ Bu haqda qarang: Purjavodiy Nasrillo. Tasavvufdagi Eron merosi. Tehron: Sharq, 2000. – 308 б.(форс тилида), Арберри А. Дж. Суфизм. Мистики ислама. Серия: Фонд духовной культуры мира. – М.: Сфера, 2002. – 272 с., Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия / В. В. Бартольд. - Санкт-Петербург : тип. Имп. Акад. наук, 1898 - 1900. – 763с., Девин Ди Уис. Маша'их-и турк и Х'аджаган: переосмысление связей между суфийскими традициями Йасавайя и Накшбандийа / Суфизм в Центральной Азии. – М.: Наука, 2002. – 267 с., Караев О. История Караханидского каганата (X - начало XIII вв.)- Фрунзе: Илим, 1983. – 301 с.

1. Ijtimoiy-siyosiy: shaharlarning rivojlanishi, savdo yo‘llaridagi barqarorlik.
2. Madaniy: Arab, fors va turkiy madaniyatlarining o‘zaro ta’siri.
3. Diniy: Islomning yangi hududlarda tarqalishi va mahalliy an’analar bilan uyg‘unlashuvi.

Qoraxoniylar nafaqat o‘zlari uchun, balki keyingi davrlar uchun ham muhim mezonlarni qo‘ydilar. Qoraxoniylar saroyida arab va fors tillari bilan birga turkiy tili ham rasmiy maqomga ega bo‘ldi. Buni inqilobiy hodisa sifatida baholash mumkin.

Qoraxoniylar davridagi Markaziy Osiyoda tasavvuf tariqatlari keng tarqalish yo‘liga kirdi. Markaziy Osiyo tasavvufining «Oltin asr»ida nafaqat amaliy tasavvuf, balki uning nazariy asoslari shakllandi. Nazariy tasavvufning asoschilari va klassiklari tasavvufni tizimli fanga aylantirib, uning asosiy tushunchalarini (valiy, vahdat-ul-vujud) shakllantirdilar. Masalan, hayoti va faoliyati Qoraxoniylar davrining boshlanish davri bilan bog‘liq Al-Hakim at-Termiziy turli asarlari, jumladan «Xatmul-avliya» - «Valiylarning muhri» orqali «Valiylilik» (Al-Valaya) nazariyasini yaratib, Allohning do’sti (avliyo) bo‘lishning darajalari, sifatleri va ularning payg‘ambarlar bilan munosabatini tavsifladi. Bu tushuncha keyinchalik barcha tasavvuf yo‘nalishlari uchun asos bo‘ldi. Uning shu yo‘nalishdagi asarlari qatoriga «Az-Zuhd», «Bayonu-l-avliyo»larni kiritish mumkin¹.

Abubakr Muhammad Kalobodiyning hayot va faoliyati Buxoroda kechgan. Uning davrida ba’zi doiralarda tasavvufga qarshi qarashlar mavjud edi. Uning «At-Taarruf li mazhab ahli-t-tasavvuf» («Tasavvuf ahli mazhabiga kirish») nomli asarida tasavvufning asosiy tushunchalari, atamalari va amaliyoti birinchi marta hanafiy mazhabi nuqtai nazaridan tizimli bayon qilindi².

Abu Abdurrahmon Sulamiy Eronning Nishopurida yashab ijod qilgan bo‘lsada, ammo ilmiy aloqalari va sayohatlari uni Markaziy Osiyo bilan chambarchas bog‘lab qo‘ygan edi. Uning tasavvuf tarixi sifatida e’tirof etiladigan «Tabaqot us-sufiya» («So‘fiylar avlodlari») asarida o‘sha davrgacha bo‘lgan barcha mashhur so‘fiylarning tarjimai holi va ularning aqidalari jamlangan³.

Asosiy faoliyatini amaliy tasavvufga yo‘naltirgan mutasavviqlar esa nazariy cho‘qqilardan ko‘ra, tasavvufni oddiy xalq orasida sodda va tushunarli tilda targ‘ib qilish, ya’ni uning amaliy tomoniga alohida e’tibor qaratishgan. Yusuf Hamadoniyl Xuroson va Movarounnahrda (Xorazm va Buxoroda) yashab ijod qilgan va Markaziy Osiyoda tariqatlarning shakllanishida muhim o‘rin tutgan. Keyinchalik uning izdosh shogirdlari butun mintaqada tasavvufning tarqalishiga salmoqli hissa qo‘shdilar. Hamadoniylning asarlari ko‘p emas, ammo ular juda chuqur mazmunli bo‘lib, asosan amaliy ta’limot va risolalar shaklida taqdim etilgan. Eng mashhur asari «Rutbat ul hayot» (Hayot mezonida) tasavvufning asosiy tushunchalari – zohidlik, taqvo, ixlos, shayx-murid munosabati, zikr ahamiyati kabi mavzular

¹ Уватов У. Ал-Хаким ат-Термизий. – Т.: “Маънавият”, 2014. – 29 б.

² Калободий. Китоб ат-та’арруф би мазҳаб аҳл ат-тасаввуф / Мавлоқулова М. тарж. – Т.: Ғафур Ғулом, 2002. – 142 б

³ Кнышъ А. Д. Мусульманский мистицизм: Краткая история. – М.- С.-П.: Диля, 2004. – 464 с.

yoritilgan¹. Uning merosi u tarbiyalagan ulug' shogirdlari – Xoja Ahmad Yassaviy, Abdulkholiq G'ijduvoni va boshqalarning ishlarida davom etdi. Yassaviya tariqatining asoschisi Xoja Ahmad Yassaviy Qoraxoniylar davrida turkiy xalqlar orasida islomni targ'ib qilishda arab yoki fors tilidan emas, balki sodda turkiy tilidan («Qashg'ariy turkiy tili») foydalangan va targ'ibotlarini izdoshlari tomonidan to'plangan «Divoni Hikmat»i orqali tarqatgan. U Markaziy Osiyo va boshqa mintaqalarda keng tarqalgan².

Qoraxoniylar davridagi mutasavviflarning ahamiyati shundaki, ular nazariy tasavvuf (at-Tirmiziy, Kalobodiy, Qushayriy) bilan xalq uchun ochiq amaliy tasavvuf (Yassaviy, Hamadoni) o'rasida “oltin o'rtalik”, ya'ni bag'rikenglikni yaratishga muvaffaq bo'ldilar. Nazariy ta'limotchilar tasavvufni shar'iy asosga ega bo'lgan hur ilmiy intellektual an'anaga aylantirdilar. Amaliy ta'limotchilar esa bu yuqori ma'rifatni sodda, tushunarli va hayotiy shaklda xalq qatlamlariga yetkazish usullarini topdilar. Ana shu ikki yo'nalishning o'zaro ta'siri natijasida Markaziy Osiyoda kuchli va barqaror tasavvufiy an'ana shakllandi va tarixning og'ir sinovlardan matonat bilan o'tdi, o'z kuchini yo'qotmadi hamda keyinchalik butun turkiy dunyoga tarqaldi.

Alohida qayd etish o'rinliki, Qoraxoniylar davri Markaziy Osiyoda tasavvuf adabiyoti uchun ham samarali davr bo'ldi. Ushbu davrda tasavvuf nafaqat diniy-axloqiy ta'limot sifatida, balki adabiyot, san'at va ijtimoiy hayotning ajralmas qismiga aylandi. Qoraxoniylar davridagi tasavvuf adabiyoti haqida so'z borganda, albatta Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» («Bahodurlik bilimi») asarini qayd etish lozim³. Asar bayon tili turkiy (Qoraxoniylar davlatining davlat tili), janri davlat boshqaruvi, odob-axloq va hayot ta'limotiga oid doston («Pandnoma»). «Qutadg'u bilig» to'g'ridan-to'g'ri tasavvufiy asar emas. Bu, eng avvalo, dunyoviy davlat boshqaruvi va odob-axloq haqidagi kitobdir. Ammo u tasavvuf ta'limotiga birinchi navbatda quyidagilar bilan ta'sir ko'rsatgan:

1. Axloqiy tasavvufning poydevori: Tasavvufda «taxzib ul-axloq» (axloqni poklash) muhim o'rin tutadi. «Qutadg'u bilig»da aynan insonning shaxsiy fazilatlarini – adolat, donishmandlik, qanoat, iroda, sabr-toqat, nafsni tiyish etish kabi fazilatlarini alohida urg'ulanadi. Bu tasavvufdagi nafs tarbiyasi bilan to'g'ridan-to'g'ri mos keladi. Asarda bayon etilgan ideal inson – aqlli, odil, mudom o'zini zikr bilan (ya'ni, Alloh zikri bilan) band tutgan va xalqqa xizmat qiluvchi shaxs.

2. Dunyo va oxirat muvozanati: Asarda dunyoviy muvaffaqiyat (hokimlik) bilan oxirat najoti o'rtasidagi muvozanatni izlash targ'ib qilinadi. Hokim odil bo'lishi, ammo dunyoning vahshiyligidan ham ogoh bo'lishi kerak. Bu

¹ Хожа Юсуф Ҳамадоний. Ҳаёт мезони (Рутбат ул-хаёт). -Т.: —Янги аср авлоди, 2003 й., – 63 бет.

² Раҳимов К. Мовароуннахр тасаввуфи тарихи: таълимотнинг шаклланиши ва тизимлаштирилиши (VIII-XI асрлар). – Тошкент: Академнашр, 2020. – 203 б., 78-б.

³ Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадигу билиг. – Т.: Фан, 1990. – 78 б.

tasavvufdagi «zuhd» (dunyoni tarki etish emas, balki dunyoning ortiqcha hoyu havaslariga berilib qolmaslik) g'oyasiga yaqin turadi.

3. Ijtimoiy tasavvuf elementlari: Asarda hokimning xalqqa bo'lgan mas'uliyati, ilm-fanni qo'llash, mehnatning ulug'ligi targ'ib qilinadi. Bu naqshbandiya tariqatidagi «xalq ichida, Xudo bilan bo'lish» degan ta'limotga uyg'un keladi.

Haqiqiy tasavvuf adabiyotining shakllanishiga hissa qo'shgan eng muhim mutasavviflar sirasiga birinchi navbatda Xoja Ahmad Yassaviy kiritiladi. Xoja Ahmad Yassaviy o'z ta'limoti va asarlarida sodda, tushunarli turkiy tilini qo'llagan. Uning asosiy merosi - «Divoni Hikmat» («Hikmatlar devoni»)da Allohga ishq, nafsni poklash, taqvo, yaxshilik kabi mavzularni yoritilgan. «Hikmatlar» keyinchalik ham ko'p asrlar davomida Markaziy Osiyoda tasavvufiy adabiyotning namunasi bo'lib qoldi. Asar bayon tili turkiy (xalq og'zaki turkiy tili), janri tasavvufiy mazmundagi she'rlarda ifoda etilgan hikmatlar to'plami¹. «Divoni Hikmat» - bu to'g'ridan-to'g'ri, sodda va oson tilda ifoda etilgan tasavvufiy asardir. «Qutadg'u bilig»dan tubdan farq qilib, quyidagi xususiyatlarga ega:

1. Xalqona tasavvufning asosi: Ahmad Yassaviy bu asarda yuksak falsafani emas, balki sodda izohlar orqali amaliy tasavvufni oddiy odamlarga yetkazishni maqsad qilgan. U turkiy tilida ijod qilishi va xalq an'alariga yaqin bo'lishi bilan tasavvufni saroy adiblari doirasidan chiqarib, keng xalq ommasiga olib kirgan. Buning ta'siri keyingi tarixiy davrlarda juda keng va chuqur bo'ldi.

2. Ishq va muhabbat tasavvufi: Yassaviyning asosiy g'oyasi – Allohga bo'lgan ishq (muhabbat). U nafsni tiyish, zohidiy hayot tarzi, dunyoni tark etish va faqirlikni targ'ib qiladi. Uning hikmatlarida Allohga bo'lgan ishq, uning yo'lida chidam va toqat qilish va or-nomus haqida kuchli emotsional va irodaviy mazmun mavjud.

3. Murshid (o'qituvchi) va taqlid muhimligi: Asarda murshidga so'zsiz bo'ysunish, uning pand-nasihatlariga to'la-to'kis amal qilish ta'kidlanadi. Tariqat (so'fiy yo'li)dagi ustoz-shogird munosabatlari bu odobda markaziy o'rin tutishini ko'rsatadi.

4. Yassaviya tariqatining asosi: «Divoni Hikmat» nafaqat she'riy to'plam, balki yangi tasavvufiy yo'nalish – Yassaviya tariqatining asosiy o'quv qo'llanmasiga aylandi.

Demak, «Qutadg'u bilig» va «Divoni Hikmat» bir-birini to'ldiradi, takomilga yetkazadi. Birinchi asar tasavvufning axloqiy-ijtimoiy asoslarini yaratgan bo'lsa, ikkinchisi uning emotsional-e'tiqodiy va amaliy rivojlantiruvchi tomonini ifodaladi. Ikkalasi ham o'rta asr Markaziy Osiyo musulmon jamiyatining shakllanishida, shu jumladan tasavvufning xalq ommasi qalbiga joylanishida muhim rol o'ynagan.

¹Ахмад Яссавий. Девони хикмат (Махмуд Ҳасаний сўзбошиси билан). – Т.: Гафур Ғулом номидаги нашриёт, 1992, – 168 б.

Hakim Attor nafaqat soʻfiy, balki shoir, faylasuf va shifokor ham boʻlgan. Attor asosan fors-tojik tilida ijod qilgan. Uning asarlari chuqur falsafiy mazmun va taʼsirchan badiiy ifoda bilan ajralib turadi. Eng mashhur asarlari qatoriga masnaviy janridagi tasavvufiy «botiniy sayohat» - nafsning Allohga yoʻlini ramziy tarzda bayon qilgan «Mantiqut-tayr» («Qushlar tili») va islom avliyolarining hikoyat va afsonalari toʻplangan «Tazkirat-ul-avliya» («Avliyolar xotirasi») kabi asarlarni kiritish lozim: «Mantiqut-tayr» («Qushlar tili»)da qushlar guruhi Simurg qushini izlashga chiqadi, bu Allohni izlash ramzidir. Bu asar butun dunyo tasavvuf adabiyotining shedevri sifatida eʼtirof etiladi. «Tazkirat-ul-avliya» («Avliyolar xotirasi») asari avliyolar haqida yozilgan keyingi kitoblar uchun manba boʻlgan. Attorning ijodi keyingi buyuk shoirlar, jumladan, Jaloliddin Rumiy kabi allomalarga katta taʼsir koʻrsatgan¹.

Abdulxoliq Gʻijduvoni Naqshbandiya tariqatining rivojlanishida muhim bosqich boʻlgan «Xojagon» tariqatining peshvosidir. Gʻijduvoni nafaqat shoir, balki amaliy tasavvuf va zikr tartiblarini ishlab chiqqan ustoz boʻlgan. U «Hujja» deb nomlangan 8 ta asosiy tarbiya prinsipini ishlab chiqdi va ular keyinchalik Nakshbandiya tariqatining asosiga aylandi. Amaliy taʼlimotida oshkora zikr (zikri jaliy) oʻrniga maxfiy zikr (zikri xafiy) va dil bilan Allohni eslash ahamiyatini taʼkidlagan. U oʻz muridlariga ijtimoiy hayotda faol boʻlish, halol ishlash va odamlarga yordam qilishni tavsiya etgan. Uning taʼlimoti Bahouddin Nakshband tomonidan davom ettirildi va dunyoda eng keng tarqalgan soʻfiy tariqatlaridan biri - Nakshbandiya tariqati shakllandi².

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, Qoraxoniylar davridagi tasavvuf adabiyoti ikkita katta yoʻnalishda rivojlandi:

1. Turkiy tilidagi xalqona yoʻnalish: Sodda va tushunarli turkiy tilda keng xalq ommasiga qaratilgan adabiyot.

2. Fors-tojik tilidagi falsafiy-badiiy yoʻnalish: Chuqur falsafiy mazmun va yuksak badiiylik bilan ajralib turgan adabiyot.

Mazkur mutasavviflarning barchasi oʻz ijodi va taʼlimoti orqali nafaqat oʻz zamonlariga, balki keyingi avlodlarga muhim taʼsir koʻrsatib, Markaziy Osiyo madaniyati va diniy-maʼnaviy anʼalarining shakllanishiga muhim hissa qoʻshdilar.

Qoraxoniylar davridagi Markaziy Osiyoda tasavvuf terminologiyasining shakllanishi va rivojlanishi ham nihoyatda murakkab va serqirra tarixiy jarayon boʻlib, uni uchta asosiy bosqichda tahlil qilish mumkin.

Birinchi bosqich (IX-X asrlar): Bu bosqich arab tilidagi asosiy terminologiyaning qabul qilinishi bilan xarakterli va Markaziy Osiyoga Xuroson (Eron) va Bagʻdod maktablaridan tasavvufiy terminlarning kirib kelishi

¹ Бертельс Е.Э. Суфизм и суфийская литература: Избранные труды / Бертельс Е.Э., Отв. ред. А.Н.Болдырев, Сост. М.Н.О.Османов. – Москва: Наука, 1965. – 524 с., 346-348 сс.

² Комилов Н. Тасаввуф. – Т.: Ўзбекистон, 2009. – 448 б., 234-236 бб.

kuzatiladi. Masalan quyidagi asosiy terminlar va ularning mazmuniga e'tibor bering:

Tasavvuf - Sof bo'lish, so'fiy bo'lish; Zuhd - Dunyoviy hayotdan voz kechish; Ma'rifat - Xudoni bilish, irfoniy bilimlarni egallash; Vahdat-ul-vujud - Borliqning birligi; Zikr - Xudoni yod etish.

Ikkinchi bosqich (X-XI asrlar): Bu bosqichda fors tilidagi terminologiyaning kengayishi va fors tilining tasavvufning nazariy jihatdan rivojlanishida muhim o'rin tutgani kuzatiladi. Forsiy asosiy terminlar namunalari va ularning mazmuniga e'tibor bering:

Pir-murshid - Ustoz, yo'lbo'shchi; Darvish – dunyoviy narsalarga beparvo; Murid (Shogird) – o'z irodasini ustozga topshirgan kishi.

Uchinchi bosqich (XI-XII asrlar): Bu bosqichda tasavvufning turkiy tilidagi terminologiyasi shakllana boshlagan. Asosiy tasavvufiy terminlarning turkiy tilidagi shakllari va ularning mazmuniga e'tibor bering:

Ato - Pir, ustoz; Suyuu - Muhabbat, ishq.

Demak, Qoraxoniylar davrida Markaziy Osiyoda tasavvufiy terminologiyasining shakllanishi va rivojlanishiga quyidagi xususiyatlar xos, deyish mumkin:

1. Uch tillilik: Arab, fors va turkiy tillaridagi terminlarning hamzamon qo'llanishi va o'zaro ta'siri.

2. Nazariy va amaliy jihatdan takomillashishi: Terminlarning nazariy jihatdan chuqurlashishi va amaliy jihatdan kengayishi.

3. Mahalliyashtirish: Terminlarning mahalliy madaniyat va an'analarga moslashtirilishi.

Bu xususiyatlar keyinchalik nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun musulmon dunyosidagi tasavvufning rivojlanishiga ham katta ta'sir ko'rsatdi.

Markaziy Osiyoda tasavvuf terminologiyasining shakllanishi va rivojlanishi jarayonini Xoja Ahmad Yassaviy va Yusuf Hamadoniylar asarlarida qo'llangan tasavvuf terminlari misolida ham ko'rish mumkin.

Hamadoniylar o'z ta'limotini asosan arab va forsiy tillarida olib borgan. Uning hissasi yangi terminlarni yaratishda emas, balki mavjud nazariy-amaliy tushunchalarni (asosan Xuroson va Bag'dod maktablaridan olib) Markaziy Osiyo sharoitida chuqurlashtirish, tadqiq etish bo'lgan. U alohida ahamiyat bergan tushunchalar:

1. Xalvat va Jalvat: Yaqinlikda ibodat qilish (xalvat) va jamiyat ichida ishonch bilan yashash (jalvat) o'rtasidagi muvozanat.

2. Suhbat (Sheva): Pir va murid o'rtasidagi ma'naviy suhbatning ahamiyati.

3. Rabotat-uz-Zikr: Diqqat va zikr orqali Olloh bilan doimiy aloqani saqlash.

4. Silsila: Ta'limotning ustozlar zanjiri orqali saqlanib qolishining zarurligi.

Hamadoniylarning shogirdlari (Abdulxoliq Gijduvoniylar) orqali Naqshbandiya tariqatiga kirgan amaliy terminlar:

1. Zikr-i Xuftiy (Maxfiy zikr): Qalbdagi, ya'ni ovoz chiqarmay zikr qilish.

2. Bozgasht: Zikr paytida «Alloh» deyish bilan birga yurakning o'ng tomoniga «hu» deyish.

Yassaviy esa turkiy tilidagi tasavvuf terminologiyasining assoschisi sifatida e'tirof etiladi. U arab va fors tillaridagi murakkab nazariy tushunchalarni sodda turkiy so'zlar va ifodalar orqali tushuntirishga intilgan. «Hikmat»larda keng qo'llangan Yassaviy terminologiyasiga misollar:

Arab-fors terminlarining sodda turkiycha moslamalari:

1. Zikr (arabcha) → Yod yoki Yodga oluv
2. Pir/Murshid (forscha) → Ato
3. Murid (Arabcha) → Qul, Yosh yigit

Bundan tashqari, Yassaviy «Dard» (g'am, ishq azobi), «Suyuu» (muhabbat) kabi so'zlarga chuqur tasavvufiy ma'no berdi. U o'z ta'limotida ulug'lov va hurmat ramzi bo'lgan «Hazrati Sulton» (Sulton – Alloh) kabi iborani keng qo'llagan. Yassaviy Hamadoniydan farqli ravishda tasavvufni yuqori tabaqa uchun emas, balki oddiy xalq uchun ochiq va tushunarli qildi. Buni turkiy tilidagi so'z va tushunchalarni keng qo'llashi, turkiy tilida yangi terminlarni iste'molga kiritishi orqali ta'minladi.

Xulosa. Qoraxoniylar davri Markaziy Osiyo tasavvuf an'alarining shakllanishi va rivoji uchun fundamental ahamiyatga ega davr bo'ldi. Bu jarayon Xuroson-Mavarounnahr maktabining shakllanishi, nazariy va amaliy ta'limot shayxlarning faoliyati bilan tavsiflanadi. Tasavvuf nafaqat diniy-ma'naviy, balki kuchli ijtimoiy-madaniy institut sifatida musulmon jamiyatining kamoloti va barqarorligiga xizmat qildi. Aynan Markaziy Osiyoga xos xususiyatlarni o'zida jamlagan tasavvuf adabiyoti shakllandi. Ham nazariy va ham amaliy ta'limotlarda keng qo'llanuvchi, sodda, tushunish oson bo'lgan tasavvuf terminlari iste'molga kiritildi. Umuman olganda, ushbu davrda shakllangan tasavvufiy meros nafaqat o'zbek, balki barcha turkiy xalqlarning ma'naviy-madaniy identikligining ajralmas qismiga aylandi.

Maqolaning kirish qismida qo'yilgan savollarga javoblar sifatida shunday xulosa chiqarildi:

1. Qoroxoniylar davridagi Markaziy Osiyoda tasavvuf ijtimoiy-madaniy fenomen sifatida shakllandi.
2. Tasavvufning ham nazariy asoslari va ham amaliy qo'llanishi usullari yaratildi.
3. Markaziy Osiyoga xos xususiyatlarni o'zida jamlagan tasavvuf adabiyoti shakllandi.
4. Tasavvufiy terminologiya ushbu davrda uch tilda (arab, fors, turkiy) mukammallashdi va mahalliy talablarga muvofiqlashtirildi.

“TAZKIRAYI BUG‘RAXON” MANBASIDA QORAXONIYLAR SULOLASI VA IDEOLOGIK AXBOROT

SARVINOZ KASIMOVA

*O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar
universiteti dotsenti, PhD*

Annotatsiya. Mazkur maqolada Qoraxoniylar davlati tarixini, uning ijtimoiy-ma’naviy hayotidagi o‘ziga xos o‘rin va ideologik jarayonlarni yoritishda Mullo Xojining “Tazkirayi Bug‘raxon” (qo‘lyozma №1818/II) asari asosida tahliliy tadqiqot olib borilgan. Tadqiqotda asarning tarixiy-biografik mazmuni, islom dini qabul qilingan davrdagi axborot tarqatishning dastlabki shakllari va ularning protolojurnalistik ahamiyati ochib beriladi. Muallif Satug Bog‘raxonning islomni qabul qilishi, davlat boshqaruvining islomlashuvi va diniy-ma’naviy qadriyatlarning mustahkamlanishida bu jarayonning tutgan o‘rnini ilmiy asoslar bilan tahlil qilgan. Asar tilining chig‘atoy–uyg‘ur turkiy tili asosida yozilganligi, unda arabcha va forschani diniy-ilmiy terminlarning qo‘llanilishi, hamda matnning xalq ongiga yo‘naltirilgan uslubda yaratilgani qayd etiladi. Maqolada “Tazkirayi Bug‘raxon” manbasi o‘z davrida ommaga axborot yetkazish, tarixiy shaxslarni ideallashtirish va davlat mafkurasini mustahkamlash vositasi sifatida baholangan. Shuningdek, bu manbaning bugungi jurnalistikadagi portret, ocherk va xronika janrlariga yaqinligi ilmiy dalillar bilan asoslangan. Tadqiqot Markaziy Osiyo protolojurnalistikasi tarixini o‘rganishda yangi yondashuvni taklif etadi.

Tayanch tushunchalar: Tazkirayi Bug‘raxon, Qoraxoniylar sulolasi, Satug Bog‘raxon (Abdulkarim), islomlashuv jarayoni, protolojurnalistika, ideologik axborot, Mullo Xoji qo‘lyozmasi, biografik janr, islomiy davlat mafkurasi, Markaziy Osiyo axborot tarixi

Аннотация. В статье проводится анализ исторического, биографического и идеологического значения произведения Мулло Хожжи «Тазкирайи Буграхон» (рукопись №1818/II), рассматриваемого как важный источник для изучения ранних форм исламской коммуникации и протожурналистики в Центральной Азии. Автор исследует процесс исламизации караханидского государства и его влияние на формирование идеологических и информационных механизмов. Особое внимание уделено образу Сатук Бограхана — первого мусульманского правителя тюрок, чья биография стала инструментом морально-религиозной пропаганды и формирования общественного мнения. Лингвистический анализ показывает, что рукопись написана на чагатайско-уйгурском тюркском языке с использованием арабских и персидских религиозно-научных терминов, что отражает духовно-интеллектуальную атмосферу эпохи. Автор доказывает, что «Тазкирайи Буграхон» выполняла не только историко-документальную, но и информационно-воспитательную функцию, близкую к современным жанрам портрета, очерка и хроники. Работа вносит вклад в изучение истории протожурналистики и междисциплинарного подхода к средневековой информационной культуре Центральной Азии.

Ключевые понятия: Тазкирайи Буграхон, Караханидская династия, Сатук Бограхан (Абдулкарим), Процесс исламизации, Протожурналистика, Идеоло-

гическая информация, Рукопись Мулло Хожии, Биографический жанр, Исламская государственная идеология, История информации Центральной Азии.

Annotation. This article analyzes the historical, biographical, and ideological significance of “Tazkirayi Bug‘raxon” (manuscript No. 1818/II) by Mullo Xoji, focusing on its role in shaping early Islamic communication and proto-journalistic traditions in Central Asia. The study explores how the process of adopting Islam during the Qarakhanid period contributed to the formation of an information system that combined religious, political, and educational purposes. The author emphasizes the portrayal of Satuk Bug‘ra Khan as the first Turkic Muslim ruler and examines how his biography served as a medium for ideological influence and social integration. Linguistic analysis highlights that the manuscript was written in Chagatai–Uyghur Turkic, enriched with Arabic and Persian scholarly and religious terms, reflecting the intellectual environment of its era. The article argues that “Tazkirayi Bug‘raxon” not only documented historical facts but also fulfilled an informational and moral function similar to that of modern media genres such as portraits, essays, and chronicles. The research introduces an interdisciplinary perspective linking history, philology, and media studies, contributing to the reconstruction of proto-journalism in medieval Central Asia.

Key Terms: Tazkirayi Bug‘raxon, Qarakhanid Dynasty, Satuk Bugra Khan (Abdulkarim), Process of Islamization, Proto-journalism, Ideological Information, Mullo Xoji Manuscript, Biographical Genre, Islamic State Ideology, History of Information in Central Asia.

Jurnalistika davlat va jamiyat tuzilmalari o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rnatishga yordam beruvchi asosiy bo‘g‘inlardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Bu esa unga o‘ziga xos ta’sir “kuch”ini ato etadi, zero, zamonaviy jurnalistikaning vazifalari demokratiya va bozor munosabatlarga asoslangan fuqarolik jamiyati talablariga javob beradigan ijtimoiy-psixologik fazilatlar, qarashlar va e’tiqodlarni tarbiyalash maqsadida jamoatchilik fikrini shakllantirish va rivojlantirish, bu e’tiqodlarni moddiy va ma’naviy hayotda amaliy natijalarga aylantirishdan iboratdir. Bu, jurnalistikaning “to‘rtinchi hokimiyat” ekanligi, uning “kuch” vakolatining ko‘lami haqida ma’lum savollarni tug‘diradi. “Hokimiyat” tushunchasi bir subyektning boshqa bir subyekt ustidan hokimiyatining (munosabatlarda hukmronlik) namoyon bo‘lishi sifatida turli ta’sir vositalari: egalik qilish, buyruq berish, boshqarish, tartibga solish, ta’sir qilish, bosim, nazorat qilish va hokazolar orqali ochib beriladi. Hokimiyatning namoyon bo‘lishi siyosiy, iqtisodiy, mafkuraviy, harbiy va hatto kundalik sohalarda ham amalga oshirilishi mumkin. Biroq, an’anaviy ravishda biz “hokimiyat tarmoqlari” deb ataladigan - qonun chiqaruvchi (“birinchi hokimiyat”), ijro etuvchi (“ikkinchi hokimiyat”) va sud (“uchinchi hokimiyat”) bilan shug‘ullanamiz. Jurnalistika kuchli axborot ta’siri o‘tkazib, “ta’sir” zanjirining navbatdagi ustun bo‘g‘iniga aylanadi, bu holat uni “to‘rtinchi hokimiyat” deb hisoblash imkonini beradi. Jurnalistikaning vujudga kelishi va shakllanishi XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning birinchi yarmiga to‘g‘ri keladi. Ammo o‘tmish zamonlarda ham buyuk davlatlarning muvaffaqiyatini ta’minlashga xizmat qilgan, ommaviy

axborot vositalari o'rnini bosuvchi ilk jurnalistika – protojurnalistika namunalari deya nomlash mumkin bo'lgan muhim manbalar mavjud bo'lib, ularning maqsad va vazifalari, tuzilishi, til xususiyatlarini o'rganish katta ahamiyat kasb etadi. Shu bois mazkur tadqiqot uchun tanlangan, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan, O'zbek davlatchiligi tarixida muhim o'rin egallagan Qoraxoniylar sulolasi haqida ma'lumot beruvchi Mullo Xojining "Tazkirayi Bug'raxon" qo'lyozmasini (№1818/II) X-XI asrlarda siyosiy-ijtimoiy axborot yetkazuvchi protojurnalistik manba sifatida o'rganish alohida diqqatga sazovordir.

O'rta Osiyo tarixida Qoraxoniylar davlati turkiy siyosiy tashkilotlarning rivojlanishi, madaniy va iqtisodiy taraqqiyoti, shuningdek, mintaqada yangi turkiy davlatlar va imperiyalar uchun mustahkam poydevor yaratgan davlat sifatida ajralib turadi. X-XI asrlarda turkiy xalqlar, xususan, Qoraxoniylar o'z siyosiy va madaniy ta'sirini ko'plab mintaqalarga yoyib, Islom dunyosining muhim qismiga aylangan. Bu davrda turkiylarning hukmronligi nafaqat O'rta Osiyo, balki Sharqiy Eron, Afg'oniston, Hindiston va hatto Kichik Osiyo hududlarida ham sezilarli ta'sir o'tkazgan. Qoraxoniylar davlati tarixiy jihatdan o'zining siyosiy va madaniy yuksalishi, iqtisodiy rivojlanishi bilan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Qoraxoniylarning hukmronligi ostida, O'rta Osiyoda turkiy til va madaniyatning keng tarqalishi, islom dinining qo'llab-quvvatlanishi, savdo yo'llarining rivojlanishi, shuningdek, shahar va qishloqlarda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikning ta'minlanishi kuzatilgan. Qoraxoniylar, shuningdek, turkiy xalqlarning siyosiy va ijtimoiy tuzilmasining shakllanishida muhim rol o'ynaganlar¹.

Qoraxoniylar davrida islom dinini rasmiy qabul qilinishi, davlat boshqaruvining islomlashuvi va diniy-ma'naviy qadriyatlarning mustahkamlanishi bilan birga, jamoat fikriga ta'sir ko'rsatishni maqsad qilgan yozma manbalar yozilgan. X-XI asrlarda yozilgan tarixiy risolalar, manoqiblar, tazkiralar va madhiyalar hukmdorlarning hayoti, faoliyati, yurishlari va janglari, hukmdorlarning fazilatlari, taxtni egallashi, davlatni kuchaytirishi uchun qilgan amallari, adolatli davlat boshqaruvi kabilarning tasvirlanishini ommaviy axborot tarqatishning ibtidoiy shakli sifatida baholashimiz mumkin.

Mavorounnahr tarixida IX-X asrlar tub burilish davri bo'lib, bu davrda siyosiy hokimiyat bilan bir qatorda diniy-ma'naviy hayot ham yangi bosqichga ko'tarilgan. Arab fathlari orqali kirib kelgan islom dastlab Buxoro, Samarqand va Xorazmda jamoalar shaklida rivojlangan². O'rta asr tarixchilari va sayohatchilari bu davrda O'rta Osiyoda xo'jalik va savdo rivojlanganligi, shaharlar qurilganligi,

¹ Duturaeva D. "Qarakhanid Envoys to Song China", Journal of Asian History 52(2), 2018.DOI: 10.13173/jasiahist.52.2.0179

https://jah.harrassowitz-library.com/article/JAH/2018/2/2?_locale=en

² B. Mir-Makhamad et al. "Qarakhanids on the Edge of the Bukhara Oasis: Archaeobotany of Medieval Paykend", Economic Botany 75, 2021.

<https://link.springer.com/article/10.1007/s12231-021-09531-6>

fan va madaniyat gullab-yashnaganligi haqida ma'lumotlar qoldirgan¹. Ammo keng ko'lamda davlat darajasida qabul qilinishi Qoraxoniylar sulolasi asoschisi Sotuq Bog'raxon (Abdulkarim) nomi bilan bog'liqdir. Qoraxoniylar davlatining asoschisi haqida tarixiy haqiqatlarga asoslangan asarlardan biri Mulla Xojining "Tazkirayi Bug'raxon" asari hisoblanadi.

E.M.Molotova'ning yozishicha², bugungi kunda "Tazkirayi Bug'raxon" qo'lyozmasining 20 ta nusxasi mavjud. Bu asarning ikki tilda – turkiy tilda va forsiy tilda yozilgan variantlari aniqlangan. Mazkur qo'lyozmalar Rossiya (Sankt-Peterburg), Buyuk Britaniya (Oksford, Londone), Fransiya (Parij), Xitoy xalq respublikasi (Koshg'ar), Polsha (Vroslav), O'zbekistan (Toshkent), Tojikiston (Dushanbe) kutubxonalarida saqlanmoqda. Shuningdek, E.Molotovanning ta'kidlashicha, mazkur 20 ta qo'lyozmalarning 19tasining muallifi noma'lum bo'lib, faqat Toshkentda saqlanayotgan nusxasining muallifi Mulla Xoji ekanligi qayd etilgan³. Yirik sharqshunos olim V.Bartold birinchilardan bo'lib mazkur manbaga diqqat qaratgan, biroq uning fikriga qaraganda, mazkur asar afsona xarakteriga ega tarzda yozilgan⁴. D.I. Tixonov ushbu qo'lyozmani tarixiy haqiqatlarga asoslangan asar sifatida baholagan. Xususan, "X-XIV asrlarda Uyg'ur davlatining ijtimoiy tuzilmasi va xalq xo'jaligi asarida Xo'tan va Qoshg'arda hukm surgan Qoraxoniylarning harbiy yurishlari haqida ma'lumot bergan⁵. Umuman olganda, "Tazkirayi Bug'raxon" manbasining tadqiqi masalasiga e'tibor qilsak, uning tarixiy manba sifatidagi qiymati tahlil etilganligi ma'lum bo'ladi. Biroq, bu asarning o'z davrida jamiyat ijtimoiy va ideologik qarashlarini shakllantiruvchi va ommaga ta'sir etuvchi protojurnalistik manba sifatidagi o'ziga xos xususiyatlari o'rganilmagan.

"Tazkirayi Bug'raxon" manbasining yozilish davri haqida ham turli qarashlar bor. V.P. Yudin XVI asrdagi Sharqiy Turkistondagi tarixiy jarayonlarni tahlil etar ekan, bu manbaning XVI asrning ikkinchi yarmida yozilgan deb taxmin qiladi⁶. J.Baldik asarning XV asr oxirida yozilganligi haqidagi gipotezani ilgari suradi. D.Devinning fikricha, J.Baldik manbaning ichida keltirilgan yagona sanaga qarab shunday xulosaga kelgan. Bu, asarning kirish qismida 1706-yildir. Aynan shu

¹ Камолиддин Ш. С. Новые данные к истории тюрко-арабских этнокультурных взаимосвязей // International Journal of Central Asian Studies, vol. 9. Seoul, 2004, p. 299 – 311.

² Молотов Э.М. «Таз:кира-йи Богра-хан» :как источник по истории народов Центральной Азии// ИЗВЕСТИЯ НАН РК. Серия общественных наук. 2008. № 2. С.22.

³ Молотов Э.М. «Таз:кира-йи Богра-хан» :как источник по истории народов Центральной Азии. С.24.

⁴ Бартольд В. Статьи из «Энциклопедии ислама»// Сочинения. М., 1964, Т.II, Ч.2, с. 506.

⁵ Тихонов Д.И. Хозяйство и общественный строй Уй-гурского государства X-XIV вв. М.-Л., 1966, с.222.

⁶ Юдин В.П. Анонимная тюркоязычное сочинение второй половины XVI в. из Восточного Туркестана «Таз-кира-йи Ходжа Мухаммад-Шариф» // Вопросы истории и культуры уйгуров .А., 1987, се. 4-40, с. 4 .

davrda asarning turkiy tilga tarjimasi yakunlangan¹. N.Mikluxo-Maklayning tadqiqotida mazkur asardagi yozishmalar sanasi (1207 /1792 yillar) uning yozilish sanasi deb ko'rsatilgan². A.M.Muginov ham qo'lyozmalardagi sanalarga qarab ularning yozilish vaqtini belgilaydi. Olimning fikricha, ikki qo'lyozma XVIII asrda qayta ko'chirilgan, 11 ta qo'lyozma XIX asrda, hattoki, qo'lyozmalarning biri XX asrda qayta ko'chirilgan³. Qoshg'arda saqlanayotgan asari nusxasi hijriy1245/ melodiy1830 yilda yozilgani qayd etiladi⁴. Shu bilan birga, asarning qaysi tilda yozilgani haqida ham aniq bir fikr yo'q. Ba'zi olimlarning asarning avval forscha yozilib, so'ngra turkiy tilga tarjima qilinganini aytishadi, boshqa olimlar, aksincha, manbaning turkiycha ijod qilinganini, keyinchalik forschaga o'girilganligini iddao etishadi.

Tadqiqotimiz ob'ekti bo'lgan qo'lyozma muallifi Mulla Xojining ta'kidlashicha, "Tazkirayi Bug'raxon" undan avvalgi yozilgan tazkiralarga asoslangan hamda Bug'raxonning hayoti va faoliyati haqidagi tarixiy manbalardan ham ma'lumotlar olgan. Shu bilan birga, Mulla Xoji Bug'raxon sulolasi haqidagi hikoyalardan ham foydalanganini yozadi. Bu borada Mulla Xoji hikoyalarning "ishonchli" manbalardan olinganini qayd etadi. Muallifning ma'lumotlarni manbalardan to'plashi va qayta ishlab taqdim etishi bu asarning yaratilishida axborotni tanlash, tahrirlash va tizimlashtirish jarayonini tatbiq etganini ko'rsatadi. Aytib o'tish kerakki, ko'plab sharqshunos olimlar hikoyalar, rivoyatlar va afsonalarning tarixiy haqiqatga asoslangan holda paydo bo'lganligini e'tirof etishadi. Qo'lyozma, ehtimol, XIX asr boshlarida qayta nusxalangan bo'lib, u 26 varaqdan iborat (65a–90b). Mazkur tazkira tili chig'atoy–uyg'ur turkiy tilida yozilgan bo'lib, ichida arabcha va forsiy diniy-ilmiy atamalar ko'p uchraydi. Asarning boshlang'ich va oxirgi qismlari saqlanmagan. Shuningdek, qo'lyozma oxirida Sotuq Bog'raxon va boshqa uch hukmdor sharafiga bag'ishlangan madhya mavjud bo'lgan, lekin uning ham oxiri to'liq emas.

Qo'lyozmalar institutida saqlanayotgan "Tazkirayi Bug'raxon" asari 4 qismdan iboratdir. Kirish qismida Satuq Bug'raxonga islom dinini qabul qilishni taklif etgan Abu Nasr Somoniyning faoliyati, uning Qoshg'arga safari va Satuq Bug'raxon bilan uchrashuvi anglatilgan. Ikki bo'lim Satuq Bug'raxonning hayoti va faoliyati, uning davomchilari, sulton Satuq Bug'raxon bilan Islom dinining qabul qilinishida yordam bergan so'fiy shayxlar haqidagi ma'lumotlarni qamrab olgan. Asar so'ngida xulosa ham berilgan.

¹ Devin De Weese. The Tadhkira- Bugra-khan and the Uvaysi" Sufis of Central Asia: notes in Review of Imaginary Mustims// Centrat Asiatic Journal, Harrassowitz Verlag, 40 (1996), pp.87-127, p. 94.

² Миклухо-Маклай Н.Д. Описание таджикских и персидских рукописей. М., 1961, вып. № 2, с. 125.

³ Мугинов А.М. Описание уйгурских рукописей Ин-ститута народов Азии. М., 1962, с. 61.

⁴ Молотов Э.М. «Таз:кира-йи Богра-хан» :как источник по истории народов Центральной Азии. С.26.

“Tazkirayi Bug‘raxon” tazkirasining til xususiyatlarini, tuzilishini o‘rganish, xususan, asar muallifning ishonchli manbalarga tayanganligi uning O‘rta Osiyo tarixining oltin davri hisoblangan Qoraxoniylar davri haqidagi ob‘ektiv ma‘lumotni keng ommaga yetkazishni maqsad qilganligini ko‘rsatadi. Ma‘lumki, odatda qadimda va O‘rta asarlarda mualliflar bir asarni yozar ekan, biror hukmdorga bag‘ishlab yozganligini qayd etadi. Bundan asarlarda ob‘ektivlik emas, balki sub‘ektivlik ustun qilishi tabiiy hol. Biroq Mulla Xojining mazkur tazkirasining o‘zidan avvalgi tazkiralar, tarixiy va ishonchli manbalardan foydalanilganligi muallifning Satuq Bug‘raxonning hayoti, faoliyati, tarixdagi o‘rnini yaqqol ko‘rsatib berish istagini dalillaydi. Shuningdek, mazkur qo‘lyozmaning 20 nusxasining mavjudligi, ularning turli asrlarda ko‘chirilganligi, manba nusxalarining dunyoning turli burchaklaridagi kutubxonalarda saqlanayotganligi bugungi jurnalistikaning axborot tarqatish vazifasini ado etganinini ifoda etadi.

“Tazkirayi Bug‘raxon” manbasida yozilishicha, Abu Nasr Somoniy Sulton Satuq Bug‘raxonning rahnamosi bo‘lishi Alloh tomonidan belgilangan. Abu Nasr Somoniy savdogarlik bilan shug‘ullangan va turli shaharlarga sayohat qilgan. U safarga chiqishdan avval non va oziq-ovqat hayriya qilgan. Bir kuni safardan avval u tush ko‘rgan, safarga chiqmay turishi kerakligi haqida xabar olgan. Olti yildan keyin Abu Nasr Somoniy tush ko‘radi, tushida Muhammad alayhissalom (s.a.v) dan Turkiston hududiga safar qilishi kerakligi, Qoraxoniylar shahzodasini topishi zarurligi haqida xabar oladi. Bu safardan maqsad bo‘lajak sultonga Qur‘onni o‘rgatish bo‘lgan. Shu tariqa, Sulton Satuq Bug‘raxonning Islom tomonidan dinini qabul qilishi va turkiy xalqni musulmon qilish taqdiriga yozilgan bo‘lgan. Mazkur voqeaning tasvirida ortiqcha badiiylik va so‘z bezaklari qo‘llanilmaganligi e‘tiborni jalb etadi. Mulla Xoji haqiqatda ham Sulton Satuq Bug‘raxonning Alloh yorlaqan buyuk shaxs ekanligi, turkiy xalqni islomlashuviga sababchi bo‘lganligi, o‘z faoliyati davomida Qoraxoniylar davlatini tashkil etganligini anglatar ekan, o‘zbek davlatchiligidan oltin davri asoschisi haqida tasavvur hosil qiladiki, bu tarzda maqolalar va ruknlar bugungi gazeta hamda jurnallarning muhim yo‘nalishlarini tashkil etadi. Shuningdek, asarda Satuq Bog‘raxon G‘oziy “Islom yolini ishor qiluvchi, kofir munoqiblarni o‘ldiruvchi, mazlum sajjodlarga rahm qiluvchi”, deb tarflanadi.¹ Bunda axborot nafaqat ta‘limiy, balki siyosiy va ma‘naviy vazifa ham bajargan.

“Tazkirayi Bug‘raxon”da berilgan ma‘lumotga ko‘ra, Hazrati Xizrning namoyon bo‘lishi va Abu Nasr Somoniyning va‘zlari ta‘sirida Sulton Satuq Bug‘raxon yashirinchalik Islom dinini qabul qiladi. Sultonning yaqinlari unga qo‘shilishadi. Islom dinini qabul qilganida, Sultonga Abdal Karim ismi beriladi. Sulton Satuq Bug‘raxon Sharqiy Turkiston hududidagi birinchi “uvays” (so‘fiy tasavvuf an‘analarida ma‘naviy tajribaning ma‘lum bir vafot etgan shaxsning

¹ Mullo Xoji. Tazkirayi Bog‘raxon. Qo‘lyozma №1818/II. Toshkent: O‘zbekiston FA Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondi. 64A-B.

ruhidan tirik odamga o'tishi shakli, bu tajribaning berilishi orqali ruhiy bilim olgan shaxs) hisoblanadi. Ya'ni asarda aytilishicha, Sotuq Bog'raxon islomni qabul qiladiva Alloh taolo o'zining barcha mag'firat va zafar nurini unga beradi. Avvalo, hazrat Sulton Sotuq Bog'raxon G'oziy kufr va bid'atni qaytarib, Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomning nuriga yuz tutadi, Abdulkarim ismini oladi va dastlab shaxsiy e'tiqodini mustahkamlab, keyinroq davlat siyosatini ham islom asosida yurita boshladi¹. Bu voqea O'rta Osiyo tarixiy jarayonida tubdan burilish yasaydi va Qoraxoniylar davlatining diniy-ideologik asoslarini belgilab beradi.

Hijriy 320/ melodiy 932 yilda Sulton Satuq Bug'raxon 40 kishilik yaqinlari bilan Qoshg'arga keladi va Qodirxonning O'gulchak hududini bosib oladi. Sulton taxtni egallagach, Balasog'unga yo'l oladi. Balasog'un yengilgach, Qoshg'arga qaytadi. Mulla Xoji ushbu voqealarni tasvirlar ekan, ideologik yondashuvini ifoda etadi. Ideologik yoki qadriyatga yo'naltirilgan sharhlar vositasida Islom dinining yuksak qadriyat ekanligi, mazkur qadriyatga erishishda Sulton Satuq Bug'raxonning xizmati va hissasi aks ettiriladi.

“Tazkirayi Bug'raxon”da hikoya qilinishicha, hijriy 331/ melodiy 942-943 yillarda Sulton Satuq Bug'raxon turkiy xalqning Islom dinini qabul qilishi yo'lidagi faoliyatini davom ettiradi va Abu Nasr Somoniyni o'g'li G'oziy Abu-l-Fattah bilan Qoraxoniylarning ko'p sonli qo'shiniga boshchilik qilib, To'rgat dovonidan o'tishadi ham Norinning janubiy hududini egallab olishadi. Keyin esa to'satdan Balasog'unga hujum qilishadi. Egallab olingan hududda Sulton Islom dinini davlat dini deb e'lon qiladi. Hijriy 338/ melodiy 949-950 yillarda Abu-l-Fattoh boshchiligidagi qo'shin janub tomonga yurish qiladi. To'xsun yo'lida Sulton Satuq Bug'raxonning katta o'g'li G'oziy Musa Tekin qo'mondonligidagi Qoraxoniylar qo'shini Tentiritagning shimoliy tomonida joylashgan Beshbaliq shahriga yo'l olishadi. Bu orada xo'ton qo'shini Beshbaliq va Qoraguch shahriga yetib keladi. Har ikki tomonning kuchi teng keladi, har ikki tomon qo'shinida ham yo'qotishlar ko'p bo'ladi. Qoraxoniylar Kengitga chekinishga majbur bo'ladi. “Tazkirayi Bug'raxon”da qayd etilishicha, Sulton Satuq Bug'raxon bu shaharni o'z davlatining sharqiy chegarasiga aylantiradi. Ko'ramizki, Mulla Xoji Qoraxoniylar davlatining tashkil topishi, Islom dinining turkiy xalqlar orasida qaror topishi, bu maqsaddagi Sulton Satuq Bug'raxonning faoliyati haqida fikr yuritir ekan, nafaqat yutuqlar, balki mag'lubiyatlar haqida ham ma'lumot berishni ma'qul ko'radi.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlab o'tish mumkin: Qoraxoniylar sulolasi Markaziy Osiyo tarixida birinchi musulmon turkiy sulola sifatida muhim o'rin tutadi. Qoraxoniylar islomiy davlatchilik tamoyillarini mustahkamlash, diniy-ma'naviy qadriyatlarni omma orasida keng targ'ib qilish va o'z hukmdorlarining shaxsiyatini ideallashtirish maqsadida turli axborot shakllaridan foydalangan. Bu

¹ O'sha asar, 64A-B.

jarayonda yozma manbalar, jumladan, biografiyalar, maktublar, farmonlar, madhiyalar va xattotlik san'ati vositasidagi e'lonlar alohida o'rin tutgan. Bu manbalar orasida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qo'lyozmalar institutida (№1818/II) raqami ostida saqlanayotgan, Mulla Xoji qalamiga mansub "Tazkirayi Bug'raxon" asari alohida o'rin tutadi. Mazkur manbaning 20ta nusxasi mavjud bo'lib, faqat bittasi – bizning qo'limizdagi qo'lyozmaning muallif aniqdir, qolgan nusxalarning mualliflari ko'rsatilmagan. Ushbu asarlarning turkiycha va forsha variantlari bizgacha yetib kelgan bo'lib, aslida ilk bor qaysi tilda yozilgani ma'lum emas. Asar Qoraxoniylar davlatining asoschisi Sulton Satuq Bug'raxonning hayoti, Islomni qabul qilishi, Qoraxoniylar davlatining qurishi, Qoraxoniylar davlatining kuchayishi va kengayishi, Sulton Satuq Bug'raxonning davomchilari – uning o'g'li va piri Abu Nasr Somoniyning o'g'lining yurishlari haqida ma'lumot beradi. Muallifning ta'kidiga ko'ra, asar undan avvalgi tazkiralalar va ishonchli manbalarga asoslanib yozilgan. Asarning tarixiy voqealarni bayon etish usuli, ya'ni ob'ektivlik va haqqoniylik tamoyillariga asoslanganligi "Tazkirayi Bug'raxon"ni O'rta Osiyodagi protojurnalistikaning ilk namunalaridan biri sifatida qabul qilishimiz uchun asos bo'ladi. Shu bilan birga, asarning dunyoning turli mamlakatlarida, turli asrlarda yozilgan nusxalarining mavjudligi "Tazkirayi Bug'raxon" manbasining o'z davrida o'ta mashhur bo'lganligi, keng ommaga axborot yetkazishga yo'naltirilganligini ko'rsatadi. Qo'lyozmada tasvirlangan voqealar Qoraxoniylar davridagi diniy ideologiyaning aksi o'laroq maydonga chiqadi. Asarning markazida islomiy hukmdorlar turishi, ularning siyosiy va diniy fazilatlarining ta'riflanishi — bu ma'lumotlarning faqat tarixiy emas, balki ideologik ta'sir maqsadida ham tuzilganini ko'rsatadi. Mullo Xoji tomonidan tuzilgan Bog'raxonlar tarixiy biografiyasi — Markaziy Osiyodagi protojurnalistikaning biografik va ideologik shakli sifatida qabul qilish mumkin. U tarixiy shaxslarning hayoti orqali ommaga axborot yetkazish, davlat ideologiyasini mustahkamlash hamda islomiy qadriyatlarni targ'ib qilish maqsadini ko'zlagan. Bugungi jurnalistikaning portretlar, ocherklar va xronika janrlariga yaqin turishi bilan ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mullo Xoji. Tazkirayi Bog'raxon. Qo'lyozma №1818/II. Toshkent: O'zbekiston FA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondi.
2. Bartold, V. V. Turkiston mong'ul bosqiniga qadar. Toshkent: Fan, 1993.
3. Narshaxiy, Abu Bakr. Buxoro tarixi. Toshkent: Sharq, 1991.
4. Frye, R. N. The Golden Age of Persia. London: Weidenfeld & Nicolson, 1975.
5. Hodgson, M.G. S. The Venture of Islam. Chicago: University of Chicago Press, 1974.
6. Ochilov, M. Qoraxoniylar davlati tarixi. Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2001.
7. Abdurahmonov A. Turkiy Adabiyotning qadimgi davri. - Toshkent: Fan, 2005.

8. D. Duturaeva. "Qarakhanid Envoys to Song China", Journal of Asian History 52(2), 2018. DOI: 10.13173/jasiahist.52.2.0179
https://jah.harrassowitz-library.com/article/JAH/2018/2/2?_locale=en
9. B. Mir-Makhamad et al. "Qarakhanids on the Edge of the Bukhara Oasis: Archaeobotany of Medieval Paykend", Economic Botany 75, 2021.
<https://link.springer.com/article/10.1007/s12231-021-09531-6>

QORAXONIYLAR SULOLASI MEROSI KIMNIKI?

MUNIRA XATAMOVA

*Alfraganus universiteti dotsenti,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Markaziy Osiyoda kechayotgan integratsiya jarayonlarining tarixiy ildizlari va ularning bugungi mintaqaviy birdamlikni mustahkamlashdagi ahamiyati ko'rib chiqiladi. Muallif mintaqa xalqlarini birlashtiruvchi omil o'laroq umumiy sivilizatsiyaviy meros, etnosiyosiy uzluksizlik va tarixiy xotiraning o'rnini uqdiradi. Qoraxoniylar sulolasining davlatchilik an'analari, islom sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan ulushi, shaharchilik va me'morchilikdagi yutuqlari, shuningdek, "Devonu lug'at at-turk" va "Qutadg'u bilig" kabi asarlari orqali mintaqaviy madaniy birlikning shakllanishi yoritib beriladi. Bolasog'un kabi boshkentning tarixi va ularning Qoraxoniylar davlatida tutgan o'rni haqidagi ma'lumotlar asosida Markaziy Osiyoning umumiy tarixiy makoni va birlashtiruvchi omillari ilmiy tomonlama asoslab berilgan. Maqola mintaqaning o'tmishini bitta sivilizatsiyaviy jarayon o'laroq ko'rish kerakligini ilgari suradi va bugungi siyosiy-madaniy integratsiyani tarixiy meros bilan uzviy bog'liq holda talqin qiladi.

Tayanch so'zlar: Markaziy Osiyo, integratsiya jarayonlari, mintaqaviy birdamlik, umumiy sivilizatsiyaviy meros, etnosiyosiy uzluksizlik, Qoraxoniylar sulolasi, islom sivilizatsiyasi, turk davlatchiligi, Bolasog'un, madaniy birlik.

Annotation. This article analyzes the historical foundations of integration processes in Central Asia and their significance for strengthening contemporary regional cooperation. The author highlights the unifying role of shared civilizational heritage, ethnopolitical continuity, and historical memory among the peoples of the region. The study examines the Karakhanid dynasty's state traditions, its contribution to the development of Islamic civilization, achievements in urban culture and architecture, as well as the role of key works such as *Dīwān Lughāt at-Turk* and *Qutadghu Bilig* in shaping regional cultural unity. Based on historical data concerning centers like Balasagun and their role within the Karakhanid state, the article substantiates the concept of Central Asia as a common historical space with strong integrative factors. The article argues for viewing the region's past as a unified civilizational process and interprets contemporary political and cultural integration within the context of this historical legacy.

Keywords: Central Asia, Integration processes, Regional solidarity, shared civilizational heritage, Ethnopolitical continuity, Karakhanid dynasty, Islamic civilization, Turkic statehood, Balasagun, Cultural unity.

Kirish.

Jahonda kechayotgan globalizatsiya ko‘lami turli mamlakatlar madaniyatlarining yaqinlashuvi va birlashuviga, yagona madaniy makonning shakllanishiga turtki bermoqda. Madaniy jarayonlar to‘lqini to‘g‘ridan-to‘g‘ri siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar bilan bog‘liq.

Bugungi kunda Markaziy Osiyo davlatlari o‘zaro do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar hamkorlikni kengaytirish tomon intilmoqda. Shuning uchun, O‘zbekiston Prezidenti Sh.M. Mirziyoev *“Markaziy Osiyo o‘z taraqqiyotining yangi, tarixiy ahamiyatga molik bosqichiga qadam qo‘ymoqda. Bugun biz chinakam birdamlik bosqichiga o‘tayapmiz. Bizning mintaqamizda uzoq yillar davomida ilk bor birgalikda oldinga qarab borishimiz uchun poydevor bo‘lib xizmat qilayotgan o‘zaro ishonch, yaxshi qo‘shnichilik va hurmat muhiti shakllanmoqda. Bu — o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib qolgan jarayon emas, balki umumiy taqdiri va birgalikda taraqqiy etish salohiyatini anglab yetgan mamlakatlarimiz yetakchilarining aniq maqsadga qaratilgan sa’y-harakatlari va siyosiy irodasi natijasidir. Ayni paytda bu jarayon o‘zaro ishonch muhitida tobora qizg‘in tus olayotgani Markaziy Osiyo mamlakatlari xalqlari tomonidan qo‘llab-quvvatlanayotgan mintaqaviy hamkorlik keng ko‘lamdagi zaruratga aylanganidan dalolatdir”*¹ deb alohida uqdirib o‘tgan.

Chindan ham, bugun mintaqada vaziyat ancha o‘zgargan bo‘lib, xalqlar yaqinlashgani, birlashgani, uzoq yillik muammolar stol atrofida o‘tirilib, o‘z yechimini topayotgani kuzatilmoqda. Ayniqsa, O‘zbekiston Prezidenti 2017 yilning 10 noyabrida BMT shafeligida Samarqandda bo‘lib o‘tgan *“Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo‘lidagi hamkorlik”* mavzusidagi xalqaro konferensiyada Markaziy Osiyo davlatlari yetakchilarining maslahat uchrashuvlarini o‘tkazish taklifini ilgari surgan edi². Bugunga kelib bu maslahat uchrashuvlari mintaqaviy birlikni shakllantirishda yaxshi udumga aylanib ulgurdi.

Mintaqa davlatlari yetakchilarining siyosiy irodasi bilan *“mintaqaviy o‘zlik”* tushunchasi borgan sari mustahkamlanib bormoqda. O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iz, Tojikiston va Turkmaniston o‘rtasidagi yaqin bordi-keldilarda,

¹ Mirziyoyev Sh. Markaziy Osiyo yangi davr ostonasida // O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. <https://president.uz/oz/lists/view/8653>. Yuzlanilgan chog‘: 14.11.2025.

² Марказий Осиё давлат раҳбарларининг биринчи маслаҳат учрашуви // <http://uza.uz/oz/politics/markaziyafaf-osiye-davlat-ra-barlarining-birinchi-masla-at-uchra-15-03-2018>. Yuzlanilgan chog‘: 30.11.2019.

mintaqaviy birlik va mintaqaviy o'zlikni mustahkamlashda doim tarixiy xotira va o'tmishning umumiyligi, madaniyatlar, urf-odatlar va e'tiqodning umumiyligi muhim omil bo'lib kelgan.

Markaziy Osiyodagi bugungi integratsiya jarayonlari yaqindagina yuz berib qolmagani, balki uning tarixiy ildizlari ancha uzoq kezlarga borib taqalishi oydinlashadi. Chunki mintaq va unga tutash tegrallar Kushon, Qang', Eftal, Turk, Arab, Somoniy, Qoraxoniylar kabi yirik siyosiy tuzilmalar – imperiyalar bo'lib kelganki, keng etnosiyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy aloqalar shu siyosiy tuzilmalar doirasida yuz bergan.

Mintaqaning antik va ilk o'rta yuzyilliklar chog'lari o'rganilar ekan, eng oldin, uning etnosiyosiy manzarasi doimo o'zgaruvchan, biroq ma'lum darajada bitta tizim o'laroq shakllanganini ko'zda tutish kerak. Turli jo'g'rofiy muhitlar – tog'li tegrallar, vohalar va keng dashtlar, turli xo'jalik shakllari – dehqonchilik, chorvachilik hamda yarim ko'chmanchilik turmush tarzi, shuningdek, turli tillarda so'zlashuvchi etnik guruhlarining bir davlat yoki siyosiy uyushma ichida birgalikda yashab kelgani Yevroosiyo uchun umumiy qonuniyat bo'lgan.

Tarixiy manbalarning solishtirma tahlili shuni ko'rsatadiki, Yevroosiyo dasht mintaqasida asosiy o'zgarishlar siyosiy elitalarning almashishi bilan bog'liq bo'lgan, biroq bu butun aholi tarkibi yoki madaniy asosning tubdan yangilanishi degani emas. Qabila va urug'lar o'rtasidagi munosabatlar ierarxik, biroq dinamik xarakterga ega bo'lib, qaysi bir guruh harbiy-iqtisodiy tomonlarga kuchaysa, o'sha guruh yetakchilikni o'z qo'liga olgan. Bu holat siyosiy birlashmalarining tabiiy shakllanishiga olib kelgan: yetakchi qabilaning oti butun siyosiy uyushmani belgilab, boshqa guruhlar esa uning siyosiy boshqaruvini qabul qilgan holda, bitta imperiya ichida birlashib yashayvergan.

Bu jarayonni "etnosiyosiy uzluksizlik" o'laroq baholasa bo'ladi, to'g'rirog'i, siyosiy boshqaruvchilar almasha-da, mintaqaning demografik, madaniy va iqtisodiy tarkibi uzluksizligi saqlanib kelgan. Aytaylik, Xionlar, Eftallar, Turklar, Somoniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar chog'ida siyosiy yetakchilik o'zgarib turgani bilan, mintaq aholisi o'z madaniyati, tili, urf-odatlari kabi tomonlarni saqlab kelgan. Bunday tarixiy qonuniyatlarni anglash Markaziy Osiyo davlatlari bugungi tarixshunosligi uchun alohida ahamiyatga ega. Afsuski, bugungi ayrim izlanishlarda mintaqaning umumiy sivilizatsiyaviy merosi tor milliy doirada talqin qilinishi, bugungi siyosiy chegaralardan kelib chiqib o'tmishga baho berish holatlari uchrab turibdi. Shu bilan birga, biror-bir tarixiy shaxslar yoki sulolalarni "talashish", ularni faqat bir millatga mansub etib ko'rsatish tendensiyasi ham bugungi tarixiy ongga salbiy ta'sir qiladi. Chunki Markaziy Osiyoda shakllangan ko'plab sulolalar birgina etnik doira bilan cheklanib qolmagan, balki aralash etnosiyosiy tizimlarning mahsulidir.

Qoraxoniylar sulolasi – Markaziy Osiyoni birlashtiradigan fenomen

Bugungi tarixshunoslikda Markaziy Osiyo mintaqasining o'tmishini keng sivilizatsiyaviy va mintaqaviy birlik ko'z qarashidan kelib chiqib o'rganish, o'zaro bog'liqlikni anglash, umumiy tarixiy merosni qayta kashf etish muhim. Bunday yondashuv birgina ilmiy haqqoniylikni emas, balki mintaqadagi xalqlar o'rtasida o'zaro ishonch, madaniy yaqinlik va birdamlikni ham mustahkamlaydi.

O'zbekistonlik ayrim bilim kishilarining eng eski chog'lardan sug'orma ekin-tikinchilik bilan shug'ullanib, o'troq xalq bo'lgan o'zbeklar uchun boshqaruvchi urug'lari ko'chmanchi bo'lgan Qoraxoniylar o'tmishini o'rganishga o'gay ko'z bilan qaragandek va negadir qo'shnilarimiz Qozog'iston, Qirg'iz izlanuvchilariga yuklayotgandek holatlar kuzatilganini aytib o'tish kerak. Aslida esa bugungi Markaziy Osiyo xalqlarining davlatchiligi va o'zaro tig'iz bordi-keldisining ildizlarini yechishda Qoraxoniylar boshqaruvi kezlari o'zgacha o'rin tutadi. Bu birgina mintaq xalqlarining kelib chiqishi va o'tmishi birligini, balki davlatchilik udumlari, urf-odatlar ham umumiy ekanini yorqin ko'rsatib beruvchi yoki yanada ochiqroq aytganda, Qoraxoniylar fenomeni Markaziy Osiyoni birlashtiradigan yorqin (ideal) chog'dir. Biroq uzoq kezlarda ichra Qoraxoniylar sulolasi va ularning merosi jahon tarixshunosligida yetarlicha o'z o'rnini topmadi. Shu yerda taniqli sharqshunos V.V. Bartoldning Qoraxoniylar sulolasi boshqaruvi kezlariida Movarounnahrda madaniy tushkunlik yuz berganiga shubha yo'q deb qaraganini keltirishning o'zi yetarli¹. Bartoldning ushbu to'xtami yoki ko'z-qarashi o'sha chog'lardagi chinakam holatni qanchalik to'g'ri ochib beradi?

Turondagi ilk turk musulmon sulolasi bo'lmish Qoraxoniylar xoqonligi (chamasi 950–1213) chegaralari o'zining eng yuqori cho'qqisida Tarim havzasidan to Amudaryogacha cho'zilgan bo'lib, shu bilan turklarning mintaqadagi ming yillik hukmronligi boshlanadi. Qoraxoniylarning boshqaruv markazlari bo'lgan Koshg'ar, Bolasog'un, O'zgand, Buxoro va Samarqand shaharlari gullab-yashnagan, ayniqsa, islom dini bilan bog'liq maqbara va madrasalar qurilishi ortgan.

Qoraxoniylar islomni davlat dini o'laroq mustahkamlab, mintaqada islom sivilizatsiyasiga ulkan ulush qo'shganlar. Bu jarayon turk davlatchiligining yangi, musulmon sivilizatsiyasi bilan uyg'unlashgan bosqichini boshlab berdi. Qoraxoniylar islomni birgina diniy e'tiqod deb emas, balki davlatni birlashtiruvchi, ijtimoiy tuzumni mustahkamlovchi va boshqaruvni legitimlashtiruvchi ma'naviy-mafkuraviy omil o'laroq qaraganlar. Shuning uchun, islom Qoraxoniylarda siyosiy barqarorlik va madaniy birlikni ta'minlovchi bosh g'oyaviy asosga aylandi².

¹ Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия // Сочинения в 9 томах. – Т. I. – Москва: Восточная литература, 1963. – С. 62–63.

² Bosworth C.E. The Turks in the Early Islamic World. – Burlington, VT: Ashgate, 2007; Biran M. Qarakhanid Studies: A View from the Qara Khitay Edge // Cahiers d'Asia Centrale. – 2001. – №9. – P. 77–89; Hunkan S. Türk Hakanlığı (Karahanlılar). – İstanbul, 2007; Duturaeva D. Between the

Islom huquq tizimi — shariat va an'anaviy turk urf-odat qonunchiligi o'rtasidagi tenglik Qoraxoniylar davlat boshqaruvining asosiy xususiyatlaridan biri bo'ldi. Ushbu ikki huquqiy udumning uyg'unlashuvi markazlashgan davlat tizimini shakllantirishda, mahalliy tuzilmalarni saqlab qolishda va turli etnik-ijtimoiy guruhlarini bir siyosiy makonda birlashtirishda muhim omil bo'lib xizmat qildi.

Qoraxoniylar chog'ida davlat ma'muriyati, harbiy tuzilma va shaharchilikda ham islomiy an'analar ta'siri kuchaydi. Madrasalar, masjidlar, xonqohlar va boshqa me'morchilik qurilmalarini tiklanishi shahar sivilizatsiyasining yangi bosqichini belgiladi¹. Shuningdek, Qoraxoniylar xoqonlarining islomiy unvon va laqablarni qabul qilishi ularning hokimiyatini ma'naviy tomonlama mustahkamlab, sulolaning siyosiy birdamligini ta'minladi.

Bunga Qoraxoniylardan Qodirxon Yusuf (v. 1101–1102) Buxoroda Kular-Takin madrasasini, Arslonxon esa 1121–1122 yillarda keyinchalik faqihlar madrasasiga aylantirilgan saroy qurdirganini keltirish kerak². Qoraxoniylar xoqonlari Ibrohim ham, uning o'g'li Nasr Shams al-Mulk ham yirik quruvchilik loyihalari bilan shug'ullanganlar. Ibrohim Samarqandda kasalxona qurdirgan bo'lib, u yerda birgina kasallarga g'amxo'rlik qilinmagan, balki kambag'allarga ham boshpana berilgan. Ibrohim kasalxona uchun tabiblar va yordamchi xodimlarning oyli, kasallar va kambag'allarning yeb-ichishi, binolarning yoritilishi, oshxona uchun o'tin yoqilg'isi va xonalarni ta'mirlash xarajatlarini o'z bo'yiga olgan³.

Samarqandda u, shuningdek, bir madrasa qurdirgan va o'qituvchilar oyli, talabalar uchun stipendiyalar, kutubxona uchun kitoblar, binolarni yoritish va boshqa ehtiyojlar uchun mablag' ajratgan. Karvon savdosi rivojiga qulaylik yaratish uchun uning o'g'li Buxoro bilan Samarqand orasidagi dashtlarda (Ribot-i Malik – "Podshoh riboti") va Samarqanddan Xo'jandga olib boruvchi yo'lda ribotlar (karavonsaroylar) qurdirgan.

Nasr Shams al-Mulk, shuningdek, Buxorodagi masjid va minorani qayta tuzatgan va shahar yaqinida, keyinchalik Shamsobod deb tanilgan yerda ajoyib bir saroy va go'ruq (qo'ruq) qurdirgan⁴. Muhammad ibn Nasr (Ibrohimning akasi) va

Silk and Fur Roads: The Qarakhanid Diplomacy and Trade 2016 // Orientierungen: Zeitschrift zur Kultur Asiens. – 2016. – № 28. – P. 173–212.

¹ Tosheva D.Sh. Making the Islamic Façade: Transformation in the Funerary Structures of Central Asia in the Tenth and Eleventh Centuries. A thesis submitted for the degree of Doctor of Philosophy at The University of Queensland in 2021 School of Architecture. – Brisbane, 2022.

² ан-Наршахи, Абу Бакр Мухаммад ибн Джа'фар. Та'рих-и Бухара. История Бухары. Перевод, комментарии и примечания Ш.С. Камолиддина. Археолого-топографический комментарий Е.Г. Некрасовой. Ташкент: SMIA-SIA, 2011. – С. 28, 39–40.

³ History of civilizations of Central Asia. – Vol. 4: The Age of achievement, A.D. 750 to the end of the fifteenth century; Pt. II: the achievements. Eds. C.E. Bosworth, M.S. Asimov. – UNESCO Publishing, 2000. – P. 137.

⁴ Абу Бакр Мухаммад ибн Жаъфар Наршахий. Бухоро тарихи. Таржимон А. Расулев. – Тошкент: Фан, 1966. – 33-бет.

uning o'g'li Abbos Farg'onada (hozirgi Shoh Fozil maqbarasi nomi bilan mashhur) bir maqbara qurdirgan bo'lib, uning ichki qismi murakkab alebastr o'ymakorligi va har ikki kishi nomini yozib qoldirgan bitiklar bilan bezatilgan. Ushbu davrda Qoraxoniylar haligacha ko'chmanchi udumlarini saqlab qolgan edilar, biroq qurilgan jamoat va diniy inshootlarning ko'lami va rang-barangligi mintaqaning o'troq aholisi madaniyati va an'analari yanada keng va chuqur darajada o'zlashtirilganini ko'rsatadi¹.

Qoraxoniylar boshqaruvi kezlarda qurilgan Taraz yaqinidagi Oyisha-bibi, Babaji-xotun va Qoraxon maqbaralaridan Oyisha-bibi maqbarasi, Burana minorasi kabilar YuNESKOning Butunjahon ro'yxatiga kiritilgan. Shuningdek, YuNESKO Butunjahon merosi markazi yaratgan "Markaziy Osiyoning xom g'ishtdan qurilgan yodgorliklari" dastur loyihasi mintaqaning loy, xom va pishiq g'ishtdan qurilgan tarixiy-me'moriy merosini o'rganish va ommalashtirish borasidagi ishlarni birlashtiradi. Bu kabi loyihalar umumiy o'tmish va umumiy makonni anglagan holda mintaqaviy birlik va mintaqaviy o'zlik tomon qo'yilgan amaliy qadamlardir. Mintaqa bo'ylab saqlanib qolgan pishiq g'ishtdan tiklangan mahobatli tarixiy yodgorliklarning ko'pchiligi Qoraxoniylar boshqaruvi kezlarga to'g'ri keladi. Bir so'z bilan aytganda, Qoraxoniylar xoqonlari quruvchilik va shaharchilik bilan bog'liq ishlarga bosh-qosh bo'lishgan ekan, Qoraxoniylarning bugungacha saqlanib qolgan moddiy merosi umummintaqaviy tarixiy meros sanaladi va mintaqa xalqlari uchun birdek tegishlidir.

Xuddi shu kezlarda butun dunyoga ikkita javohir asarni bergan: bulardan biri Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'at at-turk" asari bo'lsa, boshqasi Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilik"dir. Mahmud Koshg'ariyning "Devoni"da turk tili asar yaratish vositasi emas, balki lingvistik tahlil uchun qurol o'laroq ishlatilgan bo'lsa, "Qutadg'u bilik" o'sha chog'larda Turon – Turkistonda adabiy turk tilining o'rnini ko'rsatish orqali jamiyatning yuqori sivilizatsiyaviy rivojlanish darajasini belgilab bergan o'rnak edi. Shuning uchun, ikkala asar ham o'zining adabiy, ilmiy va badiiy qiymati bilan jahon durdonalari qatoridan o'rin olish bilan birga eng oldin bugungi Markaziy Osiyo mintaqasi xalqlari uchun birdek umumiy boylik o'laroq bilinadi.

Qoraxoniylar boshkenti Bolasog'unning o'rne.

Qoraxoniylar chog'ida Qoshg'ar, Bolasog'un, O'zgand, Buxoro va Samarqand kabi boshkentlar yuksalib, har bir o'sha kezlardagi megapolislar maqomiga yetgan. Izlanuvchilarga ko'ra, Bolasog'un VIII yuzyillik o'rtalaridayoq shahar o'laroq bilingan. Arab-fors jo'g'rofiy asarlarida Yettisuvdagi shahar va qishloqlar orasida Beklig deb atalgan manzilgoh bo'lib, u sug'dchada "Semekna" deb aytilgan. Bu qishloqni "Inal bek-tegin" unvonli hokim boshqargan bo'lib, uning

¹ History of civilizations of Central Asia. – Vol. 4: The Age of achievement, A.D. 750 to the end of the fifteenth century; Pt. II: the achievements. Eds. C.E. Bosworth, M.S. Asimov. – UNESCO Publishing, 2000. – P. 137.

qo‘l ostida 3000 jangchi bo‘lgan, bundan tashqari, shaharning o‘zi 7000 ta askar chiqargan¹. “Beklig” (yoki “Beklelig”, “Semekna”) qishlog‘ini Bolasog‘un bilan tenglashtirgan K.M. Baypakovga ko‘ra, “Beklig”ning kelib chiqishini eski turkcha “shahar” anglamidagi “baliq” so‘zi bilan qiyoslagan, mo‘g‘ulcha “balg‘asun” ham, “Bolasog‘un” ham turkchada “shahar”ni bildirgan so‘zdan yasalgan². K.M. Baypakov Bolasog‘unning etimologiyasini yana boshqacha ham tushuntirgan: “Bolasog‘un” ikki so‘zdan: “bala” – baliq-beklig va “sag‘un” – harbiy-ma‘muriy unvonning birikishidan yasalgan bo‘lishi kerak³.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Beklig va Balasog‘un bir deb bilgan Baypakov, birinchisi “Shaharning o‘zi”ni bildiradi, ikkinchisi esa “Sangun shahri” deb tushuniladi. Sug‘dchada “Beklig” – “Semekna” deb atalgan va V.V. Bartold uni sug‘d manzilgohi deb bilgan. Chunki Kulteginga o‘rnatilgan bitiktoshning 52–53 qatorlarida Yettisuv sug‘d shaharlardan kelgan elchilardan biriga Nek Sengun boshchilik qilgani aytilgan va Baypakovga ko‘ra, u aynan Beklig – Semekna – Balasog‘un hokimi bo‘lgan⁴.

Chu va Talas daryolari orasidagi yerlar “Devonu lug‘ati-t-turk”da *Arg‘u* deb⁵, turklarning moniy adabiyotlarida esa *Arg‘u-Talas* deb yuritilgan⁶. Bugungacha Yettisuv shaharlariga Sug‘dning ta’siri borasidagi masala tortishuvliligicha qolmoqda⁷. O‘tgan yuzyillik boshlarida V.V. Bartold Yettisuvda shahar madaniyati sug‘dlar, to‘g‘rirog‘i, Amudaryo – Sirdaryo orasidagi madaniy o‘lkalar aholisi tufayli yuzaga kelgan, deb topgan edi⁸. A.I. Terenojkin esa V.V. Bartoldga suyanib “sug‘d kolonizatsiyasi” atamasini kiritgan bo‘lsa-da, Yettisuvda o‘troq turmushning yuzaga kelishni usunlarga borib taqagan⁹. Keyinroq bir qancha izlanuvchilar ham Yettisuvda sug‘d manzilgohlari bo‘yicha qarashlarni yanada rivojlantirishdi¹⁰.

P.N. Kojemyakoga ko‘ra, Chu vodiysida ekin-tikinchilik usunlar chog‘idanoq bo‘lgan, keyinroq o‘troq manzilgohlarining rivojlanishi bu yerga Choch va

¹ Hudud al-‘Alam. The regions of the world. Translated by R.V. Minorsky. London, 1970. – P. 99.

² Байпаков К.М. Средневековые города Казахстана на Великом Шелковом пути. – Алматы: Гылым, 1998. – С. 148.

³ Байпаков К.М. Средневековые города Казахстана... – С. 148.

⁴ Байпаков К.М. Средневековые города Казахстана ... – С. 148–149.

⁵ Кошгарий, Махмуд. Туркий сўзлар девони (Девону луғотит турк) / Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. М. Муталлибов. 1-том. – Тошкент: Фан, 1960. – 148-бет.

⁶ Кляшторный С.Г. Древнетюркские рунические памятники как источник по истории Средней Азии. – М.: Наука, 1964. – С. 129-131.

⁷ Бу масаланинг тарихшунослиги ҳақида қаранг: Кольченко В.А. К вопросу о «согдийцах» в Чуйской долине // Диалог цивилизаций. – Вып. 3. – Бишкек, 2003. – С. 48-55.

⁸ Бартольд В.В. Очерк истории Семиречья // Сочинения: в 9 т. – Т. II. Ч. 1. – М., 1963. – С. 32-33.

⁹ Тереножкин А.И. К историко-археологическому изучению Казахстана и Киргизии // ВДИ. – 1938. – №1. – С. 204-215.

¹⁰ Горячева В.Д. Городская культура Тюркских каганатов на Тянь-Шане (середина VI – начало XIII в.). – Бишкек, 2010. – С. 34.

Sug‘ddan sug‘dlarning ko‘chib kelishi bilan bog‘liq¹. Umuman, arxeologlar Yettisuvdagi o‘troq madaniyat sug‘dlarga, ko‘chmanchi madaniyat yodgorliklari esa turklarga tegishli ekani, biroq o‘troqlashayotgan ko‘chmanchilarning sezilarli foizi bu yerdagi shaharlarning o‘ziga xosligini yuzaga keltirgan deb topishgan².

Shu yerda qozoq va qirg‘iz izlanuvchilarining Qoraxoniylar boshkenti bo‘lgan Bolasog‘un shahrining o‘rni yuzasidan tortishuvlari o‘rinsiz ekanini uqdirish kerak³. Islom jo‘g‘rofiyachilarining yetuk maktablari tomonidan tuzilgan “Jahon atlaslari”da dunyoning o‘rtasi deb Makka belgilangani holda, Mahmud Koshg‘ariy qoraxoniylar oilasiga sadoqatini saqlab qolib, o‘z xaritasida Koshg‘ar va Bolasog‘un tegralarini dunyoning o‘rtasi etib belgilagan⁴. “Xoqoniy turkcha”si eng nafis til ekanini urg‘ulab, xaritaning o‘rtasiga Bolasog‘un va Koshg‘ar – ikki boshkenti bilan Qoraxoniylar yerlarini o‘rnatirgan.

Bolasog‘un shahri va uning o‘rni to‘g‘risida yozma manbalarda qanday bilgilar uchrashiga bir ko‘z tashlasak. Shu kungacha yetib kelgan ilk bilgilardan biri bu saljuq sultonlari vaziri Nizom al-Mulkning (XI yuzyillik) yozishicha, 943 yildan oldinroq Balasog‘unni egallagan Qoraxoniylar turklari islom dinini qabul qilganlar.

Muqaddasiyga ko‘ra (X asrning so‘nggi), Balasog‘un “turli noz-ne‘matlarga boy, katta aholi manzilgohi” edi. Mahmud Koshg‘ariy esa “*O‘rdu – shoh turadigan shahar, o‘rda*” deb, boshqa yerda yana “*O‘rdu – Bolasog‘un yaqinidagi hukmdor qarorgohi. Bolasog‘unni yana Quz O‘rdu (“Shimoliy o‘rdu” – M.X.) ham deyishadi*” tarzida tushuntirgan⁵. “*Bolasog‘unliklar sug‘dcha va turkcha so‘zlaydilar. Tiroz (Talas) va Madinat ul-bayda (Isbijob) shaharlari xalqi sug‘dcha, ham turkcha so‘zlaydilar. Ispijabdan to Balasog‘ungacha bo‘lgan Arg‘u mamlakati butun aholisining tilida ham kamchilik bor. Qashqarda kanjakcha so‘zlashadigan qishloqlar bor, biroq asosiy shaharda xoqoniy turkchasida so‘zlaydilar*”⁶.

¹ Кожемяко П.Н. Раннесредневековые города и поселения Чуйской долины. – Фрунзе, 1959. – С. 167-168.

² Бернштам А.Н. Труды Семиреченской археологической экспедиции. Чуйская долина. – Материалы и исследования по археологии СССР (МИА). № 14. – М.-Л., 1950. – С.145-147; Кожемяко П.Н. Раннесредневековые города и поселения... – С. 167-168.

³ Бугунги кунда айрим тарихчилар (У. Шалекенов) Боласогун гўёки Қозоғистоннинг жанубидаги Оқ-тўбе қишлоғи ўрнида бўлганини илгари суришган.

⁴ Академик И.Ю. Крачковский. Арабская географическая литература // Избранные сочинения. Том четвертый. Редактор IV тома Г.В. Церетели – Москва-Ленинград: Изд-во АН, 1957. – С. 269.

⁵ Кошғарий, Махмуд. Туркий сўзлар девони (Девону луғотит турк). 1-том. – 145, 291-бетлар.

⁶ Кошғарий, Махмуд. Туркий сўзлар девони (Девону луғотит турк). 1-том. – 66-бет; Mahmūd al-Kāshgarī. Compendium of The Turkic Dialects (Dīwān Luyāt at-Turk) / Edited and translated with introduction and indices by R. Dankoff in collaboration with J. Kelly. Part I. – Harvard University, 1982. – P. 84.

“Sug’dak – Bolasag’unda yashaydigan qabila. Ular Buxoro va Samarqand orasidagi Sug’dan kelib chiqqanlar; biroq turklar singari kiyinib, ularning urf-odatlarini o’zlashtirganlar”¹. “Shu – Bolasag’un yaqinidagi shahar”².

Arg’ular yashagan Bolasag’un shahri bugun Qirg’izning To’qmoq shahri yaqinidagi Burana yodgorligi tegrasida bo’lgan deb qaraladi. Shahar aholisining sezilarli bir bo’lagini sug’dlar tashkil etganini Koshg’ariy keltirgan bilgilardan tashqari, ko’plab topilmalar – sug’dcha yozuvli sopol va metall buyumlar, tangalar va boshqalar ko’rsatib turibdi³.

Ala-ad-Din Ota-Malik Juvayniyning “Tarixi jahonkusho” asarida yozilishicha, Balasog’un shahrini uyg’ur xoqoni Bo’ku-xon qurdirgan⁴,

Mahmud ibn Vali (1634–1641) Bolasog’unning o’rni borasida: “Balasog’un — Turkistonzamin shaharlaridan biri bo’lib, u Mo’g’ulston nomi bilan mashhur bo’lgan. Mo’g’ullar bosqiniga qadar bu yerda to’la musulmon aholisi yashagan. Shahar ko’plab olimlarni yetishtirgan. Mustavfiy shunday yozadi: [Balasog’un] — keng va yoqimli mamlakat bo’lib, u oltinchi–yettinchi iqlim mintaqalarida joylashgan. Iqlimi juda sovuq. Ayrim yilnomalarda uning qal’a devorlari kengligi ikki yarim gaz bo’lgani qayd etilgan. [Balasog’un]da 40 jome’ masjidi, 200 oddiy masjid, 20 xonaqo va 10 madrasa bo’lgan.

Mo’g’ullar bosqinidan keyin, mo’g’ullar urf-odatlari unga zarar yetkazmaguncha, u obod va gullab-yashnagan shahar bo’lib turgan. Biroq o’sha vaqtdan bugungacha u vayrona va tashlandiq holatda qolgan.

Bir qashg’arlik sayyoh, ushbu kitob yozilayotgan chog’da Balxda bo’lganida, shunday hikoya qiladi: “Bir kuni Qashg’ar hokimi mo’g’ullarni jazolash uchun Mo’g’ulistonga yurish qildi. Ikki oydan so’ng, sharqdan shimolga yo’l olganimizda, bir joyga yetdik. U yerda qum ostida to’rt-besh ziro’cha balandlikda binolarning tomlari — minorlar, saroylar, madrasalarning ark va devorlari ko’rinib turardi; ularning belgilarini to’rt farsang uzoqlikdan ham ko’rish mumkin edi. Shu joydan uzoq bo’lmagan yerda biz qalmoqlarni uchratdik va jang bo’lib o’tdi. Ko’p asirlar qo’lga olindi. Qaytishda, o’sha joydan o’tayotganimizda, asirlardan bu yerning nomini so’radik. Ular shunday javob berishdi: biz bilamizki, bu yerda ilgari Balasog’un degan shahar bo’lgan. Chingizxon avlodlaridan ayrimlari boshqaruvi davrida bu yer qumlar ostida qolgan. Bugun ham ayrim joylarida qum ostidagi ayrim xonalar chiqib qoladi, ular ichida idish-tovoqlar, ko’zalar, sopol buyumlar butun holda saqlangan, biroq gilamlar va boshqa buyumlar yo’qolgan. Ayrim xonalarda

¹ Kaşgarlı Mahmud. Divānū Lugatī-t-Türk. Hazırlayanlar: Ahmet B. Ercilasun Ziyat Akkoyunlu. — Ankara: TDK, 2014. — S. 206.

² Kaşgarlı Mahmud. Divānū Lugatī-t-Türk. Hazırlayanlar: Ahmet B. Ercilasun Ziyat Akkoyunlu. — Ankara: TDK, 2014. — S. 519-520.

³ Кожемяко П.Н. Отчет о раскопочных работах на Краснореченском городище в 1962-1963 гг. // Красная Речка и Бурана. — Фрунзе: Илим, 1989. — С. 25–68.

⁴ Ала-ад-Дин Ата-Мелик Джувейни. Чингиз-хан. История завоевателя мира / в переводе Е.Е.Харитоновой. — Москва, 2004. — С. 38.

esa kishilarning jasadlari ham yotgan bo'ladi. Umuman aytganda, bu shahar o'tmishda o'sha o'lkaning eng go'zal shaharlaridan biri bo'lgan, biroq bugun uning nomi ham unutilgan"¹.

"Tarixi Rashidiy"ni yozgan Mirzo Muhammad Haydar (XVI yuzyillik) esa quyidagilarni qoldirgan: "Ju mamalakatining bir yerida ulkan shahar qoldiqlari bor. Uning minoralari, gumbazlari va madrasalari ayrim yerlarida saqlanib qolgan. Ushbu shaharning otini birov bilmaydi, faqat mo'g'ullar uni Monara deyishadi. [U yerda] 1311-1312 yillarda o'lgan Imom Muhammad Fakih Bolasog'uniyning qabri saqlanib turibdi"².

Shunday qilib, Mahmud ibn Vali va Muhammad Haydar bir-biridan mustaqil me'morchilik yodgorliklari, deylik, minorasi (munora, burana) saqlanib qolgan yodgorlik qoldig'i to'g'risida deyarli bir xil ma'lumot beradi, Mahmud ibn Vali esa uning eski otini keltirib, Balasog'unni Burana bilan tenglashtiradi. Bu bilgilardan kelib chiqqan izlanuvchilar (Baypakov, Nastich, Goryacheva va boshqalar) taniqli Bolasag'un shahri bugungi Qirg'izistonning To'qmoq shahri yaqinidagi Burana yodgorligi tegrasida bo'lgani to'g'risida to'xtamga kelganlar.

Biroq, etnograf U.X.Shalekenovning uqdirishicha, Balasog'un Chu daryosining o'rta oqimidagi Aqto'be Stepninskiy qishlog'i o'rnida bo'lgan³. Biroq, K.M.Baypakovga ko'ra, U.X.Shalekenov bunda bir qator holatlarni ko'zda tutmagan, uning ko'z-qarashini yo'qqa chiqaradigan bosh argument bor. Balasog'un XIII–XIV yuzyillik boshlarida bo'lgan, ya'ni turar-joyda shu davrga oid arxeologik materiallar bo'lishi kerak. Aqto'beda bu yuzyilliklarga tegishli qatlam yo'q — aholi punkting faoliyat chegarasi XII–XIII asr boshlariga to'g'ri keladi. Bundan tashqari, Aqto'be Buyuk Ipak yo'lining asosiy yo'lidan uzoqda va Aqto'bening o'zi egallagan tegra Buranadan besh baravar kichikdir⁴.

Xulosa.

Qoraxoniylar saltanatining chegaralari bugungi O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Shinjon (SUAR) va Tojikiston yerlarini qamrab olgani uchun, ularning madaniy va siyosiy merosi bugungi kunda butun mintaqada xalqlari uchun umumiy tarixiy boylikdir. Davlatchilik an'analari, islom sivilizatsiyasiga xos me'moriy va ma'naviy qadriyatlar, shuningdek, turk tilining rasmiy va adabiy maqomda mustahkamlanishi Qoraxoniylar sulolasi chog'ining eng muhim yutuqlari bo'lib, ularning merosi bugungi O'zbekiston, Qirg'iziston, Qozog'iston, Tojikiston va uyg'ur madaniyatida uyg'un holda ko'rinadi. Qoraxoniylar sulolasi mintaqadagi bugungi o'zbek, qirg'iz, qozoq, uyg'ur, tojik kabi xalqlar etnogenezida sezilarli o'rin

¹ Махмуд ибн Вали. Море тайн относительно доблестей благородных (География). Введ., пер. и прим., указ. Б.А.Ахмедова. – Ташкент, 1977. – С. 24.

² Байпаков К.М. Средневековые города Казахстана... – С. 146–147.

³ Шалекенов У.Х. Актобе – средневековый памятник // История материальной культуры Казахстана. – Алма-Ата, 1980. – С. 13–40.

⁴ Байпаков К.М. Средневековые города Казахстана... – С. 147.

tutgan. Shu tomondan Qoraxoniylar sulolasi merosi biror-bir xalqniki emas, balki umummarkaziy osiyo madaniyatining ajralmas qismi o'laroq qaralishi kerak.

Qoraxoniylar sulolasi davlatchilik modelining turk-islom an'analar tizimidagi ahamiyati ulkan bo'lib, ularning siyosiy va madaniy merosi Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi o'tmishida yangi davrni boshlab bergan bosqich o'laroq qaralishi kerak. Bu model keyinchalik Saljuqiylar, Xorazmshohlar, hatto, Temuriylar kezlarida ham davom etdi. Turk-islom davlatchilikning huquqiy, ma'muriy va mafkuraviy asoslari aynan Qoraxoniylar tomonidan shakllantirilgan ana shu sintezga tayangan holda yanada takomillashib bordi.

Siyosiy-madaniy va mafkuraviy tomonlama bugun Qoraxoniylar merosi O'zbekistonda – Samarqand va Buxoro, Qirg'izda – Balasog'un (Burana minorasi) va O'zgand boshkentlari orqali davlatchilik udumlarida, Qozog'istonda – Jetisu tarixiy tegrasi va Oyisha-bibi, Babaji-xotun va Qoraxon maqbaralari madaniy merosi bilan, Tojikistonda – Xo'jand, Panjakent, Istaravshan (O'ratepa) va Hisor atroflaridagi Qoraxoniylar bilan bog'liq arxeologik yodgorliklar orqali, Shinjonda uyg'urlar orasida esa Qoshg'ar madaniyati orqali saqlanib kelmoqda.

Qoraxoniylar sulolasi merosi tarixiy tomonlama bir millat yoki bitta chegara bilan cheklanmaydigan, balki butun Markaziy Osiyo xalqlariga tegishli madaniy, siyosiy va ma'naviy boylikdir. Qoraxoniylar boshqaruvi chog'ida shakllangan turk-islom davlatchilik udumlari, til va adabiyotning yuksalishi, ilmiy-ma'naviy taraqqiyot jarayonlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Академик И.Ю. Крачковский. Арабская географическая литература // Избранные сочинения. Том четвертый. Редактор IV тома Г.В. Церетели – Москва-Ленинград: Изд-во АН, 1957.
2. Байпаков К.М. Средневековые города Казахстана на Великом Шелковом пути. – Алматы: Гылым, 1998.
3. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия // Сочинения в 9 томах. – Т. I. – Москва: Восточная литература, 1963. – С. 62–63.
4. Бартольд В.В. Очерк истории Семиречья // Сочинения: в 9 т. – Т. II. Ч. 1. – М., 1963.
5. Бернштам А.Н. Труды Семиреченской археологической экспедиции. Чуйская долина. - Материалы и исследования по археологии СССР (МИА). № 14. – М.-Л., 1950.
6. Горячева В.Д. Городская культура Тюркских каганатов на Тянь-Шане (середина VI – начало XIII в.). – Бишкек, 2010.
7. Джувейни, Ала-ад-Дин Ата-Мелик. Чингиз-хан. История завоевателя мира / в переводе Е.Е.Харитовой. – Москва, 2004.
8. Кляшторный С.Г. Древнетюркские рунические памятники как источник по истории Средней Азии. – М.: Наука, 1964.
9. Кожемяко П.Н. Раннесредневековые города и поселения Чуйской долины. – Фрунзе, 1959.
10. Кожемяко П. Н. Отчет о раскопочных работах на Краснореченском городище в 1962-1963 гг. // Красная Речка и Бурана. – Фрунзе: Илим, 1989. – С. 25–68.

11. Кольченко В.А. К вопросу о «согдийцах» в Чуйской долине // Диалог цивилизаций. – Вып. 3. – Бишкек, 2003. – С. 48-55.
12. Кошғарий, Махмуд. Туркий сўзлар девони (Девону луғотит турк) / Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. М. Муталлибов. 1-том. – Тошкент: Фан, 1960.
13. Марказий Осиё давлат раҳбарларининг биринчи маслаҳат учрашуви // <http://uza.uz/oz/politics/markaziyafaf-osiye-davlat-ra-barlarining-birinchi-masla-at-uchra-15-03-2018>. Yuzlanilgan chogʻ: 30.11.2019.
14. Махмуд ибн Вали. Море тайн относительно доблестей благородных (География). Введ., пер. и прим., указ. Б.А.Ахмедова. – Ташкент, 1977.
15. Mirziyoyev Sh. Markaziy Osiyo yangi davr ostonasida // Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. <https://president.uz/oz/lists/view/8653>. Yuzlanilgan chogʻ: 14.11.2025.
16. ан-Наршахи, Абу Бакр Мухаммад ибн Джаʼфар. Таʼрих-и Бухара. История Бухары. Перевод, комментарии и примечания Ш.С. Камолиддина. Археолого-топографический комментарий Е.Г. Некрасовой. Ташкент: SMIA-SIA, 2011.
17. Наршахий, Абу Бакр Мухаммад ибн Жаъфар Бухоро тарихи. Таржимон А. Расулев. – Тошкент: Фан, 1966.
18. Тереножкин А.И. К историко-археологическому изучению Казахстана и Киргизии // ВДИ. – 1938. – №1. – С. 204-215.
19. Шалекенов У.Х. Актобе – средневековый памятник // История материальной культуры Казахстана. – Алма-Ата, 1980.
20. Biran M. Qarakhanid Studies: A View from the Qara Khitay Edge // Cahiers d'Asia Centrale. – 2001. – №9. – P. 77–89.
21. Bosworth C.E. The Turks in the Early Islamic World. – Burlington, VT: Ashgate, 2007.
22. Duturaeva D. Between the Silk and Fur Roads: The Qarakhanid Diplomacy and Trade 2016 // Orientierungen: Zeitschrift zur Kultur Asiens. – 2016. – № 28. – P. 173–212.
23. History of civilizations of Central Asia. – Vol. 4: The Age of achievement, A.D. 750 to the end of the fifteenth century; Pt. II: the achievements. Eds. C.E. Bosworth, M.S. Asimov. – UNESCO Publishing, 2000.
24. Hudud al-ʼAlam. The regions of the world. Translated by R.V. Minorsky. London, 1970.
25. Hunkan S. Türk Hakanlığı (Karahanlılar). – İstanbul, 2007.
26. Mahmūd al-Kāşgarī. Compendium of The Turkic Dialects (Dīwān Luyāt at-Turk) / Edited and translated with introduction and indices by R. Dankoff in collaboration with J. Kelly. Part I. – Harvard University, 1982.
27. Kaşgarlı Mahmud. Divānū Lugatīʼt-Türk. Hazırlayanlar: Ahmet B. Ercilasun Ziyat Akkoyunlu. – Ankara: TDK, 2014. – S. 206.
28. Tosheva D.Sh. Making the Islamic Façade: Transformation in the Funerary Structures of Central Asia in the Tenth and Eleventh Centuries. A thesis submitted for the degree of Doctor of Philosophy at The University of Queensland in 2021 School of Architecture. – Brisbane, 2022.

“DEVONU LUG‘OTIT TURK” MARKAZIY OSIYODAGI TURKIY QABILALAR ETNOGEOGRAFIYASINI O‘RGANISHDA MUHIM MANBA

BEXZODJON ZOKIROV

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

“Markaziy Osiyo xalqlari tarixi” kafedrası dotsenti v.b.,
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Mahmud Koshg‘ariyning XI asrda yaratilgan “Devonu lug‘otit turk” asarining Markaziy Osiyodagi turkiy qabilalar etnogeografiyasini o‘rganishda manba sifatidagi roli tahlil qilindi. Asarda qarluq, yag‘mo, chigil, arg‘u, to‘xsi va xalach qabilalarining hududiy joylashuvi, ijtimoiy-siyosiy uyushmasi, iqtisodiy faoliyati va madaniy integratsiyasi ko‘rib chiqildi. Qabilalarning til va lahjalaridagi farqlar Mahmud Koshg‘ariy tomonidan aniqlangan bo‘lib, umumturkiy dialekt bilan ularning uyg‘unligi tahlil qilindi. Shu bilan birga, qabilalarning Qoraxoniylar davlati tarkibidagi siyosiy ittifoqlari, ko‘chmanchi va o‘troq aholi o‘rtasidagi integratsiya jarayonlari hamda etnik aralashuv masalalari ko‘rib chiqiladi. Asar qabilalarning davriy joylashuvi, o‘zaro siyosiy va madaniy aloqalari, shuningdek, ularning umumturkiy til va etnik identifikatsiyadagi roli nuqtai nazaridan tahlil qilindi. Qoraxoniylar davlati shakllanishi va mustahkam davlat tuzilmasiga aylanishi jarayonida qabilalarning ittifoqi, siyosiy barqarorlik va iqtisodiy qudratga qo‘shgan hissasi muhim omil sifatida ko‘rib chiqildi. Shu nuqtai nazardan, “Devonu lug‘otit turk” Markaziy Osiyodagi turkiy xalqlar etnogeografiyasini, til tarixi va madaniy integratsiya jarayonlarini ilmiy asosda tahlil qilish imkonini beruvchi noyob manba sifatida baholanishi lozim.

Kalit so‘zlar: Mahmud Koshg‘ariy, Devonu lug‘otit turk, Qoraxoniylar, turkiy qabilalar, etnogeografiya, qarluq, chigil, yag‘mo, arg‘u, to‘xsi.

Аннотация: В данной статье анализируется роль труда Махмуда Кашгарии «Дивану лугатит-тюрк» XI века как источника для изучения этногеографии тюркских племён Центральной Азии. Рассматриваются территориальное размещение, социально-политические объединения, экономическая деятельность и культурная интеграция племён карлук, ягмо, чигиль, аргут, тухси и халач. Различия в языке и диалектах этих племён, зафиксированные Махмудом Кашгарии, анализируются с точки зрения их соотношения с общетюркским диалектом. Кроме того, исследуются политические союзы племён в составе государства Караханидов, процессы интеграции кочевого и оседлого населения, а также вопросы этнического смешения. В статье рассматриваются периодическое размещение племён, их взаимные политические и культурные связи, а также их роль в формировании общетюркского языка и этнической идентичности. В процессе становления Караханидского государства объединение племён, их влияние на политическую стабильность и экономическую мощь рассматриваются как ключевые факторы. Таким образом, «Дивану лугатит-тюрк» следует оценивать как уникальный источник, позволяющий научно анализировать этногеографию, историю языка и процессы культурной интеграции тюркских народов Центральной Азии.

Ключевые слова: Махмуд Кашгарӣ, Дивану лугатит-тюрк, Караханиды, тюркские племена, этногеография, карлук, чигиль, ягмо, аргу, тухси.

Abstract: This article analyzes the role of Mahmud al-Kashgari's XI-century work "Diwan Lughat al-Turk" as a source for studying the ethnogeography of Turkic tribes in Central Asia. The territorial distribution, socio-political organization, economic activities, and cultural integration of the Karluk, Yagmo, Chigil, Argü, Tuxsi, and Khalaj tribes are examined. Differences in language and dialects among these tribes, recorded by Mahmud al-Kashgari, are analyzed in relation to the common Turkic dialect. Furthermore, the political alliances of the tribes within the Kara-Khanid state, processes of integration between nomadic and sedentary populations, and issues of ethnic intermixing are considered. The study also explores the periodic settlement patterns of the tribes, their mutual political and cultural interactions, and their role in shaping a common Turkic language and ethnic identity. During the formation of the Kara-Khanid state, tribal alliances and their contributions to political stability and economic power are identified as significant factors. Accordingly, "Diwan Lughat al-Turk" should be regarded as a unique source enabling scholarly analysis of the ethnogeography, linguistic history, and cultural integration processes of Turkic peoples in Central Asia.

Keywords: Mahmud al-Kashgari, Diwan Lughat al-Turk, Kara-Khanids, Turkic tribes, ethnogeography, karluk, chigil, yagmo, argü, tukhsi

Kirish. Markaziy Osiyo xalqlarining o'rta asrlar tarixi va etnografiyasini o'rganishda yozma manbalar ichida Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari alohida o'rin tutadi. XI asrda yaratilgan ushbu nodir asar nafaqat tilshunoslikka oid lug'at sifatida, balki o'z davrining etnografik, geografik va tarixiy-ensiklopedik manbasi sifatida ham beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, Mahmud Koshg'ariy asarni yozishda Yettisuvdan Enasoygacha, sharqda Xitoy devorigacha, g'arbda esa Orol dengizi va Ural tog' oldi hududlarigacha bo'lgan keng makonda istiqomat qilgan ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi turkiy qabilalar, shuningdek, ayrim shahar aholisining materiallariga tayangan. Bu holat asarning geografik qamrovi va undagi ma'lumotlarning ishonchliligini yanada oshiradi.

"Devonu lug'otit turk" Markaziy Osiyodagi turkiy xalqlarning etnogeografiyasini o'rganishda ham muhim manbalardan biri hisoblanadi. Asarda muallif turkiy etnografik guruhlar - xususan, *qarluq*, *yag'mo*, *chigil*, *o'g'uz* kabi qabilalarning hududiy joylashuvi, o'zaro yaqinligi hamda ayrim farqlari haqida muhim izohlar keltiradi. Ushbu ma'lumotlar o'rta asrlarda Markaziy Osiyoda shakllangan etnik jarayonlarni, qabilalararo aloqalar va ularning siyosiy-hududiy uyushmalarini tadqiq etishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Mahmud Koshg'ariy yashagan davrda Qoraxoniylar davlatining hududi Yettisuv, Isfijob viloyati, Shosh vohasi, Sharqiy Turkistonning g'arbiy qismi hamda Farg'ona vodiysini o'z ichiga olgan bo'lib, ushbu makonlar qadimdan turkiy qabilalarning yashash va ko'chib yuradigan yaylovlari hududlari hisoblangan. VI-VIII asrlarda ushbu hududlarda *dulu*, *nushibi*, *az*, *uz* kabi turkiy qabilalar istiqomat qilgan. Keyingi davrlarda, ya'ni VIII-X asrlarga kelib, ushbu

makonda o'g'uz, qarluq, chigil, xalach va yag'mo qabilalari yetakchi o'rin tutgan. X-XI asrlarda esa *qipchoq* qabilalarining kirib kelishi mintaqa etnik-geografik manzarasini yanada murakkablashtirgan. Ushbu holat Qoraxoniylar davlati hududida turkiy qabilalarning etnik manzarasini yanada rang-barang va ko'p qatlamli bo'lishiga sabab bo'ladi.

MAQSAD VA VAZIFA

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari asosida XI asr Markaziy Osiyosida yashagan turkiy qabilalarning etnogeografik manzarasini ilmiy jihatdan tahlil qilish hamda Qoraxoniylar davlati tarkibida mavjud bo'lgan qabilalarning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotdagi o'rni hamda ahamiyatini aniqlashdan iboratdir. Mazkur maqsad doirasida asarda qayd etilgan turkiy qabilalarning hududiy joylashuvi tizimli ravishda o'rganilib, ularning tarixiy ko'chib yurish yo'nalishlari va joylashuv xususiyatlari aniqlanadi. Shuningdek, Qoraxoniylar davlati siyosiy tuzilmasida qabilalarning tutgan o'rni, ularning ijtimoiy-siyosiy faoliyati, o'zaro aloqalari va ittifoq munosabatlari tahlil etiladi. Shu bilan birga, qabilalarning iqtisodiy faoliyati, turmush tarzi va til xususiyatlari etnogeografik kontekstda yoritilib, turkiy qabilalar o'rtasidagi etnik-madaniy munosabatlar orqali Markaziy Osiyoda umumiy etnogeografik makonning shakllanish jarayoni ilmiy asosda tadqiq etiladi.

TADQIQOT USULLARI

Ushbu maqolada tarix, manbashunoslik, etnografiya, geografiya, tilshunoslik sohalari o'zida mujassamlashtirgan holda fanlararo yondashuv nazariyasidan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida *manbalarni tanqidiy tahlil qilish* - "Devonu lug'otit turk" asari va boshqa XI asr manbalari orqali turkiy qabilalarning hududiy, siyosiy va madaniy holatini aniqlandi; *etnogeografik taqqoslash* - qabilalarning hududiy joylashuvi va ularning qo'shni qabilalar bilan aloqalari o'rganilib, XI asr Markaziy Osiyodagi etnik manzara qayd etildi; *tarixiy-siyosiy tahlil* - Qoraxoniylar davlati tarkibidagi qabilalarning siyosiy uyushmasi va ittifoq tuzilmasi, shuningdek, davlat boshqaruvi va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikdagi roli tadqiq etildi; *strukturaviy-kontekstual tahlil* - qabilalarning tarixiy o'zgarishlari, hududiy ko'chib yurishlari va etnik identifikatsiyalari XI asr kontekstida baholandi; kabi usullardan foydalanildi.

Ushbu usullar va fanlararo yondashuv orqali maqolaning Markaziy Osiyodagi turkiy qabilalar etnogeografiyasini o'rganishdagi ilmiy asos yaratilib, Qoraxoniylar davlati tarkibidagi etnik siyosat va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni yaxlit tahlil qilish harakat qilindi.

NATIJALAR VA MULOHAZA

"Devonu lug'otit turk" asari o'z davri aholi tarkibi haqida ma'lumotlar beradi, unda chigil, qarluq, tuxsi, yag'mo, qipchoq, qirg'iz, arg'u, jumul, uyg'ur, tanut, o'g'uz, xo'tanliklar kabi ayrim etnik birliklar va ularning yashash hududlari tasvirlangan. Biroq Mahmud Koshg'ariy bu aholini aynan Qoraxoniylar davlati

tarkibiga mansub deb to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatmagan¹. Bu bog'liqlik masalasi "Devon"da tilga olingan etnik nomlarni boshqa manbalardagi geografik ma'lumotlar bilan solishtirish orqali oydinlashadi.

Qoraxoniylar davlatining etnik-siyosiy asosi turkiy qabilalarning ittifoqiga tayanib qurilgan bo'lib, bu davlatchilik an'analari ushbu qabilalar uchun yangi emasligini ko'rsatadi. Aksincha, Qoraxoniylar davlati ilgari turkiy davlat tuzilmalarining merosxo'ri sifatida davlat boshqaruvi, hududiy tashkilot va etnik munosabatlar sohasidagi boy tajribalarni tadrijiy rivojlantirgan.

XI asr Markaziy Osiyo etnogeografiyasi haqida mulohaza bildirar ekanmiz, ushbu davrda mintaqada muhim o'rin tutgan *qarluq* qabilalari ittifoqini alohida qayd etish lozim. Sababi, ushbu davrlarga qadar *qarluqlar* nafaqat Sirdaryo va Amudaryo oralig'ida, balki mintaqaning shimol va shimoliy-sharqiy hududlarida ko'chib, boshqa elatlarning tarkibiga kirgan. Xususan, al-Mas'udiy (IX asr oxiri–X asr o'rtalari) Orol dengizi yaqinidagi cho'llarda yashovchi o'g'uzlar bilan bir qatorda qarluqlarni ham tilga oladi². Mahmud Koshg'ariy *qarluqlar* haqida "*Ular turklarning bir turi bo'lib, lardan boshqadir*" deya ma'lumot beradi³.

Shuningdek, *qarluqlar* haqida X asrda yaratilgan yozma manbalar ham muhim etnogeografik ma'lumotlarni o'zida mujassam etgan. Jumladan, "Hudud al-olam" asarida *qarluqlar* egallab turgan hudud sharqda Tibet, g'arbda g'uzlar, shimolda chigil va to'g'uz-o'g'uz qabilalari, janubda esa Movarounnahr o'lkalari bilan chegaralangani qayd etiladi⁴.

K.Sh.Shoniyozov qarluqlarni ularning joylashuv makoniga qarab to'rt asosiy guruhga ajratadi. Birinchi guruh Ili daryosining shimolida joylashgan etnik jamoani tashkil etgan. Ikkinchi guruh Hangay tog'lari etaklari va Tannu-Ola mintaqalarida istiqomat qilgan. Uchinchi guruh Sharqiy Turkistonning g'arbiy hududlarida shakllangan bo'lsa, to'rtinchi guruh Toxariston va Hindistonning shimoliy o'lkalarida vujudga kelgan etnik jamoalardan iborat edi⁵. Ushbu ma'lumotlar qarluqlarining keng hududiy tarqalishini va ularning etnogeografik jihatdan turli muhitlarga moslashganligini ishora qiladi.

Shu bilan birga, "Devon"da keltirilgan ma'lumotlar qarluqlarni mustaqil yetakchi qabila sifatida emas, balki ayrim hollarda boshqa qabilalarga tobe bo'lgan, *turkmanlar* tarkibiga kiruvchi etnik guruh sifatida tasvirlaydi. Xususan, Mahmud Koshg'ariy: "*qarluq turkmanlarining bir guruhi. Ular ko'chmanchi*

¹ Qo'ldashev S. "O'zbek davlatchiligi tarixi: "Devoni lug'otit turk" davlat boshqaruvi bo'yicha muhim manba. –Diss. tar. fan bo'yicha falsafa doktori. –Toshkent, 2025. –B. 53.

² Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. –Тошкент: Шарқ, 2001. –Б. 266.

³ Махмуд Кашгарий. Девону луғотит турк. I том. – Тошкент: ЎзССР Фанлар академияси нашриёти, 1960. –Б. 498.

⁴ Махмудов Б.Х. Қорахонийлар давлатчилиги тизимининг хусусиятлари. –Дисс. тар. фан. номзоди. –Тошкент, 2010. –Б. 49.

⁵ Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни... –Б. 340.

bo'lib, o'g'uzlardan boshqa, ular ham turkmandir" deb ta'kidlaydi¹. Ushbu ma'lumotlar *qarluq* qabilasining Qoraxoniylar davlati doirasidagi o'rni va maqomi vaqt o'tishi bilan o'zgarib borgani, ularning etnogeografik va etno-ijtimoiy holati dinamik xarakterga ega bo'lganini ko'rsatadi.

XI asrga kelib, ya'ni Mahmud Koshg'ariy "Devonu lug'otit turk" asarini yozgan davrda, *qarluq* qabilasining turkiy qabilalar ittifoqi doirasidagi yetakchi mavqei ma'lum darajada susaygan bo'lishi ehtimoldan holi emas. Biroq Mahmud Koshg'ariy tomonidan qarluqlarni turkmanlarning bir toifasi sifatida qayd etilishi ilmiy jihatdan muayyan baxsli masalalarni keltirib chiqaradi. Ehtimol, muallif bu bilan butun *qarluq* etnosi emas, balki turkmanlar tarkibida yashagan *qarluq* qabilasiga mansub ayrim guruhlarini nazarda tutgan bo'lishi mumkin. Ushbu holat qarluqlarning etnik maqomi va ijtimoiy-siyosiy o'rni XI asrga kelib bir xil emas, balki hududiy va siyosiy sharoitga bog'liq holda farqlangan bo'lishi mumkinligi haqidagi mulohazalarni keltirib chiqaradi².

Qoraxoniylar davlati etnik tarkibida *qarluqlar* bilan bir qatorda *chigil* va *xalach* qabilalari ham muhim o'rin tutadi. Chigil qabilasi IX–XI asrlarda Issiqko'l atrofida yashagan. "Hudud al-olam"da yozilishicha, *chigillar* qarluqlarning shimolida va Issiqko'lning janubida yashagan. "Devonu lug'otit turk" asarida qayd etilishicha, "chigil – Barsixon janubidagi Qiyas shaharchasi, Taroz yaqinidagi chigil shaharchasi va Qo'shg'ar yaqinidagi bir qancha qishloqlarda yashagan uch elatning nomidir"³. Barsixon shahri "Hudud al-olam"da qayd etilishicha, Issiqko'lning janubida joylashgan bo'lsa, Qiyas Issiqko'lning janubiy-sharqidagi shaharlardan biri edi. Shuningdek, Mahmud Koshg'ariy Qiyasni *tuxsi* va *chigil* shaharlaridan biri deb ta'riflaydi⁴. Ushbu ma'lumotlar chigillarning Qoraxoniylar davlati hududida keng geografik makonda joylashganligini ko'rsatadi.

Chigillarning asosiy mashg'uloti chorvachilik bo'lib, ularning iqtisodiy hayoti qoramol, qo'y-echki va ot-yilqi boqishga tayangan. Shu sababli ularning katta qismi ko'chmanchi chorvador sifatida o'tovlar va kapalarda yashagan. Biroq shahar va qishloqlarda istiqomat qilgan chigil guruhlar orasida dehqonchilik va hunarmandchilik bilan shug'ullangan yarim o'troq aholi ham mavjud edi. Chigil qabilasi Qoraxoniylar davlati siyosiy, iqtisodiy va harbiy hayotida muhim o'rin tutgan. Ular totemi hisoblangan "*arslon*" atamasining xoqonlar unvonlarida qo'llanilishi ham bu qabilaning nufuzidan dalolat beradi. Shu bilan birga,

¹ Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. I том... –Б. 439.

² Махмудов Б.Х. Қорахонийлар давлатчилиги тизимининг хусусиятлари. –Дисс. Тар. Фан. Номзоди. –Тошкент, 2010. –Б. 47.

³ Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни... –Б. 343.

⁴ Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. III том. – Тошкент: ЎзССР Фанлар академияси нашриёти, 1963. –Б. 187.

chigillardan tashkil topgan maxsus harbiy bo'linmalar xoqonlarning harbiy yurishlarida faol ishtirok etgan¹.

Mahmud Koshg'ariy "Devonu lug'otit turk" asarida qayd etilgan yana bir etnonim *xalaj* bo'lib, ular Talas vodiysida (uning yuqori qismida) joylashgan. Xalajlarning qishki joylari esa Taroz shahrining sharqida edi. E'tiborlisi, Yettisuvda *xalajlar* son jihatidan uncha ko'p bo'lmagan. Mahmud Koshg'ariyning ma'lumotlarida Yettisuvda xalajlarning faqat ikki guruhi joylashgan². Ular ham *chigillar* kabi Qoraxoniylar davlati siyosiy hayotida faol ishtirok etgan va ushbu davlatning etnik-siyosiy poydevorini shakllantirishda muayyan o'rin tutgan. Keyingi davrlarda xalajlarning bir qismi Movarounnahrning markaziy viloyatlariga kirib kelib, mahalliy o'troq aholi bilan aralashgan holda tadrijiy ravishda o'troqlashib borgan.

"Devon"da qayd etilgan yana bir etnik birlik nomi *tuxsi* bo'lib, ular turkiy qabilalardan biri sifatida asosan Issiqko'lining janubiy qismida, Qiyas shahri atrofida istiqomat qilgan. Mahmud Koshg'ariy tuxsilarni *yag'mo* va *chigil* qabilalari bilan yaqin aloqada, o'zaro aralash holda yashaganini ta'kidlaydi³. U til xususiyatlarini izohlar ekan, *tuxsi*, *chigil* va *yag'mo* qabilalarining til jihatdan deyarli farq qilmasligini qayd etadi.

"Devonu lug'otit turk" asarida ushbu qabilalarning xo'jalik faoliyati va turmush tarzi o'rtasida ham yaqinlik mavjudligi haqida ma'lumotlar berilgan. Jumladan, Mahmud Koshg'ariy "bista" atamasini izohlar ekan, uning savdo-sotiq bilan bog'liq xizmat turini ifoda etishini qayd etib, bu kabi xo'jalik amaliyotini *tuxsi*, *chigil* va *yag'mo* qabilalari orasida shaxsan kuzatganini ta'kidlaydi⁴. Ushbu ma'lumotlar tuxsilarining nafaqat til, balki iqtisodiy faoliyat jihatidan ham qo'shni qabilalar bilan umumiylikka ega bo'lganligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, asarda *tuxsi* qabilasining *chigil* va *yag'mo* qabilalari bilan yondosh hududda yashagani, ularning tili, fe'l-atvori va turmush tarzi yaqin ekanligi ta'kidlanadi. Shu bilan birga, Mahmud Koshg'ariy tuxsilarni yirik qabilalarga yaqin, ammo son jihatdan nisbatan kichik etnik guruh sifatida tavsiflaydi.

Yag'molarning salmoqli qismi (IX asr oxiri – X asr boshlarida) bir necha guruhlariga bo'linib, Qashgar, Tangritog' tog'larining sharqiy va janubi-sharqiy yon bag'irlarida, Norin daryosining yuqori oqimiga kelib o'rnatiladilar. Bularning kichik bir guruhi Turfan havzasida ham yashagan. Yag'molarning asosiy mashg'uloti chorvachilik bo'lib, ularning ot va yilqilari ko'p bo'lgan. Shu o'rinda, Yag'molarning Farg'onaning shimoliy mintaqalari va unga tutash hududlarda bu yerda yashovchi qabilalar bilan doimiy madaniy aloqalari bo'lgan. Mahmud Koshg'ariy qayd

¹ Махмудов Б.Х. Қорахонийлар давлатчилиқ тизимининг хусусиятлари. –Дисс. Тар. Фан. Номзоди. –Тошкент, 2010. –Б. 51.

² Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. I том... –Б. 422.

³ Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. I том... –Б. 93.

⁴ Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. I том... –Б. 52.

etishicha, “tillarning yengili o‘g‘uzcha¹, eng to‘g‘risi, yaxshisi – yag‘mo, tuxsi qabilalarining tili...” deb yozgan edi. Shu bilan birga, u yag‘mo tilining Sirdaryo sohillarida va Ili-Chu oralig‘ida yashovchi arg‘u qabilasi tiliga yaqinligini aniq qayd etgan². Ushbu ma‘lumotlar yag‘molarning Qoraxoniylar davlati etnik-madaniy tarkibida muhim o‘rin tutganini va ularning qo‘shni turkiy qabilalar bilan til va madaniyat jihatidan yaqin ekanligini ko‘rsatadi.

Qoraxoniylar davlati tarkibidagi yirik turkiy qabilalardan yana biri arg‘ulardir. Arg‘ular qadimiy turkiy qabilalar qatoriga kirib, tadqiqotchi N.A.Aristov arg‘u va basmil qabilalarini bir qabilaning ikki xil nomlanishi sifatida talqin qiladi. Bu so‘zlarning ma‘nosi “aralash”, “qo‘shilgan”, ya‘ni bir qancha urug‘lardan tashkil topgan deganidir³. Biroq Mahmud Koshg‘ariy “Devonu lug‘otit turk” asarida arg‘u va basmil qabilalarini alohida-alohida tilga olib, ularga mustaqil tarzda ta‘rif beradi⁴. Bu esa ushbu qabilalarning etnik jihatdan yaqin bo‘lishi mumkinligini istisno etmagan holda, ularni bir xil qabila sifatida to‘liq aynilashga ehtiyotkorlik bilan yondashish zarurligini ko‘rsatadi.

Turkiy qabilalarning etnogeografik tarixi tahlil etilganda, har bir qabilaning o‘ziga xos ijtimoiy-siyosiy va etnomadaniy jarayonlarni boshdan kechirganligi aniq bo‘ladi. Ayrim yirik qabilalarning o‘zaro birlashib davlat tashkil etishi natijasida qo‘shni va nisbatan kichik qabilalar ular tarkibiga singib ketgan, ba‘zida esa hatto o‘z etnik nomini ham o‘zgartirgan holatlar kuzatiladi. Shuningdek, tarixiy jarayonlarda yagona bir qabilaning ijtimoiy-siyosiy beqarorlik yoki hududiy o‘zgarishlar ta‘sirida bir necha guruhlariga bo‘linib, turli hududlarga tarqalishi ham tabiiy hol sifatida namoyon bo‘lgan⁵. Bu kabi jarayonlar etnik guruhlarining nomlanishi va identifikatsiyasida o‘zgarishlar yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, turkiy qabilalar va etnik guruhlarining kelib chiqishi tarixini o‘rganish dolzarb ilmiy masalalardan biri bo‘lib, ayrim qabilalar haqidagi ma‘lumotlar hozirga qadar juda cheklangan holda saqlanib qolgan. Ana shu holatni inobatga olgan holda aytish mumkinki, arg‘u va basmil qabilalarining bir etnik negizga ega bo‘lib, bir qabilaning ikki xil nom bilan atalib kelinishi ehtimoldan xoli emas⁶. Bu ehtimol etnogeografik harakat, siyosiy tobelik va manbalardagi terminologik tafovutlar bilan izohlanishi mumkin.

Mahmud Koshg‘ariy ma‘lumotlariga ko‘ra, arg‘u qabilasi asosan Isfijob va Bolasag‘un shaharlarining o‘rtasidagi shaharlarda va qishloqlarda istiqomat qilgan hamda ushbu hududlarda katta siyosiy-ijtimoiy nufuzga ega bo‘lgan. “Devonu

¹ Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни... –Б. 268.

² Маҳмуд Қошғарий. Девону луғотит турк. I том... –Б. 66.

³ Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни... –Б. 354.

⁴ Маҳмуд Қошғарий. Девони луғотит турк. Индекс-луғат. –Б. 391-392.

⁵ Маҳмудов Б.Х. Қорахонийлар давлатчилиқ тизимининг хусусиятлари. –Дисс. Тар. Фан. Номзоди. –Тошкент, 2010. –Б. 53.

⁶ Маҳмудов Б.Х. Қорахонийлар давлатчилиқ тизимининг хусусиятлари. –Дисс. Тар. Фан. Номзоди. –Тошкент, 2010. –Б. 54.

lug'otit turk"da keltirilgan ma'lumotlar arg'ularning hozirgi Chimkentdan To'qmoqqa qadar bo'lgan hududlarda, shuningdek, butun Farg'ona vodiysida tarqalgan holda yashaganini ko'rsatadi. X asr oxiri - XI asr boshlarida Yettisuvda joylashgan arg'ularning salmoqli qismi Toshkent vohasi va Farg'ona vodiysiga kelib yashaydilar. Arg'ular nafaqat demografik jihatdan, balki davlat boshqaruvida ham faol ishtirok etgan etnik guruh sifatida namoyon bo'lgan. Biroq XI asrga kelib, *arg'u* qabilasi o'zining ilgari siyosiy va ijtimoiy mavqeini ma'lum darajada yo'qotgan. Shunga qaramay, ular yuqorida qayd etilgan hududlarda yashashda davom etgan.

Mahmud Koshg'ariy asarida nafaqat Markaziy Osiyodagi turkiy qabilalar, balki ularga qo'shni bo'lgan forsiyzabon etnoslarning ham hududiy joylashuvi qayd etilgan. Xususan, muallif asarida turkiylar bilan yonma-yon yashagan qabila sifatida *sug'dliklar* tilga olinadi. U yozishicha, *turklar* va *sug'dliklar* bir-birining tilini bilgan. Ayniqsa, Yettisuvda yashovchi *sug'dak*, *kanjak* va *arg'ular* har ikki til – *sug'd* va *turkiy* tilida barobar gaplashganlar¹. Ikki tilni – *sug'd* va *turkiy*, keyinchalik *tojik* tilida so'zlovchi aholi Movarounnahrning shahar va qishloqlarida ham oz bo'lmagan.

Arab va forsiy tilli manbalarda qayd etilishicha, turkiy xalqlar qaysi hududda yashamasin, *sug'diylar* ham o'sha yerda yashab kelganlar. Shu sababli Mahmud Koshg'ariy (XI asr) o'z davrida keng tarqalgan quyidagi xalq maqolini keltiradi: “*Totsiz (sug'dsiz) turk bo'lmas, boshsiz bo'rk bo'lmas*”². Boshqacha qilib aytganda, bosh qalpoqsiz bo'lmagandek, turk ham *sug'dsiz* bo'lmagan, deya turk-*sug'd* munosabatlari simbiozi uzoq tarixiy jarayonlar borib taqalishiga ishora qiladi.

O'z navbatida, turkiy aholi bilan shaharlarda va qishloqlarda birga yashagan *sug'diylar* (*sug'daklar*) *sug'd* va *turk* tillarini baravar bilganlar. Mahmud Koshg'ariy yozishicha: “*Bolasag'unliklar sug'dcha va turkcha so'zlashadilar. Taroz va Madantulbayza shaharlarining xalqi ham sug'dcha, ham turkcha gaplashadilar*”³. Bu ma'lumotlar turkiy va *sug'diylar* o'rtasida ikki tilli muloqotning keng tarqalganini hamda ularning madaniy hamjamiyatda faol ishtirok etganini ko'rsatadi.

“Devonu lug'otit turk” turkiy qabilalar tili va lahjalarining hududiy tarqalishini, umumturkiy dialektning shakllanishini, shuningdek, madaniy hamkorlik va ijtimoiy integratsiya jarayonlarini yoritadi. Bu ma'lumotlar Markaziy Osiyoda etnolingvistika, tarixiy va etnografik tadqiqotlar uchun asosiy manba vazifasini o'taydi. Shuningdek, ushbu davrda mintaqada to'liq identiklikka ega yagona turkiy etnos bo'lmagan kabi, mukammal shakllangan umumiy turkiy til ham mavjud bo'lmaganligiga ishora qilinadi. Bu holat, avvalo, ushbu davrda turkiy aholi o'rtasida qabilaviy va hududiy lahjalar kuchli saqlanib qolganligi bilan izohlanadi.

Mahmud Koshg'ariyning diqqat e'tibori asosan ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi turkiy qabilalar tiliga qaratilgan bo'lib, Farg'ona, Toshkent vohasi, Zarafshon hamda Qashqadaryo–Surxon vohalarida istiqomat qilgan turg'un aholi

¹ Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. I том... –Б. 65.

² Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни... –Б. 262.

³ Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни... –Б. 262.

til xususiyatlarini maxsus o'rganish uning asosiy vazifasiga kirmagan. Biroq u ushbu hududlarni umumiy holda "*Xoqoniya o'lkasi*" deb atab, bu yerda yashovchi turkiy xalqlarning tilini nisbatan ravon, ochiq va me'yoriy turkcha sifatida baholaydi. Bu esa Qoraxoniylar hududida umumturkiy til muhitining mavjud bo'lganini anglatadi.

Shu bilan birga, Mahmud Koshg'ariy asarida qabilaviy lahjalar mavjudligi ham aytib o'tilgan. U "*qay, yobaku, basmil, totor qabilalarining har birining tili o'ziga xosdir, shu bilan birga ular turkchani yaxshi biladilar,*" deb ta'kidlaydi¹. Bu ma'lumotdan ko'rinib turibdiki, mazkur qabilalar turkiyzabon etnoslar bo'lib, ular umumturk tilidan tashqari o'z qabilaviy lahjalariga ham ega bo'lgan. Demak, XI asrda til birligi to'liq bir xil shaklda emas, balki ko'p qatlamli – umumturk va mahalliy lahjalar uyg'unligi asosida qaror topgan.

Qarluqlar Qoraxoniylar hukmronlik qilgan hududlarda *yag'mo, arg'u, tuxsi, yobaku* kabi boshqa turkiy qabilalar ham yashagan bo'lib, ularning lahjalari *qarluq-chigil* dialektidan ma'lum darajada farq qilgan. Mahmud Koshg'ariy bu farqlarni qayd etar ekan, shuni ham ko'rsatadiki, *qarluq-chigil* dialekti ushbu hududda yetakchi til asos sifatida shakllanib borgan. Ayni shu dialekt keyinchalik umumiy elat tili funksiyasini bajarib, turli qabilaviy lahjalarni birlashtiruvchi omilga aylangan.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, qabilalar tillaridagi farqlar ularni yagona etnik birlik – keyinchalik shakllangan *o'zbek elati* tarkibiy qismi sifatida baholashga to'sqinlik qilmaydi. Chunki X–XI asrlarda qabilaviy va hududiy lahjalar bilan bir qatorda, barcha turkiy aholi uchun tushunarli bo'lgan umumiy dialekt mavjud bo'lgan. Bu dialekt aynan *qarluq-chigil* asosida qaror topgan edi².

Uyg'urlar haqida so'z yuritar ekan, Mahmud Koshg'ariy "*ularning tili turkchadir, lekin o'zlari o'zaro so'zlasha oladigan yana bir boshqa tillari ham bor,*" deb ta'kidlaydi³. Ushbu fikrdan kelib chiqib, uyg'urlar orasida ham umumturk til bilan birga qabilaviy yoki mahalliy nutq shakllari mavjud bo'lgan, degan xulosa chiqarish mumkin. Olimning asarida o'ziga xos etnogeografik yondashuv yaqqol ko'rinadi. Uning qayd etishicha, shahar madaniyati va fors-tojik aholisi bilan kam aloqada bo'lgan, vohalardan tashqarida yashovchi ko'chmanchi aholi tili nisbatan "*eng to'g'ri va aniq til*" hisoblangan. Bu holat tilning geografik muhit, xo'jalik turi va etnik aloqalarga bog'liq holda shakllanganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, "Devonu lug'otit turk" asarida keltirilgan ma'lumotlar XI asr turkiy jamiyatida til birligi qabilaviy xilma-xillik, hududiy tafovut va umumturkiy aloqa vositasi uyg'unligi negizida shakllanganini ochib beradi. Asar turkiy xalqlarning etnogeografiyasi va til tarixi o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni yoritib beruvchi nodir manba sifatida katta ilmiy qimmatga ega.

¹ Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. I том... –Б. 65.

² Шониёзов К. Ўзбек халқининг ш ақлланиш жараёни... –Б. 319.

³ Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. I том... –Б. 65.

Qoraxoniylar davlati tarkibidagi qabilalar masalasi jamiyat va davlat tarixi uchun alohida ahamiyatga ega bo'lgan muhim omil hisoblanadi. Qabilalarning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, madaniy taraqqiyoti hamda ularning o'zaro birlashganlik darajasi mavjud davlatning barqarorligi va rivojini ta'minlab bergan. Shu boisdan, hozirgi zamon ilmiy tadqiqotlarida turkiy davlatlar tarixini o'rganish ularning tarkibidagi har bir qabilaning etnik tarixi va etnogeografik xususiyatlarini tahlil qilish bilan uzviy bog'liq holda olib borilishi lozim.

Chunki har bir qabila davlatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotida ma'lum darajada o'z o'rniga ega bo'lib, hududiy va etnik uyushma sifatida davlat tuzilmasining muhim tarkibiy qismi hisoblangan. Shu sababli, davlat tarkibidagi har bir qabilaning son jihatdan katta yoki kichik bo'lishidan qat'iy nazar, uning davlat faoliyatidagi ishtiroki inobatga olinishi zarur.

Bu esa Qoraxoniylar davlati etnik tarkibini o'rganishda qabilalar masalasiga siyosiy hokimiyat va etnik makon o'rtasidagi uzviy bog'liqlik nuqtai nazaridan yondashish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Vaholanki, Qoraxoniylar kabi yirik davlatning vujudga kelishi va rivojida bir yoki ikki qabilaninggina ishtiroki bo'lmagan. Dastlab mazkur siyosiy tuzilma qabilalar ittifoqi shaklida qaror topgan bo'lib, keyinchalik unga *yag'mo*, *arg'u*, *tuxsi* va boshqa ko'plab turkiy qabilalar qo'shilishi natijasida ittifoqning ham son jihatdan, ham siyosiy-ijtimoiy nufuzi oshib bordi. Ana shu jarayonlar zaminida Qoraxoniylar davlati shakllanib, mustahkam davlat tuzilmasiga aylandi. Yuqorida qayd etilgan har bir qabilaning tarixiy yo'li ushbu jarayonlarni yaqqol namoyon etadi.

Shu bois, turkiy davlatlarning davlatchilik taraqqiyoti bosqichlari va ularga xos xususiyatlarni inobatga olgan holda masalaga yondashish yanada ilmiy va xolis xulosalar chiqarish imkonini beradi. Afsuski, ayrim tadqiqotlarda mazkur jihat yetarli darajada hisobga olinmaganligi sababli davlat tarixi bilan bog'liq ayrim masalalar biryoqlama talqin etilgan va ma'lum darajada murakkablashib ketgan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Qoraxoniylar davlati turkiy qabilalarning o'zaro siyosiy ittifoqi va uyushmasi asosida tashkil topgan. Uni ma'lum bir qabilaning tarixi bilan bog'lab izohlash ilmiy jihatdan to'g'ri emas. Albatta, davlat tarkibida ayrim qabilalarning nufuzi yuqori bo'lgan, biroq davlatning yashovchanligi, siyosiy barqarorligi va harbiy-iqtisodiy qudrati uning tarkibidagi barcha qabilalarning o'zaro hamkorligi va manfaatlar uyg'unligi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan.

Davlat tarkibidagi qabilalar soni va nufuzining ortishi, shuningdek, Movarounnahrning o'troq aholisi bilan etnik-madaniy va iqtisodiy aloqalarning kuchayishi natijasida etnik konsolidatsiya jarayonlari jadallashdi. Bu esa davlat boshqaruv tizimida ham muhim o'zgarishlarni taqozo etdi: endilikda boshqaruv faqat alohida qabilalar manfaatiga emas, balki hududda yashovchi ko'chmanchi va o'troq aholining umumiy manfaatlariga tayana boshladi.

Demak, Qoraxoniylar davlati qarluq xoqonlari boshchiligida shakllangan ko'p qabilali siyosiy uyushma sifatida o'z taraqqiyoti davomida Sharqiy Turkiston,

Yettisuv va Movarounnahr hududlaridagi ko'chmanchi va o'troq aholini yagona siyosiy makon doirasida birlashtirdi. Davlat tarkibidagi ayrim qabilalar kuchli etnik-madaniy jarayonlar ta'sirida mahalliy aholiga singib, o'z etnik nomlarini yo'qotgan bo'lsalar-da, mamlakatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojida muhim o'rin tutib, tarixiy jarayonlarda faol ishtirok etdilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғоти-т-турк [Туркий сўзлар девони]. Таржимон ва нашрга тайёрловчи Қ. Содиков. – Тошкент: Гафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа уйи, 2017. – 488 б.
2. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. I том. – Тошкент: ЎзССР Фанлар академияси нашриёти, 1960. – 499 б.
3. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. II том. – Тошкент: ЎзССР Фанлар академияси нашриёти, 1961. – 429 б.
4. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. III том. – Тошкент: ЎзССР Фанлар академияси нашриёти, 1963. – 464 б.
5. Маҳмуд Кошғарий. Девони луғотит турк. Индекс-луғат. – 496 б.
6. Маҳмудов Б.Ҳ. Қорахонийлар давлатчилиқ тизимининг хусусиятлари. –Дисс. Тар. Фан. Номзоди. –Тошкент, 2010. –138 б.
7. Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. –Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 464.
8. Mahmud Kaşğarînin “Divani lügat-it-türk” əsərində etnonimlər, Bakı, 2009, “GARİSMA” MMC, 110 s.
9. Qo'ldashev S. “O'zbek davlatchiligi tarixi: “Devoni lug'otit turk” davlat boshqaruvi bo'yicha muhim manba. –Diss. tar. fan bo'yicha falsafa doktori. –Toshkent, 2025. – 177 b.

“DEVONU LUG‘ATI-T-TURK”DAGI AYRIM FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING KONSEPTUAL TADQIQI

SHAHNOZA TO‘LAGANOVA

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti katta o‘qituvchisi,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya. Maqolada qadimgi turkiy yodgorliklarda uchraydigan frazeologik birliklarning semantik, metaforik va konseptual xususiyatlari tahlil qilingan. Unda ayrim frazeologik birliklar tarkibidagi ifodalar jismoniy harakatdan ijtimoiy-axloqiy tushunchaga o'tish jarayoni yoritiladi. Tadqiqot qadimgi turkiy tafakkurda jismoniy belgi (ko'z, bosh, ko'ngil)lar insonning ichki holati, irodasi va munosabatini ifodalovchi asosiy konsept sifatida shakllanganini ko'rsatadi. Frazeologizmlarda tana holatlari — bo'ysunish, sadoqat, sodiqlik, hissiy jo'shqinlik, hasad, nafrat kabi ma'nolarning timsoliga aylangani qayd etiladi. Shuningdek, ushbu metaforik modellar keyingi davr

adabiyotida, xususan Navoiy ijodida davom etgani, hozirgi o'zbek tilidagi ko'plab birlikmalar bilan semantik jihatdan uzviy bog'liqligi ta'kidlanadi. Maqolada frazeologik birliklarning diaxron evolyutsiyasi, konseptual asoslari, metaforik qatlamlari izchil ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: frazeologizm, qadimgi turkiy til, metafora, konsept, semantika, Devonu lug'atit turk, Navoiy.

Özet. Makalede, eski Türk yazıtlarında yer alan deyimlerin (frazeeolojik birimlerin) semantik, metaforik ve kavramsal özellikleri tahlil edilmiştir. Çalışmada, bazı deyimlerin yapısındaki ifadelerin fiziksel hareketten toplumsal-ahlaki kavramlara geçiş süreci açıklanır. Araştırma, eski Türk düşüncesinde fiziksel niteliklerin (göz, baş, gönül) insanın iç hâlini, iradesini ve tutumunu ifade eden temel birer kavram olarak şekillanganunu gösterir. Deyimlerde beden durumlarının — itaat, sadakat, vefa, duygusal coşkunculuk, kıskançlık, nefret gibi anlamların sembolüne dönüştüğü belirtilir. Ayrıca bu metaforik modellerin sonraki dönem edebiyatında, özellikle de Nevâî'nin eserlerinde devam ettiği ve günümüz Özbekçesindeki birçok birleşik ifade ile semantik açıdan sıkı şekilde bağlantılı olduğu vurgulanır. Makalede deyimlerin artzamanlı gelişimi, kavramsal temelleri ve metaforik katmanları tutarlı biçimde ortaya konmuştur.

Anahtar kelimeler: deyim, eski Türk dili, metafor, kavram, anlambilim, Dîvânu Lugâti't-Türk, Nevâî.

Annotation. This article analyzes the semantic, metaphorical, and conceptual features of phraseological units found in ancient Turkic written monuments. The study examines the process by which certain phraseological expressions—originally denoting physical actions—undergo semantic transformation to acquire socio-ethical meanings. It is demonstrated that in ancient Turkic worldview, physical attributes such as the eye, head, and heart functioned as core conceptual markers representing a person's inner state, will, and emotional attitude. Bodily gestures within phraseological units symbolically convey concepts such as submission, loyalty, faithfulness, emotional intensity, envy, and hostility. Furthermore, the continuity of these metaphorical models in later literary periods, particularly in the works of Alisher Navoi, as well as their semantic correlation with many expressions in modern Uzbek, is emphasized. The article consistently presents the diachronic evolution, conceptual foundations, and metaphorical layers of phraseological units.

Keywords: phraseology; Old Turkic; metaphor; concept; semantics; Dîwân lughât at-Turk; Navoi.

Kirish. Qadimgi turkiy yozma yodgorliklar — turkiy xalqlarning milliy tafakkuri, dunyoqarashi, madaniy-estetik qarashlari, ijtimoiy-ma'naviy qadriyatlarini aks ettiruvchi bebaho manbalardir. Bu bitiklarda xalqning tarixiy tajribasi, ruhiy olami, axloqiy mezonlari va ijtimoiy munosabatlari o'z ifodasini topgan. Ushbu yodgorliklarda uchraydigan frazeologik birliklar nafaqat til birliklari sifatida, balki qadimgi turkiy jamiyatning konseptual va kognitiv tizimini yorituvchi muhim vosita sifatida ham alohida ahamiyatga ega.

Frazeologizmlarda jismoniy belgi va tana a'zolarining (ko'z, bosh, ko'ngil va b.) turlicha semantik yuklamaga egaligi kuzatiladi. Ular insonning ichki kechinmalari, ruhiy holati, iroda va ijtimoiy munosabatlarini ifodalashda asosiy

tayanchoq bo'lib xizmat qilgan. Aynan tana a'zolariga tayangan metaforik modellar qadimgi turkiy tafakkurning asriy qatlamlarini ko'rsatib, tilning kognitiv mohiyatini ochib beradi. Bu jarayon keyingi davr adabiyotida, xususan, Alisher Navoiy ijodida davom etganligi hamda hozirgi o'zbek tilidagi ko'plab iboralar bilan uzviy aloqadorligi tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Frazeologik birliklar o'zbek tilshunosligida yaxshi tadqiq qilingan muamoldandir. Sh.Rahmatullayev¹, A.Mamatov² tomonidan yirik monografik tadqiqotlar hamda izohli lug'atlarlar yaratgan. Qadimgi turkiy tilda mavjud frazeologik birliklar Q.Sodiqov³ hamda turk olimlari Do'g'an Aksan⁴, Talat Tekin⁵ tadqiqotlarda tahlilga tortilgan. Til birliklarini konseptual-metoforik metodlarda tahlil qilish bo'yicha J.Lakoff⁶ hamda R.Lengakkerlar⁷ ishlari mavjud

Maqsad va vazifa: Qadimgi turkiy yodgorliklarda uchraydigan frazeologik birliklarning semantik, metaforik va konseptual xususiyatlarini aniqlash, ularning jismoniy tizimdan ijtimoiy-axloqiy talqinga o'tish jarayonini yoritish hamda keyingi davrlardagi, xususan, Navoiy davri tili va hozirgi o'zbek tilidagi davomiylik bilan bog'liqligini ko'rsatish maqolaning asosiy maqsadidir. Bu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- Qadimgi turkiy yodgorliklarda uchraydigan frazeologik birliklarni aniqlash va tavsiflash.
- Frazeologik birliklarning semantik qatlamlarini tahlil qilish.
- Ushbu birliklarning konseptual-metaforik asoslarini o'rganish.
- Qadimgi frazeologizmlarning ijtimoiy-axloqiy ma'noga o'tish jarayonini ko'rsatish.
- Frazeologik birliklarning diaxron evolyutsiyasini yoritish.

Usullar. Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

Deskriptiv metod — frazeologik birliklarni tavsiflash, tarkibiy xususiyatlarini aniqlashda;

Komparativ metod — qadimgi yodgorliklar bilan keyingi davr manbalari o'rtasidagi semantik va metaforik o'xshashliklarni qiyoslashda;

Kognitiv-tahliliy metod — frazeologizmlarning konseptual asoslarini aniqlashda;

Diaxron tahlil — frazeologik birliklarning tarixiy taraqqiyoti va hozirgi tilga ta'sirini yoritishda.

¹ Rahmatullayev Sh. va boshqalar. O'zbek tili frazeologik lug'ati. – T.: G'afur G'ulom, 2022.

² Маматов А. Хозирги ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари. – Т.: Академнашр, 1991.

³ Sodiqov Q. Qutadg'u bilig so'zligi. – T.: Akademnashr, 2020.

⁴ Doğan Aksan. Göktürk yazıtlarında söz sanatları güçlü anlatım yolları // Türk dülü araştırmaları yillığı – Belleten. Cilt 38. – İstanbul, 1990.

⁵ Talat Tekin. Türkoloji Eleştirileri. – Ankara: Simurg, 1997.

⁶ Lakoff George, Jhonson Mark. Metaphors we live by. – Chicago: University of Chicago press, 1980.

⁷ Langacker R. Concept, image and symbol. – Berlin-New York: Mouton de Gruyter, 1991.

Natijalar va mulohazalar. “Frazeologik birlik. Tuzilishiga ko‘ra so‘z birikmasiga, gapga teng, semantik jihatdan bir butun, umumlashgan ma‘no anglatadigan, nutq jarayonida yaratilmay, nutqqa tayyor holatda kiritiladigan lug‘aviy birlik. Turg‘un birikmalarning obrazli, ko‘chma ma‘noga ega turi”.

Qadimgi yozma yodgorliklarda uchraydigan *tizligig sōkūrtimiz, bašliḡiḡ yūkiūtūrtimiz*¹ “boshlini egdiridi, tizzalini cho‘ktirdi” kabi birikmalar, shaklan tasviriy bo‘lsa-da, mazmunan bo‘ysunish, itoat, tan berish ma‘nosini anglatadi. Bu ifoda o‘z mohiyatiga ko‘ra metaforik: jismoniy harakat — “boshni egish” orqali psixologik va ijtimoiy holat — “taslim bo‘lish, itoat etish” ifodalanadi.

Mazkur metaforik model — “tana pozasidan ijtimoiy munosabatga o‘tish” — keyingi davrlar til tafakkurida ham davom etgan. Navoiy asarlarida bu ma‘no “bosh indirmak”, “bosh qo‘ymoq”, “bosh chekmak” kabi birikmalar orqali yanada boy obrazli tus oladi. Masalan, “bosh indirmak” — so‘zma-so‘z “boshni pastga tushirmoq” ma‘nosini bildirsa, mazmun jihatidan “bo‘ysunmoq, itoat etmoq” ma‘nosida qo‘llanadi. “Bosh qo‘ymoq” esa, fidoyilik, sadoqat yoki jon fido qilish ramziga aylanadi:

*Ишқ аро гаҳ-гаҳки эл пандига бош индурмадим,
Келди турлук-турлук ондин можаролар бошимда².*

Demak, “bosh” komponenti frazeologizmlar tarkibida qadimdan inson sha‘ni, irodasi, qadr-qimmatini ifodalovchi konsept sifatida namoyon bo‘ladi. Qadimgi turkiy bitiklarda hamda keyingi davrlarda ham jismoniy holatga, axloqiy va ijtimoiy munosabatni ifodalaydigan ramziy (metaforik) darajaga ko‘tarilgan. Hozirgi tildagi “bosh egmoq”, “boshini baland tutmoq”, “boshini yo‘qotmoq” kabi birikmalar esa ana shu tarixiy-semiotik izchillikning tabiiy davomidir. Shunday qilib, “bosh” komponentli frazeologik birliklar turkiy til tarixining barcha davrlarida insonning jamiyatdagi holatini, ruhiy va ijtimoiy munosabatini ifodalovchi asosiy konseptual yadrolardan biri bo‘lib qolmoqda.

“Devonu lug‘ati-t-turk” — qadimgi turkiy tillarning eng muhim korpus manbalaridan biri bo‘lib, unda XI asr turkiy qavmlari tilida qo‘llangan fonetik, leksik, frazeologik birliklarning keng qatlami qayd etilgan. Asarda jamlangan boy til material, xususan, barqaror birikmalar, metaforik mazmun kasb etgan iboralar hamda turli uslubiy qatlamlarga mansub frazeologik birliklar o‘sha davr turkiy tilining frazeologik tizmini aniqlash va ilmiy tasvirlash imkonini beradi. Mazkur birliklar davr til madaniyati, dunyoqarashi, ijtimoiy munosabatlari va tasavvurlarini aks ettiruvchi muhim lingvomadaniy dalillar sifatida qadrlanadi. Shu bois “Devonu lug‘ati-t-turk” qadimgi turkiy frazeologik boylikni, uning semantik xususiyatlari va metaforik qatlamini tadqiq etishda asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Asarda frazeologik birliklar alohida izohlanadi yoki she‘rlar va maqollar tarkibida keladi. Masalan, quyidagi parchaga e‘tibor beramiz:

¹ Содиқов Қ. Эски туркий битиглар. – Т.: ТошДШИ, 2009. – Б. 34.

² Алишер Навоий. Бадойиъ ул-бидоя. Мукамал асарлар тўплами. – Т.: Фан, 1987. – Б. 520.

يَزْمَدِي أَلْبُ أَرْنَجَقْ *Orunčaq alip yermädi*,
 أَرْمَدِي كُرُو الْمَلْعُ *Alimliy körü armadi*,
 ثَرْمَدِي أَرْأَا ادْشَلَقْ *Adašliq üzä turmadi*,
 تَرْكَشُورُ أَرْنُ قَلِنْ *Qalın erän tirkäšür*

Mazmuni: Bir kishi sitam qilib aytmoqda: “U kishi omonat olishdan to‘xtamadi, omonatni egasiga qaytarishni o‘ylamadi, uni quruq qaytaraverishdan zerikmadi. Do‘stlikka rioya qilmadi, endi qalin askar bilan menga qasd qilmoqchi”¹.

Frazeologik birliklar tildagi eng qadimiy, ammo eng tirik qatlamlardan biri bo‘lib, ularning shakllanishi tildagi tarixiy tafakkur jarayonlari bilan uzviy bog‘liqdir. Ular xalqning hayotiy tajribasidan, jismoniy harakat va kuzatuvlardan kelib chiqib, asta-sekin metaforik va abstrakt ma’noga ega bo‘lgan. Shunday frazeologik birliklardan biri — *adašliq üzä turmadi* iborasidir.

So‘zma-so‘z bu ibora “do‘stlik ustida turmadi” degani, ya’ni “do‘stlikka rioya qilmadi, sodiq qolmadi” mazmunini anglatadi. Shu yerda “turmoq” fe’li faqat jismoniy holatni emas, balki axloqiy barqarorlik va sodiqlikni bildiradi. Bu holat shuni ko‘rsatadiki, qadimgi turkiy tilda “turmoq” fe’li allaqachon metaforik qatlamga o‘tgan.

Qadimgi turkiy tafakkurda inson faoliyati ko‘pincha fazoviy asoslar orqali ifodalangan: “yuqoriga ko‘tarilmoq” – yuksalmoq, “pastga tushmoq” – yomonlashmoq, “ustida turmoq” esa – sobit, sodiq, barqaror bo‘lmoq ma’nolarini bildirgan. Demak, “Adašliq üzä turmadi” iborasida fazoviy konsept (“üzä” – asos, tayanch) orqali axloqiy-ijtimoiy holat ifodalangan.

Bu frazeologizm tildagi metaforik tafakkurning qadimgi izlarini saqlagan holda, konseptual o‘tishning ilk bosqichini ko‘rsatadi:

Jismoniy barqarorlik → Axloqiy sodiqlik → Ijtimoiy mas’uliyat.

Shunday qilib, “turmoq” fe’li dastlab “yiqilmaslik”, “tik turish” kabi harakatni bildirgan bo‘lsa, qadimgi turkiy tilning o‘zidayoq bu ma’no barqarorlik, sobitlik, sadoqat semantikalarini qabul qilgan. Bu holat, tilning ichki taraqqiyotida metaforik tafakkurning erta shakllanganini ko‘rsatadi. Shuningdek, Do‘stlik - fazoviy asos (tayanch) ma’nosida üzä (ustida) komponenti bilan do‘stlikni mustahkam asos, poydevor tarzida talqin qiladi. Demak, do‘stlik qadriyat sifatida jamiyat barqarorligini belgilovchi “tayanch” tushunchasi bilan bog‘langan. Adašliq üzä turmadi faqatgina “do‘stlikka rioya qilmadi” degan xabarni emas, balki do‘stlikni ijtimoiy tayanch sifatida qadrlamadi, unga loyiq bo‘lmadi degan chuqurroq ma’noni ham mujassam etadi.

Hozirgi o‘zbek tilida esa “turmoq” fe’lining metaforik qatlami to‘liq shakllangan: “so‘zida turmadi”, “do‘stlikni buzdi”, “turib bermoq” kabi iboralarda u sodiqlik, qat’iyat va vafodorlik konseptini tashiydi. Ayniqsa, og‘zaki tildagi

¹ Махмуд Кошғарий. Девону луғати-т-турк. Нашрга тайёрловчи ва кириш сўз муаллифи: Қ.Содиқов. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 2017. – Б. 96.

“turib bermoq” birikmasi qadimgi modelning zamonaviy shakli sifatida, do‘stni himoya qilish, yonida sobit turish ma’nosini ifodalab, qadimiy konseptual asosni saqlab qolgan.

Demak, “Adašlıq üzä turmadı” iborasi nafaqat frazeologik birlik, balki til tarixidagi metaforik tafakkur evolyutsiyasining jonli namunasidir. U tildagi metaforik tafakkurning fazoviy asosdan axloqiy va ijtimoiy asosga o‘tish jarayonini aks ettiradi. Shu bilan birga, bu birlik shuni ko‘rsatadiki, frazeologizmlar tilning tarixiylik mohiyatidan ajralmagan: ular xalq tafakkurining o‘zgarishi, ijtimoiy qadriyatlarning rivojlanishi bilan birga taraqqiy etadi.

تُقِشْتِي بِلْ يَآيْ قِشْ *Qiş yay bilä toquştı,*

بَقِشْتِي كُوزُنْ قِجْرُ *Qijir közün baqıştı.*

يُقِشْتِي تَشْقَالِي *Tutuşqalı yaqıştı,*

أُغْرَشُوْرْ لِمَتْ أَثْعَا *Utyalimat oyrasur.*

Aytmoqdaki: “Qish yoz bilan to‘qnashdi, ular bir-biriga qing‘ir ko‘z bilan qarashdi. Bir-birini tutish uchun yaqinlashdilar, ular bir-birini yutushni [yengishni] istar edi”¹.

Qijir közün baqıştı (“qiyshiq ko‘z bilan qaradi”) iborasi qadimgi turkiy tildagi psixologik holatning jismoniy obraz orqali ifodalanishining yorqin namunasi sanaladi.

So‘zma-so‘z ma’nosi — “qiyshiq ko‘z bilan qaradi”. Ammo mazmunan u yomon niyat, hasad, ishonchsizlik yoki dushmanlik bilan qarash ma’nosini bildiradi. Bu yerda “qijir” (qiyshiq)ning asosiy semasi — me’yordan og‘ish, to‘g‘rilikdan chetlanish, ya’ni axloqiy og‘ishni anglatadi. Shunday qilib, iboraning asl jismoniy tasviri — ko‘zning qiyshayishi, majoziy ma’noda esa niyatning buzilishi, ichki buzuqlik yoki hasadni bildiradi.

Bu ifoda metaforik asos jihatidan qadimgi turkiy dunyoqarashga xos bo‘lgan konseptual bog‘lanishga tayangan:

“To‘g‘rilik = ezgulik”, “qiyshilik = yovuzlik / buzuklik”

Ya’ni, insonning jismoniy “to‘g‘rilig”i, ayniqsa nigohi va qarashi, uning ichki dunyosi, axloqiy tozaligi bilan bevosita bog‘lab tasavvur qilingan. Shuning uchun “qiyshiq ko‘z bilan qaramoq” faqat tashqi holat emas, balki ichki illatning belgisi sifatida idrok etilgan. *Qijir közün baqıştı* iborasi qadimgi turkiy tildan boshlab metaforik qatlamda shakllangan frazeologik birlik bo‘lib, bunda jismoniy belgidan axloqiy bahoga o‘tish kuzatiladi. Bu o‘tish jarayoni tildagi metaforik tafakkurning qadimiyligini ko‘rsatadi.

Keyingi davrlarda, xususan, shunga o‘xshash majoziy birliklar mavjud. Masalan, “yomon ko‘z bilan qaramoq”, “ko‘zini olaytirmoq”, “ko‘z o‘qraytirmoq” kabi ifodalarda “ko‘z” tashqi idrok vositasi emas, balki ichki holatning ko‘zgusi sifatida ishlatiladi. U hali-hamon insonning ichki munosabatini

¹ Махмуд Кошғарий. Девону луғати-т-турк. Нашрга тайёрловчи ва кириш сўз муаллифи: Қ.Содиқов. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 2017. – Б. 106.

tashqi belgida ifodalovchi konsept sifatida faol ishlaydi. Bu, o'z navbatida, frazeologizmlarning semantik davomiyligini va tildagi metaforik tafakkurning uzviy rivojlanishini ko'rsatadi.

Qinir közün baq- iborasi tilning tarixiy taraqqiyotida psixologik holatlarning jismoniy ko'rinishlar orqali metaforik ifodalanish bosqichini aks ettiradi. Unda ko'z — tashqi idrok a'zosi sifatida axloqiy holatning belgisi, qiyshiq esa me'yordan og'ish, ruhiy buzilish timsoli sifatida namoyon bo'lgan. Shu tarzda ibora qadimgi turkiy tafakkurdagi “to'g'rilik va qiyshiklik” oppozitsiyasiga asoslangan konseptual metaforani aks ettiradi.

كۆنلۈم انار قايىنayu, *Könlüm anar qaynayu,*

ايتىن انار oynayu, *İçtin anar oynayu,*

كەلدې مەنە بويناىu, *Keldi menä boynayu,*

اويناپ مەنى ارىورur. *Oynap meni arıurur.*

Ma'nosi: “Uyda do'stim bilan o'ynaganimda ko'nglim unga jo'sh urdi. U menga g'urur bilan keldi va charchagunimcha men bilan o'ynadi”. Har bir charchagan hayvon uchun ham shu so'z qo'llanadi¹ (DLT, 2025: 129).

Könlüm anar qaynayu frazeologik birligi qadimgi turkiy tildagi emotsional holatning jismoniy tajriba orqali ifodalanishiga asoslangan metaforik birlik sifatida alohida e'tiborga ega. So'zma-so'z talqinda “ko'nglim unga qaynaydi”, ya'ni “unga nisbatan ichimda jo'shqinlik, kuchli tuyg'u paydo bo'ladi” mazmunini bildiradi. Bu yerda asosiy metaforik markazni “qaynamoq” fe'lining ma'no kengayishi tashkil etadi. Qadimgi turkiy dunyoqarashda tuyg'ular ko'pincha jismoniy jarayonlar — issiqlik, alangalanish, qaynash orqali tasvirlangan bo'lib, mazkur iborada emotsiyaning dinamik kuchi “qaynash” hodisasi bilan ifodalangan.

Frazeologizmning konseptual asosida hissiyot = issiqlik / qaynoq holat munosabati yotadi. Mazkur modelda jismoniy jarayonning (qaynashning) intensivligi his-tuyg'ularning kuchayishiga ko'chiriladi. Shuningdek, iborada “köñül” (ko'ngil) insonning ichki olami va hissiy markazi sifatida idishga qiyoslangan: ko'ngil ichida jamlangan his suyuqlik sifatida tasavvur qilinadi, uning qaynashi esa tuyg'uning ortishi va jo'shqinligini anglatadi. Demak, frazeologik birlik tarkibida: “ko'ngil – idish”; “his – suyuqlik”; “kuchli his-tuyg'u – qaynash” kabi konseptual-metaforik moslik kuzatiladi.

Mazkur obraz tuyg'ularning statik holat emas, balki doimiy ruhiy harakat va energiya manbai sifatida talqin etilganini ko'rsatadi. Qadimgi turkiy tilda, shuningdek, keyingi davr yozma manbalarida *o'rtanmoq*, *yonmoq*, *kuymoq*, *qaynamoq* kabi fe'llar emotsional holatni ifodalovchi asosiy semantik markazlardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu leksemalar dastlab jismoniy harorat, alangalanish yoki issiqlik jarayonini anglatsa-da, keyinchalik bunday

¹ Махмуд Кошғарий. Девону луғати-т-турк. Нашрга тайёрловчи ва кириш сўз муаллифи: Қ.Содиқов. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 2017. – Б. 129.

jarayonlar insonning ichki kechinmalariga ko‘chirilgan metaforik ma’noda qo‘llana boshlagan. Natijada ular hisning eng yuqori darajasini, kuchli jo‘shqinlik yoki ichki iztirobni ifodalovchi metaforik birliklarga aylangan.

Mazkur holat klassik turkiy adabiyotda keng uchraydi. Xususan, “yurak yonmoq” tarzidagi ifodalar muhabbat, hasrat va iztirob kabi kuchli hissiy kechinmalarni tasvirlashda qo‘llanib, yurakning jismoniy yonishi bilan ruhiy alanganish o‘rtasidagi metaforik bog‘liqlikni yuzaga chiqaradi. Bugungi zamonaviy turkiy tillarda ham mazkur konseptual asos saqlanib qolgan bo‘lib, “qonim qaynadi” kabi birliklar hissiyotning shiddatli kuchayishiga ishora qiladi.

Demak, issiqlik, alanganish, qaynash kabi jismoniy jarayonlarni ichki holat bilan bog‘lash qadimgi konseptual metafora – *hissiyot = issiqlik / olov / qaynoq holat* modelining barqarorligini ko‘rsatadi. Bu jarayon turkiy metaforik tafakkurda hissiy kechinmalarni fizik kuch va energiya asosida talqin qilish an‘anasining qadimdan davom etib kelayotganligini tasdiqlaydi.

Shunday qilib, “Könlüm anar qaynayu” frazeologizmi qadimgi turkiy metaforik tafakkurning aniq ko‘rinishi bo‘lib, emotsional holatning jismoniy jarayon orqali ifodalanishini, ko‘ngil konseptining idish sifatida talqin qilinishini va hislarning kuchayishi jo‘shqinlik metaforasi orqali ifodalanganini namoyon etadi.

يُوزِينَا أَنْكُ يَشَا يَغْشِبُ *Qoyyaşip yatsa anîñ yüziñä,*
 سُوْزِينَا أَنْكُ أُوْكِنَ السَّقَرُ *Alsîqar ögin anîñ söziñä.*
 أُوْزِينَا بُولُبُ يُلْغَى كِشَى مِنْكَ *Minî kişî yuluñi bolup öziñä,*
 كُوزِينَا أَنْكُ أَدْنُ بِيْرْكَالَرُ *Bergälär ödin anîñ köziñä.*

Aytmoqdaki: “Uning bilan birga yotib, uning yuzlariga boqib, so‘zlarini eshitgan kishi o‘zini yo‘qotadi. Uning husniga ming kishi jon berishga ham rozi bo‘ladi”¹ (DLT, 2025: 136).

Bergälär ödin – “o‘zini bermoq” iborasi shaklan oddiy fe‘lli birikma ko‘rinsada, mazmunan murakkab psixologik va hissiy jarayonni ifodalaydi. U so‘zma-so‘z “o‘zini topshirmoq, o‘zini boshqa birovgga berish” degan ma‘noni bildiradi. Biroq bu “berish” jismoniy harakat emas, balki ichki, ruhiy topshiriq, ya‘ni ko‘ngilni, tuyg‘uni, ixtiyorni boshqasiga bag‘ishlash holatini anglatadi.

Bu ma‘no qadimgi turkiy tildan boshlab shakllangan bo‘lib, *bermoq* fe‘lining metaforik kengayish jarayonida paydo bo‘lgan. Dastlab “bermoq” biror narsa yoki mulkni uzatish, topshirish ma‘nosida qo‘llangan. Ammo inson ongidagi harakat va egalik tasavvurlari psixologik sohalarga ko‘chganida, bu fe‘l ruhiy topshirish, ixtiyorni yo‘qotish, muhabbatda taslim bo‘lish ma‘nosini ifodalay boshlagan.

O‘zini bermoq” frazeologizmi inson va hissiyot o‘rtasidagi munosabatni “egalik – topshirish – ixtiyor” modeli asosida ifodalaydi. Boshqacha aytganda, inson o‘zini boshqasiga “berish” orqali endi o‘ziga tegishli bo‘lgan ichki ixtiyorni

¹ Махмуд Кошғарий. Девону луғати-т-турк. Нашрга тайёрловчи ва кириш сўз муаллифи: Қ.Содиқов. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 2017. – Б. 136.

topshiradi. Bu — muhabbat, mehr, hayrat, hatto ruhiy zaiflik holatini ifodalaydigan metaforik topshiriqdir. Qadimgi turkiy dunyoqarashda “o‘z” — bu shaxsning ichki markazi, ruhi, mohiyati. Uni “bermoq” esa oddiy harakat emas, balki ruhiy topshirish, ichki dunyoni ochish ma’nosidir. Shu jihatdan “o‘zini bermoq” iborasida “ruhiy egilikdan voz kechish”, ya’ni irodaviy taslim bo‘lish konsepti mavjud.

“O‘zini bermoq” frazeologizmi — tilning metaforik taraqqiyotini aniq aks ettiruvchi qadimiy birlikdir. Unda bermoq fe’li jismoniy topshirishdan ruhiy bag‘ishlashga o‘tgan, “o‘z” esa inson mohiyatining markazi sifatida irodaviy taslim bo‘lish ramziga aylangan. Bu birlik tildagi metaforik tafakkur va semantik evolyutsiyaning uzviyligini ko‘rsatadi: qadimiy “özin bermoq” ifodasi bugungi *ko‘nglini berib qo‘ymoq, jonini berdi, o‘zini bag‘ishladi*” kabi ifodalarda yashab kelmoqda. Shunday qilib, “o‘zini bermoq” qadimgi turkiy tildan boshlab hozirgi o‘zbek tiligacha davom etayotgan ruhiy bag‘ishlanish metaforasining tarixiy yadrosidir.

Asardagi maqollar tarkibida ham frazeologik birliklar uchrab turadi: *Köp sügütkä quş qonar, körklüg kişikā söz kelir*. Ma’nosi: “Sershox daraxtga qush qo‘nadi, yaxshi kishiga so‘z [maqto‘v] keladi”¹.

söz kelir birikmasi qadimgi turkiy tildagi frazeologik birlik bo‘lib, so‘zma-so‘z “so‘z keladi” ma’nosini anglatgan holda, metaforik qo‘llanishda “maqto‘v, shuxrat topmoq, odam haqida gap yurmoq” mazmunida ishlatiladi. Bu yerda *so‘z* leksemasi oddiy nutq jarayonini emas, balki ijtimoiy e’tirof, hurmat va obro‘tushunchalarini ifodalovchi konseptual birlikka aylangan. Xuddi shuningdek, *kel-fe’li* ham o‘zining harakat ma’nosidan kengayib, “yetib bormoq, xalq orasida tarqalmoq, eshitilmoq” kabi semantik komponentlar bilan boyigan.

Ushbu birlikning metaforik-konseptual asosida quyidagi model kuzatiladi: *so‘z – e’tibor / maqto‘v / obro‘; kelmoq – tarqalmoq / yetib bormoq / paydo bo‘lmoq*.

Maqolda qushning daraxtga qo‘nishi bilan maqto‘vning yaxshi inson tomon “kelishi” o‘rtasida badiiy-parallel munosabat yaratiladi. Qush go‘zal, shox-shabbasi ko‘p daraxtni tanlagani kabi, e’tirof ham fazilatli insonga “ko‘chadi”, ya’ni uning nomi el orasida tarqaladi. Shunday qilib, tabiiy hodisa asosida ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar ifodalanadi. Bu esa qadimgi turkiy tafakkurning metaforik tabiatini, uni jamiyatga yo‘naltirilgan konseptga aylantirish jarayonini yoritadi.

Mazkur model keyingi davrlarda ham uzviy davom etib, o‘zbek xalq og‘zaki ijodi hamda mumtoz adabiyotda muhim semantik qolip sifatida saqlangan.

Qadimgi turkiy tildagi “**söz kelir**” birikmasi bugungi o‘zbek tilida semantik jihatdan o‘xshash, lekin emotsional bahosi o‘zgargan ko‘rinishlarda davom etadi.

¹ Махмуд Кошғарий. Девону луғати-т-турк. Нашрга тайёрловчи ва кириш сўз муаллифи: Қ.Содиқов. – Тошкент: Гафур Ғулом, 2017. – Б. 169.

Masalan, hozirgi tilda ishlatiladigan **“gap tegdi / gap tegmaydi”** iboralari ham konseptual asosda **so‘zning subyektga yetib borishi, unga ta’sir qilishi** metaforasiga tayanadi. Bu yerda **“gap”** ham jismoniy obyekt sifatida tasavvur qilinib, **“kelmoq, tegmoq”** kabi harakat fe’llari bilan bog’lanadi.

Shunga ko‘ra, qadimgi **“söz kelir”** – ijtimoiy e’tirof va maqtoovning **“yetib kelishi”**ni bildirsa, zamonaviy **“gap tegdi”** shakli odatda **tanqid, malomat, mish-mish** kabi negativ mazmunning **“yetib borishi”**ni anglatadi. Biroq ikkala holatda ham **til konseptuallashuvi bir xil kognitiv modelga – so‘z/gap – subyektga yetib boradigan obyekt** metaforasiga tayanadi.

Demak, **“söz kelir”** iborasi qadimgi turkiy tilning **metaforik tafakkur tizimida** shakllangan bo‘lib, **jismoniy harakat – ijtimoiy baho** yo‘nalishida semantik kengayishga ega. Mazkur frazeologizm tarixiy jarayonda barqaror qo‘llanib, ijtimoiy e’tirof konseptini ifodalovchi muhim ko‘rinish sifatida hozirgi til tafakkurida ham faol yashamoqda. Bu hol tilning diaxron taraqqiyotida **metaforik konseptlarning uzluksizligi** va qadriyatlarni ifodalashda muhim vosita bo‘lib qolayotganini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, **“Devonu lug‘ati-t-turk”** tarkibida uchraydigan frazeologik birliklar qadimgi turkiy tildagi til boyligining eng muhim qatlamlaridan birini tashkil etadi. Ushbu birliklar nafaqat lug‘aviy birlik sifatida, balki semantik yaxlitlikka ega bo‘lgan, nutq jarayoniga tayyor holda kiradigan ma’no konstruksiyalari sifatida o‘sha davr til madaniyatini aks ettiradi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, frazeologizmlar tarkibida jismoniy harakat, tana a’zolari, fazoviy yo‘nalish va tabiiy jarayonlarga doir birliklar axloq, ijtimoiy munosabat, ruhiy holat kabi abstrakt mazmunlarni ifodalashda markaziy vosita bo‘lgan.

Frazeologik birliklarning asosida yotgan metaforik semantika ularga ko‘chma, kengaygan va chuqurlangan ma’no yuklaydi. **“Turmoq”, “qaynamoq”, “bermoq”** kabi fe’llarning metaforik o‘zgarishi barqarorlik, sodiqlik, jo‘shqinlik, bag‘ishlanish kabi tushunchalarni ifodalashga xizmat qiladi; **“bosh”, “ko‘z”, “ko‘ngil”** kabi leksemalar esa insonning ruhiy va ijtimoiy holatini ifodalovchi konseptual markazga aylangan. Jismoniy harakatdan ruhiy holatga o‘tish, fazoviy belgilardan axloqiy baholashga o‘tish kabi jarayonlar bu iboralarning ma’nosini konseptual jihatdan chuqurlashtirgan.

Frazeologik birliklarda aks etgan bunday metaforik modellar qadimgi turkiy tafakkur haqida muhim ma’lumot beradi. Unga ko‘ra, inson borlig‘i, hissiyoti, irodasi ko‘pincha jismoniy jarayonlar orqali idrok etilgan; ichki kechinmalar, jamiyatdagi munosabatlar issiqlik, fazo, og‘irlik, bosim kabi fiziologik yoki fazoviy kategoriyalar orqali ifodalanagan. Bu holat qadimgi turkiy dunyoqarashda konseptual tafakkurning jismoniy tajriba asosida shakllanganini ko‘rsatadi. Shu jihatdan, frazeologizmlar tildagi metaforik tafakkurning tarixiy asoslarini yoritib beradi va xalq mentalitetini, qadriyatlarini, ijtimoiy munosabat mezonlarini tadqiq etishda muhim manba vazifasini bajaradi.

Umuman olganda, “Devonu lug‘ati-t-turk” dagi frazeologik birliklarning semantik va metaforik qatlamlarini tahlil qilish ularning qadimgi turkiy tafakkurning semantik yadrosini tashkil etishini ko‘rsatadi. Ushbu birliklar hozirgi o‘zbek tilidagi ko‘plab iboralar bilan semantik jihatdan uzviy bog‘liq bo‘lib, til taraqqiyotining izchilligini, metaforik modelning barqarorligini va madaniy xotiraning davomiyligini namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Doğan Aksan. Göktürk yazıtlarında söz sanatları güçlü anlatım yolları // Türk dili araştırmaları yılığı – Belleten. Cilt 38. – İstanbul, 1990.
2. Lakoff George, Jhonson Mark. Metaphors we live by. – Chicago: University of Chicago press, 1980.
3. Langacker R. Concept, image and symbol. – Berlin-New York: Mouton de Gruyter, 1991.
4. Rahmatullayev Sh. va boshqalar. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. – T.: G‘afur G‘ulom, 2022.
5. Sodiqov Q. Qutadg‘u bilig so‘zligi. – T.: Akademnashr, 2020.
6. Talat Tekin. Türkoloji Eleştirileri. – Ankara: Simurg, 1997.
7. Алишер Навоий. Бадойиъ ул-бидоя. Мукаммал асарлар тўплами. – Т.: Фан, 1987.
8. Маматов А. Ҳозирги ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари. – Т.: Академнашр, 1991.
9. Махмуд Кошғарий. Девону луғати-т-турк. Нашрга тайёрловчи ва кириш сўз муаллифи: Қ.Содиқов. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 2017.
10. Содиқов Қ. Эски туркий битиглар. – Т.: ТошДШИ, 2009
11. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002.

**“Alp Er To‘nga (Afrosiyob) avlodlari Qoraxoniylar: Turkiy dunyo va Islom olami Qoraxoniylar davrida” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman
REZOLYUTSIYASI**

Turkiy uluslar va ularning davlatchiligi takomilida Qoraxoniylar davlati favqulodda muhim o‘rin tutadi. Bu sulola hukmronligi Turon tuproqlarida dastlab VIII yuzyillikning 40- yillaridan boshlab Turk xoqonligining uzviy davomi o‘laroq Qarluq davlati sifatida keyinchalik, qarluq, chigil, yag‘mo qabilalari singari o‘nlab turkiy urug‘larni birlashtirgan, markazlashgan turkiy imperiyani barpo etib, o‘zlarini “Qoraxon” - ya‘ni “Buyuk xon” deb atashgan.

Ularning hukmronligi IX–XIII asrlar mobaynida Sharqdagi uyg‘onish – birinchi renessans davriga to‘g‘ri kelib, unda davlat boshqaruvi, mafkura, din, xalqaro munosabatlar, me‘morchilik, shaharsozlik, ilm-fan va ta‘lim rivojlangan.

Ayniqsa, turkiy til yuksak maqomga ko‘tarildi. Yusuf Xos Hojib, Mahmud Koshg‘ariy, Ahmad Yassaviy, Ahmad Yugnakiy, As-Saraxsiy kabi buyuk allomalar o‘lmas asarlar yaratdi. Qoraxoniylar davrida amalda bo‘lgan xoqoniya turkchasi adabiy tili barcha turkiy xalqlar uchun o‘rta turk tili vazifasini o‘tab berdi; keyingi davr turkiy tillarining rivojida yuksalish nuqtasi bo‘lib xizmat qildi.

Anjuman maqsadlaridan kelib chiqib quyidagi vazifalar ustuvor etib belgilansin:

Qoraxoniylar davri barcha turkiy ellarning turkshunoslari uchun umumiy tarix, mushtarak yozma meros, turkiy davlatchilik o‘tmishini o‘rganish jihatdan cheksiz, adog‘siz manba bo‘lib xizmat qilishi e‘tiborga olinib, ushbu yo‘nalishda tadqiqotlarni olib borish Turkiy davlatlar tashkiloti (TDT)ga kiruvchi mamlakatlarning turkshunoslari uchun ustuvor vazifalardan biri sifatida e‘tibor qaratilsin.

Alp Er To‘nga (Afrosiyob) avlodlari Qoraxoniylar: Turkiy dunyo va Islom olami Qoraxoniylar davrida” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumanning turkiy o‘zlikni shakllantirishdagi ahamiyatidan kelib chiqib har ikki yilda bir marotaba an‘anaviy ravishda o‘tkazib borish choralari ko‘rilsin (*mas‘ul TDT*).

Qoraxoniylar davri tarixi, davlatchiligi, boshqaruvi, ilm-fani, madaniyati, til va adabiyoti, yozma yodgorliklarini tadqiq etish bo‘yicha ustuvor mavzulardan kelib chiqib hamkorlikda ilmiy loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha aniq takliflar Turkiy davlatlar tashkiloti (TDT) kotibiyatiga yuborilsin (*mas‘ul TDSHU*).

Qoraxoniylar davri tarixi va madaniy merosni ommalashtirish orqali turkiy davlatlardan sayyohlarni jalb qilish hamda u bilan bog‘liq maskanlarni “Tabarruk ziyorat” loyihasiga qo‘shish va bunday maskanlarning elektron xaritasini yaratishda inobatga olinsin.

Ulugʻvor turkiy davlatchilik tarixining teran ildizlarini chuqurroq anglash va ilmiy asosda toʻlaonli oʻrganish ehtiyojidan kelib chiqib Turon-Turkiston davlatchiligi asoslarini qurgan va uni yuksaltirgan turklarning yovqur oʻgʻloni, buyuk davlat arbobi, siyosiy iqtidor egasi Alp Er Toʻnganing faoliyati va amalga oshirgan ishlari masalalariga bagʻishlangan kelgusida xalqaro anjuman oʻtkazish taklifi ilgari surilsin (*masʼul TDT, TDSHU va TDXU*).

Anjuman doirasida oʻtkazilgan Alp Er Toʻnga shaxsiyati va faoliyatiga bagʻishlangan soha boʻyicha yetakchi mutaxassislarning davra suhbat natijalariga koʻra Alp Er Toʻnga timsolini mintaqaning turizm brendiga aylantirish hamda Buxoro shahrida unga atalgan yozuv lavhasi (bitig tosh) oʻrnatish yuzasidan TDT kotibiyati tavsiyasiga koʻra TDSHU olimlari va OʻzR FA mutaxassislari hamkorlikda yaratgan ilovadagi matnning oʻrin olishi tavsiya etilsin.

Anjuman tashkiliy qoʻmitasi va qatnashchilari